

**ABDULLAYEVA SH.A., RO'ZIYEVA D.I.**

**PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA  
VA KORREKTSIYA**

5A110901 - Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo'yicha magistrantlar uchun

**DARSLIK**

**TOSHKENT - 2019**

**Mualliflar: Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyeva D.I.**

Taqrizchilar:

pedagogika fanlari doktori, professor **Xodjayev B.X.**,

pedagogika fanlari dokton, professor **Maruonav Sh.O**

*Mazkur darslik pedagogika oliygoHari 5A110901 - "Pedagogika nazariyasi va tarixi" ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan magistrantlar uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim davlat standartlari\_\_asosida tuzilgan. Unda ixtisoslik fant «Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya» bo'yicha o'quv rejada ko'rsatilgan «Pedagogik diagnostikaning ilmiy-nazariy asoslari», uPedagogik diagnostika o'tkazish yo'llari va keng qo'llaniladigan metodlari», "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik tashxis qilishning mazmuni», «Korreksion tadbirlar»ga xos hamda turli pedagogik treninglami o'tkazish bo'limlariga monand mavzular kiritilgan:*

## SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi orqali insonning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri - ta'lim ehtiyojlarining qondirilishi har jihatdan yoshlarning qobiliyatlari va imkoniyatlarini, o'ziga xos individual xususiyatlarini o'rganishni, yo'naltirishni va rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli pedagogik amaliyotda o'quvchi -yoshlarning rivojlanish darajasini hamda ularning intellektual qobiliyatlari va boshqa sifatlarini tezkor diagnostika qilishga talab ortib bormoqda. Bolaning shakllanish jarayonini, uning aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini va tafakkur qobiliyatini bilmasdan turib, ta'lim-tarbiyajarayonini samarali tashkil etish mushkuldir.

Abdulla Avloniy «Pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, awalambor uni har tomonlama o'rganishi kerak\*», - degan fikri ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostikaning qanchalik muhimligini ko'rsatib turibdi. Shu jihatdan olganda, jamiyatimizdagi yoshlarni o'qitish va tarbiyalashda optimal uslub va vositalardan foydalanish lozim.

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyaviy avlodda jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqodni, axloqiy malaka va ko'nikmalarni, ehtiyoj va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat. Tarbiya bilan shug'ullanadigan har bir tarbiyachi birinchi navbatda o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadni aniq tasavvur etishi, bu maqsadning muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish zarur, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur. Bunda pedagogik diagnostika katta ahamiyatni kasb etadi.

Pedagogik diagnostika - bu pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida sotsiologik, ekologik va ijtimoiy -psixologik sotsiologiya hamda har bir

shaxsga ta'sir ko'rsatishi haqidagi axborotlar majmuyi kabi bilish jarayonining tashkiliy qismidir.

Respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning bugungi holati uziuksiz ta'lim tizimi ishtirokchilari: o'qituvchilarning o'zaro munosabatlarga kirishishi, pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish yo'llarini o'rganishni, umumiy o'rta ta'lim maktablari, litsey, kollej o'quvchilari, oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchi talabalarining qobiliyatlari, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish hamda tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish yo'llari, vositalarini aniqlash, ta'lim-tarbiyaviy bosqichlararo uning uzviylik va uzluksizligini ta'minlaydigan metodikani yaratish, o'quv jarayonini tashkil etish hamda mazmunini boyitish zarurligini krsatadi.

Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o'z qobiliyat va iste'dodini yaxshiroq ro'yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo'shilishga yordam berishdan iboratdir.

Ushbu darslik pedagogik diagnostika va korreksiyaning predmeti va tarixiy rivoji; o'quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika va korreksiyaning o'zmi; pedagogik diagnostika va korreksiya metodlari tasnifi; o'quvchi shaxsi rivojini tashxis etish va korreksiylash metodikasi kabi masalalarni o'z ichiga qamrab olgan. Shu jihatdan mazkur darslik kelajakda pedagogika sohasida faoliyatini tashkil qiladigan magistrantlar uchun zaruriy manbabo'lib hisoblanadi.

Magistratura ta'lim bosqichini tugallagan magistrantlar kelgusida ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadilar. Magistrantlarni pedagogik jarayonni tashxis etish va korreksiylash hamda diagnostik-korreksion faoliyatni samarali tashkil etishlarida mazkur fan muayyan darajada xizmat qiladi

Fanni o'qitishdan maqsad - magistrantlarni o'quv-tarbiya jarayonini tashxis etish va korreksiylash hamda diagnostik-korreksion faoliyatga tayyorlash.

Fanning vazifasi - magistrantlarni pedagogik diagnostika va korreksiyaning funksiyalari, tamoyillari va umumiy metodlari bilan tanishtirish, ular asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlash; pedagogik jarayonni tashxis etish va

korreksiyalash ko'nikmalarim shakllantinish; pedagogik jarayonni tashxis etish va korreksiyalash metodikalarini samarali qo'llashga o'rgatishdan iborat.

“Pedagogik diagnostika va korreksiya” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistrant:

- pedagogik diagnostikaning mohiyati, predmeti va funktsiyalari,
- pedagogik diagnostikaning obyektlari;
- diagnostik tadqiqotlarning tuzilishi;
- pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq etishning umumilmiy tamoyillari;
- diagnostik tadqiqotlarni o'tkazishga qo'yiladigan talablar;
- korreksion faoliyatning mazmuni va mohiyati;
- koneksion faoliyatning asosiy tamoyillari haqida bilimga ega bo'lishi;
- diagnostik ma'lumotlarni to'plash, o'lchash va qayta ishlash;
- pedagogik testlarni ishlab chiqish;
- o'quvchilarni aqliy va axloqiy rivojlanish darajalarini tashxis etish;
- o'quvchi shaxsining kasbiy yo'nalganligini tashxis etish;

-korreksion faoliyatning umumpedagogik va maxsus metodlarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- o'quvchilarning kasbga yo'nalganligini tashxis etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- pedagogik diagnostika asosida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish;
- diagnostik-korreksion faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish malakalariga

ega bo'lishi kerak

Darslikda keltirilgan tashxislash va xulq-atvordagi nuqsonlarni bartaraf etish metodikasidan amaliyotda foydalanilmoqda. Keltirilgan xulosalar, tavsiyalar oila o'quv dargohlari magistrantlari, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar, shuningdek pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya masalalari bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

# 1-BOB. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING METODOLOGIYASI

## mavzu. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING PREDMETI VA TARIXIY RIVOJI

**Pedagogik diagnostikaning shakllanish va rivojlanish tarixi.** O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlamini o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, ehtiyojning xususiylikdan umumiylikka o'sib o'tishining qondirilishi har jihatdan o'quvchi va talabalar qobiliyatlari, iste'dodlarini, ichki imkoniyatlarini, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishni, shuningdek rivojlantirishni talab etadi.

**Diagnostika** - (*ytinon lilida: «dia» - «shafufofo, «gnozifo»-«bilim»* degan ma'noni bildiradi) o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

«**Pedagogik diagnostika**» atamasi birinchi bor 1968 yili nemis olimi Karlxaynts Ingenkamp tomondan fanga kiritildi

Pedagogik diagnostika yordamida jamiyatdagi ma'naviy-ma'rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta'lim-tarbiyaning kafolatlangan natijalari aniqlanadi. Tashxislashda nafaqat ta'lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasi ham kuzatiladi, mavjud kamchiliklar bartaraf etiladi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika har bir rejali o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, o'quvchi materialni qanday o'zlashtirayotganini doimo kuzatib borishga, tarbiyaviy jarayondagi muammolarning yechimini topishga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostika yordamida o'quv - tarbiyaviy jarayonda tug'iladigan qiyinchiliklar o'rganiladi, ularni bartaraf etish yo'llari tashkil etiladi.

Agar diagnostika (tashxis)ning ahamiyatini tibbiyot sohasi nuqtayi nazaridan qarasa, kasallik, uning belgilari va uni kelib chiqish sabablarini to'g'ri aniqlansa,

davolanish natijasida bemoming tuzalib ketishiga imkon yaratiladi Xato diagnoz esa faqat shifokorlaming harakatini yo'qqa chiqarib qolmay, kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin Tana salomatligi to'g'risida aytilgan shu fikrlar ruhiy sog liqqa ham xuddi shunday aloqadordir. Shuning uchun diagnostika yuksak malaka va javobgarlikni talab qiladigan faoliyatdir.

Insonning jismoniy rivojlanishini tashxis qilish ancha oson. Buning uchun bir qator mashqlar bajarilgach, uning natijasiga qarab xulosa chiqarish mumkin.

Lekin ruhiy ma'naviy, intellektual, ijtimoiy rivojlanishni diagnoz qilish ancha mashaqqatli. Bu maqsadda qo'llanayotgan metodikalar hali ancha murakkab bo'lib, har doim ham to'g'ri natija beraveradi, deb bo lmaydi. Pedagogik amaliyotda o quv maskanlari pedagog-psixologlari va o'qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini oTganadilar, lekin bu natijalarga qarab, rivojlanishning barcha komponentlariga umumiy baho berishga har doim ham musharraf bo' la olganlaricha yo' q

Rejali va maqsadli o'qitish va tarbiyalash jarayonida natijalami aniqlash zaruriyati pedagogik diagnostikani vujudga keltirgan. Albatta o'z ibtidosida bu natijalar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan.

Bir qator tadqiqotchi olimlar (G. Royleke, R. Rollet, K. Leongard, A. Bass. ELichko, A. Shmelev) pedagogik diagnostikani-«pedagogik faoliyatni qulaylashtirishda zarur bo' lgan axborotni qo'lga kiritish jarayoni»-deb ta'kidlaydilar.

X. Feger, N. Petillon, V. Bogatskiylar “...pedagogik diagnostika psixologik diagnostikadan ajralib chiqqan” - degan fikmi ilgari surishadi.

Pedagogik diagnostikaning rivojlanish nazariyalarini 3 davrgaboTish mumkin

Birinchi: davr qadimgi allomalar qarashlaridan e'tiboranXXI asrgacha davom etgan tadqiqot nazariyalari davri Bu davmi filsafiv-adabiv davr deyish mumkin. Bu davrda insonning axloqiy, ijtimoiy tabiatiga taalluqli muammolami o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi.

Sfluning uchun ham shaxsni awalgita'riflari ancha keng ma'noga ega edi. Buta'rifda nimaiki inson shaxsiga taalluqli boTsa uning biologiyasi, psixologiyasi, xulqi, madaniyati ma'naviyati vaboshqalar kiritilgan edi.

Ikkinchi davr XIX asming oxirlaridan XX asming ikkinchi yarmigacha davomdavrmi o'z ichiga oladi YA'ni, bu davrda pedagoglar shaxs kamolotini o'rganish va tadqiq etishga o'z hissalarini qo'shgan davr hisoblanadi. Chunki bu davrda inson shaxsini klinik sharoitlarda tadqiq qilish uchun tekshiruvlar olib borildi. Jumladan, bu davrda shaxsgataalluqli *introversiya*, ya'ni o'zining ichki muammolariga sho'ng'ib o'zi bilan o'zi bo'lish va atrofdagi hodisotlarga diqqatning susayib ketishi), *ekstroversiya*, ya'ni insonni o'rab olgan muhit atrofga ongning qaratilganligi va shu bilan band bo'lib, o'ziga nisbatan diqqatning susayishi), hayajonlanish, insondagi yuqori darajadagi halovatsizlik xususiyati, ma'lum psixologik ijtimoiy vaziyatlarda qo'rquv va hayajon hissiyotlari, rigidlik (tafakkurning tormozlanishi, ya'ni bir marta qabul qilingan hukm yoki fikrlash va harakat usulidan voz kechishning qiyin holati) tormozlanganlik (qo'zg'atuvchilarga qarshi harakatning susayib ketishi), uyg'onganlik holati (qo'zg'atuvchilar ta'sirida yuqori darajada qo'zg'alganlik va uning izlarining ma'lum vaqtgacha qolishi) kabi psixologik holatlar o'rganildi. Lekin bu davrda shaxsning ijobiy hislatlari, qobiliyatlari, madaniy, ma'naviy, va shunga o'xshash bir qator fazilatlarini o'rganish diagnostikasi rivojlanmadi.

Keyingi davr (XX asming ikkinchi yarmi-XXI asr boshlari) *eksperimental davr* bo'lib, bu davrda nemis pedagog olimi Karl Xayns Ingenkampf hamda inglizlik psixolog **R.Kettel** shaxsning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishini o'rganishga e'tibor qaratdilar. Rossiyada shaxsni eksperimental tadqiq qilish borasida AF Lazurskiy tizimli ravishda shaxsni ilmiy kuzatuvlar texnikasi va metodikasini, I.S. Kon, RSNemov, P Podlasiy, LRogov shaxsning intellektual darajasini o'rganish, o'qituvchi diagnostikasiga oid metodikalarni ishlab chiqdilar. G Ayzenk kuzatuv, so'rovnoma hujjatlar tahlillarini matematik ishlab chiqish usullarini yaratdi. GOLloport shaxs xususiyatlarini nazariyasiga asos soldi. RKettel esa G.Ayzenk yaratgan matematik apparatni shaxs xususiyatlari nazariyasiga qo'llab, uni eksperimental o'rganishga xizmat qiluvchi faktorli tahlilni yaratdi. U shaxsning xususiyatlarini belgilovchi faktorlar va xususiyatlarini aniqladi va tartibga soldi. Klngenkampf, Inga Xartmanlar pedagogik diagnostika doirasida shaxsni o'rganish



testlarini ishlab chiqdilar R Kettel o'zining nomi bilan 16 faktorli “ Kettel testi”, G Ayzenk “Ayzenk testi”, Rorshax “Rorshax testi” larini yaratishdi

*Bugungi kunda Ya. Yirasek, A. Kem yoshlarning bilim olishga moyilliklarini aniqlovchi oriyentatsion testlari, D.B.Elkoninning «Grafik diktant»i, ALVengeming «Nuqtalar bo yicha chizish», I. Shvansaming «Aqliy rivojlanishni diagnostika qilish» kabi metodikalari mashhurdir.*

Nemis olimi Mauermannning yozishicha: «Pedagogik diagnostika o'zlashtirish va o'quv jarayoniga tayyorgarlik o'rtasida aloqa o'matadi, o'quv jarayonida kechadigan o'quv maqsadini to'g'ri belgilaydi va o'quv-tashkiliy shakllarni sharoitga mosligini bahoiyadi ‘».

K. Klauer pedagogik diagnostikaga ta'rif bergan bir qator olimlarni tanqid ostiga olib, shunday fikrlarni bildiradi: «Pedagogik diagnostika (tashxislash) vazifalarini bir paytning o'zida amalga oshirish mushkul. Pedagogik diagnostika dolzarb pedagogik qarorlarni, hukmlarni chiqarishga bo'lgan urinishlar majmuyidan iborat»

Rus olimi V. I. Zverev: «Pedagogik diagnostika-bu turli pedagogik vaziyatlarni o'rganish, aniqlash, ta'lim tizimi qatnashchilarining xilma-xil qobiliyatlari darajasini bilishdan iborat jarayondir<sup>1 2 3</sup>», - degan fikrini iigari suradi. Boshqa rus olimasi L. Denyakina: » Pedagogik diagnostika-bu pedagogning o quv-tarbiyaviy jarayonni tashxislashda individual-malakaviy sifatlarini belgilovchi, shaxsning ijodiy taraqqiy topishida ko makchi, pedagogik jamoaning muvaffaqiyatini oshiruvchi faoliyatdir. Pedagogik diagnostika o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, mazmunini boyitish va attestatsiya uchun qo'llaniladi» -deb yozadi.

Ko'rib turganimizdek, pedagogik diagnostika atamasiga bugungi kunda ko'plab tariflar uchraydi. Barcha tavsiflarni umumlashtirib quyidagicha fikr bildirish mumkin: **pedagogik diagnostika**-pedagog shaxsning va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini o'rganish, tahlil qilish, samaradorligini oshirish jarayonidir.

---

<sup>1</sup> Mayermann B. Diagnostik in der Schule. - Berlin, 1996, 112 p

<sup>2</sup> Klauer K.. Personlichkeitsforschung und diagnostik-Berlin, 1990-24 p.

<sup>3</sup> Denyakina JI.. Diagnostika-dvijushaya sila pedagogicheskogo kollektiva. Moskva: Universitet, 2010-C.-46.

Bugun biz tanxiy bir davrda - xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar quyib, tinch-osoysishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va ochiq fuqorolik jamiyat qurish yo'lida ulkan natijalami qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Mustaqilligimiz tufayli xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va faravon hayotni barpo etayotgan, erishayotgan yutuqlanmizni xalqaro hamjamiyat tan olayotgan bir davrda jamiyatimizdagi yoshlami tarbiyalashda ma'naviy meros va qadriyatlanmizga suyanib, optimal uslub va vositalardan foydalanishimiz lozim. Demak, har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsm tarbiyalash pedagogikaning azaliy maqsadlariga mos kehshi bilan tavsiflanadi. Shunday ekan, bugungi kunda har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish, ulami komil inson qilib tarbiyalash pedagogikaning eng dolzarb muammolari qatoridagi masalalardan biri bo lib qoladi.

**Sharqda pedagogik diagnostika elementlarining qo'llanilishi.** Sharqda pedagogik diagnostika elementlari qo'llanilganligidan guvohlik beruvchi manbalar mavjud. «Avesto» ta'limoti, “Qur'oni Kanm» saboqlari, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy (810-970), Abu Iso Muhammad ibn Iso at- Termiziy (824-892) kabi Hadis ilmining ulug'lari, tasawuf ilmi (sufiylik tariqati)ning namoyondalari: Bahovuddin Naqshbandiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najrruddin Kubro kabi olimu fuzalolar komil inson to'g'risidagi g'oyalari bilan Sharqda ta'lim -tarbiya jarayonining rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Ulaming ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida pedagogik diagnostika elementlarini xam uchramiz. Xususan, ushbu olimlaming ta'hmotlarida “ustoz-shogird” munosabatlarim o'rganish va tadqiq qilish, ilm o'rganish borasida yoshlaming aqliy qobiliyatlarini tashxislash va rivojlantirish, ulami kasb tanlashlari uchun imkoniyatlari va qobiliyatlanni diagnostika qilish masalalari o'zifodasini topgan.

Sharq Uyg'onish davrining 1-bosqichida yashab, ijod etgan Abu Nosir Farobiy (789-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (937-1051), Kaykovus (XI asr), Ahmad YUgnakiy (XI asr), Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) kabi allomalar ta'limotlarida xam ilm o'rganish, tarbiya masalalarini hal qilishda

yoshlarning ichki qobiliyatlarini tashxislash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Sharq Uyg'onish davrining 2-pallasida yashab, ijod etgan o'zbek badiiy tilining asoschisi, buyuk davlat arbobi Mir Alisher Navoiy o'ziningtarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan noyob asarlari, dostonlari, she'riyat olamidagi mulki merosi bilan insonshunoslik to'g'risidagi fanning shakllanishiga zamin yaratgan bo'lsa, ilmiy tafakkur va falakiyot ilmi sohasida yetuk dunyoqarash sohibi Mirzo Ulug'bek ma'rifiy qarashlan, Zahiddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ma'rifatparvarlar o'zlarining o'lmas ijodiyoti bilan pedagogika taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida zamonaviy pedagogik diagnostika sistemasida muhim o'rin tutuvchi omil o'z-o'zini tarbiyalash masalasining mohiyatini yoritadi. Bu borada bildirilgan fikr mazmuniga ko'ra, bolaning o'zi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini o'zi anglab olishi hamda ulami bartaraf etish uchun imkoniyat yaratish zarur. Mutafakkimning e'tirof etishicha, kimki bu borada yaratilgan imkoniyatdan to'g'ri foydalansa, o'z xatosini anglay oladi va uni bartaraf etishga harakat qiladi; kimki yo'l qo'yilgan xatoni anglash va uni to'g'rilashga harakat qilish o'miga turli bahonalarni ro'kach qilaversa, xatolari yana bittaga oshishi uchun shaxsan o'zi sharoit yaratadi Keltirayotgan bahonasi qancha ko'p bo'lsa, xatosi shunchalik katta ko'rinadi, kamchilikning mavjud ekanligini ko'rsatgan kishi bilan tortishish qancha kuchli bo'lsa, el oldida umng obro'si shunchalik pasayadi.

Mutafakkimning ilm olish yo'llari xususidagi qarashiari ham muhim ahamiyatga egadir. Alisher Navoiy: “ bilimlarni tinmay, uzluksiz o'rganish zarur, deydi. Bu yo'lda duch keladigan har qanday qiyinchilikni yengib o'tish, xatoliklarni bartaraf etish, mumkm”<sup>1</sup>” deb hisoblaydi Aniq hayotiy maqsadni belgilab olgan holda ana shu maqsadning ro'yobga chiqishi yo'l da qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, bu yo'nalishda olib borilayotgan harakatni oxiriga etkazishda chidamii, matonatli va sabotli bo'lishni maslahat beradi

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida inson kamolotida tarbiyaning o'mini alohida ta'kidlab, «Janobi Haq insonlarning asl

---

<sup>1</sup> Anwmep HaHowfi TamuHran acapjiap. 5- MUW-ToiDKeHr KowycJiap 6om raxwpwnjiTH, 1999.-492 6ct.

xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomoni, foyda ila zarami, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni kulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoyi odam bo'lib chiqadi<sup>1</sup>-deb ta'kidlaydi.

Sharqda pedagogik diagnostika elementlarini qo'llashda insonni voyaga yetkazish masalalariga jiddiy e'tibor berilgan. Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Xalq pedagogikasida tarbiyaning turli uslublaridan foydalangan. Bu uslublar nihoyatda rang - barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogika va pedagogik diagnostikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Sharqda pedagogik diagnostika elementlari quyidagi tarbiya metodlari zamidida qo'llanilgan:

- 1) **Tushuntirish:** maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'mak bo'lish.
- 2) **Nasihat berish:** o'g'it, undash, ko'n dirish, iltimos qilish, oq yo'l tilash, yaxshiliklar haqida so'zlash, rahmat aytish, duo qilish.
- 3) **Namuna bo'lish:** maslahat so'rash, o'mak bo'Tish.
- 4) **Rag'bat va jazo:** maqtash, olqishlash, tasanno aytish; ta'kidlash, ta'na - gina, tanbeh bersh, uyaltirish va boshqalar.

Sharqda pedagogik diagnostika elementlari - an'analar, udumlar, rasm-rusumlar zamidida ham namoyon bo'lgan. Bunda yosh avlodni aqliy rivojlantirish<sup>1</sup> bilim, ilm, malaka, ko'n ikmaga ega bo'Tish, axloqli qilib tarbiyalash: axloq, odob, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va boshqa fazilatlarini shakllantirish; mexnat tarbivasi: faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilamonlik; aqliy ish, jismoniy mexnat; jismoniy tarbiya: chiniqish, jismoniy o'yinlar; nafosat tarbiyasi: go'zallik, kiyinish madaniyati, muomala madaniyati, saranjom-sarishtalik; ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, flora va faunaga

---

<sup>1</sup> Avloniy Abdulla Turkiy guliston yoxud axloq-Toshkent: Fan, 1994.

soglom yondashuv; iqtisodiy tarbiya: tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik, tadbirkorlik; huqo'qiy tarbiya: insonparvarlik, burch, vijdon, tenglik, adolat, to'g'rilik, xalollik kabi tushunchalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratilgan. Demak, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalarda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishga alohida ahamiyat qaratilgan bo'lib, ularni o'rganish va ulardan foydalanish buyuk ma'naviyatimizni asrashga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika rivoji** Bir qator olimlar: Klauer, Ingo Xartman, Karxaynts Ingenkamp, Linert, Frikelaming pedagogik diagnostika psixologik diagnostika zamirida tug' ilganligini ta'kidlashlari, albatta o'rinsiz. Bir paytlari psixologik diagnostika biologiya va tibbiyotning tashxis modellarni andoza qilib olgani kabi pedagogik diagnostika ham zarur bo'lganda psixologik ilmiy-tadqiqot metodlardan o'z o'mida foydalandi.

Jahon pedagogikasida “ta'lim”, «tarbiya» atamaları keng qamrovlidir. “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimiz safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo qotsak, bu o ta muhim ishni o'z muhim ishni o z holiga, o zibo larchilikka tashlab qo yadigan bo lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizda ayrilib, oxir oqibatda o zimiz intilgan umumba umumbashariy taraqqiyot yo lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin<sup>1</sup>”. Keltirilgan ushbu satrlardan tarbiyaning vazifalari keng va ko p qirrali ekanligi kelib chiqadi. Shunday ekan, ta'hmning asosiy vazifasi o quvchilarni bilim, konikma va malakalar bilan qurollantirish bolsa, tarbiya yosh avlodda jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqodni, axloqiy ko nikma va malakalarni, extiyoj va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat. Tarbiya bilan shug'ullanadigan har bir tarbiyachi birinchi navbatda o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadni aniq tasavur eta olishi, bu

---

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yukasak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviy meros, 2009 yil. -bet

maqsadning muhimligini tushunishi lozim. Tarbiyaning mohiyati xususida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalarning (o'qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar) bolalarga ta'sir ko'rsatishi sifatida tushunish eng ko'p tarqalgandir. Bunda kattalar to'g'ri deb hisoblaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar, talablarga muvofiq ta'sir ko'rsatish ko'zda tutiladi, albatta. Tarbiyani bunday tushunish haqiqatga yaqin, biroq u bir tomonlama bo'lib, tarbiya jarayonining faqat muayyan qismini aks ettiradi. Tarbiyaga bunday ta'rif berishda bolaga kattalarning ta'siri qaratilgan ob'ekt sifatidagina qaraladi. «Pedagogik tashxislashning asosiy maqsadi ham tashabbuskor va mustaqil kishilarni tarbiyalashni nazarda tutadigan bo'lsa, u tarbiyalanuvchiga pedagogika jarayonida faol harakat qiluvchi sub'ekt rolini beradi. Demak, uzluksiz ta'lim tizimi qatnashchilarining ma'naviy-axloqiy, intellektual va boshqa sifatlarni tashxislash uchun ilg'or pedagogik tajribalarni ham o'rganish zarur bo'ladi.

Xorij ohmlari: Ingo Xartman, Karlxaynts Ingenkamp, Linert, Frike, Lyumann, Rorshax, Diderix, Xeginger, Baxmayr (Germaniya); Bolsho, Burk, Rollet, Royleke (Angliya); Jorj Fisher, Jeyms Rays, T. Stoun (Amenka); A. V. Mudrik, V. D. Semyonova, G. N. Filova, S. D. Smimov, I. V. Dubrovina, Y. Langmeyer, G. M. Breslav, L. P. Fndman, I. Rogov (Rossiya) ta'lim tizimida pedagogik diagnostika masalalarini tadqiq etishgan.

### **O'zbekistonda pedagogik diagnostikaga oid qarashlarning shakllanishi.**

XX asrda pedagogik diagnostikaning rivojlanishi. O'zbekistonda pedagogik diagnostika o'zining tarixiga ega bo'lgan yangi fan sohasidan biridir. 1991 yilda mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng pedagogik diagnostikaning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Jamiyatimizda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda yoshlarning aqliy rivojlanishini, intellektual salohiyatini oshirish, ularda Vatanga muhabbat, milliy g'ururini qat'iy qo'llab-quvvatlash, muloqot odobi, o'zbek va jahon madaniyati, san'ati, xalq yodgorliklarini tushunish va ardoqlash kabi yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, 1997 yilda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilinganidan so'ng pedagogik diagnostika ta'limiy-

tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishda, ta'lim sifatini baholashda, muhim tarbiyaviy vazifalarni hal etishdayetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

Respublikamiz olimlari: E. G'oziyev, G'. Shoumarov, M. Quronov, O. To'rayeva, R. Mavlonova O. Musurmonovalar yoshlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish, rivojlantirish hamda jamiyatning har bir a'zosi ongiga milliy istiqloq g'oyalari singdirish, mafkuraviy immunitet hosil qilish masalalarini tadqiq qilish va bu muammolar yechimini topish uchun o'z ilmiy-amaliy maktablarini yaratishga muvaffaq bo'lishgan.

Bugungi kunda professor E. G'oziyevning "Oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchi talabalarning aqliy qobiliyatlarini tashxislash", M. Quronovning "YOshlar ongiga milliy istiqloq g'oyalari singdirish va mafkuraviy immunitetni hosil qilish" kabi metodikalardan jamiyatimiz pedagoglari unumli foydalanishmoqda

O'zbek olimlari - B. Qodirov, O. Hasanboyeva, Sh. A Abdullayeva, K. Zaripov, Z. Qurboniyozovalar o'qituvchilarning kasbiy layoqatini aniqlash, yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislash, xulqdagi nuqsonlarni korreksiyalash, o'smir va o'spirin yoshidagi o'quvchilarni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltirish masalalari ustida ilmiy izlanish olib bordilar va maxsus metodikalarni yaratishga muvaffaq bo'ldilar hamda O'zbekistonda pedagogik diagnostikaning fan sifatida shakllanishiga o'z ulushlarini qo'shdilar.

Bugungi kunda B. Qodirovning «O' quvchilarning iqtidori va qobiliyatlarini diagnostika qilish», O. Hasanboyevaning «Kichik maktab yoshidagi o' quvchilarning qobiliyatlarini tashxislash», K. Zaripovning "O'qituvchilarning kasbiy tayyorligini tashxislash", SH.A. Abdullayevaning "O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash" nomli metodikalarni uzluksiz ta'lim tizimiga tatbiq qilinib, samarali natijalar bermoqda.

O'zbek olimlari - R.H. Djurayev, J.G'.Yo'ldoshev, BXodjayev, D Ro'ziyevlar ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy faoliyatini tashxislash, ta'lim sifatini oshirish monitoringini o'rganish masalalari ustida ilmiy izlanish olib bordilar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantinishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan sifatli ta'limni amalga oshinishni va sifatli mutaxassisلامي tayyorlash vazifasini qoyadi.

2017 yil 15 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da xam mamlakatda yangi mazmundagi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish vazifasi qo'yildi, uning tarkibida esa yangi mazmun va mohiyatdagi innovatsion ta'lim tizimini shakllantirish bosh yo'nalish sifatida belgilab olindi. Bu nafaqat boshqaruv muammolari, balki ta'lim jarayoni sub'ektlari faoliyatini innovatsion tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish, ulami tashxis qilish va o'rganish vazifalanni belgilaydi. Demak, ta'lim tizimida innovatsion jarayonlami tashkil qilishning ilk qadamlaridan biri bu - o'qituvchilami innovatsion pedagogik jarayonga tayyorligini diagnostika qilish, maqsad qo'yish, rejalashtirish va bashorat qilish jarayonlanni o'rganishni ta'minlashdir.

Bu holat pedagog diagnostikasi (o z-o zini tashxislash), ota-onalar, pedagoglar tomonidan o quvchilar jamoasini tashxislash; ma'munyat, mutasaddi mutaxassislar va ta'lim bo limlari uslubiyotchilari tomomdan olib borilayotgan tashhishash yo'nalishlarini xam qamrab oladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik diagnostika va korrektsiyaning yaxlit nazariyasi va amaliyoti alohida o rganilishi lozim bo'lgan va o'z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi

O'zining maqsadi, vazifalari, tatbiq qilish sohasi bo'yicha pedagogik diagnostika hamisha mustaqil bo Igan. Ammo hanuzgacha pedagogik diagnostikani mavhum va turli bahs-munozaralarga sabab bo luvchi yo'nalish, uni «dastur sifatidagina qabul qilish mumkin,- deb hisoblaydigan olimlar ham yo'q emas. Shu sababli bugungi kunda «pedagogik diagnostika» atamasining bir necha talqinlari mavjud bo lib, ular mazmun-mohiyatiga ko ra xilma-xildir.



**Pedagogik diagnostikaning predmeti: “shaxs” tushunchasi va uning pedagogikada qo'llanilishi.** Pedagogika fanida umumiy kategoriyalar bilan bog'langan asosiy tushunchalardan biri - *shaxs* tushunchasidir.

**Shaxs-** jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lgan, o'zligini anglagan, o'z “Men”iga da'vogar, tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan ijtimoiy voqea-hodisaga adekvat baho bera oladigan, tafakkur faoliyatining ob'ektivligi bilan tavsiflanadigan insondir. Shaxs- “kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalgaoshiruvchi”\*. Jamiyatsiz shaxs, shaxssiz jamiyat bo'lmaganidek, insonning shaxs sifatida kamol topishi uchun biologik, psixologik, ijtimoiy omillar sabab bo'ladi.

Shaxsning axloqiy sifatleri - shaxsning aqliy jihatdan kamolotga yetishuvi uning aqliy, zehniy sifatleri, fazilatleri orqali namoyon bo'ladi: bilag'onlik, ob'ektivlik, fikrlovchilik, qo'oiliyatlilik va boshqalar hisoblanadi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavur qilish orqali hosil bo'lgan obraz- «Men»-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va realikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va barkamollik mezonlari bo'lib hisoblanadi.

Men»-obrazining ijtimoiy pedagogik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va uning tarbiyalanganlik darajasi omillarining ahamiyatini yuksaltiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, " . tarbiyani shaxsning o'zi va o'z sifatleri to'grisiidagigi tasavurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin"<sup>1 2</sup> Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri anglasa, tasavur qilsa, unda jamiyatning axloq normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kamayadi.

Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy Guiston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning o'mini alohida ta'kidlab, «Janobi Qaq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zarami, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin, bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmo tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go'zal

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasutri. Barkamol avlod-o'zbekiston taraqqiyotining poydevoriT., "Sharq", 1998 y, 41 bet

<sup>2</sup> A6ayjuiaeBa III. neaarorwK jiHarHocTMKa.-TomKeHT:MoHHJI, 2008.-97-6ct.

xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xtl buzuq ishlami qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo'lib chiqadi»-deb ta'kidlaydi Demak, tarbiya - o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot - dunyoqarashni, insomy e'tiqod, burch va ma'suliyatm, jamiyatimiz kishilanga xos bo'lgan axloqiy fazilatlamini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, tarbiya muassasalari, o'quv dargohlari, mahallada, jamoatchilik ta'sinda shakllanib boradigan jarayondir

Shaxs deganda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatleri bilan boshqalardan farq qiladigan muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Shaxs- ijtimoiy xayotning mahsulilinson shaxs sifatida oilada - ota-onalar; jamiyatda esa tarbiyachi-ustozlar, ijtimoiy guruhlar va turli jamoalarning ta'sirida shakllanadi. Jamiyat rivojlangan sari yetuk, barkamol shaxslami tarbiyalab yetishtirish ehtiyoji ham ortib boradi. Odamning insonlik jinsiga mansublik fakti esa individ tushunchasi bilan ifodalanadi Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri umng individualligi (faqat o'ziga xos bo'lgan, boshqa insonlarda uchramaydigan xususiyatjdir.

**Individuallik** deganda shaxs ruhiy xususiyatlarining qaytarilmaydigan birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibigaxarakter, *temperament, ruhiy jarayoniaming o'lib borish xususiyatlari, hissiyotlar, faoliyat motivlari, tarkib topgan qobiliyatlar* kiradi.

O'zbek olimlari: M.G. Davletshinning “Shaxs va jamiyat”, E G'ozievning “Psixologiya”, “Tafakkur psixologiyasi”, “O'spirinlar psixologiyasi”, V Karimovanning “Ijtimoiy psixologiya”, A Munawarovning “Pedagogika”, xonj olimlari: J.J. Piajening “Bolaning rivojlanishida muhitning o'mi”, D B ETkoninmg “Shaxs nvojanishida o'yinning ahamiyati”, “Pedagogik psixologiya”, A VPetrovskiyning “Umumiy psixologiya” , V. Davidovning “Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi”, L. S. Vigotskiyning “Psixologiya”, Dj. D'yuning “Shaxs va uning jamiyatdagi o'mi”, G. Gardneming “Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar”, kabi asarlarda shaxs tavsifi, uning nvojanish bosqichlari, bunda faoliyatning ahamiyati to'gnsida qimmatli fikrlar keltirilgan. Jamiyat taraqqiyotida insonmng bilimi va faol

<sup>5</sup> Аоауииа АВЛЮНО ТурКНН ryaHeroH exya axjiOK-ToinKenT: ^KnTyBHH, 2004 -34-6сr.

amaliy faoliyati to'grisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh M Mirziyoev asariida barkamol shaxsm voyaga yetkazish to'g'risida chuqur ma'noga ega bo'lgan g'oyalar keltirilgan

Shunday qilib, insonning shaxs sifatida kamol topishida **ijtimoiy, biologik, ruhiy omillar** muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda *ijtimoiy muhit* - kishi shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy tafakkur, turmush tarzi, shaxslararo, guruhlararo hamda millat va xalqaro munosabatlarning o'zaro muvofiq kelishi va bir-birini boyitishi tushuniladi.

**Odob-axloq** - shaxsning o'ziga va dunyoga nisbatan munosabatlaridagi xatti-harakatlarining beqilangan, aniqlangan usuli bo'lib, sabab tasawurlar va qarashlarni qamrab oladi, ya'ni shaxs shakllanadigan manba hisoblanadi.

Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi o'mi nihoyatda beqiyosdir. Irsiy belgilarning rivojlanishi insoniy-ijtimoiy muhitda yashashga bog'liqligiga ko'plab misollar keltinsh mumkin. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitda emas, boshqa muhit, aytayhk hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanar, lekin insoniy fikr, faouyat, xatti-harakat bo'lmaydi. (1920 yilda hindistonlik doktor Singx Midnapur shahri yaqinidagi bo'ri uyasidan topib olgan qizchalar Kamola va Amola hayoti bunga misol bo'ladi)<sup>4</sup>. Yoki Daniyel Defoning "Robinzon Kruzo" asaridagi bosh qaxramon- Robinzon yashagan orol sohillariga uning xaloskor kemasi yelkan otmaganida edi, u shaxs sifatida degradatsiyaga<sup>2</sup> uchragan bo'lardi

Ijtimoiy muhitning buyuk insonlar shakllanishidagi o'mi muhim bo'lib, Alisher Navoiy - shoir, Eynshteyn- fizik, Ulug'bek-astronom, Ibn Sino-tabib bo'lib tug'ilmagan, albatta. Ulardagi qobiliyat kurtaklarining rivojlanishi, iste'dodga aylanishida ijtimoiy muhit, ta'lim -tarbiya muhim o'rin egallaydi Davlatimizning barkamol inson tarbiyalash borasidagi siyosatida ham shaxs shakllanishida muhitning o'mi muhimligi ko'rsatiladi

---

Pedagu gijika O\*quv

// A Munawarov laxjuida - Toshkent: "O'qituvchi", 2006.- 29- bet.

Йерпа^auna - maxcHHHr pHROjK-TaHHnuma rytiaBJiHK xojjiaTH, лн^нн HHcoHHHHr inaxc cHTUjanua TaHassyjira yqpaniH

Ta'lim - tarbiya insonning shakllanishida etakchi o'rin egallaydi Ta'lim - tarbiya natijasida irsiyat va muhitning stixiyali ta'sirini o'qish, .zizish, mehnat qilish, musiqa bastalash va boshqa malaka va ko'nikmalar egallanishi evaziga o'zgartinsh, xatto tug'ma kamchiliklar(karlik, zaif ko'rish, soqovlikjni bartaraf etish mumkin Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda qobiliyatli, iste'dodli va iqtidorh bolalarga aloqida e'tibor berila boshlandi, ulaming iqtidori yoshligidan aniqlanib rivojlantrilmoqda. Bugmgi kunda “Nihol”, Zulfiya nomidagi davlat mukofotlari, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy nomidagi va Prezident stipendiyalarining ta'sis etilganligi ham yoshlarga berilayotgan e'tiboming timsolidir.

Ajdodlanmiz tomonidan qoldirilgan ma'naviy meros - ulaming asarlanda komil insonm ma'naviy rivojlantrirish g'oyasi o'z ifodasini topgan. Xususan, “Avesto”, Qur'oni Karim, Sharq mutafakkirlarining noyob asarlaridagi komil inson g'oyasi, Sharqona axloq kodeksi va bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida sog'lom avlod tarbiyasi haqida o'lmas g'oyalar keltirilgan. Har bir inson shaxs sifatida turlicha namoyon bo'lar ekan, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, insonlar va jamiyatga bo'lgan munosabati, faollik darajasi, axloq-odob borasidagi etukligi turlicha bo'ladi. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o'sha jamiyat qonun-qoidalariga amal qiladi va voyaga yetadi. Pedagogikada shaxsning kamolotga etishishi murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida qaraladi. Shaxsning kamolotga erishishida irsiyat, muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim - tarbiya va albatta o'zining mustaqil faoliyati, iroda safarbarligi mo'hirn ahamiyat kasb etadi.

Irsiyat nishonaiari shaxsm shakllantirishning ob'ektiv omillariga kiradi. Inson organizmidagi anatomik tuzilish, fiziologik harakat, asab tipi, asosiy shartsiz reflekslami ota-onasidan meros qilib oladi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlandaodam shaxsi va xulqi rivojlanishida biologik omillaming rolini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab o'rganuvchi bixevionzm, pragmatizm, biogenetik oqimlar mavjud bo'iib, ulaming aynm vakillari (E.Tomdayk) odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, degan fikmi ilgari surishsa, ayrimlari ( ) ong va aqliy qobiliyat ham nasldan-naslga o'tadi,-

degan g'oyani ma'qullaydilar. Ba'zi () olimlar shaxsning axloqiy jihatdan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi. Shunday qilib, *irsiylik* shaxsning o'ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik, tashkiliy jixatlar, ota-ona tomonidan irsiy o'zgaruvchilar orqali o'tadigan birliklardir.

Biologik omilning inson shakllanishidagi o'mi mo'him va o'ziga xos, albatta, irsiyatning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi, insonga xos xususiyatlar - aqliy va jismoniy mehnat qobiliyati, tafakkur vanutq ham tug'ma o'tishi mumkinligi, lekin bu tug'ma imkoniyatlar rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhit, odamlar orasida yashashi, jamiyatda munosabatlar o'rnatishi, ijtimoiy hayotda qatnashishi va ma'lum xulq- odob qoidalariga amal qilishi lozimdir. Insonning shaxs sifatida shakllanishida muhit (geografik, ekologik, axborot vositalarining uzoq-yaqinligi, ota-ona, bobobuvilar tarbiyasining to'laqlonligi, tashqi muhit va h.k.) beqiyos amiyat kasb etadi.

Shaxsning rivojlanishida «faoliyat», «faollik» tushunchalarimng o'mi beqiyosBuyuk insonlar o'z sohalarida yuksaklikka erishish uchun tinmay mehnat qilganlar. Inson o'z intilishi va faolligi bilan yuksak natijalarga erishishi mumkin, qobiliyat va iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun ham o'z ustida ishlanishi zarurdir.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etishda pedagogik diagnostika:

- birinchidan, individual ta'lim jarayonini qulaylashtirish;
- ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya natijalarini oldindan bashoratlash, samaradorligini aniqlashni ta'minlash;
- uchinchidan, o'ziga xos ta'lim yonalishi va mutaxassislikni tog'ri tanlashga yordam beradi.

## MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

### TESTLAR:

#### 1. “Diagnostika” atamasining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ifodalangan qatorni ko'rsating

\*a) «*dia*» - «*shaffof*», «*gnozifi*»-«*bihm*» o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi;

V) “*Dia*”-“*ta'lim*”, «*gnozifl* “*tarbiya*” - ta'lim-tarbiyajarayonini qulay tashkil etish;

S) “*Shaffof ma'lumot beruvchi*” metodika sifatida tushuniladi;

D) “*Donishmandlar suxbati*” ma'nosini bildirib, pedagogikada keng qo'llaniladigan metodni bildiradi.

#### 2. **Pedagogik diagnostika** bu ...

\*A) Pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini o'rganish, tahlil qilish, samaradorligini oshirish jarayonidir;

B) SHaxsning o'ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik xususiyatlari;

S) Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi xususiyatlari;

D) Ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni tashkil qilish.

#### 3. **Pedagogik diagnostikaning predmeti: “shaxs” bu**

A) o'zining fikrini bayon eta oladigan, mustaqil qaror qila oladigan, boshqaruv tamoyillarini to'la-tukis idrok etuvchi inson;

B) jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lgan, o'zligini anglagan, o'z “Men”iga da'vogar inson;

\*S) kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi, jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lgan, o'zligini anglagan, o'z “Men”iga da'vogar inson;

D) Biologik, psixologik, ijtimoiy omillar asosida taraqqiy etgan, aqliy jihatdan kamolotga yetishgan, ob'ektivlik, fikrlovchilik, qobiliyatlilik va boshqa sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan individ

#### 4. **Pedagogik jarayon - bu...**

\*A) ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan jarayon;

B) tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini taraqqiy ettirish jarayoni;

S) axloqiy, estetik, falsafiy dunyoqarashni shakllantirish;

D) - shaxsning o'ziga va o'z faoliyatiga bir jamoa yoki butun jamiyat nuqtai nazaridan baho bera olish.

#### 5. **Sharqda pedagogik diagnostika elementlari quyidagi tarbiyaviy metodlar zahirida qo'llanilgan:**

A) Nasihat, ogohlantirish, namuna;

\*B) Tushuntirish, nasihat berish, namuna, ibrat, rag'bat;

S) Hikoya, so'z orqali ifodalash, ko'rgazmalilik;

D) Tushuntirish, jazolash, ko'rgazmalilik

#### 6. **«Pedagogik diagnostika» atamasi birinchi bor nechanchi yili va kim tomonidan fanga kiritildi?**

A) 1964 yilda nemis olimi Ingo Xartman tomonidan fanga kiritildi;

\*B) 1968 yili nemis olimi Karlxaynts Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi;

S) 1970 yilda ingliz olimi Adam Osborn tomonidan fanga kiritildi;

D) 1981 yilda Dion Linert tomonidan fanga kiritildi.

#### 7. **Nemis olimi K. Klauer pedagogik diagnostikaga ta'rif bergan bir qator olimlarni tanqid ostiga olib, shunday fikrlarni bildiradi:**

\*A) «Pedagogik diagnostika - dolzarb pedagogik qarorlarni, hukmlarni chiqarishga bo'lgan urinishlar majmuyi»;

B) «Pedagogik diagnostika - ta'lim jarayonini qulaylashtirishga mo'ljallangan faoliyat turi»;

S) «Pedagogik diagnostika - pedagog va tahsil oluvchi o'rtasidagi qo'shaloq jarayon bo'lib, ta'limning natijaviyligini ta'minlaydi»;

D) «Pedagogik diagnostika -jamiyat talabidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya natijalarini oldindan bashoratlash, samaradorligini aniqlashni ta'minlaydi».

8. «Janobi Haq insonlaming asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomoni, foyda ila zarami, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan» iborasi qaysi tarbiyashunos olim asarida leltirilgan?

A) Abu Ali ibn Sinoning “Tadbiru manozil” asarida;

\*B) Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida;

S) Govard Gardnerning “SHaxs nvojlanihiga ta'sir etuvchi omillar” asarida;

D) V Mauermannning “ Diagnostishen in der Shule” (“Maktabda diagnostika”) asanda

**9. Insonning shaxs sifatida kamol topishida qaysi omillar muhim ahamiyat kasb etadi?**

A) Ijtimoiy, jismoniy

\*B) ijtimoiy, biologik, ruhiy omillar

S) dunyoqarash, genetik

D) Irsiyat, ijtimoiy

**10. Ta'lim tizimida innovatsion jarayonlami tashkil qilishning ilk qadamlaridan biri bu -...**

\*A) O'qituvchilami innovatsion pedagogik jarayonga tayyorligini diagnostika qilish, maqsad qo'yish, rejalashtirish va bashorat qilish jarayonlarini tashxislash;

B) Maqsad qo'yish, rejalashtirish, nazorat qilish, bashoratlash;

S) Rejalashtirish, maqsad qo'yish, baholash;

D) Pedagogik omillami inobatga olish, rejalashtirish, tashxislash.

## **NAZARIY DALILLARGA ASOSLANIB, SAVOLLARGA JAVOB**

### **BERING:**

1 Pedagogik diagnostikaning predmeti va ob'ektini izohlab bering.

2. Pedagogik diagnostikaning maqsadi, vazifalarini tushuntirib bering.

3. O'zbekistonda pedagogik diagnostikaga oid qarashlaming shakllanishi haqida nimalami bilasiz?

4. Shaxs rivojlanishida biologik omilning o'rnini qanday tushunasiz?



5. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ko'rsatuvchi misollar keltira olasizmi?
6. Shaxs rivojlanishida ta'lim va tarbiya qanday o'rin tutadi?
7. Shaxsning rivojlanishi uning faolligi bilan bog'liqmi? Javobingizni izohlang.

### **MUSTAQIL ISH MAVZULARI**

1. Pedagogik diagnostikaning inson vajamiyat taraqqiyotidagi o'rimi.
2. Pedagogik diagnostikaning shakllanish va rivojlanish tarixi.
3. Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika rivoji.
4. Sharqda pedagogik diagnostika elementlarining qo'llanilishi.
5. O'zbekistonda pedagogik diagnostikaga oid qarashlarning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari va asosiy yo'nalishlari.

### **ADABIYOTLAR va AXBOROT MANBALARI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -Toshkent: O'zbekiston, 2003, 38 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. -Toshkent, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dastun. -Toshkent, 1997
4. “2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi”. -Toshkent, 7 yanvar 2017 yil.
5. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2016.-56 bet

6. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oiiyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. -Toshkent:O'qituvchi, 1994, 178 b.
8. Abdulla Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom -Toshkent: Fan, 1994, 293b.
9. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi.-Toshkent Fan, 1993, 172 b.
10. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika-Toshkent: Fan va texnologiyalar,2010,256 b.
11. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart: Klett ,2007.-196 p.
12. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin,1991, 240 p.
13. Piaje J. J. Rebyonok i yego razvitiye -Moskva: Znaniye, 2008,508 s.
14. Podlasbiy I. P. Pedagogika -M., «Vlados», 2010. 576 s.
15. Sunsov N.S. Diagnostirovaniye v uchenicheskome kollektive- M., // Pedagogika, 2016 Ns4,S - 40-50.
16. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
17. [www.eduuz](http://www.eduuz)
18. [www.pedagoguz](http://www.pedagoguz)
19. [www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)

**Pedagogik diagnostikaning mohiyati va funktsiyalari.** Mustaqil O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati aholining, ayniqsa, yosh avlodning bilimi, tarbiyasi va madaniyatining qay darajada shakllanganligiga bog'liqdir.

O'quv-tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nosir Forobiy: “ Ta'lim - tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat”<sup>1</sup> - degan fikmi “Fozil odamlar shahri asarida alohida ta'kidlagan.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti- harakatini sekin - asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta - sekin takomillashib, komillikka erishib boradi, ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflilik, mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda o'qituvchi yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishining xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur.

Mustaqil, ma'rifiy-madaniy, adolatli va insonparvar jamiyatda yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqli, odobli kishilar sifatida kamol toptirish dolzarb vazifadir. Mustaqil respublikamizning «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini talablari bilan hamohang ravishda barkamol insonni voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan quyidagi xususiyatlarini shakllantirish lozim: -ijobiy fazilatlar mohiyati, mazmunini to'g'ri tushunish hamda tahlil qilib, munosabat bildirish;

-jamoada qabul qilingan normalarga amal qilish, mehnat qilish malakalarini egallash;

---

<sup>1</sup> А6y Hаcp <Dаpо6ufи. Otnnji оjиMnаp mаxpH-TomKeHT; yKMTyBqа, 2004,-87-6eT,

-barkamol inson siymosini idrok etish, uning ma'naviy qiyofasini shakllantirish usullarini izlash

Mashg'ulot o'tkaziladigan sharoitlardan qat'i nazar o'quv jarayonini qulaylashtirishga xizmat qiluvchi diagnostika quyidagi maqsadlargayo naltiriladi:

- ta'lim natijasi noto'g'ri baholanganda ichki va tashqi tahrirga;
- ta'limdagi kamchiliklarni aniqlashga;
- ta'limning muvaffaqiyatli natijalarini tasdiqlashga;
- o'quv jarayonining keyingi bosqichlarini rejalashtirishga;
- ta'lim-tarbiyadagi muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish orqali motivatsiya paydo qilishga va keyingi murakkab qadamlarni yo'naltirishga;
- o'quv-tarbiyaviy sharoitlarni yaxshilashga.

Nufuzli amerika ma'lumotnomalarining (Lindquist) birida pedagogik tashxislash vazifalari (Educational Measurement) ga yirik boblar uchun o'nni ajratilgan: o'qitish jarayonida uslubiy yordam ko'rsatish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, maktabdagi ijtimoiy pedagog maslahati, tarbiyaviy jarayonda ta'limning o'rni (Plaziering). Bu yana bir karra ilmiy asoslangan pedagogik diagnostika o'quv-tarbiyaviy jarayonning mazmunini boyitishga xizmat qilishini korsatadi.

**Pedagogik diagnostikada o'quvchi shaxsi pedagogik diagnostika obyekt sifatida qaraladi.** Ta'lim muassasadagi ta'lim - tarbiya sifati, moddiy - texnika bazasining mustahkamligi, o'quv jarayonida axborot - kommunikatsiya vositalari va o'qitishning zamonaviy metodlaridan, innovatsiyalardan samarali foydalanilayotgani o'quvchi shaxsini kamol toptirishga qaratiladi va o'quv dargohining bilim o'chog'i degan maqomga munosibligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda pedagogik diagnostikaning shunday tamoyillarini amaliyotda qo'llash lozimki, bu tamoyillar tarbiyalanuvchi, o'quvchi-yoshlarning shaxsiyatiga zarar keltirmasligi, ularning pedagogik dahlsizligini ta'minlashi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar orqali ularga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va korreksiyalash metodikalarini oqilona tatbiq etishi zarur.

Tashxislashning natijalari kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Tashxislashda mavjud pedagogik muammolar ravshanlashadi, ularning yechimini topish zarurati aniqlanadi. Muammolar yechimi faoliyatning tarkibiy qismlarida, vazifalarni oqilona taqsimlashda o'z aksini topadi. Pedagogik diagnostika funksiyalari (vazifalari) aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqadi:

**-teskari aloqa funksiyasi-ko'zlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish shakllari** vayo'harmlari tahlil qilish;

**-maqsad va vazifalarni belgilash funksiyasi-** jamoamng taraqqiy qilish istiqbollarini, istiqbolij rejalarini aniqlash;

**-taqsimot funksiyasi-jamoa** a'zolari o'rtasida burchlarni, vazifalarni taqsimlash;

**-yaratish funksiyasi-** kattalarning yoshlar bilan muloqot qilishining sog'lom muhitini tarkib toptirish;


**-pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish funksiyasi;**

**-pedagogik korreksiyalash funksiyasi-** yoshlar xulqidagi, ta'limiy faoliyati, tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlarni bartaraf etish vazifasini o'taydi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarni attestatsiyalashda qo'llaniladi;

**-motivatsiya va rag'batlantirish funksiyasi-o'** quvchi-yoshlarning hamda tarbiyachi-o'qituvchilarning ta'lim olish vata'lim berish faoliyatini rag'batlantirishni, tashqi stimullarni adekvat qabul qilishni nazarda tutadi. Tarbiyaviy jarayonda komillikka intilishni kuchaytiradi;

**-nazorat** funksiyasi-ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda turli xil nazorat turlarini o'tkazishni nazarda tutadi, chunki diagnostika ma'aviy-ma'rifiy jarayon holati to'g'risidagi axborotga ega bo'lishni bildiradi.

## PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FUNKTSIYALARI



*l-rasm. Pedagogik diagnostika funktsiyalari*

## MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

### TESTLAR:

**I.O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika funktsiyalari to'g'ri keltirilgan qatomi ko'rsating:**

- A) teskari aloqa, maqsad va vazifalarni belgilash, taqsimot, yaratish;
- B) pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish, rag'batlantirish, ogohlantirish;
- S) pedagogik korreksiyalash, ta'lim oluvchilarni attestatsiyalash;
- D) tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlarni bartaraf etish, teskari aloqa, umumlashtirish.

#### **2. Pedagogik korreksiyalash funktsiyasi bu -...**

- A) Ta'limiy va tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlarni bartaraf etish vazifasini o'taydi;
  - B) Ta'lim bema'navi va ta'lim oluvchilarni attestatsiyalashda qo'l keladi;
  - S) Jismoniy nuqsonlarni bartaraf etadi;
  - D) Ta'lim oluvchilarning o'rtasida "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini ta'kid qiladi.
- 3.

## NAZARIY DALILLARGA ASOSLANIB, SAVOLLARGA JAVOB

### BERING:

1. Pedagogik diagnostika obyektlari to'g'risida fikr bildiring.

- 2. Diagnostik tadqiqotlarning tuzilishi: diagnostik tadqiqotlarning semiotik, texnik va mantiqiy aspektlari; pedagogik tafakkurning mohiyati va o'ziga xosliklari haqida nimalarni bilasiz?
- 3. Pedagogik diagnostikaning mohiyati va funktsiyalari haqida so'zlab bering.

### ADABIYOTLAR:

- 1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2017.-488 bet.

2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi -Toshkent: O'zbekiston, 2017.-48 bet.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qafiyat bilan davom ettinb, yangi bosqichga ko'taramiz -Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika.-Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010, 256 b.
5. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart. Klett, 2007.-196 p.
- 6 Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin,1991, 240 p.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.weduuz](http://www.weduuz)
9. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
10. [www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)



## **mavzu. PEDAGOGIK VOQELIKNI DIAGNOSTIKTADQIQ ETISHNING UMUMMILLIY TAMOYILLARI VA DARAJALARI**

**Pedagogik diagnostika tamoyillari. O'** quvchi-yoshlaming aqliy, intellektual hamda tarbiyalanganlik darajasini uzviy va tizimli diagnostika qilish ko'p jihatdan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatning qo'p qirraligi va shaxsning ijtimoiy-individual xususiyatlarining xilma-hilligi bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, o'quvchi-yoshlaming bilimlami idrok etishiga uning ilgari tajribasi, aqliy rivojlanish darajasi salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Agar yangi o'quv materialiga aniq bo'lmagan tasavurlar va tushunchalar qo'shilsa, bu tushunchalar yoshlar ongida noadekvat tarzda idrok etiladi. Natijada ularda xato bilimlar, noto'g'ri malakalar to'planadi. Buning oqibatida xato tarzda paydo bo'lgan tushunchalami koreksiyalash talab etiladi.

Pedagogik diagnostika qo'yidagi tamoyillar asosida olib boriladi: *maqsadga yo'naltirilganlik; aniqlik va ishonarlilik; tizimlilik va uzviylik.*

Diagnostikaning *maqsadga yo'rialtirilganligi* awalambor, tashkiliy shakl, vosita va metodlarning oxirgi natijalar bilan mutanosibligi va pedagoglarning kasbiy talablari: o'quv-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Maqsadga yonaltirilganligi diagnostikaning ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab qiladi. Tadqiqotchi kuzatuv davomida tekshirish uchun bir qator farazlarni ilgari surishi kerak.

Diagnostikaning *ma'lum o'byektga yo'rialtirilganligi* ta'lim berishda o'quvchi-yoshlaming, tarbiyachi-o'qituvchilarning individual tafvotlarini hisobga olish, ularning intellektual rivojlanishlari, jinsi, ijtimoiy nufuziga qarab belgilanadi.

Diagnostikaning *aniqlik va ishonarlilik* muolajalari metod va vositalarning ilmiy asoslariga bog'liqligi bilan belgilanadi. Natijaning aniqligini, barchaga xosligini tekshirish uchun shu muammo, ob'ekt, hodisa va h.k.ni boshqa muammo bilan taqqoslanishi yoki boshqa ob'ekt, predmet, sinf, guruh, jamoa yoki o'quv maskanida ham o'tkazilib ko'rilishi kerak.

Diagnostikaning konstantlik tamoyili muayytn ob'ekt, voqea-hodisa va boshqalarni tashxis qilish davomida yuzaki, dastlabki hissiyotlar bilan cheklanmaslikni, tasodifiy, qisqa muddatli ayrim hodisalarning ahamiyatini oshirib yubormashkni talab qiladi. Tashxis qilayotgan o'qituvchi turli vaziyatlarda o'sha hodisani tekshirib ko'rishni yoki bir nechta ko'rsatuvchi uni nazoratga olishi lozim. Bu ko'rsatuvchilarning xulosalari yoki natijalari qanchalik bir-biriga to'g'ri kelishi ko'rsatuvning konstant yoki bunday emasligini ko'rsatadi.

Diagnostikaning nazorat tamoyili ko'rsatuvchining bir nechta ko'rsatuvchi yoki bir qator ko'rsatuvchilarning ma'lum guruh yuzasidan chiqqan natijalari, xulosalari nazorat-ko'rsatuvchi davomida boshqa guruhlarda tekshirib ko'rilishini talab qiladi. Bu ko'rsatuvchi natijasida olingan ma'lumotlar faqat shu ko'rsatuvchi guruhning o'ziga xos xususiyatlar emasligini aniqlash uchun lozim bo'ladi.

- birinchisi - shaxsni har tomonlama o'rganish, tashxis qilish yoki o'z-o'zini tashxislash;

- ikkinchisi - pedagoglar jamoasi tomonidan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning samaradorligiga erishishni ta'minlash.

Pedagogik diagnostika asosida o'quv-tarbiyaviy jarayon tadqiq qilinar ekan, uning metodlari ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan farq qiladiki, ular alohida o'quvchiga yoki o'quvchi-yoshlar guruhiga dolzarb pedagogik tadbirlar majmuasini qo'llashni ko'zda tutadi.

Bugungi kunning jiddiy metodologik muammosi - bu zamonaviy ta'limni pedagogik diagnostikaga oid metodlardan kompetentli, oqilona va samarali foydalana olishdir.

Tashxislash aniq bo'lishi uchun qulay metodlarni tanlash lozim. Pedagogik diagnostikada metodlar pedagogik hodisalarning ob'ektiv mohiyatini to'g'ri ifodalasa, o'rganilayotgan ob'ektning o'ziga xosligiga javob bersa, shubhasiz, ular ilmiy deb e'tirof etiladi.

Pedagogik diagnostika samaradorligi ko'p hollarda tashxis o'tkazuvchining metodologik madaniyatiga to'g'ri proporsionaldir. SHu boisdan bu tushuncha integral sifat ko'rsatkich hisoblanib, tashxis qiluvchidan o'zida xususiy ilmiy faoliyatni tahlil

qilish ko'nikmasini, ma'lum konsepsiya (nazariya)ni ilmiy asoslash va ijodiy qo'llash qobiliyatini egallashni talab etadi.

Pedagogik diagnostikada o'rganilayotgan jarayon aniqlovchi metodlar joriy etilgunga qadar ilmiy asoslanishi shart: dastlabki holat; tadqiqot mantiqi; kutilayotgan natijalar, ularga erishish metodlarini belgilash; iste'molchilar bilan hamkorlik o'ratish; uni joriy etish shartlami ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Pedagogik diagnostika ilmiy faoliyatning murakkab turi hisoblanib, u ishonchli qo'llarda - metodologiyani chuqur o'rgangan, ilmiy tadqiqot metodlari bilan qurollangan shaxs tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Olimning qiyofasi, ruhiyati va tiynati haqida maxsus adabiyotlarda batafsil yoritilgan, ayniqsa, uning quyidagi sifatlari alohida qayd etiladi; haqiqatga, noma'lum bilishga jiddiy intilish; kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarni tasniflash qobiliyati va kuzatuvchanlik; ilmiy tafakkurning analitik - sintetik jamlanmasi va ilmiy -tadqiqot ishlarida ob'ktivlik, aniqlik, tanqidiylik, izchillik, tizimlilik bo'lishi shart.

**Ob'ektivlik** - o'rganilayotgan voqea va hodisalar, jarayonlar to'g'risida odilona, to'g'ri baho berish, ulardagi mohiyat, mazmun va o'zaro aloqa, o'zgarishlarga holisonayondashishni ifodalaydi.

**Aniqlik** - diagnostikaning barcha muolajalari uchun tegishlidir: pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatish va qayd etish; fikrlar tahlili va umumlashmasi; turli manbalardan olingan ilmiy axborotlardan foydalanish va boshkalar.

Pedagogik diagnostikada **izchillik** tadqiq qilinayotgan tanlamalarning bir xilligida, tadqiqot mantiqiga amal qilishga, shart-sharoitlarni hisobga olishda namoyon bo'ladi.

**Tizimlilik** - o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilari asosida tasniflash, tasavurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni o'ratish, konsepsiyalar, nazariyalarni shaldlantirish orqali muayyan tartibga solish jarayoni

**Tanqidiylik** - o'rganilayotgan muammoga turli nuqtai nazardan baho bera olish, tajriba natijalarining haqqoniyligini ta'minlash bilan farazlar va nazariyalarni

uzluksiz tekshirib borish, mabodo, olingan ma'lumot yangi natijalarga mos kelmasa, ulardan voz kechish xususiyati bilan tavsiflanadi.

Shunday qibb, pedagogik diagnostikada ilmiy tafakkur tadqiqotmng boshlang'ich nuqtasini belgilashda ob'ektivlik, izchillik, aniqlikni nozik, ehtiyotkorona ko'llashni talab etadi, ilmiy farazlami to'g'ri tanlashni, tajriba natijalari, nazariy xulosalami tanqidiy tekshirib ko'rishni va albatta, tizimlilikni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, tadqiqotchining metodologik madaniyatini shakllantirishda refleksiya - xususiy ilmiy faoliyatini tahlil qilish ko'nikmasi asosiy o'rin tutadi.

Yuqoridagi fikrlar turli fan sohalari buyicha tadqiqot olib boruvchilarga tegishlidir, ammo pedagogik diagnostikada tadqiqotchi o'ziga xos ba'zi bir xususiyatlari bilan farqlanadi. Awalambor, pedagogik diagnostikadagi izlanishlar tadqiqotchidan pedagogik tajnbaga ega bo'lishm, pedagogik jarayonning barcha "ikir-chikir"laridan xabardor bo'lishni talab etadi. Pedagogik diagnostikada tashxislovchi ob'ektlar (o'qituvchi, tarbiyachi, o'quvchi talabalar va boshqalar) bilan ish ko'radi va pedagogik tajriba-smov o'tkazishda undan ehtiyotkorlik talab etiladi, ayniqsa, o'quvchi-yoshlar qalbiga, dunyoqarashiga, erkin fikrlashiga sinov davomida putur yetmasligi lozim. "Pedagogik voqelikni to'g'ri aks ettirishda tadqiqotchi sog'lom fikr sohibi bo'lish uchun metodologik madaniyatni egallashi shart"<sup>1</sup>.

Ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, pedagogik boshqaruv asosidir. Tarbiya tamoyillari - yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar qisoblanadi Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad- har tomonlama ma'naviy rivojlangan, aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi yoshlar tarbiyasining istiqbollarini ko'ra bilishdayordam beradi.

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni va tamoyillari mavjud. Zamonaviy pedagogik diagnostikada ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va

---

<sup>1</sup> CaHHaxMejioB H. 3aMOHaBHfciWK, MerojioJionu, riejjarorHKa/AJzluksiz talim, 2014 BHJ 2-coH, 17-26-6emap

tjzinili ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni \_ tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi faoliyatini o'z ichiga oladi Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari nvojlanaadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanaadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvatlari mustaqkamlanaadi Tarbiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinaadi Bunga erishish uchun yoshlaming ongiga (Ta'lim jarayonida), hqissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Zamonaviy pedagogik diagnostikada asosiy yunalishlar yoshlarga Vatan to'g'usini shakllantirish, ona tihmizga muxabbat uygotish, miliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash, umuminsoniy qadriyatlarga, millatlararo totuvlik, bagrikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash, xuqo'qiy madaniyat- sog'lom dunyoqarashning mu'qim omili ekani to'grisidagigi ma'lumotlami ko'paytirish, ma'rifatning shaxs intellektual saloqihatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillarga tayanadi

Mafkura - inson ruhiyati, tarakkur va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vositadir. Uning g'oyalari xalqning ishonch - e'tiqodi, intilish va manfaatlari ifodasiga aylansa etarlicha samara beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarini, o'quvchilaming tushunchasi, aql - idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan qolda marifiy yo'l va usullar orqali amalga oshirish taqoza etiladi.

**Diagnostik tadqiq etishning umummilliy tamoyillari.** O'qituvchining bilim saviyasi ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotgga eltuvchi etakchi omillardan biridir. Yoshlarda insoniy fazilatlami tarltdb toptirishda Qur'om Kanm, Hadis ilmi, ajdodlaming ma'naviy merosi, pedagogika va psixologiya, hamda

zamonaviy bilimlardan foydalanish muhimdir Tarbiyada inson shaxsim oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir insonning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huqo'qi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchiiar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga awalgidek tarbiya ob'ekti emas, xuddi o'zi kabi sub'ekt deb qarashi darkor. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatim va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi. Shaxsnmg rivojlanishi va o'zligini anglashni ta'minlaydi.

Yoshlami Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtinsh, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malakalarni oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalami shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini ulkan boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida mO qim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlaming asarlari orqali O'quvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, meqr - shavqat, ota - onani hurmat qilish qoidalari qaqida keng tasawurga ega bo'ladilar. Insoniylik - o'z tarkibiga insonning engyaxshi axloqiy xususiyatlanni, do'stlik, ota - onaga sadoqatlilik, meqnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatлами hamrab oladi Shu sababli insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan - avlodga ko'chib kelgan.

### **Diagnostik tadqiq etishning tarbiyaviy ta'sirlari va uzluksizlik yo'nalishi.**

Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiyachi awaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zi bu talabni unutib qo'ysa, bu qol tarbiyaga yomon ta'sir qiladi o'qituvchi subutli, o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, unda ota - ona, o'qituvchi, jamoatchilik qatnashadilar. Shu sababli ulaming ishida izchillik va davomiylik bo'Tishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga

oshiradigan barcha bo'g'inlarni (oila, maktab, o'quvchilar jamoasi, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, keng jamoatchilikni) birgalikda ish ko'rinishlarini nazarda tutadi Chunki tizimlilik faqat yoshlami emas, balki aholining barcha qatlamlarini hamrab olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy pedagogik diagnostika masalalariga qiziqish katta Ijtimoiy hayot davomiyligi va fan rivojining yuqori pog'onasi shaxs kamolotida yechimi birmuncha qiyin bo'lgan savollarni yuzaga chiqarmoqda. Masalan, shaxsning ma'naviy kiyofasini sotsiokorreksiya qilish masalalari, shaxs tarbiyasida vujudga kelayotgan illatlar, nuqsonlarning paydo bo'lishi, ularni bartaraf etish yo'llari, metodlari va boshqalar Tabiiyki, bu masalalarni hal etishda eskicha yondashuvlar yordam bera olmaydi Pedagogik diagnostika xam amaliyot talablaridan ortda qolmaydi va ijtimoiy qadriyatlarining o'zgarish qonuniyatlariga bog'liq holda rivojlanadi. Birinchi navbatda yangi metodlarni izlab topish jarayoni davom etmoqda, mavjudlarini tubdan takomillashtirish, ilmiy bilish mantiqini loyihalash, tadqiqotlar samarasini oshiradigan texnikaviy qurilmalarni yaratishga e'tibor qaratilgan Boshqa tomondan, pedagogik diagnostikaning ilmiy metodologiyasi - chuqur nazariy umumlashma, bashoratlash, fan strategiyasini va uning mavqeiini oshirish jamiyat islohotlariga mos ravishda amalda kengaymoqda

## MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

### TESTLAR:

**LDiagnostik tadqiq etishning tarbiyaviy ta'sirlari va uzluksizlik yo'nalishi nimalarda o'z ifodasini topadi?**

- \*A) Izchillik va davomiylik tamoyillariga amal qilishda,
- B) Ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda;
- S) Pedagogik diagnostikaning ilmiy metodologiyasida;
- D) Ijtimoiy qadriyatlaming o'zgarish qonuniyatlarida

#### **2. Pedagogik diagnostikada izchillik- bu...**

\*A) Qabul qilingan atamalarning bir xilliligi, tadqiqot mantiqiga amal qilish, shart-sharoitlarni hisobga olish, ilmiy apparat tushunchalarning bog'liqligi,

V) Ilmiy bilish mantiqini loyihalash, tadqiqotlar samarasini oshirish;

S) Fan strategiyasi va uning mavqeini oshirish, jamiyat islohotlariga mos ravishda amalda qo'llash;

D) Inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vosita.

#### **3. Tizimlilik -....**

\*A) O'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilan asosida tasniflash, tasavurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni o'rnatish;

B) Konsepsiyalar, nazariyalarni shakllantirish orqali muayyan tartibga solish jarayoni;

S) Tadqiqotlar samarasini oshiradigan texnikaviy qurilmalarni yaratish;

D) Nazariy umumlashma, bashoratlash, fan strategiyasini va uning mavqeini oshirish.

#### **4. Tanqidiylik-...**

\*A) O'rganilayotgan muammoga turli nuqtai nazardan baho bera olish, tajriba natijalarining haqqoniyligini ta'minlash bilan farazlar va nazariyalarni uzluksiz tekshirib borish;



- B) Olingan yangi natijalar tavsifi, ulardan voz kechish xususiyati;
- S) Tajnba natijalarining haqqoniyligini ta'minlash;
- D) G'oyalar, nazariyalami shakllantirish orqali muayyan tartibga solish jarayoni.

#### 5. **Ob'ektivlik bu —...**

A) O'rganilayotgan vokea va hodisalar, jarayonlar to'g'risida odilona, to'g'ri baho berish, ulardagi mohiyat, mazmun va o'zaro aloqa, o'zgarishlarga holisona yondashishni ifodalaydi.

#### 6. **Aniqlik-...**

A) diagnostikaning barcha muolajalan uchun tegishli jarayon;

\*B) Pedagogik hodisa va jarayonlami kuzatish va qayd etish; fikrlar tahlili va umumlashmasi; turli manbalardan ohngan ilmiy axborotlardan foydalanish;

Sjyangi metodlami izlab topish, mavjudlarini tubdan takomillashtirish;

D) Ilmiy bilish mantiqim loyihalash.

#### 7. **Diagnostikaning ma'lum ob'ektiga yo'naltirilganligi qanday belgilanadi?**

\*A) O' quvchi-yoshlaming, tarbiyachi-o qituvchilaming individual tafovudarini hisobga olish, ulaming intellektual rivojlanishlari, jinsi, ijtimoiy nufuziga asosida;

B)Ijtimoiy nufuziga qarab;

S) Ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlami yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida;

D) Loyihalash, tadqiqotlar samarasini oshiradigan texnikaviy qunlmalami yaratish asosida.

### **ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI:**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil

istiqbollariiga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentimngnutqi -ToshkentO'zbekiston, 20017.-104 bet.

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2016.-56 bet
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqirmz bilan birga qo'ramiz. -Toshkent O'zbekiston, 2017.-488 bet.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligimng garovi.-Toshkent:o'zbekiston, 2017.-48 bet.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoTimizni qafiyat bilan davont ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent:0'zbekiston, 2017.

## **mavzu. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING UMUMIY METODLARI**

**Pedagogik tashxis metodlari tasnifi.** Pedagogik diagnostika o'quv-tarbiyaviy ishlarning yakuniy natijalar ko'rsatkichlarini hamda mazkur jarayonning kechish holatini yaqqol aks ettirish xususiyatiga ega. Pedagogik diagnostikani amalda qo'llashda turli metodlardan foydalaniladi.

**Metod** - (lotincha «metodos»-«yo'l», “uslub”) tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot, deb tajjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda: muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan uslubni, malum maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda: tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish uslubini bildiradi.

Pedagogik diagnostikani tashkil qilishda beriladigan nazariy bilimlarni yoshlar qalbiga yetkazish, ularni kundalik ehtiyojiga yo'naltirish uchun quyidagi ish usullariga e'tibor berish lozim:

-o'quv muassasa, mas'ul shaxslar sinfi, guruh jamoasining ruhiy holati, ya'ni har bir shaxsning faoliyati, qiziqish darajasiga;

-o'quvchi-yoshlarning tartib-intizomiga, davlat mulkiga bo'lgan munosabatiga;

o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligiga;

-yoshlar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarga bo'lgan munosabatga (ijobiy, salbiy, befarqligiga);

-yoshlarning kattalar, o'z tengdoshlari bilan axloqiy muomala va munosabatlariga;

-o'quv maskanlarida tashkil etilgan qonun-qoidalarga munosabat va ularga amal qilishga;

-o'quv muassasadagi ijtimoiy fikrga bo'ysunuvchanligiga.

Yuqoridagilarga amal qilinganda pedagogik diagnostikani o'tkazish yo'nalishlarini to'g'ri tashkilashtirishga imkoniyat yaratiladi.

O'qituvchining o'z o'quvchilarni doimo kuzatib borishining o'ziyoyoq diagnostik faoliyat hisoblanadi. Diagnostik axborotlarni ma'lum ko'rsatkichlar (sinf, guruh ishlari, test, anketa va boshqalar), orqali yoki ularsiz (oddiy kuzatish orqali) yig'ish mumkin.

Diagnostik faoliyatda avvalroq quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) solishtirish;
- b) tahlil;
- v) bashorat (prognoz) qilish;
- g) interpretatsiya (tatbiq qilish);
- d) diagnostik faoliyat natijalarini o'quvchilarga yetkazish;
- e) turli diagnostik metodlarning o'quvchiga ta'sirini nazorat qilish.

**Solishtirish**- diagnostik jarayonning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi. Biz hayotdagi har bir narsani kuzatib tushib, beixtiyor uni solishtiramiz. Ko'rgan narsamizni o'z tajribamiz asosida fikrlashni, unga baho berishni xohlaymiz. Shu maqsadda xotiramizdagi xuddi shunday yoki shunga shunday kuzatidilarni esga olamiz. Faqat o'z kuzatishlarimiz emas, balki o'z g'ayralar tomondan o'tkazilgan kuzatishlar ham tadqiqot tasmfiga yordam berishi mumkin. Agar qandaydir yangi kuzatishda solishtirishga asos yo'q bo'lsa, kuzatishimizda unga yaqinroq bo'lgan kategoriyadan foydalanishga harakat qilamiz.

Insonning xulqini kuzatib turib, uning oldingi xulqi yoki hozirgi kundagi va o'tmishdagi boshqa individning xulq-atvori bilan, kimningdir xulq haqidagi fikrlari bilan solishtiramiz. Bu pedagogik diagnostikada individual, ijtimoiy yoki ob'ektiv solishtirish normalari deb hisoblanadi.

**Normalar** pedagogik diagnostikada u yoki bu o'quvchilarning ma'naviy darajasini baholash uchun kerak bo'ladigan axborotlar to'plashni bildiradi. Masalan, biz to'plagan axborotlar intellektni o'lchovchi quyidagi ma'lumotlar bolishi mumkin: diktantda yo'q qo'yilgan xatolar soni, matematikadan to'g'ri yechilgan misollar soni, uchta mashg'ulot davomida olingan spontan javoblar soni, testdan to'g'ri bajarilgan topshiriqlar soni yoki shaxsning tarbiyalanganligini bildiruvchi axloqiy kategoriyalar:

qiyin vaziyatda o'zini tuta bilishi, to'g'ri ma'nodagi sovuqqonlik, ijtimoiy foydali mehnatda ko'rsatgan ko'rsatkichlari, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish darajasi kabilar. Lekin bu axborotlar to'la informativ emas Bizga ayrim holatlarda kriteriya va normalar yetishmaydi. Agar o'quvchi-yoshlarimiz yozma ishda 9 ta xatoga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lsa uni baholash uchun yozma ishning qiyinlik darajasini bilishimiz kerak Bundan tashqari xuddi shu sharoitda boshqa ta'lim oluvdilar yozma ishni qanday yozganlarini, yoki o'quv maqsadiga erishish uchun qancha xatogacha yo'l qo'yilishi mumkinligini bilishimiz kerak Boshqacha so'z bilan aytganda solishtirmatahlil kerak bo'ladi.

O'quvchining individual o'zlashtirishini biz quyidagicha tenglashtirishimiz mumkin:  
*Boshqa ta'lim oluvchilarning ijtimoiy solishtirma natijalari bilan = norma Shu o'quvchining oldingi natijalari bilan individual solishtirma = norma*

*Qo'yilgan o'quv maqsad= predmet solishtirmalari (kriteriyalar) bilan = norma*

Fanda solishtirma o'lchovlar uchun foizli darajali shkala keng ishlatiladi

Bu shkala o'quvchining aniq bir holatga muvofiq guruh ichidagi holatini belgilaydi.

Masalan, 4 sinf o'quvchisi u yoki bu qobiliyati bo'yicha ranjirovkada 75-o'rinni egalladi, bundan ko'rinadiki o'quvchi sinfdagi 75 foiz o'quvchi bilan teng yoki ulardan ortiq natijaga erishgan, faqat 25 foiz bola undan ham yuksak yoki unga teng natijaga erishgan

Foizli shkalada o'rinni aniqlash uchun solishtirma o'zgaruvchanlikni bilish zarur. T-kattalik va intellekt koeffitsiyentini aniqlashda chekinish shkalalari keng qo'llaniladi.

T-kattalik shkalasi «standart norma» hisoblanadi Bu shkala test o'tkazishda keng qo'llaniladi. Bu shkala uchun o'rtacha kattalik 50 va standart chekinish 10 bo'lib hisoblanadi.

**Pedagogik tashxisning noeksperimental metodlari: kuzatishi, anketa, so'rovnomasi, suhbat, intervyu.** O'quvchi-yoshlarning turli sifatlarini o'rganish uchun mashhur kuzatuv metodidan foydalanishi mumkin Ma'lumki, kuzatish metodi ancha

murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad: kattlar va yoshlar o'rtasidagi muloqotning ta'sir kuchini, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi

**Kuzatish metodlari** orqali o'quvchilarning o'zaro aloqalari, tengdoshlari bilan muloqoti, individual-psixologik farqlarini qiyoslash, namlanganfanlami o'zlashtirishi, xulq atvori va mavjud muammolandagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ma'naviy-ma'rifiy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

Kuzatish metodi o'quvchi-yoshlarning ilmiy dunyoqarashi, intellektual rivojlanishi, fikrlash jarayonining dinamikasi, xulosalar chiqarishdagi mustaqilligi, faolligi va ularni tahlil qilishga yordam beradi.

Tajribalar ko'rsatishicha, o'quvchi-yoshlarning markaziy nerv sistemasidagi psixik qo'zg'atish kuchiga qarab, umumiy ta'limiy-tarbiyaviy jarayonga kirishish faolligini aniqlash mumkin.

Kuchsiz nerv sistemasiga mansub o'quvchi-yoshlarda sezgirlik chegarasi o'zaro nozikligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli ular zarracha ahamiyatga molik bo'lmagan psixotravmatik ta'sirlarga ham uzoq muddat davomida qayg'uncha yurishadi. Pedagogik tashxislashda va korreksiyalashda shu jihatlarga alohida e'tibor berish joizdir.

O'spirlar va o'smirlarning «kuchli nerv sistemasiga mansubligi qo'yidagi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi:

1. O'z faoliyatidagi intensivlik va mahsuldorlikni yo'qotmagan holda uzoq muddat mobaynida u darajada qiziqarli bo'lmagan topshiriqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lishlan;

2. Ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf qila olish, maqsadga erishish yo'lidagi qaysarlik xususiyatlarning mavjudligi;

3. Mushkul vaziyatlarda ish mahsuldorligi va qat'iyatlilikning oshishi (ayniqsa xavfli vaziyatlarda);

4. Xatti-harakatlari va xulq-atvorida mustaqillikka intilish xususiyatlarining mavjudligi, ayniqsa yangi, notanish vaziyatlarda ularni kashf qilinmagan qirralarining namoyon bo'lishi.

Demak, pedagogik tashxislashda kuzatish metodi muhim ahamiyatni kasb etadi. «Ilmiy kuzatish maqsadga qaratilganligi, konstantligi va nazorat qilimshi bilan oddiy kuzatishlardan farq qiladi\*»,- deb hisoblaydi ingliz olimi G Jenks.

**Pedagogik kuzatish metodi** - ushbu metod ca'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu usul ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, “sub'ekt-sub'ekt” munosabatlarining o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi

Kuzatish metodi qo'yidagi holatlarni nazardatutadi:

1. kuzatuv qanday savolga javob berishi kerak.
2. Kuzatuv qanday sharoitlarda o'tkazilishi lozim.
3. Kuzatuvga quyilgan xulq yuzasidan kategoriyalar, tushunchalar taqsimlab chiqilganmi, shu tushunchalar yordamida qo'yilgan savolga javob bera oladimi va h. k
4. Ushbu kategoriyalar kuzatilayotgan xulqqa mosmi? Ushbu kategoriyalar bilan ishlash mumkinmi?
5. Bitta pedagogik vaziyatni kuzatgan turli kuzatuvchilar qaydnomalarida shu kategoriyalarga mos yakdillik bormi?
6. Alohida kuzatuvchi qayta kuzatganda shu kategoriyalardan qayta foydalanganmi?
- 7 Xuddi shu xulqyuzasidan o'tkazilgan kuzatuvni taqqoslash vaziyatlarida qayta kuzatish mumkinmi va h.k.

Tabiiy kuzatishda o'rganilayotgan respondentlarning (tadqiq qilinuvchilar Masalan, o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalarning o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muammolaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat respondent(o'rganilayotgan sub'ektlarning tabiiy faoliyatini balki ularning ilmiy

<sup>1</sup> Jenks S The sociology of childhood.-London.2002.-26p

dunyoqarashlarini shakllanishi, fikrlash jarayonining koeffitsiyentim, kuchini, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ulami tahlil qiladi. Bunday kuzatishlar o'ibat natijada pedagogika fani mazmunini boyishiga sabab bo'ladi. Ilmiy kuzatish orqali respondentlar (bular maktabgacha tarbiya yoshidagilar, o'quvchi, talabalar bo'lishi mumkin)ning o'rganilayotgan muammo yuzasidan sifat va son ko'rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etiladi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlamini kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va boshqalar hisobga olinadi.

**Suhbat metodi** - an'naviy pedagogik metodlar turkumiga kirib, dialog, diskussiya tarzida o'tkaziladi. Ushbu metod orqali insoniy munosabatlar, ulaming istiqboldagi rejalari, qarashlari va xususiy fikrlarini o'rganish mumkin. Pedagogik suhbat oddiy suhbatdan farq qiladi. Ushbu metod orqali suhbatdoshning ichki olamini o'rganish, uning dunyoqarashi, kelajakdagi rejalari bilan tanishish imkoniyati tug'iladi. Ta'lim-tarbiya tizimi sifatini oshirishda, takomillashtirishda yoki yaratilgan ilmiy farazlaming qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat uslubidan foydalaniladi.

Suhbat metodi - ta'lim muassasasi o'qituvchilari va tahsi oluvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat metodini tadbqiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosaga kelinadi. Bu metod so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo'llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib, intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'llari bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning bir necha usullari mavjud:

- guruhlar bilan ishlash;



- intensiv, rivojlantiruvchi,
- sinash va boshqalar.

**Ijtimoiy fikmi o'rganish (so'rovnoma, intervyu, test) metodi** - tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidir. Bu metod orqali o'rganilayotgan muammoning yechimini topish yo'llari belgilanadi. So'rash savollari mantiqiy izchillikda, nazokatli shaklda bo'lgani maqsadga muvofiq. Quyilayotgan savollar aniq ifodalanishi, mavjud nuqson va salbiy oqibatlamning oldini olishga mo'ljallangan bo'lishi lozim. So'ralgan savolga to'liq javob olish bilan birga, qat'iy shaklda: «ha», «yo q» tarzida ham javob olinadi. So'rashning modifikatsiyalashtirilgan shakli - **intervyudur**. Intervyudagi savollar oldindan tayyorlanib, suhbatdoshiga uzatiladi. Olingan javoblar har doim ham pedagogik muammoni yaxlitligicha tahlil qilishga imkoniyat yaratmaydi, chunki intervyu javoblan keng jamoatchilik ichida tahlil qilinadi. SHu sababli suhbatdosh ayrim paytlari o'z fikrini aniq, va ravshan, baralla aytishga iymnadi.

**Test** metodi -ijtimoiy fikmi o'rganish, kichik vaqt ichida biron muammoga javob topish, tahsil oluvchilarning bilim darajasi va fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganish uchun qo'llaniladi. Test metodi qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotga ega bo'lishga, ulkan auditoriya bilan ishlashga imkoniyat yaratadi. Test sinovlari orqali tahsil oluvchilarning bilimlari qisqa muddat ichida yoppasiga aniqlanadi va baholanadi. Masalan, XX asming o'rtalarida abituriyent biron bir oliy o'quv yurtiga kirishi uchun deyarli bir oy mobaynida bir necha fandan imtihon topshirar va ularning javoblarini kutish uchun ancha vaqt sarflardi. Baholar ko'p hollarda sub'ektiv quyilar, imtihon qilinayotgan fanlar javoblari birin-ketin chiqarilar, natijada adabiyot shinafondasi birinchi imtihondan natijasi salbiy baholansa, keyingi imtihonga kirish huquqidan mahrum etilardi va shu bois yoshlarning talaygina qismi o'z sevgan kasbini egallay olmasdi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq yoshlarning bilimiga xolisona yondashish, ular iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun 1993 yildan e'tiboran abituriyentlarning bilim darajasini baholash uchun bir kunda (I avgust) va

aynan bir xil vaqtda test sinovlari o'tkaziladi. Test javoblari qisqa muddat ichida tahlil qilinib, ob'ektiv baholanadi. Test metodi orqali yoshlar bilimim aniqlash ulaming fanlami o'zlashtirganlik darajasini xolisona baholashga yordam beradi va iqtidorini yorqinroq ifodalashga zamin yaratadi.

Test savollarning o'mi va ulaming mazmunan rang-barang qilib tualishi, ko'p variantda qo'tlanilishi tadqiq qilinayotganlaming mustaqil fikrlarini o'stiradi, kelajakni real baholash qobiliyatini taraqqiy ettiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda test, so'rovnoma metodi etakchi bo'lib hisoblanadi.

**So'rovnoma** - anketa metodi qo'tlanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, tadqiq qilinuvchilaming yakka yoki gunfli fikrlari, qarashlarini o'rganishga imkon yaratiladi; qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test, anketa savollarini ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayondir. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to'tdirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda test savollarining ma'tumotlarini kompyuterda matematik- statistika metodlari bilan ishlov berishga imkon beradigan qilib tuziladi.

**Bolalar ijodini o'rganish.** Bolalar ijodini o'rganish ko'p qirrali jarayondir. Bunda ta'lim va tarbiya maskanlari tarbiyalanuvchilarining o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlari tahlil qilmadi, muayyan xulosalarga kelinadi. Ularning turli yozma ishlari, dafiarlari, tutgan kundahlari, she'r va hikoyalan, hayotiy rejalan, insholan. turli yozma hisobotlari, chizgan rasmlari, haykaltaroshlik ishlari, bastalagan kuylari, yozgan va ijro etgan qo'shiq va raqslari ulaming dunyoqarashi va ma'naviyatim o'rganish uchun manba bo'ladi. Bu metod orqali yoshlar orasidan iqtidor egalan, noyob qobiliyatga ega bolalar ajratib olinadi. Ayniqsa, bizning respublikamizda mustaqilligimizning dastlabki kunlandanoq iqtidorli yoshlami aniqlash, ulaming qobiliyatlarini nvojlantirish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshinlayapti. Bugungi kunda iqtidorli yoshlanmiz jahon mamlakatlarining fan olimpiadalarida, turli ko'riklarda (san'at, musiqa va boshqa), sport maydonlarida

o'zlarining iqtidorini namoyish qilishmoqda, zehn va biiim, kuch va chaqqonlik, shijoat va g'ayrat bobida dunyodagi boshqa millatlardan kam emasligini namoyish qilishmoqda, g'olibliklami qo'lga kiritishmoqda. Ta'lim va tarbiya muassasalarida iste'dodli, iqtidorli yoshlar aniqlanib, ular bilan alohida ish olib borilmoqda Bolalar ijodi fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha ko'rgazmalar, qushiq va raqs tanlovlari, maktablar bo'yicha viktorinalar, musobaqalar, sayohatlar va boshqalarda namoyon bo'ladi.

**Tajriba-sinov metodi** - tajriba- («eksperiment» so'zi lotincha «sinab ko'rish», «tajriba quyish» ma'nosini anglatadi) tajriba ishlari, asosan taTim -tarbiyajarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlaming tadbqiq jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tajriba -sinov metodi sharoitga qarab 3 xilda o'tkaziladi: 1. Tabiiy tajriba, 2. Laboratoriyaviy tajriba, 3 Amaliy tajriba.

**Pedagogik diagnostikada tadkikotlarni tashkil qilish.** Ilmiy-pedagogika tadkikotlarining tarkibi, unga ilmiy izlanishlaming u yoki bu elementini kiritish bilan bog'lik ravishda har xil o'zgarishlami boshdan kechirdi. Ilmiy-pedagogik tadkikotlar tarkibini birmuncha umumlashgan ko'rinishda tasvirlash mumkin. Ilmiy redagogika tadqiqotlarini tashkil qilishda maTumotlami yigTsh, xulosalami jamlash, tadqiqot do'yicha miqdoriy tahlil o'rtacha miqdoriy raqamlami aniqlash, ilmiy faraz, xulosalaming to'griligini ta'minlovchi maTumotlami yig'ish: (buning uchun turli xil metodlar qoTlaniladi); ta'lim -tarbiya jarayoniga oid ishchi farazni ilgari surish, uni nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish maxsus metodikasini ishlab chiqarish va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi o'zi tadqiq etayotgan predmet yoki hodisalami o'rganishda ilmiy bilishning turli metodlaridan foydalanish asosida ma'lum yangi bilimlami hosil qiladi. Bu yangi bilimlar o'zlarining paydo bo'lishidan, to insoniyatning nazariy bilimlari tizimlari - fanlarga kirib kelishgacha, har xil ko'rinishlarda bir qancha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tadi. Ilmiy tadqiqot asosida paydo bo'lgan yangi bilimlaming rivojlanishidagi turli ko'rinishdagi bu bosqichlar ilmiy bilishning shakllari deyiladi. Ilmiy bilish bunday shakllarining asosiylarini ilmiy g'oya,

muammo, faraz, nazariya va ilmiy oldindan ko'rishlar tashkil qiladi. Umiy g'oya ilmiy bilishning binnchi shaklidir.

**Diagnostikada so'rov metodlar**L Pedagogik diagnostikada turli *og'zaki so'rov* metodlari mavjuddir. *Nostandart intervyu* ko'proq birinchi sinov qadamini eslatadi. Bunda muammoni aniqlash, axborot to'rlash rejasining asosiy holatlarini yana bir bor tekshirib ko'rish va tadqiqot ob'ektini aniqlash zarur. Intervyu o'tkaziladigan mavzu tanlangach, uni olib boruvchi faqat oraliq savollar yordamida mavzuni kerakli yo'nalishga buradi. Javob beruvchi o'zining qarashlarini o'ziga qulay shaklda bayon qilish uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. Bu erkin shakl intervyu oluvchiga katta talab yuklaydi.

*Standart intervyuda* intervyu oluvchi beriladigan savolaming tuzilishi va ketma-ketligini o'matuvchi maxsus ishlangan sxema asosida ish olib boradi sxemada savollarga tushuntirishlar,so'rov kechadigan holatlar ham ko'rsatilgan bo'ladi. Masalan, «O'quvchilarga jinsiy tarbiya berishda oilaning hamkorligiw mavzusidagi so'rovnomaning sxemasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

*Holat uyda oilaning boshqa a 'zolari yo 'q vaqtida bolaning onasi bilan o tkazilgan intervyu.*

Savollar	Javoblar
<p>Maktab bilan oila hamkorligida bolalaming jinsiy tarbiyasini amaJga oshirish to'g'risidagi marifiy dasturlar to'g'risida eshitgan bo'lsangiz kerak.</p> <p>J .Sizning farzandingiz bu to'g'risidagi ma'lumotii uyda olganmi ?</p> <p>Agar «ha» bo'lsa, 2 savolga javob berish lozim.</p> <p>Agar «yo'q» bo'lsa, 1- savolga javob kutish kerak.</p>	<p>Otasidan,</p> <p>onasidan</p> <p>Oilaning boshqa a'zolaridan</p>
<p>2.Farzandingizbu ma'lumotni kimdan qabul qilgtui?</p>	
<p>3.Farzandingizni jinsiy tarbiyalashda oila-a'zolarida yakdillik bormi?</p>	
<p>4.Bola tug'ilishi to'g'risidagi axborot hayvonlar yoki insonlar tug'ilishi jarayoni misolida tushuntirilganmi?</p>	
	<p>Savol javobsiz qoldi.</p> <p>Yakdillik bor.</p>

<p>*5 Agar misollar hayvonol olamidani keltirilgan bo'lsa, unda qaysi hayvon misol qilib keltirilgan?</p>	<p>Yakdillik yo'q, chunki.          Boshqa javoblar          Hayvonlar olamidani          Insonlar hayotidani          Savol javobsiz qoldi</p>
---	---

Intervyu mobaynida tarbiyachi suhbatning samuniy kechishini ta'minlashi lozim. Savollar o'ta nazokatli, murakkab bo'lmagan insonlarning nafsoniyatiga tegmaydigan qilib tuzilishi shart. His-hayajonni o'yg'otuvchi shaklda beriladigan savollardan iloji boricha voz kechish lozim. Savol-javob jarayoni savol beruvchi va intervyuchi orasida bir-biriga ishonch tariqasida o'tkazilsa, savollarga olingan javoblar shunchalik to'liq va samimiy bo'lishi ta'minlanadi. Savollar javob beruvchida qiziqish uyg'ota olishi kerak. Intervyu oluvchi iloji boricha neytral pozitsiyada bo'lishi shart, chunki uning vazifasi pedagogika, psixologiya yoki axloq normalan nuqtayi-nazaridan ma'lumot berishdan emas, balki ko'proq axborot olishdan iborat. Javob beruvchilar past yoki o'rta ma'lumotga ega kishilar bo'lishidan qat'i nazar, intervyuchi savollarni oqilona, savodli, nazokatli qilib tayyorlashi kerakki, bu tinglovchida ishonch tug'dirishga asos bo'ladi. Kamtarona va nazokatli tuzilgan savollardan samimiy javobni kutish mumkin, aksincha, demagoglarcha, safсатаbozlikdan tashkil topgan savollardan quruq va hissiz javoblar olinadi. Ayrim hollarda tarbiyalash jarayoni haqida ota-onalar ko'p gapirib yuborishlari mumkin, bu intervyuchidan sabr-toqatlilikni talab qiladi. U savollarni iloji boricha mohirona berib, ancha cho'zilib ketgan javobni qisqartirishi va tadqiqot uchun zarur bo'lgan axborotni eshitishi mumkin

## MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

### TESTLAR:

### TESTLAR:

#### 1. “Metod” so'zining lug'aviy ma'nosi-bu...

\*A) lotincha «metodos»-«yo'l», “uslub”

B) vazifa, faraz

S) qo'llanma

D) yo'nqнома

E) nasihat, maslahat

#### 2. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda nimani anglatadi?

\*A) muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan uslubni, malum maqsadga erishish yo'hni

B) tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilishni

S) qandaydir vazifani hal etishni

D) ta'lim -tarbiya jarayomga taalluqli muhim faktlarni

E) pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlarini anglatadi

#### 3. Pedagogika faai o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida qanday metodlardan foydaianadi?

\*A) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi

B) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni kuzatish orqali o'rganadi

S) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni suhbat asosida o'rganadi

D) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni tajriba asosida o'rganadi

E) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni matematika-statistika metodlari asosida o'rganadi

**4. Hozirgi kunda pedagogikaning qaysi ilmiy - tadqiqot metodlari yetakchi xisoblanadi?**

- A) Pedagogik kuzatish va so'rash metodlari;
- B) Test sinovlari va ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodlari;
- C) Tajriba - sinov metodlari;
- D) Matematika - statistika metodlari;
- E) Barcha javoblar to'g'ri

**5. So'rashning modifikatsiyalashtirilgan shakli —bu..**

- A) Dialog
- B) Monolog
- \*S)Intervyu
- D) suhbat
- E) kuzatish

**6. Suhbat metodi - bu...**

A) An'naviy pedagogik metod

\*B) Dialog, diskussiya tarzida o'tkazilib, insoniy munosabatlar, ularning istiqboldagi rejalari, qarashlari va xususiy fikrlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan metod

S) Pedagogik jarayonni kuzatish uchun zarur bo'lgan metod

D) Suhbatdoshning ichki olamini o'rganish uchun axborot-texnologiyalari orqali unga ta'sir o'tkazish metodi

E) Bilim, ko'nikma, malaka oshirish metodi

**7. Pedagogikada ta'lim -tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbqiq jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ilmiy tadqiqot metodi -bu...**

A) Kuzatish metodi

\*B) Tajriba -sinov metodi

S) Suhbat metodi

D) Modellashtirish metodi

E) Ijtimoiy fikmi o'rganish metodi

**8. Pedagogikada ijtimoiy fikrni o'rganish (so'rovnoma, intervyu, test) metodining vazifasi -...**

\*A) Biror muammo tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidir Bu metod orqali o'rganilayotgan muammoning yechimim topish yo'li belgilanadi.

B) Ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'risida muayyan xulosaga kelish uchun foydalanuvchi metod Bu metod ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi

S) Uzoq muddatli jarayonlarni tekshiradi

D) Ko'p xususiyatli jarayonlar, o'zaro munosabatlarni tadqiq qiladi

E) Ilmiy ishlarini tashkillashtirishda qo'llaniladigan metod

**9. Ilmiy tadqiqot natijasida jamlangan axborotga kompyuter texnologiyalari yordamida ishlov berish, statistika ma'lumotlarini jamlash, taxlil qilish, qiyoslash umumlashtirishda qo'llaniladigan metod-bu...**

A) So'rovnoma

B) Qiyoslash

\*S) Matematika va statistika metodi

D) Kuzatish

E) Tajriba

**10. Qaysi metod ta'lim -tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi?**



- A) Matematik-statistika
- B) Bashorat
- S) Interpretatsiya
- D) Modellashtinsh
- \*E) Pedagogik kuzatish

### 11. Modellashtirish- bu...

- \*A) bilish ob'ektlarini o'z tushunchalari asosida tadqiq etish, jarayon va hodisalarning xususiyatlarini o'rganish maqsadida modellar orqali o'rganish
- B) Tajriba asosida qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rganish
- S) Ta'lim-tarbiya jarayonida qaror qabul qilish texnologiyalarini ishlab chiqishga mo'ljallangan metod
- D) Ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida ekstatemat to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqishga mo'ljallangan metod
- E) ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirish

### 12. Pedagogikada oddiy kuzatish nima?

- A) pedagogik jarayonni tahlil qilish
- B) tarbiya natijasini umumlashtirish
- S) ta'limning kafolatlangan natijasiga ensish
- D) hayotiy voqea-qodisalarni tahlil qilish bilan cheklanish
- E) o'qituvchining faoliyatini o'rganish

### 13. Sotsiometriya- bu...

- A) nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash uchun qo'llaniladigan metod
- B) pedagogika faniga ijtimoiy psixologiya sohasi orqali kirib kelgan tushuncha bo'lib, kichik ijtimoiy guruhlarning tarkibi hamda ijtimoiylashuvi vazifalarini miqdoriy metodlar orqali o'rganadi
- S) "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarining o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun qo'llaniladigan metod

- D) Test sinovlan va taTim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi
- E) pedagogika faniga ijtimoiy psixoliya sohasi orqali kirib kelgan tushuncha bo'lib, guruhlarda kelib chiqadigan ixtiloflarni o'rganadi

**14. Tajriba nima maqsadda o'tkaziladi?**

- \*A) TaTim- tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqiy jarayonlarni aniqlash maqsadida
- B) Bola rivojlanishiga doir o'zgarishlarni aniqlash maqsadida
- S) Bolalarning ruxiy jihatdan rivojlanishini aniqlash uchun
- D) ) Maktab yoshidagi bdalarga xos boTgan xususiyatlarni o'rganish maqsadida
- E) Katta insonlarga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash maqsadida

**15. Matematik-statistika metodiga XX asrning 40 yillarida asos solgan olim-...**

- A) ingliz olimi A. Osborn
- B) nemis olimi A. Vald
- S) amerika olimi R. Jonson
- D) rus olimi S. Arxangelskiy
- E) rus olimi YU. Babanskiy

## **mavzu. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'LCHASH VA SHKALALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

**Pedagogik diagnostikani o'tkazish yo'nalishlari.** Pedagogik diagnostikani o'tkazish yo'nalishlari vatartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

-tayyorlov yo'nalishi: anketa-so'rovnomalami, sxema-chizmalami, u yoki bu parametrlami, ko'rsatkichlar jadvallarini tayyorlash;

-tashkiliy yo'nalish: diagnostika o'tkazish va uni muhokama qilish mexanizmlarini tashkillashtirish;

-pedagoglami va o' quvchi-yoshlarning o'z-o'zini baholash yo'nalishi: har bir shaxs bilan alohida, individual tarzda ishlash;

-ma'muriyat, hamkasabalar, tengdoshlar, samdoshlar, ota-onalar va yoshlar tomonidan baho berish yo'nalishi;

-qo'lga kiritilgan axborotlar ishlovi vatahlili;

-tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish;

-pedagogik konsiliumlarni tashkil qilish va unda muhokama etilayotgan pedagogik vaziyatlar yechimini to'g'ri hal etilishini ta'minlash maqsadida tavsiyalar tizimini ishlab chiqish hamda zarur hollarda o'quv-tarbiyaviy jarayonni koreksiyalash.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat ijodiy izlanishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Bunda pedagogik tashxislash ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lib, o'qitish vatarbiyalash jarayoniga xizmat qiladi.

Pedagogik diagnostikada o'lchash va shkalalashning maqsadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'lchash va shkalalashning asosiy yo'nalishlari mavjud. O'lchashning maqsadi - doimo ob'ekt hodisa yoki jarayonning belgilari haqida axborot olishni ko'zda tutadi. Biz ob'ektning o'zini emas, uning xususiyatlari va farqli tomonlarini ulchaymiz. Masalan, biz stulning o'zini emas, uning balandligi, eni, bo'yi, og'irligi kabilarni olchaymiz.

Shkalaning raqamli ko'rsatgichlari haqiqatni aniq aks ettirgan taqdirda shkalalash solishtirish jarayonini bevosita osonlashtiradi.

Miqdor haqida gapinganda «empirik relyativ» iborasining ma'nosini tahlil qilishga to'g'ri keladi Diktantda to'g'n yozilgan so'zlar «empirik faktlar miqdorini» tashkil qilishi mumkin. Agar diktantda Hasan 35 so'zni, Anvar 27 ta so'zni, Umid 24 ta so'zni xatosiz yozgan bo'lsa, biz faqat Hasanda Anvamikidan, Anvarda Umidnikidan to'g'n so'zlar ko'pliginigina emas, balki Hasanda Umidnikidan to'g'ri so'zlar ko'pligini ham nazarda tutamiz. Empirik faktlar biri-biri bilan ma'lum munosabatda bo'ladi Miqdoriy o'lchov buni aniq ko'rsatishi kerak. Lekin she'mi ifodali o'qib bergan o'quvchilami, ularning axloqiy normalarga mos kelishini yoki tarbiyalanganlik darajasini bunday o'lchash qiyin Shu sababli bugungi kunda o'lchashning darajasiga mos qo'yidagi shkalalar mavjud:

- nominal shkala;
- tartibli shkala;
- intervalli shkala;
- munosabat yoki proporsiya shkalasi.

**Shkalalash.** Shkalalash o'lchovi metodlardan biri. Uning yordamida aniq psixologik hodisalarning sifat ko'rsatgichi miqdoriy baholash tarzida namoyon bo'ladi. Shkalalashning asosiy uch turi mavjud. Bular baholash shkalasi, ranjirovka shkalasi, sotsiometrik shkalalar va h.k.

**Baholash shkalasi.** Bu turdagi shkaladan matematik metodlar yordamida tadqiqot natijalariga ishiyov berishda foydalaniladi. Ushbu shkala qo'llanilishda oddiyligi bilan ajralib turadi va aksariyat hollarda real pedagogic va psixologik holatlar sonlar sistemasi bilan modellashtirilganda ishlatiladi.

Masalan, o'qituvchi vao'quvchi o'rtasidagi munosabatlami aniqlash uchun quyidagi baholash shkalasidan foydalanish mumkin:

1. O'ta salbiy, muholiflik kayfiyati (-2)
2. O'rtacha salbiy (-1)
3. Loqayd (0)
4. O'rtacha ijobiy (+1)

## 5. Ijobiy (o'ta kuchli)

Baholash shkalasidan foydalanilganda o'qituvchi har bir shkalani alohida tafsiflab o'tishi joyiz.

Baholash shkalasining yana bir ko'rinishi - bu *reytingdir*. Reyting - o'lchovining diagnostika metodlaridan biri sifatida bugungi kunda o'quv-tarbiya ishlarida keng foydalanilib kelinmoqda Undan ruhiy holat, pedagogik holat, pedagogik vaziyat, intellectual salohiyat, o'quv - biluv darajasi, o'zlashtirish ko'rsatgichlarini aniqlash maqsadida fpydalamladi. Reyting baholashda o'qituvchi mutasaddi ekspetlar guruhi, yoki ruhiy holat to'g'risida xolisona xulosalar va baholar sistemasidan oqilona foydalanishi zarur. Masalan, reytingdan o'qitish metodlari samaradorligini aniqlash, o'zlashtinsh ko'rsatgichlarini o'rgagish, tashxislar vositalari to'g'nsida aniq xulosa olish uchun va ta'lim istiqbollarini belgilashgda foydalaniladi.

**Ranjirovka shkalasi.** Ranjirovka shkalasi o'zga ko'rsatkichlar bilan solishtirilganda, qiyoslanganda hosil bo'ladi.Ko'rsatkichlar salmog'iga ko'ra qatorlashtiriladi (sarananadi).

Masalan, sinfdagi o'quvchilar ayrim sifatlariga ko'ra ranjirovka qilinganda *korrelyatsiya*<sup>1</sup> o'tkazishga imkoniyat yaratiladi. *Korrelyatsiya* natijasida - o'quvchilar orasida ruhiy holat, sifatlovchi va tavsifiy belgilar hamda boshqa hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik vujudga keladi. Buning uchun tashhislovchi o'qituvchi quyidagicha jadval tuzishi lozim.

Af p/p	O'ku vchilar farrMiyy as L, hnri	Birtochl tavsifly belgisi bo'yicha o'mi (rangl)	Ikldnchi tavsifly belgisi bo'yicha o'mi(rangi)	O'rinlar (rangbr) har-xilligi d	d'
	Xaitova Zilola	3	2	1	1
	Berdiyev Ravshan	7	3	4	16
	Axmedov Samad	2	15	-13	169
	Do'stov Tohirbek	9	12	-3	9
	Imomov Asilbak	Iin	7	4	16

<sup>1</sup> Koppejuuui - UKKH xoflHca jipTacujia 6OTHHK>IHK nailjio KHHHUI

Shundan so'ng rang (o'nnlar) korrelyatsiyasi koeffitsiyentmi Spirmen formulasi bo'yicha hisoblash mumkin:

$$r_s = 1 - \frac{6 \sum d_i^2}{n(n^2 - 1)}$$

Bu yerda  $n$  - sinfdagi o'quvchilar soni.

Agar hisoblangan koeffitsiyent ijobiy ko'rsatkichga ega bo'lsa, unda o'rganilayotgan ikki hodisa o'rtasida ijobiy (to'g'ri) bog'lanish mavjud; Agar hisoblangan koeffitsiyent salbiy ko'rsatkichga ega bo'lsa, unda teskari aloqa mavjud ekanligidan dalolat beradi, ya'ni, muayyan hodisa yorqinroq xarakterga ega bo'lsa, unda ikkinchisi kamroq bo'rtirilgan bo'ladi. Bunda korrelyatsiya koeffitsiyentining absolyut kattahgi joylashadi va korrelyatsiya qilinayotgan hodisalar o'rtasidakuchsiz bog'lanish mavjud:

$0,3 < |r_s| < 0,5$  - tekis (muvozanatli) bog'lanish;

$0,5 \leq |r_s| < 0,7$  - ta'sirli bog'lanish;

$0,7 \leq |r_s| < 0,9$  - kuchli bog'lanish;

$0,9 \leq |r_s| \leq 1$  - o'ta kuchli bog'lanish.

Ranjirovka shkalasida jo'ftli solishtirish ham muhim ahamiyatga ega Jo'ftli solishtirish deganda biron bir o'quvchidagi tavsifiy belgilar boshqa o'quvchidagi aynan shu tavsifiy belgilari bilan solishtiriladi Agar muayyan sifatlar ikkala o'quvchida bir «1 bo'lsa, unda har ikkalasi bir ball olishga muvaffaq bo'ladi. Agar tadqiq qilinayotgan sifatlar birinchi o'quvchida ikkinchisiga nisbatan yorqinroq shakllangan bo'lsa, unda birinchi o'quvchiga - ikki ball, ikkinchi o'quvchiga - no) ball quyiladi Har bir o'quvchiga quyilgan ballar yig'indisidan shakllanganlik ko'rsatkichining miqdoriy o'zgarishini aniqlaymiz. Juftli solishtirish ko'p vaqt talab qilmasligi, matematik ishiov berishda soddaligi bilan ajralib turadi va ushbu metod o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida aniq ma'lumot olishga imkoniyat yaratadi :(  $\frac{n(n-1)}{2}$

$\frac{n(n-1)}{2}$ , bu yerda  $n$  o'quvchilar soni.

*Nontinal shkala*- bu shkala bo'yicha tashxis quyilganda o'quvchi-yoshlarning sifatlovchi belgilarga qarab qo'yiladi. Bunda musiqaviy qiziqishlari, matematik qobiliyatlari, sportga qiziqishini, san'atga ishqibozligini differentsiatsiya qilish mumkin. Masalan, o'quvchi-yoshlarning san'atga bo'lgan qiziqishlari yaqqol namoyon ekanligini belgilash uchun, shaxsni sifatlovchi belgilarga mos gradatsiyalangan iboralardan foydalanish mumkin. Demak, bunday hislatlarni turkumlash ( $A=V$  yoki  $A=V$ ,  $V=V$ ) qandaydir belgisiga ko'ra shundaylik va farqlik tomonlan, ya'ni belgining sifat xususiyatlari muhimligini ta'kidlash joizdir. Nominal shkalalash-o'lchashning eng «past» shkalasi. Bunday o'lchashda raqamlar nisbatan kam ishlatilib, biror kategoriyaga mansublikni aniqlash mumkin. Nominal shkalada modal o'lchov (miqdor), ya'ni eng ko'p uchraydigan o'lchov bo'ladi. Agar sinfda 14 nafar bolaning bittadan singlisi yoki ukasi bo'lsa, 11 ta bolaning ikkitadan singlisi yoki ukasi bo'lsa, 5 ta bolaning uchtdan, 4 ta bolaning to'rttdan, 3 ta bolaning beshtadan aka- ukalari bo'lsa, 4ta bola oilada yagona farzand bo'lsa, bunda 14 (ya'ni bittadan singlisi yoki ukasi borlar) modal miqdor hisoblanadi.

**Tartibni aniqlovchi shkala.** Tashxislash metodlarini konstruksiyalashda tartibni aniqlovchi shkalalardan foydalanish mumkin. Masalan, o'quvchilarning guruhlarda muloqotga kirishuvchanligini aniqlash uchun ular to'g'risida «xomaki» material to'plash zarur. So'ngra «xomaki» materialdan yoshlarning kirishuvchanlik darajasini aniqlashga zamin yaratiladi. Quyidagi formula asosida o'quvchi-yoshlarning u yoki bu sifatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini aniqlashga imkoniyat yaratiladi:

$$RR = \frac{\text{cumf} - f}{2N} \cdot 100$$

Bunda R-shaxsiga oldindan qo'yiladigan baho (0 dan 34 ballgacha belgilanadi);  
f-bir xil tavsifiy xususiyatga ega bo'lgan o'quvchi -yoshlar soni;  
cumf-kumulyativ chastota;


N-tashxis qilinuvchi umumiy o'quvchi- yoshlar soni.

Agar o'quvchilarni ingliz tilidagi so'zlarni bilishi bo'yicha tavsiflasak, ularning bilimlari hajmi bo'yicha turlicha chiqadi. Buni shunday misolda ko'rib chiqsak:

Hasan 28 ta so'zni, Anvar 26 ta so'zni, Umid 18 ta so'zni, Nigora 12 ta so'zni va Akmal 9 ta so'zni ingliz tilida yod aytib berishdi, deylik.

Buni chizmada tasvirlasak, tartibni aniqlovchi shkalaning muhim farqli bejilari namoyon bo'ladi:

mediana



o'rin 5 4 3 2 1

AkmalNigora Umid Anvar Hasan

Bolalarga ketma ketlikda 1-5 gacha o'rinni bejilash mumkin, lekin qatordagi o'rinlarni ajratuvchi interval turlicha. O'rinlar haqida aniq fikrlash mumkin, biroq ular o'rtasidagi interval haqida bunday deya olmaymiz.

26 ta so'z biladigan 2- o'rindagi Anvar 4 o'rinidagi Nigoradan 2 barobar ko'p biladi, deb hisoblab bo'lmaydi, chunki 12 so'z 26 so'zdan ikki barobar kam emas. Shuning uchun medianani aniqlashga to'g'ri keladi. Bu o'lchovning ikki tomonida ham bir xildagi son qoladi. Bizning misolimizda mediana Umidning natijasiga to'g'ri keladi. Bu shkala ketma ketlik va tartibni aniqlaydi.

Intervallar shkalasi To'g'ri intervallar faqat intervallar shkalasida bo'lishi mumkin.

Agar A buyum 25 gradus darajada, B buyum 50 gradus temperaturada bo'lsa ular o'rtasidagi miqdor 75 gradus va 100 gradus temperaturadagi buyumlar o'rtasidagi farq qatori, ya'ni har bir farq 25 gradusni tashkil qiladi. Lekin biz 50 gradus 25 gradusdan ikki barobar issiq degan xulosani chiqara olmaymiz. Intervallar shkalasi turli miqdorlarning proporsiyalari haqida xulosa chiqarishga yordam bermasada, biz o'rtacha arifmetik miqdorni topishimizga yordam beradi. Bu shkala nominal va tartibli shkaladan ancha ustun bo'lib hisoblanadi.



*Munosabatlar yoki proporsiyalar* s/iAo/osi. Munosabatlar shkalasi proporsiyalar haqida xulosa chiqarishga (ikki barobar ko'p, ikki barobar kam, to'rt barobar og'ir kabi) imkon beradi. Buni uzoqlikni (metr, santimetr kabi) va og'irlikni (kilogramm, gramm) o'lchovlarida ko'rishimiz mumkin. Agar doskaning uzunligi 3 metr bo'lsa, u 1,5 metrlik doskadan ikki barobar uzun. Yoki 170 grammlik buyum 100 grammlik buyumdan 1,7 barobar og'ir.

Bu shkala yordamida barcha statistik hisoblar olib boriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nominal shkalada modal miqdori, ya'ni eng ko'p uchraydigan o'lchovni ko'rsatish mumkin.

Tartib shkalasi ikki tomonda ham teng miqdordagi o'lchov qoladigan medianani topishga yordam beradi.

Intervallar va munosabatlar dtkalari o'rtacha arifmetik o'lchamni topishga yordam beradi.

Shunday qilib, ta'limning o'ziga xos tomoni, u tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida pedagogik faoliyat, shaxsning shakllanishini o'ziga birlashtirib, ana shu uchta asoslardan real pedagogik jarayonni tuzadi, bu jarayon turli ta'lim-tarbiya konsepsiyalari, nazariyalari yordamida loyihalashtiriladi va ta'lim tizimi muassasalarida tatbiq etiladi.

**Sotsiometrik shkalalar.** Shkalaning bunday turi sinf rahbarlari uchun juda muhimdir.

CHunki ular asosida sinf rahbari sinfdagi o'quvchilar o'rtasida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi.

Masalan, sotsiometriya metodikasi sinfdagi o'quvchilar o'rtasida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlarni aniqlashga imkoniyat beradi. O'tganilayotgan munosabatlar xarakteriga qarab, o'qituvchi o'quvchilarga qo'yidagi savollar bilan murojaat etishi mumkin: «Bir partada kim bilan o'tirishni istardingiz?», «Bulg'usi munozara darsida kimni ekspert sifatida ko'rishni hohlaysiz?» SHunga o'xshagan savollarga javob berayotib, o'quvchilar maxsus blankalarga taklif qilinayotgan o'rtoqlarining ismi, sharifini

o'zlari taqdim qilavotgan raqamlari bo'vicha kiritishlari lozim (birinchi navbatda.

So'rov natijaJari asosida quyidagi matritsa tuziladi( aylanaga o'zaro hamkorlikka asoslangan tanlamalar olinadi):

Jfe	Kim n tomonida	Kimni			
		1	2	3	4
1	Xaitova Zilola		©	©	
	Berdivev Ravshan				
2	Axmedov Samad	©		1	
3	Do'stov Tohirbek	©			©
4	Imomov Asilbek		1	©	
<b>Tanlangantar soni</b>		<b>2</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>1</b>
<b>O'zaro hamkorlikka</b>		<b>2</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>1</b>

SHundan so'ng, alohida varoqqa sotsiogramma chiziladi. Ushbu sotsiogramma to'rtta konsentrik aylanadan iborat bo'lib, uning ichiga raqtimlar asosida sinfdagi barcha o'quvchilar kiritiladi Birinchi - (markaziy) aylanaga «sotsio-metnk yulduzlani (o'zgalarga

nisbatan ikki barobar ko'p tanlamaga ega bo'lganlar); ikkinchi aylanaga - «tanlanganlar»

(o'rtacha tanlama "ovoz" olganlar); uchinchi aylanaga - "orqada qoluvchilar" (o'rtachadan past "ovoz" olganlar); to'rtinchi aylanaga - «ommaning nazaridan chetda qolganlar" (bironta tanlamaga ega bo'lmaganlar) kiritiladi. Tanlama kim tomonidan tanlanganligivektor bilan belgilanadi.

**Tahlil.** Tahlilda biz kuzatishning solishtirma tasnifidan chetga chiqamiz. Endi biz u yoki bu individning xulqi oldingidan, boshqa indvidlaming xulqidan nima uchun farq qilishini yoki normadan chekirtishini bilishni xohlaymiz Biz bu sabalami tahlil qilishni, aynm o'quvchilarimizning xulqi biz kutganimizdan boshqacha bo'lib chiqishi sabablarini bilishga intilamiz.

**Bashorat** qilish (prognoz)- ma'lum vaqt oralig ida kuzatilayotgan ob'ektga nisbatan ehtimoliy ilmiy asoslangan fikrlar majmuyidir. Jamiyatimizning hozirgi bosqichida yosh avlodning ichki imkoniyatlarini aniqlash, manaviy madaniyatli va yuksak

pedagog, psixolog, adabiyotshunos va jamiyatshunos mutaxassislar tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Hozirgi zamonda prognozlashtirishning ilmiy muammolari jamiyatimizning har bir sohasida, shuningdek, ta'lim jarayonini didaktik loyihalashda o ta muhimdir. O quvchilarni o'qitish jarayonida bashorat qilishning pedagogik omillaridan foydalanishning bir qator yechimini kutayotgan muammolari bor:

-birinchidan, siyosiy va ijtimoiy jihatdan ta'lim davlat siyosatida ustivor deb belgilanishi;

-ikkinchidan, inson faoliyatining asosiy turi mehnat, atrof - muhitni o zlashtirish, bunyod qilish orqali ham ijtimoiy, ham shaxsiy ehtiyojlarini qondirishi;

-uchinchidan, respublikaning umumiy o'rta ta'lim maktablarida ilm olish ijtimoiy hodisa sifatida qaralishi;

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev yosh avlod tarbiyasida bashorat qilish o'mi nihoyatda beqiyos ekanligini ta'kidlab, shaunday deydi: «Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikmi singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat - shijoatiga, to la - to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy sharmdir.

“Prognozlashtirish- insonning bilish faoliyati turi, ya'ni ob'ekt va uning rivojlanish g o'ylarini tahlil qilish asosida prognostik shakllantirish yo'nalishidir<sup>1 2</sup>”, - deb yozadi F. Kerimov o zining “Sportchining mahorauni prognozlashtirish” asarida.

Pedagogik diagnostika doirasida oqituvchi solishtirish va tahlilda olingan natijalarni boshqa sharoit va kelajakda qo llashga majbur. Agar o quvchi bir xonali sonlarni ko paytirish qoidasini qo shimcha darsda o'zlashtirgan bo'lsa, o'qituvchi kuzatuv olib borib, o quvchi shu natijani sinfda ham takrorlay olishga qodirligini, ikki xonali sonlarni ko'paytirish qoidasini idrok etishga tayyor ekanligini aniqlay olishi kerak.

---

<sup>1</sup> MnfnneeB III M. EYIOK Kena»;arHMM3Hu Mipzi ea ojiHfi»aHo6 xgJiKHMIn GHJIOH Snpra K\$paMH?. -TOHKCHT; VS6CKHCTOH, 2017.-69-i->et

<sup>2</sup> Kerimov F. Sportchining mahorati prognozlashtirishi-Toshkent-Moliya. 2005-142-bet

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi doimo vaziyatni bashorat (prognoz) qilib boradi, uning natijalariga qarab o'quv-tarbiyaviy tizimning keyingi bosqichlarini aniqlaydi. Attestatsiyao'tkazish davomida o'qituvchi yuqori bilim talab qilinadigan maktab (o'quv yurtida o'qishga, uni muvaffaqiyatli tugallashiga tadqiq qilinuvchi o'quvchi-yoshlarning tayyorgarligi yetadimi, yo'qmi, ijtimoiy hayotdagi faollik darajasi qanday ekanligi kabi masalalarni bashorat qila olishi kerak. Hozirgi kun talabi asosida har bir o'qituvchi prognostika bilan shug'ullanishi zarur.

**Interpretatsiya.** Barcha axborotlarni uning muhimligiga qarab, yaxlitlash, butunni tashkil qilish pedagogika *interpretatsiya* deb ataladi.

O'qituvchi nuqtayi nazarini va kutganidan tashqari muayyan vaqt ichida to'plangan axborotlarga ham baho berib borishi kerak. Axborotlar tizimlashtirilgan, tanqidiy baholangan, umumlashtirilgan kontseptsiya tarzida bo'lishi lozim. Bu axborot turli manbalardan: o'qituvchilar tajribasidan, ota-onalarga ko'rsatma, biografiyalar, ma'lumotlar, shaxsiy kuzatishlar, sinf, guruh ishlari, testlar, Internet, ma'lumotnomalar, o'quv adabiyotlari, davriy nashrlardan olinishi mumkin. Interpretatsiya jarayoni faqat o'qituvchining shaxsiy interpretatsiyasi asosida yoki unga ob'ektiv metodlar yordamida olingan o'zgarishlar kuzatishlari natijalarini ham hisobga va e'tiborga olgan holda tashkil etilishi bilan farq qiladi.

## **MAVZU BO YICHA SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:**

1. «Pedagogik diagnostika» mohiyatini izohlab bering.
2. Pedagogik diagnostikaning keng tarqalgan metodlari to'g'risida fikr bildiring.
3. Korreksiyalash ta'sirida o'quvchi-yoshlarning qanday xislatlar shakllanishi mo'ljallanadi?
4. Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun nimalarga e'tiborni qaratish lozim?
5. Internet ma'lumotlaridan foydalangan holda «Pedagogik diagnostika va korreksiya jarayonida komil inson qiyofasini shakllantirish» mavzusida davra suhbatini o'tkazing.

## TEST SAVOLLARIGA JAVOB BERING :

**«Pedagogik diagnostika» atamasi kim tomonidan va qachon fanga kiritildi?**

- A) 1943 yil T. Kelli tomonidan
- B) 1978 yil J J Russo tomonidan
- S) 1900 yil Edvard Tomdayk tomonidan
- ◆D) 1968 yil Karlxayns Inkenkampf tomonidan

**Ijtimoiy pedagogik diagnostika bu-?**

- A) O'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayon to'g'risida aniq maTumot olishning umumiy vositasi
- B) \*Pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsda ma'naviy, ruhiy, jismoniy, ekologik, ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish xaqidagi fan sohasi
- S) Hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar bilan olib boriladigan aniq faoliyat
- D) Muayyanjarayon to'g'nsida aniq maTumotolish metodlari majmuasi

**Tarbiyalanganlik bu?-**

- A) Odob-axloqlilik
- B) Jahl chiqqanda o'zini bosa olish xususiyati
- ◆S) Jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga bo'ysinish va o'zgalaming naffatini qo'zg'atadigan xatti-harakatlardan o'zini tiya bilish
- D) jamoadoshlarining fikriga bo'ysinish

**Diagnostik jarayonning asosiy tayanch nuqtasi nima?**

- A) \*Solishtirish
- B) Tahlil
- S) Interpretatsiya
- D) ShkalalaSh

**Nominal Shkala bu?-**

- A) Yoshlaming guruhlarda muloqatga kirishuvchanligini aniqlash
- B) Yoshlaming axloqiy fazilatlarini aniqlash
- S) \*O'rganiluvchi ob'ektning sifatlovchi belgilariga tashxis quyish
- D) O'rganiluvchi ob'ektning Shaxsiy belgilariga qarab model tuzish

### **Pedagogik diagnostikada «normalar» deb nimaga aytiladi?**

- A) \*O'rganuvchilaming intellektual, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda erishgan natijalarini baholash uchun zarur bo'lgan axborot to'plash
- B) Yoshlaming xulqini kuzatish bo'yicha to'plangan axborot
- S) O quvchilarning individual o'zlashtirish darajasi
- D) Urganiluvchilaming oldingi natijalari bilan qiyosiy tahlil

### **O'lchashning darajasiga mos shkalalaming to'g'ri belgilangan qatorini ko'rsating?**

- A) \*Nominal, tartibli, intervalli, munosabat yoki proporsiya
- B) Tartibli, intervalli, empirik, axloqiy
- S) Miqdoriy, intervalli, o' lchov, tartibli
- D) Miqdoriy, intervalli, proporsiyali

### **Pedagogikada bashorat (Prognoz) nima?**

- A) Oldindan ko'ra olish mahorati
- B) \*Pedagogik solishtirish va tahlilda olingan natijalami boshqa sharoit va kelajakda qo'llash
- S) Ta'lim-tarbiyajarayonida pedagogik vaziyatni tahlil qilish
- D) Insonning ijtimoiy hayotdagi faollik darajasi

### **Ishonchlik nima?**

- A) \*O'rganilayotgan uyoki bu aniq belgining aniqlik darajasi
- B) OTchov sifatining muhim metodik sifati
- S) TaTimning o ziga xos tomoni
- D) Biror belgining aks etish darajasi

### **Test metodikasida valid( inglizcha: valid-aniq ko'rsatkichlikning qaysi turlari uchraydi)?**

- A) \*Mazmunning, natijaning, bashoratning validligi
- B) Testning o'lchamli bo'lishi
- S) Solishtirma, konstruktiv validlik
- D) Ob'ektiv, sohshirma, qiyosiy validlik

**«Xarakter» suzi yunon tilidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi nimani bildiradi?**

- A) \* «belgi», «zarb qilish»
- B) «qolip», «aks-sado»
- S) «guruxiy munosabat»
- D)«belgilar majmuasi»

**Xarakter nima?**

\*A) Shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlari bulib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

- B) Individual xususiyatlar ( masalan, dadillik yoki ishonchsizlik, qurqoqlik)
- S) Kishi shaxsning yunalishini belgilaydigan ijtimoiy munosabatlar
- D) Insonlarga tabiatan berilgan sifatlar

**Xabardorlik bu?-**

- \*A)Shaxsning o'z mutaxassisligi bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lishi, o'z sohasini dunyoviy jarayonlar bilan qo'shib olib borishi, ulardan o'rganishi.
- B) Barcha ma'lumotlami oldindan bilish
- S) Axborotlarni bilish uchun uz mutaxassisligi buyicha ma'lumot tuplash
- D) Redagogikada xeng tarkalgan ilmiy-tadkikot metodlari oakali axborotyigish

**Xotira bu?-**

- \*A)Individning o'z tajribasini esda saqlab qolishi va keyinchalik uni yana esga tushirish jarayonidir. Xotirada esda olib qolish, esda saqlaSh, esga tushirish va unitish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib ko'rsatiladi
- B) Alohida mustaqil psixik xususiyat
- S) Faoliyat davomida shakllanadigan ruxiy jarayon
- D) Individning axborotlami esda saqiyab qolishi va zarur bulganda yana esga tushirish jarayonidir

**Shaxs bu?-**

- \*A) Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlaming iste'molchisi va ulami amalga oshiruvchi. U ruhiy jihatdan taraqqiy

etgan, o'z xususiyati va sifatlan bilan boshqalardan farq qiladigan muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi.

B) Shaxs o'zining qadr-qiyamati va kamchiliklari bilan jamiyat hayotida faol qatnashadigan sub'ekt

S) Ta'lim-tarbiyanatijasida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz tomonlari bilan paydo bo'lgan individ.

D) Shaxs- «odamning jamiyat a'zosi sifatida, o'z-o'zini anglash va tafakkumi, faoliyatning ob'ektivligini, muloqat hamda biluvchanlikni tashuvchanhgidir».

### **Shaxsning xar tomonlama kamolga yetishi \_\_-**

\*A) MaTum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan qobiliyatlar va iqtidorlaming, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlaming toTiq va batomom rivojlanishidir

B) Jjismaniy, ruxiy, ma'naviy jixatdan nvojlaniishi

S) Qobiliyatlar va iqtidorlaming, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlaming to'hq va batomom rivojlanishi

D) Insoniyat tomonidan tuplangan barcha bilimlami tuliq idrok etgan xolda jismoniy, ruxiy, ma'naviy yuksalish

### **Kat'iyatlilik bu?-**

\*A)Shaxsning maqsad yoTida ogishmay shijoatkorona qilgan faoliyati.

B) individning uz kuch-kudratini safarbar etishi

S) insonning irodaviy xususiyatlarini safarbar etishjarayoni

D) ruxiy va jismoniy chiniqish

### **Qiziqish bu?-**

\*A) Biron bir sohada to'g'n moTjal olishga, yangi dalillar bilan tanishishga, voqelikni ancha toTa va chuqur aks ettinshga intilish.

V) Individ uchun qiziqish, sub'ektiv tarzda olganda, bihsh jarayem tusini kaShf etadigan ijobiy hissi ohangda, ob'ekt bilan chuqurroq tanishishga, u haqda ko'proq bihsh, uni anglab yetishga boTgan istakda namoyon boTadi.

S) Shaxsni o'zida bilim olish va anglab yetish borasida hosil bo'lgan ishtieqni qondirish yo'llarini va usullarini faol tarzda izlashga majbur etish.



D) Shaxsning chuqurlashtirgan holda bilish faoliyatining yanada yuksak darajasiga mos keladigan yangi qiziqishlarni keitirib chiqarish.

#### **ADABIYOTLAR:**

Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika-T.: Fan,2005,256 b.

Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart: Klett 1996 p.

Ingenkamp Karlxayns. Pedagogicheskaya diagnostika.-M :Pedagogika,1991, 240 s.

Piaje J. J. Rebyonok i yego razvitiye -M.: Znaniye, 1984,508 s.

Podlastiy I. P. Pedagogika -M., «Vlados», 2003. 576 s.

Sunsov N.S. Diagnostirovaniye v uchenicheskom kollektive- M., // Pedagogika, 2016N°4,S.- 40-50.

## **mavzu. UZLUKSIZ TA'LIMDA PEDAGOGIK NAZORATNITASHKIL ETISHNING ILMIY ASOSLARI**

### **Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik tashxis qilishning mazmuni.**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini isloh qilishning asosiy maqsadi - shaxsni har tomonlama kamol toptirish hisoblanadi.

Pedagogik tashxislashda maktab o'quvchilarining o ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang'ich ta'lim oqishga va ijtimoiy-foydali mehnatga halol munosabatni, Vatanga muhabbatni tarbiyalasa, umumiy o'rta va keyingi bochqichda aynan shu munosabatlar bilan birga ta'limiy-tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini ajraush, bilimlami o'zlashtirish hamda zarur shaxsiy sifatlami shakllantirish, takomillashtirish uchun yaxshi sharoitlar vujudga keladi. O'qish jarayonida qarashlar va ma'naviy sifatlari ham shakllanadi, ya'ni mazkur funksiyalarning birligi va o'zaro bog'liqligi kuzatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik tashxislash va korreksiyalashning mazmuni o'quvchilarda aqliy, intellektual qobiliyatini, ijobiy qarash va e'tiqodlami, axloqiylik, irodalilik va hissiyotlami shakllantirishdan iborat.

Diagnostika o'tkazadigan o'qituvchi o'quvchilarda ma'rifiy va ma'naviy sifatlami shakllantirishi, ma'naviy va moddiy hayotning uyg'unligini, ma'naviy yuksalishda milliy g'oyaning tushunishlarini va ulami turmushda qo'llay bilishlari uchun zamin yaratishi lozim.

Shuningdek, o'quvchilarning hozirgi globalashuv jarayonida ma'naviy ta'xidlami farqlay olishlari, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurash olib borish lozimligini, inson qalbiga yo'l topish ma'naviy kamolot ekanligini va mamlakat ravnaqi yo'lida fidoyilik, jasorat ekanligini anglab yetishlari uchun barcha pedagogik metodlardan foydalanish lozim.

O'qituvchi har bir darsdagi o'quv materialini taqdim qilish jarayonida tarbiyaviy vazifaning muayyan bir tomonini amalga oshiradi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida do'stlik, mehribonlik, mehnatsevarlik to'yg'ulari shakllanadi.

Yoki 5-6-sinflarda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Fuzuliy, Nodira kabi so'z gavharlarining ustalari, turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakillari; 7-10-sinflarda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Usmon Nosir, G'afur G ulom, Zulfiya, Rauf Parfi, Omon Matchon kabi o'zbek adabiyoti osmonida yarqiroq yulduzlar, ko'zni qamashtiruvchi chaqmoqdek paydo bo'lgan shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodini o'rganishar ekan, o'quvchilarda milliy g'urur va iftixor hissi, vatanparvarlik va sadoqat, olijanoblik va insonparvarlik kabi hislatlar shakllantiriladi. Bunday darslarda, darsdan va maktabdan tashqari tadbirlarda o'qituvchining darsda qo'yadigan tarbiyaviy vazifasi o'quvchida shaxsning muayyan sifatlarini takomillashtirishga qaratilishi lozim. Masalan, 8-9-sinflardagi Tarix darslarida Temuriylar davlatining tashkil topishi, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti o'rganilar ekan, o'qituvchi katta maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zbek davlatchiligining rivojlanish tarixi, buyuk bobokalonlarimizning xalq va millat oldida qilgan ulug' ishlari, Temuriylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida tasavur hosil qilish bilan bog'liq ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni amalga oshiradi.

Umumiy o'ita ta'lim maktablarida pedagogik tashxis qilishning mazmuni o'ziga xos xususiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar(6-10 yosh), o'rta pog'ona o'quvchilari (11—14 yoshli o'smirlar) va katta maktab yoshidagi (15-16-17 yoshli o'spirinlar) o'quvchilarni tashxislashda ularning o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlari inobatga olinadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni pedagogik diagnostika qilish va xulqini korrektsiyalashda o'quvchilardagi sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi bilish jarayonlarining o'zigaxos xususiyatlarini inobatga olish kerak.

Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofligi, o'tkirligi bilan boshqa davrdagi insonlardan keskin farqlanadilar.

**Dastlabki test metodining qo'llanilishi.** Testlar. Test - o'rganilayotgan jarayon yoki ob'ekt to'g'risida aniq ma'lumot olish uchun zarur bo'lgan standartlashtirilgan metoddir.

Pedagogik diagnostika natijalari o'quvchi-yoshlar va ularning ota-onalariga xabar qilinishi, yetkazilishi kerak. Aks ta'sir sifatida ularning kelajakdagi faoliyatiga

ham ta'sir qo'rsatish mumkin. Ma'lumotning o'quvchi-yoshlarga ta'siriru, qo'yilgan maqsadga ensilganlikni nazorat qilish mumkin. Shunday nazorat turlaridan bin-  
**testlar** hisoblanadi.

Test orqaji ilmiy asoslangan ma'lumotga ega bo'lib boriladi SHu bois, ulami mutasaddi pedagog va psixologlar loyihalashtirishadi. Bugungi kunda pedagogik diagnostikada testlammg quyidagi turlari mavjud

## **IJMatijaviy testian**

1.1 Rivojlanish testlan

1.2.Intellektual testlar

1.3.Umumiy natijalami ko'rsatuvchi testlar

1.4 Maktabdagi o'zlashtinshm ko'rsatuvchi testlar

1.5.Kasbiy tayyorgarlikni ko'rsatuvchi maxsus testlar

## **2. Shaxsiy psixometrik testlar:**

2.1.SHaxs tarkibiy tuzilmasiru aniqlovchi testlar

2.2.Qiziqish va tnayllami aniqlovchi testlar

2 3Klimk testlar.

Pedagogikada ko'proq maktabdagi o'zlashtinshru ko'rsatuvchi, intellektual rivojlanishni aniqlovchi, kasbiy tayyorgarlikni ko'rsatuvchi, diqqat va xotirani aniqlovchi, shuningdek, ijtimoiy testlardan foydalaniadi.

Xorij davlatlarida diagnostik testlami qo'llash uzoq tarixga ega Pedagogik testlar ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rganish uchun qo'llanilib kelmoqda.

O'zlashtirishm test orqali aniqlash 1864 yili ingliz olimi Joij Fisheming «scale books» (Shkalalagaan kitoblarjidan boshlangan. 1894-yili amerikalik J. M. Rays «Orfografiya bo'yicha bilimlami aniqlash» jadvalini qo'lladi. 1908-yili Tomdaykning shogirdi Stoun anfnetikadan birinchi testni nashr qildi. Boshqa sohalarda ham tesdar keng qo'llanila boshlandi.

Pedagogik testlar sohasining yirik asoschilandan biri Edvard Tomdayk (1874-1949) amerika maktablariga testlami kinb kelishini 3 bosqichda ko'rsatadi:

anglash va dastlabki qo'llash davri bo'ldi. Aqliy rivojlanish darajasini aniqlovchi intellekt teslari ishlab chiqilib tekshirila boshlandi.

2. *Keyingi 15 yillik* maktab teslari sohasida «shovqinli» yillar bo'lib hisoblanadi. Bu davmi teslaming ahamiyatini, uning o'mini, imkoniyatlari va cheklanganliklarini anglash davri deb hisoblashadi. O. Stounning arifmetikaga oid teslari, B. Zekingemning husnixatga oid teslari, E.Tomdaykning ko'plab maktab predmetlan bo'yicha teslari ishlab chiqildi va tatbiq etildi. T.Kelli qiziqishlami o'lchaSh vositalaiini ishlab chiqdi. G Mattesning qobiliyatлами aniqlash teslari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q

3. *1931 yildan* maktab teslashtirishining hozirgi zamonaviy bosqichi boshlandi. Mutaxassislar teslaming ob'ektivligini oshirishga, vangi samarali diagnostik usulami yaratishga harakat qilishdi.

1963 yilda Y. Farenberg, X. Zarg, R. Gampellar shaxsning ko'p qirralik xususiyatlarini aniqlaydigan, R. Bemsning(1983) xulqni tashxislashga oia teslari, A Anastazining o'quvchining ichki dunyosini aniqlash teslan ishlab chiqildi Frantsiyada odatdagi maktabdan aqliy jihatdan rivojlanishi past bo'lgan bolalar tahsil oladigan maktabga o'tkazish uchun pedagogik va tibbiy imtihonlar o'tkazilgan. Shu maqsadda Alfred Bine hamda Teodor Simon 30 ga yaqin topshiriqni o'z ichiga qamrab olgan, murakkabkh darajasiga qarab joylaShtirilgan intellektual rivojlanishni aniqlovchi ko'p bosqichli teslami ishlab chiqib, o'quv maskanlariga taqdim etishdi. Bu teslar dunyodaigi eng mashhur teslar qatoridan o'rin oldi.

Lekin sobiq sho'ro hukumati davrida «Pedagogik buzihshlar to'g'risida» (1936-yil)gi qaror bilan faqat intellektual teslar emas, balki barcha o'zlashtirishni aniqlash teslari qo'Hanilishi bekor qilindi. Hatto XX asming 70-80-yillaridagi urinishlar ham teslami joriy qilishdagi urinishlami zoye ketkazdi

Rivojlangan davlatlarda teslami joriy etish intensiv ravishda kechdi. Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan bizning Respublikamizda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan metodikalami joriy qilish imkoniyati yaratildi

Ta'lim testlari- bu shaxs rivojlanishi va shakllanishining turli tomonlarini diagnoz qilishning xilma xil pedagogik va psixologik shakllaridan bir turi xolos. Mazkur testlarni qo'yidagicha tavsiflash mumkin:

1. Idrok kuchi, aqliy qobiliyat, aqliy rivojlanish testlari;
2. Faoliyatning turh sohalaridagi maxsus qobiliyat testlari,
3. Ta'lim, o'zlashtirish, akademik natija testlari;
4. Shaxsning alohida sifatleri(xotira, tafakkur, intellektjni aniqlash testlari  
Masalan, Veksleming mashhur IQ- «intellektni tashxislash»,  
Gilfordning S-«Standartlashgan shkalalari», Amtxauyeming «Z-  
Qiziqishlarni baholash» kabi diagnostik testlari bunga misol bo'laoladi.

**O'Ichovning metodik sifat talablari Pedagogik diagnostikada «o'lchov» tushunchasi.** Pedagogik diagnostikada o'lchovning natijalarini aniqlik va ishonchlilik talablariga javob berishi lozim. O'lchovning sifatiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) Ob'ektivlik.
- 2) Ishonchlilik.
- 3) Validlik (*ingliz tilida: vahd ahamiyatga ega, qadrlil; rus tilida: pokazatelnost, deystvitelnost, dostovemost*).

*Ob'ektivlik* deganda o'lchov natijalari tadqiqotchiga bog'liq bo'lmagan tarzda baholanishi yoki bir necha voqea-hodisani tadqiqotchilarning shu masala yuzasidan deyarli bir xil xulosa chiqarishi tushuniladi.

O'lchovni o'tkazish ob'ektivligi ta'lim jarayoni qatnashchilarining aynan bir xil sharoitda bo'lishini taqozo etadi.

Ma'lumotlarni tahlil qilishning ob'ektivligi alohida qiziqish uyg'otadi. An'anaviy baholash tizimida ma'lumotlarni tahlil etishda ob'ektivlik past bo'ladi. Masalan, bitta yozma ishini turli o'qituvchi turlicha baholaydi, ya'ni baholash ob'ektiv bo'lmaydi.

*Ishonchlilik* deganda o'rganilgan u yoki bu aniqlik belgining ishonchlilik va aniqlik darajasi tushuniladi.

«Agar biror belgi yuqon darajadagi aniqlik bilan o'lchansa, uning aks etish darajasi shkalada bitta yagona nuqtaga tushadi!». demak, amq va uncha aniqlik

bo'lmagan o'lchov haqida gapirilganda quyidagicha misolni keltirish mumkin: masofa 4188 millimetmi tashkil qiladi, yoki masofa 4 metrga yaqinni tashkil qiladi

O'lchovning ishonchlilik darajasi ishonchlik koeffitsiyenti bilan aniqlanadi.

*Validlik* O'lchov sifatining muhim metodik talablaridan bin validlikdir. Validlik haqiqatda ham o'lchash talab etilayotgan narsa o'lchandimi yoki boshqa narsa o'lchanganligini aniqlaydi.

Test metodikasida validlikning to'rtta turi uchraydi:

-Mazmunning validligi;

-Natijaning validligi;

-Prognozning validligi;

-Kostruktiv validlik.

O'lchov sifatining yuqoridagi muhim uchta talabi bilan birga adabiyotlarda boshqa mezonlar (kriteriyalar) ham uchraydi. Linert quyidagi mezonlarni keltiradi<sup>5</sup>:

a) testning o'lchamli bo'lishi (normalangan testlar);

b) testning solishtirma bo'lishi (test o'zining egizagi, alternativi bilan taqqoslanadi);

v) testning tejamli bo'lishi;

g) testning foydali bo'lishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini pedagogik tashxislashda, avvalambor, o'qituvchi yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlarining qaysi jihatlanga alohida e'tiborini qaratishi kerak, qanday pedagogik diagnostika metodlari va metodikalaridan foydalanilsa pedagogik tizimni boshqarish samarali kechishi to'g'risida aniq tasavurga ega bo'lishi lozim. Shu sababli o'qituvchi maktabda pedagogik tashxis o'tkazganda o'quvchilarning tavsifiy belgilariga e'tibor berish kerak. (1-jadval)

---

Liener G.A. Testlaufbau und Testanalyse. Weinheim: Beits -2009,- 18p.

*Kichik maktabiyoshidagi o'quvchilar(6-10yoshlilar)ni pedagogik tashxislashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan tavsijiy belgilar*

/ -Jadval

Yosh chegarasi	Rivojlanish-ning ijtimoiy vaziyattari	Yosh uchun xarakterii bo'lgan Shaxsly jihatlar	Pedagogik tashxislash metodlari va mashhur metodikalar	O quvckilar xulqida korrekiya talab etuvchiuqsoniar
Kichik maktab yoshi davri: 6-10 yoshlilar 1-4 sinflaming o'quvchilari.	1-sinf Ongli xatti-harakat ehtiyoj-larining maTjudligi;	1-sinf. Kattalaming xatti-harakatini taqlid qilish; Xatti-harakatida o'yin va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqlfk. Narsa vn hodisalaming tashqi sifat va xususiyati belgilarini guruhlarga ajratish va tasniflashga, narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyiitlarini umumlaKhtirishga harakat qiladi	Kuzatish So'rovnoma Qiyoslash Tajriba J. Piaje. wKichik maktab yoshidagi o'quvchilaming axloqiy sifatiarini organishw	Axloqiy kategoriyalami to liq anglay olmasligi; ldrokniqq salbiy xususi yiti-ob ' ektlami bir-biriflan farqlashdagi zaiflik; tartibli, maqsadga muvofiq tahlil qilish faoliyati zaifligi, injiqlik, hayotiy voqelik bilan fantaziyining aralashib ketishi, natijada maqtandioqlik. yolg onrhilik. chaqtmchilik, toqatsizlik, o'jarlikning paydo bo'lishi;
6-7 yosh	Yaratilgan obrtzlami, tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonunlariga suyingan holda baholash ko'nikmasi lakomillashadi.	Har qjtday ob'ekt, sub'ekt va voqelikdagi yangihkni yaqqol idrok qilishga intilish; Atrof-muhitning sirli tomonlari, jozibalariga qiziqidi; Bilimlar ko'laming kengayishi; Turli savollarga shaxsan o'zi javob topishga harakat qilish hissining paydo bo'lishi; 1 -sinf o'quvchilariga nrebatan mantiqli va mazmunli fikr	L. V. Venger, V.V. Xolmovskaya «6-7 voshli maktab o quvchilarining aqliy rivojlanish darajasini aniqlash» O Hasanboyeva. M. J. Turopova, J. H asan boyevlar-ning «Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarini tashkil lashti-ri sh» metodikasi	Muhim belgilar miqdorini to'liq anglay olmasliklari; Tevarak-atrofdagi salbiy xatti-harakatlarga taqlid qilish; Axloqiy kategoriyalami aniq anglay olmasligi; O'rganil&digan o'quv materialini noaniq tasavur etishlan, Yolg'onchilik, tartib intizomga bo'ysunmaslik,
8-9 yosh	2-ataf. ldrokning xilma-xil yorqin bo'yoqlar, yaqqol tasvir va his-			



to'yuga boyiigi;	yuritadilar, «Yaxshi» va		fantaziyaga berilish
O'qituvchi shaxsiga ishonch va hurmat hissi;	«yomon» kategorivalari-ni tushunadilar;		hislatlarining paydo bo'lishi;
O'qituvchi siyomosida o'zining ezgu niyati, orzu-	Mustaqil harakat qilishga intilish hissi paydo bo'ladi va boshqalar.	Kuzatish So'rov Qiyoslash	Axloqiylik saviyasining barqarormas ligi va boshqalar.
istagi, ajoyib his-to'yg'ularini ro'yobga chiqaruvchi mu'tabar Shaxsni	O'z o'quv faoliyatining ta'siri. talabi. imkoniyat va shart sharoitlari orqali ijodiy xayolning tarkib topishi;	Tajriba O. Hasanboyeva-ning «Kichik maktab	Axloqiy kategoriyalarni to'liq anglay olmasligi; Xayolparastlik ka berilish; O'z tcnqurlari oldida
ko'radi; Katta vaqt o'lchovi miqdorini kichik vaqt miqdoriga o'tgan zamonn	Xatti harakatlarida. fikr-mulohazalaridamustaqil likka intilish;	yoshidagi o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishw metodikasi E.F.	kibru havoii qiliqlar qilish. JanjalKaSh-lik, surbetlik. manmanlik. yolg'onchilik, o'grilik, deviant va deikvent
hozirgi zamonga almashtirib	Hodisilarni tanqidiy baholash	Zambitsyavichene. «Kichik maktab	kulqning paydo bo'lishi ;
yuborish hollari tez-tez uchrab turadi;	ko nikmasining paydo bo'lishi;	yoshidagilammg intellektual darajasini aniqlash»	Salbiy siymolarga taqlid qilish;
Ishonuvcha, tashqi taassurotlarga beriluvchan va boshqalar.	Uyushqoqlik bilan ishlash hissining paydo bo'lishi, o'z diqqatini boshqartsh	Kuzatish QiyoslaSh So'rovnoma	YOig'onchilik, subutsizlik, o'z so'zida tura olmaslik, tartibsizlik.
3-dnf Tafakkuming faolligi;	konikmalarining vujudgakeshisi; O'z tenquriari yoki kattaJar oldida o'zini uddaburon qilib korsabsh istagining paydo bo'lishi va boshqalar.	Tajriba A.Karsten, V. I. Kalinin. Ya.Z, Neverovich-	passivlik, ijtimoiy ustanovkalarni mensimaslik kabi hislatlarning paydo bo'lishi.
O'quv fanlariga ijobiy munosabat;	Intellektning rivojlanishi;	larning «O'quvchilarning irodaviy hislatlarini baholash metodikasi»	Irodasizlik Intizomsizlik, odobsizlik, manmanlik, subutsizlik.
Jamoatchilik oldida	Umumlashtirishda		o'z so'zida tura olmaslik, yolg'onchilik

9-10yosh

	mas'uliyatni his qila bilish;	moddiy dunyodagi voqelikning eng muhim munosahat va		chaqimdililik. toqatsizlik kabi hislatlar.
	Bilim olishning ijtunoiy ahamivatini angiashtoy'g'uiarining tarkib topishi;	bog'laniihlarini aks ettiruvchi ichki belgilargp tayanish; Xarakter kuchini ko rsati&ga bo'lgan intilishlar;	D.B. Elkonin-ning «Harakatli o vinlarda Kichik maktab yoshidagi o'quvchilaming faolliigi» metodikasi	Betga chopariik, salbiy xislatlarga taqiid qilish; Deikvent va deviant xulqning paydo bo'lishi;
9-10 yosh	Bola psixik jihatdan o'sishi munosabati bilan o'kituvchi mavqeiga munosabati o'zgaradi. Ongli xatti-harakat ehtiyojining tug' ilishi;	Murakkab axloqiy kategoriyalami tushunisk; Diqqat, xotiraning intensivla-Shuvi; Tenqurlari va katta yoshlilar oldida o'zini mustaqqil ko'rsatishga intilish; O'z idealiga taqlid qiHsh;	Kuzatish So'rovnoma QiyoslaSh Tajriba	Mayda bezorilik, o'g'irlilik, jamoat joylarida tartibni buzish va boshqaiar
4-sinf	ma'lumotlar, xabarlar, axborodami o'qish va eShitish tufayii «yil», «asr», «o' ming yillik awal», «eramizdan oldingi asr» kabi tushunchalar Shakllana boshlaydi;	Yumommg paydo bo listii;	SH.N. CHxartShvi li, D.B. Elko-ninlaming «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilaming irodaviy faolliigi metodikasi»	
9-10yosh	Qafiy hukmlardan taxminiy hukmlarga kucha boshlaydilar va boshqalar. <b>4-sinf</b> Jamoada faol ishtirok etishga			

1-----	harakat qilish; Ijtimoiy hayotni kognitiv to'yg'ular orqali idrok etish; Oipotetik deduktiv tafakkuming ri vjplanishi; Murakkab axloqiy kategoriyalami tushunaborish; Ahemativ mulohazalami tahlil qila olish ko'mkmalari ning paydo bolishi; Oquvchilarda tushuncha va hukmlar nvojanishi bilan birga turli narsa va hodisalar haqida yuritilgan muhokamalar asosida xulosa chiqarish va boshqalar.			
--------	--	--	--	--

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari ishonuvchan, tashqi taassurotlarga beriluvchan bo'ladilar. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining sofligi, o'tkirligi bilan boshqayosh davridagi insonlardan farqlanadilar, ammo ularda tartibli, maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati zaifligi uchun ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda ko pincha xatolarga yo'II qo yadilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan bin ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. O'qituvchining gapi ular uchun qonun sifatida qabul qilinadi. Ular o'qituvchi siymosida o'zining ezgu niyati,

orzu-istagi, ajoyib his-tuyg'ularini ro'yobga chiqaruwhi mo'tabar shaxsni ko'radi. Shu sababli korreksiyalash ishlanm to'g'ri tashkillashtirishni rejalshtirgan o'qituvchi o'zining obro'sidan oqilona, odilona va omilkorona foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, oqishga ijobiy munosabat, o'quvchi diqqatini boshqansh, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarga sabr-toqat qilish va ulami yengish kabi xislatlami shakllantirishi lozim. Buning uchun mumtoz metodlar bilan bir qatorda zamonaviy metodikalardan ham foydalanish zarur.

Ma'lumki, o'smirlik inson shaxsining kamol topishida alohida o'rin egallaydi. U (11-14- yoshlilar) inson kamolotining muhim bosqichi hisoblanadi. O'smirlik davrida g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur ta'lim-tarbiya ta'sirida barqaror, mustahkam iz qoldiruvchi ijobiy hislatlar namoyon bo'ladi. Tadrijiy ravishda izchil vujudga kelayotgan psixik o'zgarishlar, Shakllanayotgan fazilatlar va shaxsning o'sishi, avvalo, mazkur yoshdagi o'g'il-qizlar faoliyatlarining (o'qish, mehnat, o'yin va boshqalar) xususiyatiga bevosita bog'liqdir. O'smiming boshqa yosh davrlardan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular his-to'yg'u va irodaviy sifatlarda o'z ifodasini topadi.

*O'smiryoshidagi o'quvchilar (10-15yoshlilar)ni pedagogik tashxislashning xarakterli belgilari*

2-jadval

Yosh chegarasi	Rhojl anishning fjifrnioy vaziyatlari	Yosh uchun xarakterli bo'lgan shaxsiy jihatlar	Qo'liash ko'zda tutllgan pedagogik tashxislash metodlari va mashhur metodikalar	Oquvchilar x ulqida korreksiya taiab etuvchi nuqsanlar
10-11- yoshlllar	Kicbik maktab yoshidagilardan farqli ravishda hayotni ilk bor shaxs sifatida ilmiy bilishga intiladi	O'yin faoliyati o'smirda yuksak axloqiy his- tuyg'ulami vujudga keltiradi,	Rag'batlantirish Jazolash Kuzatish Solishtirish Qivoslash	O'ta ta'sirchanlik oqibatida yet g'oyalnrga beriiish; XShaxsning

Narsa va hodisalarning ayrim alcmdarini emas. baflici ularning umumiy va ob'ektiv qonuniyatlarini anglab yetish. tushumsh imkoniyatiga ega bo'lib boradi. shaxs sifatida uyg'un rivojlanishiga mehnat faHiyati salmoqli ta'sir korsatadi. O'yin faoliyati tna lum vaqtgacha shaxsning kamolotida o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Dunyoqarash, e'tiqod, nuqtayi nazar, prinsip, o'zligini anglash, baholash va hokazolar. Shakllanadi. O'z faoliyatini muayyan prmsip, qarashlar asosida tashkil qila boshlaydi. Axloq, o'ziga xos ong alohida ahamiyat kasb etedi. Axioqiy turiunchalami o'zlashtirishi va ulami turmushga tatbiq etishi boshlanadi. Umuminsooiy xisiatlarning jarayoni	matonatlilik. jasurlik, to'g'riso'zlik kabi fazilatlarni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Mazkur faoliyat o'smiming akliy jihatdan o'sishiga, fikr yuritishiga. o'z his-tuyg'usini boshqarishiga. jismaniy kamol topishiga turtki vazifasini o'taydi. O'yinning har xili bilan mashg'ul bo'lish o'smimi fiahmlashga, eslab qolishga, biror ishni amalga oshirishdan oldin uni rejalashtirishga va diqqatni bir nochta ob'ektga taqsimlashga odatlantiradi. Tiyraklik, farosatlilik, tezkoriik kabi muhim xususiyatiar ham o'yin va sport mashg'uiotlari tarkib topadi. Psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo'la boshlaydi, psixikasida keskin qayta qurish sodir	Tajriba Veksler metodikasi A. Ya. Ivanova metodikasi Kuzatish Rag'batlantirish Jazolash Rsynberg metodikasi. K. Ingenkampning» aO'quvchilarning irodaviy fazilatlarini tashxislash» metodikasi Kuzatish Solishtirish Rag'batlantirish Jazolash A.I. Maliova novning «O'.<miriaming Axloqiy normalarga mosligini tashxislash» metodikasi D. B. Elkonin. IV. Straxovlaming «Patoxarakterli tashxis	o'sishidagi pedagogk nuqsonlar. shaxsning o'sishidagi psixik kamchiliklar, ! chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlanganligi; Irodaning bo' shligi; Xulqida axloqiy og'ish belgilarining paydo bo'lishi; Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklargaql idrokning zaif nvojlanganligi; Irodaning bo'shligi, hissiyotning kuchsizigi; Zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi; O'smimioig intilishi bilan
--	---	--	--

<p><b>112-13- yoshlHar</b></p>	<p>o'quvchidagi ishonch, aqida, nuqtayi nazaming qarama-qarShiiiklariga duch keladigan davr. Ijtimoiy turmushm kuzatish, undagi inson uchun zarur ko'nikmalami egallsh kattalar xulq atvonni tahlil qilish imkoniyati yaraladi. Muayyan kasbga may! va qiziqishning paydo bo'lishi. Orzu istaklaming rang-barangligi. O'zini anglash</p>	<p>bo'ladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barqarorlik sodir bo'la boshlaydi Balog'atga yetishish, jinsiy yetilish, akseleratsiya sodir bo'hshi. Qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, dilkashlik. adolatlilik kabi ma'haviy-axloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Turmush tajribasida fan asoslarini egallshi natijasida barqaror e tiqod va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi. shular zamirida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi, O'quv fanlarining ko'payishi, axborotlar tarmog'ining kengayishi ulaming fikr yuritishini jadallastiradi. Intellektning takomillashuvi</p>	<p>so rovnonasiw; Shmishdoing «Xulqdagi motivlarni tashxislash» metodikisi; Kuzatissii Solishtirish Rag'bathtirish Jazolash T.G. Chertovanning «Yoshlarning astenik qiyofasii o'rganish» metodikisi; E. G'oziyevning «Axloqiy sifatlarini shakllantirish» metodikasi; V.Kariinonaning «O'z-o'zini boshqarish» autotreninglari va boshqalir.</p>	<p>mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik va boshqalar, Eng muhim bilim, ko nikma va malakalarni egallshdagi uzilishlar; Maktab faoliyatidagi: o'qitishdagi nuqsonlar, Tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar. Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi nuqsonlar, chunonki oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi; BaJog atga yetmagan tengqo'rlarning salbiy ta'siri; Madaniy ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatckilik qurshoviclari kamchiliklar; Bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimay</p>
<p><b>13-14-15- yoshlUar</b></p>	<p>O'zini anglash xususiyatining paydo bo'lishi O'zini anglash jarayonida o'ziga baho berishga mayl va istakning tug'ilishi, O'zini anglash yangi pog onaga ko'tariladi; Xatti harakati, o'z kuchiga, mayliga, yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o'z o'mini topishga intilishi o'zini anglashining takomillashuviga puxta zamt n yaratadi.</p>	<p>bo'ladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barqarorlik sodir bo'la boshlaydi Balog'atga yetishish, jinsiy yetilish, akseleratsiya sodir bo'hshi. Qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, dilkashlik. adolatlilik kabi ma'haviy-axloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Turmush tajribasida fan asoslarini egallshi natijasida barqaror e tiqod va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi. shular zamirida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi, O'quv fanlarining ko'payishi, axborotlar tarmog'ining kengayishi ulaming fikr yuritishini jadallastiradi. Intellektning takomillashuvi</p>	<p>so rovnonasiw; Shmishdoing «Xulqdagi motivlarni tashxislash» metodikisi; Kuzatissii Solishtirish Rag'bathtirish Jazolash T.G. Chertovanning «Yoshlarning astenik qiyofasii o'rganish» metodikisi; E. G'oziyevning «Axloqiy sifatlarini shakllantirish» metodikasi; V.Kariinonaning «O'z-o'zini boshqarish» autotreninglari va boshqalir.</p>	<p>mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik va boshqalar, Eng muhim bilim, ko nikma va malakalarni egallshdagi uzilishlar; Maktab faoliyatidagi: o'qitishdagi nuqsonlar, Tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar. Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi nuqsonlar, chunonki oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi; BaJog atga yetmagan tengqo'rlarning salbiy ta'siri; Madaniy ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatckilik qurshoviclari kamchiliklar; Bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimay</p>

				olmaslik, o'zini o'ta mustaqil qilib tasavur etish, natijada kattalar maslahatini inobatga olmaslik, manmanlik, betga chopariik, surbetEk; Deviaat xulqning paydo bo'lishi va boshqalar.
--	--	--	--	---

Jadvalga kintgan tavsifiy belgilardan osmirlik yoshidagi o'quvchilami pedagogik tashxislash va korreksiyalash o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ko'rinib turibdi. O'smir shaxsning tarkib topishida axloq, o'ziga xos ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilaming axloqiy tushunchalami o'zlashtirishi va ulami turmushga tatbiq etishi muhim rol o'ynaydi. Osmir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, yaqin odamlariga munosabatini hisobga ohsh zarur. Chunki, o'smirda muayyan narsalarga munosabat shakllangan bo'ladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko'nikmalami egallsh kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, o'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat-voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega ekanligini inobatga olinsa, kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, xulq-atvoming tashqi shakllanda o'z ifodasini topishi muqarrardir. O'smir o'quvchilarda o'rinsiz homiylik, g'ashga tegadigan rahbarlikdan, zeriktiradigan g amxo'rlikdan hoh bo'lish istagining vujudga kelishi kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalami paydo qiladi. To'g'ri tashkil qilingan korreksion faoliyatgina o'smiming sinf maktab jamoasi va oila a'zolari o rtasidagi munosabatlami barqarorlashtiradi.

O'smirlaming jismoniy va jinsiy yetilishi ularning xulq-atvorida keskin o'zgarishlami vujudga keltiradi. Oquv fanlarining kopayishi, axborotlar

tarmog'ining kengayishi ulaming fikr yuritishim jadallashtiradi. 6—10 yoshli bolalarda endigina rivojlanish bosqichiga ko tarilgan intellekt o'smirlik davrida yanada takomillashadr Tafakkuming rivojlanishi intellektni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi. O'smiming aqliy faoliyati xususiyatlaridan biri-mavhum tafakkuming rivojlanishidir, Ularda mavhum tafakkur o sishi bilan yaqqol-obrazh tafakkuming tarkibiy qismi mutlaqo yo qohb ketmaydi, balki saqlanib qoladi va rivojlanadi.

Pedagogik tashxislashni amalga oshirganda o'qituvchi o'smirlar oldiga turli ob'ektlarni mustaqil holda taqqoslash, ulardagi shunday va tafovutli jihatlarni topishni yuklash kerak. Buning uchun ulaming diqqatini quyidagi savollarga javob berishga qaratish maqsadga muvofiqdir: «Bu holda qanday umumiylik bor?». «Mazkur tushunchalarni siz qanday baholaysiz? Javobingizni dalil asosida izohlang», «Muayyan narsalar qaysi belgi va jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi?», «Quyidagi axloqiylik kategoriyasini qanday baholaysiz?» va boshqalar

O'smir aql-zakovatini kamol toptinsh uchun ularga doimo mantiqiy tafakkur usullarini o'rgatib berish zarur. Bunda mantiqiy xatolarni tuzatib berish aslo yoddan chiqarish kerak. O'smirda to'g'ri mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogik diagnostika va korreksiyaning roli juda muhimdir O'smirlarning mantiqiy fikrlashida ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi

Aynm hollarda o'smirlarning fanlarga bo'lgan qiziqishlari susayganligi bois diagnostikaga murojat qilishga to'g'ri keladi. Bu o'smirlik davrida o'quvchilarda analitik-sintetik faoliyat yetarhcha rivojlanmaganligi bilan belgilanadi.

Pedagogik diagnostika va korreksiyaning asosiy vazifasi-barcha bolalarning qobiliyati maksimal darajada va har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni aniqlashdan iborat. Shu bilan bir qatorda, muayyan sohalarida chuqur qiziqishni, moyilligi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'smirlarni ham aniqlash va ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish zarur Bu vazifani differensiyalashgan (keng ma'noda olganda) ta'limning turli shakllarni bajarishi mumkin. Bu yerda maxsus maktablar va sinflarning har xil tiplari (matematikaviy, fizikaviy, kimyo,biologiya, ingliz tili va boshqa tiplari), maktab ilmiy jamiyatlari, bilim beradigan markazlar va boshqalar ko'zda tutiladi.



Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini pedagogik tashxislashda va korreksiyalashda o'qituvchi o'quv predmetidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi bilan birga pedagogik-psixologik bilimlardan ham xabardor bo'lishi, xususan, turli yosh guruhlaridagi o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularni umumiy o'rta ta'lim maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari talablariga muvofiq o'qitish vaziriyatlarini ham bilmog i kerak.

## **mavzu. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING UMUMIY DIAGNOSTIKASI**

**Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash.** Bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kintishga, uning sifatini oshirishga intilmoqda Chunki ta'lim millat ko'zgusi bo'lib, jamiyat va davlatning yuksalib borishini ta'minlovchi, xalqqa yaratuvchanlik, ijodkorlik xususiyatlarini baxshida etuvchi kategoriyadir. Uning mahsulati - intellektual rivojlangan, keng mushohada qiluvchi, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, uning mazmunida ijodkorlik ruhi va motivlari hukm surishi lozim. O'quv-tarbiya jarayonida innovatsion faoliyat sub'ektining talablarini qondirishdan innovatsion faoliyat sub'ekti ehtiyojining majmuaviyligini anglash va shakllantirishgacha bo'lgan amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi sub'ektning yangilikni yaratish va o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o'zida ifoda etuvchi, undovchi kuch bo'lmog'i lozim.

Psixologik-pedagogik jihatdan o'qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo'llash mahoratiga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Butun dunyo ta'lim muassasalarida "shaxs", "davlat" va "jamiyat" talablariga javob beruvchi o'zining ta'lim sifati tizimi yaratilmoqda.

Ta'lim muassasalari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki

o'quvchilarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlar bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. SHunday ekan, bugungi kunda pedagogik diagnostikaga asoslangan g'oyalar ta'lim-tarbiya tizimiga singib ketishi, ayni muddaodir.

**O'quv jarayonini tashkil etishning umumiy ko'rsatkichlari** Hozirgi paytda jahonning barcha ta'lim tizimida quyidagi uchta tayanch tushuncha asosida ta'lim sifatiga yondashilmoqda:

- sifatli o'quv va pedagogik faoliyatni olib borish uchun ta'lim muassasalarida yaratilgan shart - sharoitlar;

- o'quv jarayoni;
- sifatni ta'minlash tizimining amaldagi asosiy hamda boshlang'ich nuqtasi hisoblangan - ta'lim natijasi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida sifatni boshqarishni tashkil etish hamda kelajakda zamonaviy, qulay ta'lim muassasasini bunyod etish tizimini mazmunan modernizatsiyalash, ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarish O'zbekiston Respublikasida vujudga keltirilishi mo'ljallangan fazoviy muhit- sifatli ta'lim boshqaruvini amalga oshirish imkoniyatini beradi. SHunday ekan ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish uchun, awalambor ta'lim muassasalari faoliyatini, ya'ni sifat boshqaruvini amaldagi holatini isloh qilish nazarda tutiladi. Buning uchun Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida keltirilgan bosh g'oya, ya'ni faqat ilm va bilimlar jamiyatni rivojlantirishi, davlatni taraqqiy ettira olishi mumkinligi, to'g'risidagi g'oyasiga monand ravishda sifatli ta'lim boshqaruvini amaldajoriy etish talab etiladi.

Jamiyatning turli bosqichlarida tarbiya va ta'lim sohasidagi to'plangan tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tatbiq qilish ehtiyojlari asosida hamkorlik pedagogikasi rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda barcha sohalar bo'yicha, shu jumladan, ta'lim tizimida salmoqli ishlar amalga oshirildi. 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida kadrlar tayyorlashning "milliy modeli" ishlab

chiqildi, o'quv jauyoni uchun zarur bo'lgan barcha moddiy - texnik bazalar yaratildi. To'plangan tajribini tahlil etish va umumlashtirish isosida, mamlakatm ijtimoiy-iqtisodiy nvojlantirish istiqbollanga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish amalga oshirilmoqda. SHu bilan birga, ta'lim sifatini oshinshda, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, innovatsion texnologiyalami ta'lim jarayoniga tatbiq etish, nonnativ-texnik bazam yaratish, yuksak ma'naviyatli, o'z shaxsiy pozitsiyasiga ega bo'lgan fuqaroni shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Sifatni boshqansh tizimining shakllanish bosqtchlari, tayyorlov, sifat menejmenti tizimini shakllantirishdagi asosiy ishlar, o'qituvchining nufuzini ham alohida ta'kidlash lozim.

Pedagogik diagnostika yangilangan ta'lim va ta'lim turlari, bosqichlari maqsadmi o'rganishga, pedagogik muammolar yechimini imkon qadar tezroq hal etishni taqozo etmoqda.

Pedagogik diagnostika o'quvchi shaxsidagi o'ziga xos xususiyatlami, individuallikni saqlagan holda intellektual, ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi. Uning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bola shaxsini rivojlantirishda majburiy taTimga o'nn boTmasligi kerak, ya'ni bola o'zida o'qishga qiziqish, motivatsiya hosil qilishi lozim
- o'quv materialini to'hq idrok etish uchun taqdim qilinayotgan maTumotga oid tayanch iboralar, chizma va tasvirlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi
- o'quv materialini idrok etishda tanlash xususiyatining mavjudligi dialog shaklidi tashkil qilingan darslar g'oyasi
- intellektual rivojlanishi deyarli bir xil bo'lgan guruh, sinf jamoalarini tashkil qilish
- o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini rivojlantirish g'oyasi
- o'qishdan bo'sh vaqtni mazmunli rejalashtirish g'oyasi.

**O'quv jarayonini tashxis etish tamoyillari.** O'z mazmun-mohiyatiga qarab pedagogik diagnostika quyidagi **tamoyiliarga** asoslanib o'tkaziladi:

*Maqsadga qaratilganlik tamoyili* kuzatishni ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab qiladi. Ilmiy tadqiqot olib bormoqchi bo'lgan kishi kuzatuv davomida tekshirish uchun bir qator farazlarni ilgari surishi kerak.

*Konstantlik tamoyili* kuzatuv davomida yuzaki, dastlabki hissiyotlar bilan cheklanmaslikni, tasodifiy, qisqa muddatli ayrim hodisalarning ahamiyatini oshirib yubormaslikni talab qiladi. Kuzatuvchi turli vaziyatlarda o'sha hodisani tekshirib kurishi yokibir nechta kuzatuvchi hodisani kuzatishi lozim. Bu kuzatuvchilarning xulosalari yoki natijalari qanchalik bir-biriga to'g'ri kelishi kuzatuvning konstant yoki bunday emasligini ko'rsatadi.

*Nazorat tamoyili* kuzatuvchining bir nechta bor kuzatuv yoki bir qator kuzatuvchilarning ma'lum guruh yuzasidan chiqargan natijalari, xulosalarinazorat kuzatuv davomida boshqa guruxlarda tekshirib ko'rilishini talab qiladi. Bu kuzatuv natijasida olingan ma'lumotlar faqat shu sinalluvchi guruhning o'zigagina xos xususiyatlar emasligini aniqlash uchun lozim bo'ladi. Natijaning aniqligini, barchaga xosligini tekshirish uchun shu tadqiqotni boshqa sinf, guruh, jamoa yoki o'quv maskanida ham o'tkazib ko'rish kerak.

**O'qituvchining diagnostik faoliyati.** O'qituvchining diagnostik faoliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-O'quvchilarga bilim, ko'nikma, malakalami (BKM) rivojlantirishga yordam beradi;

- Turli xil yo'nalishdagi reja (strategiya)larni qanday qo'llash kerakligi bo'yicha maslahat beradi;

- Faol qayta aloqani ta'minlaydi;

- Noan'anaviy usullar bilan o'quvchilarning harakatlarini qo'llaydi va mustahkamlaydi;

- O'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi;

- O'quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;

- O'quvchilarning o'quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi

**Kasbiy faoliyatni diagnostika qilish bosqichlari:**

1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;

2. O'zini nvojlantinishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash,
3. O'zini namoyon etish va kamchihklarini tuzatish.

### **O'qituvchining diagnostik faoliyatidagi maxsus kompetensiyalar:**

Faniga doir maxsus metodlarni bilish;

- Ta'limni tabaqalashtirish;
- O'quvchilar ehtiyojini bilish;
- Turli yosh xususiyatlarni bilish;

O'zbek olimi M. Ochilov "kompetensiya" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: "kompetensiya-bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko'rinishi". Kvalifikatsiya esa potensial faoliyatda bilim va ko'nikmaning namoyon bo'lishidir. Demak, kompetensiya ko'rinishlari umumiy va maxsus tarzda namoyon bo'ladi

### **O'qituvchining diagnostik faoliyati ko'rinishlari:**

1. **Dunyoqarash asosida o'zini** anglash-o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvur va qadriyat bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya- o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatdagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

2. **Umummadaniy** - milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat, ijtimoiy ko'mmalarga ega bo'lish. Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini angalay olishi va o'quvchi yoshlarga tushuntira olishi.

3. **O'quv va bilish jarayoni** - o'qituvchining mustaqil bilim va ko'nikma faoliyati Mantiqiy fikrlashi. O'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi.

4. **Ma'lumotga ega bo'lish** - pedagogik faoliyati, o'z faniga doir metodlarni egallash ko'nikmasi.

5. **Muloqotchanlik** - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'zigaxos o'rinda turishi.

6. **Ijtimoiy - foydali mehnat-oilaviy** munosabatlar va ma'suliyat, jamiyat nvojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

7. **O'z ustida ishlashi** - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi. Xissiyotini boshqarish.

**O'qituvchining didaktik kompetensiyasi.** Didaktik kompetensiya - zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetensiya asosini tashkil etadi Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- O'qitish muhitini yaratish.
- Mavzumazmunini yoritishni rejalashtirish
- O'quv jarayoni boshqarish
- O'quvchilamingyutuqlari va nvojanishlarini baholash
- O'quvchilarga motivatsiya berish va yordam ko'rsatish
- O'quvchilar bilimini anglash va ulami rivojlantirish

#### **Fanlar bo'yicha diagnostik faoliyati:**

Ta'lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o'qituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi. Bular:

- Ilmiy bilim;
- Turli xil faoliyatni bajara olishi (namuna misol keltira olishi);
- Muammoli vaziyatlarni samarali yechimini topishda ijodiy faoliyat asosida yondashish;
- Jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabatda bo'lish tajribasi.

Globalashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari

mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ham aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv davnda zamonaviy o'qituvchilarning diagnostik faoliyatida quyidagi hislatlarni tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- insonparvarlik hislatlarini rivojlantirish;
- kommunikativ (muloqotga moyillik) malakalarini shakllantirish;
- kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, o'z ishiga ijodiy yondashish hislatlarini tarkib toptirish;
- pedagogik nazokat va pedagogik texnikadan oqilona foydalanishni shakllantirish;
- nutq texnikasini, o'z tovush, mimika, jest va gavdasini boshqarish, jamoaga va shaxsgata'sir ko'rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish;
- zamonaviy fan va ishlab chiqarishdagi muammolar, pedagogik, axborot va yuqori darajadagi texnologiyalardan xabardor bo'lish hamda ulardan zarurlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar.

Bugungi kunda pedagogi diagnostikada o'qituvchilik kasbi va uningjamiyatda tutgan o'miga baho berishda *layf kouching* (ingliz tilida: *life- hayot, couching-rejalashtirish*) ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini to'g'ri rejalashtiradigan mutaxassis faoliyatidan foydalanilmoqda. Ma'lumki, o'qituvchi pedagogik jarayonni rejalashtiruvchisi, boshqaruvchisi hamda yo'naltiruvchisi hisoblanadi. Uning kasbiy, shaxsiy faoliyatini uyg'unhda olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi guruh, sinfdagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berar ekan, shu bilan birgalikda jamiyat a'zosi bo'lgan o'z farzandlarini ham tarbiyalovchi ota-ona sifatida namoyon bo'ladi Demak, o'z ish joyidagi faoliyati bilan birgalikda, oiladagi, jamoadagi ishlarini uyg'unlikda olib bosh uchun kun tartibini to'g'ri rejalashtirib olishga zarurat tug'iladi. Shunday paytda o'qituvchiga layf kouching yordam beradi.

Pedagogi diagnostikada o'qituvchilik kasbi va uningjamiyatda tutgan o'miga baho berishda fasilitator xizmatidan foydalaniladi.



*Fasilitator*- inglizcha so'zdan olingan bo'lib, “yordam beruvchi”, “engillashtiruvchi” degan ma'noni anglatadi. Ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishni osonlashtirish uchun o'quvchilarning samarali hamkorligini shakllantiradi

*Menejer*- o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini o'rganish natijasida ta'lim-tarbiya jarayoni strategiyasini ishlab chiqadi va jarayonni boshqaradi.

*Ekspert-aniq* mavzu, masala bo'yicha hakamlilik qiladi. BKM darajasini belgilashda yordam beradi.

*Moderator-maium* mavzu yuzasidan muhokama, bahs tashkil etadi, o'zi aralashmagan holda bir yechimga erishishga yordam beradi.

*Ma'ruzachi*- mashg'ulot uchun o'quv materiallarini tayyorlaydi, o'quvchilarni bahsgachorlaydi, o'rganish jarayonini motivatsiyalaydi.

*Maslahatchi*- o'quvchilarning tajribasiga asoslangan holda bilim beradi, mavhum o'rinlarni amqlashtirishda yordam ko'rsatadi.

Trener-o'quvchilarning o'zaro muloqotini tashkil etadi, ularning ma'lum malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shunday kilib, pedagogik diagnostika sohasida yaratilgan adabiyotlarda o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rniga ob'ektiv baxo berilgan bo'lishiga qaramasdan, ta'lim-tarbiya jarayonida qanday insonni shakllantirish lozim, ta'lim-tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarga muntazam javob izlash zaruriyati mavjudligicha qoladi va asrlar osha mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan «komil inson tarbiyasi» g'oyalari hamohang ravishda rivojlantiriladi.

## MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

### 'VIAVZU YUZASIDAN TESTLARNI yeCHING:

#### 1. Mazmun-niohiyatiga qarab pedagogik diagnostika quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- \* A) Maqsadga qaratilganlik, konstantlik, nazorat;
- B) Kuzatuv, solishtirish, tabaqalashtirish;
- S) tizimlilik, pog'onaviylik, konstantlik,
- D) Ixtiyoriylik, maqsadgayo'naltinlganlik, solishtirish

#### 2. O'qituvchining diagnostik faoliyati - bu...

- A) Kasbiy mahoratning namoyon bo'lishi,
- B) O'quv jarayonnni samarali tashkil etish mahorati;
- \* C) O'z mutaxassisligi va ixtisosligi doirasida pedagogik diagnostika mohiyatini chuqur bilishi hamda diagnostik metodlardan samarali foydalanishi;
- D) Sohaga doir bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar majmui.

#### 3. O'qituvchining dunyoqarashi asnosida o'zini anglashi deganda nima tushuniladi?

- \*A) o'qituvchining dunyoqarashi, tasavuri va qadriyati;
- B) atrof-mdhitdagi voqea va hodisalarni mohiyatini ko'ra olish;
- S) pedagog sifatida o'z fikrini asoslay olish,
- D) o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'mimlaydi.

#### 4. O'qituvchining umummadaniy kompetensiyasi - bu...

- A) milliy va umuntinsoniy qadriyatlarga ega bo'lish;
- B) mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat, ijtimoiy ko'nimalarga ega bo'lish;

S) Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini angalay olishi va o'quvchi yoshlarga tushuntira olishi;

D) Barchasi to'g'ri

**5. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi- bu...**

A) bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishi, ta'lim jarayonini rejalashtirish,

baholash va qayta aloqani o'mata olishi, o'z fanini mukammal bilishi;

B) Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lishi, o'quvchilarda

motivatsiyani shakllantirishi, AKTni bilishi; ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;

S) Xorijiy tillardan birini bilishi;

D) Barchasi to'g'ri.

**6. Kompetensiya turlari to'g'ri belgilangan qatomi ko'rsating**

a) Kasbiy, shaxsiy, ma'naviy, maxsus ;

b) Kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus;

c) Maxsus, umummadaniy, kasbiy, didaktik;

d) Kasbiy, shaxsiy, kommunikativ, maxsus .

**7. Kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari qaysilar?**

A) O'z-o'zini tahlil qilish vazarur narsalami anglash;

B) Faoliyatini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;

C) O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish;

\*D) Barchasi to'g'ri.

**8. Maxsus kompetensiya - bu...**

A) Madaniyatli bo'lish;

\* B) Sohaga doir maxsus metodlami bilish;

C) Ma'suliyatlilik;

D) Ishchanlik va insonparvarlik.

**9. O'qituvchining shaxsiy kompetensiyasi- bu...**

◆ A) Insonparvarlik, yetakchilik, faollik, tashabbuskorlik;

B) Turli yosh xususiyatlarini bilishi;

C) Ma'lumotlilik;

D) Kasbiy malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi.

**10. O'qituvchining umuminsoniy qadriyatlarga egaligi, mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etishi, boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi qaysi kompetensiyaga turiga mansub?**

- A) O'qituvchining maxsus kompetensiyasi;
- B) O'qituvchining shaxsiy kompetensiyasi;
- \*S) O'qituvchining umummadaniy kompetensiyasi;
- S) O'qituvchining maxsus kompetensiyasi.

**11. Fasilitator (ingliz tilida: “yordam beruvchi”, “engillashtiruvchi”)- bu...**

- \*A) ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishni osonlashtirish uchun o'quvchilarning samarali hamkorligini shakllantiradi;
- B) Maxsus, umummadaniy, kasbiy, didaktik kompetensiyaga ega shaxs;
- S) O'z-o zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglashni yengillashtiruvchi;
- D) Faoliyatini rivojlantirishni rejalashtirish maqsadidayordamberuvchi.

**12. Ta'lim menejeri - bu...**

- \*A) O'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini o'rganish natijasida ta'lim-tarbiya jarayoni strategiyasini ishlab chiqadi vajarayonni boshqaradi,
- B) Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lgan, ta'lim jarayonini loyihalashtiruvchi;
- S) ta'lim jarayonida o'quvchilarda motivatsiyani shakllantiruvchi;
- D) AKTni bilib, ta'lim muhitiga yangilik kirituvchi.

**13. Ta'lim jarayonida ekspert vazifasi quyidagilardan iborat:**

- \*A) BKM darajasini belgilashda yordam beradi, aniq mavzu, masala bo'yicha hakamlilik qiladi,
- B) o'quvchilarning imkoniyatlarini va ehtiyojlarini o'rganadi;
- S) ma'lum mavzu yuzasidan muhokama, bahs tashkil etadi;
- D) o'quvchilarning tajribasiga asoslangan hoida bilim beradi;

**14. Moderator bu -...**

- \*A) Ma'lum mavzu yuzasidan muhokama, bahs tashkil etadi, o'zi aralashmagan holda bir yechimga erishishga yordam beradi;
- B) Aniq mavzu, masala bo'yichahakamlilik qiladi;

- S) BKM darajasmi belgilashda yordam beradi;  
D) Mashg'ulot uchun o'quv materiallarini tayyorlaydi.

### **SAVOLLARGA JAVOB BERING:**

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida o'qituvchiga quyiladigan talablar to'g'risida fikr bildiring
2. Zamonaviy o'qituvchining diagnostik faoliyati qanday namoyon bo'ladi?
3. O'qituvchidagi pedagogik mahorat qanday namoyon bo'ladi?
4. “ Diagnostik faoliyat” deganda nimatushuniladi?
5. O'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan o'qituvchining shaxsiy sifatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
6. O'qituvchining ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati qanday belgilanadi?

### **MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR:**

- Abdullayeva Sh. A. Pedagogika- Toshkent. Fan va axborot texnologiyalari, 2012.-308 bet.
- Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. - T.. Universitet, 2000.
- Ochilov M. O'qituvchining muomala madaniyati. - Qarshi: Nasaf 2012.-276 bet.
- Pranskune E., Grudene S. va boshq. Novsie roli i kompetensiya uchitelya. Litva - 201 ly. YUnisef. Seminar dasturlari.
- [www.google.ru](http://www.google.ru).

## mavzu. O'QUVCHILARNING AQLIY RIVOJLANISHINI DIAGNOSTIKA QILISH

«Aql» kategoriyasini pedagogik diagnostika doirasida talqin qilinishi. Ayrim ilmiy adabiyotlarda «aql», «intellect», «ilmga chanqoqlika tushunchalan bilan bir xil ma'noda ishlatiladi. Aslida pedagogik diagnostika nuqtai nazardan ushbu tushunchalar o'rtasida mohiyatan farq bor.

**Aql** - (lotin tilida: “*rationalis*”, yunoncha: “*nous*”, “*fronesis* arab tilida: “*al-aql*”- “asoslangan maqsadga muvofiq”)- inson uchun o'ylash, fikrlash, anglash va xotirlash, xulosa chiqarish imkonini beradigan qobiliyati, noyob ma'naviy xodisa. “Aql” va “aqliy faoliyat” talablar qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. “Aql” tarozisi Aflotun va Arastu falsafasida keng ishlatilgan. Arastu nazariy va amaliy aqlni “*nous*” va “*fronesis*”, “*sust va faol*” shakllarga ajratadi Arastu talqiniga ko'ra, aql awaliga ilk moddiy negizga o'xshab shaklsiz bo'lgan va voqelikni idrok qiliish jarayonida doimiy faol Aql shakllanib, taraqqiy etib brogan hamda voqelikni anglashning samarali vositasiga aylangan. O'rta asrlardagi Sharq falsafiy tafakkurida aql to'g'risidagi ta'limotlar, Aflotun, Arastu va Plotinning falsafiy merosidan ta'sirlangan va shakliangan. Masalan, G'azzoliy Alloh va ilohiylik bilan bog'liq masalalami to'la-tukis idrok etishga aql o'z imkonini ta'kidlaydi. Chunki Allohni, gayb ilmlarini faqat naql va ilohiy tuyg'u orqali bilish mumkin. Inson o'z aqli bilan hamma narsaning mazmun mohiyatiga etishga imkon bo'lganida vahiy orqali zarur ilohiy ko'rsatmalar kelishiga hojat qolmagan bo'lar edi. G'azzoliy “Aql o'zining o'z va notavonligini tushunib yetish uchungina kerak xolos”<sup>1</sup>,- degan xulosaga keladi. Abu Ali ibn Sinomng peripatetic falsafiy qarashlarida: “Kalom aqlning cheksiz imkoniyatlarini inkor etmaydi, chunki uningcha, Allohning o'zi oliy Aql va donishmandlikning yagona sohibidir. Uning aqli oidida oddiy insonning aqli o'zidir. Shunday ekan, Allohning aqli va Alloh to'g'risidagi bilim bir-biridan tubdan farq qiladi. Ammo inson aqlining mavqeyi muximdir. Aql tufayli inson o'z his-

---

<sup>1</sup> AdjiyjinacBa HLA., 3attHHT3HHOBa M.A., XaJiHKOBa EW. *H* ricaarorMHccKHe Barjuju cytjJHcB. HeTopiu

tuvg ularini, olingan xabarlami muayyan tartibga keltiradi, ulaming chin yoki yol'g'on ekanini aniqlaydi Xoliq tomonidan yaratilganni (xaqni) bilib boradi Lekin kishi muammolar mohiyatiga chuqur kirib borar ekan, unda aqlning imkoniyatlariga shubha paydo bo'la boshlaydi Bu esa, iymon-e'tiqod uchun xavflidir"<sup>2</sup>. Tasawuf tariqatlari aqlning imkoniyatlarini, zohiriy jarayonlarini bilish bilan chegaralab qo'yadi "Botinni, Haqni anglashga faqat qalb, qalbning holati da'vo qilaoladi"<sup>3</sup>, deb uqtiradi tariqat namoyondalari. Ibn Rushd falsafasida: "Aql tarozisi muhim maqomga ega. Ularga ko ra inson aqli dastawal sust aql ko' rinishida namoyon bo' ladi. U ashyo va hodisalarni bilish jarayonida orttirilgan aql sohibiga aylanadi. Bunday holatda uning qarshisida g ov bo'lishi mumkin emas. Jonli mulohaza oddiy narsa va hodisalarning muhim bo'lmagan xossa va xususiyadari (aksidenstiya-arazjni kashf etish bilan chegaralansa, aql esa, aksincha, ulaming tub mohiyatini anglashni maqsad qilib qo'yadi Aqlning qarshisida o'tmish, hozirgi davr va kelajak bab-barobardir Aql makon va zamonda cheksizdir"<sup>4</sup>

Abu Nasr Forobiyning fikricha: "Ezgu fikr, donishmandlarning durdona g'oyalariga mangulik muhri bosilganidek aql ham abadiydir"<sup>1</sup>. Alisher Navoiy asarlarida "aqr tushunchasi bilan bog'liq quyidagi iboralarni uchramiz: "Aql ahli-hushyor ong egalari; Aql dehqoni-tajriba va mulohaza egasi, tajribali ongli kishi; aql ko'yi - aql idrok yo'li; aql mezon-ong, aqlning o'lchovi tarozisi; aql muhandislari-donishmandlar, olimlar, bilimdonlar; aql oldida - ongli tushunish bo'yicha, aqlan; aql piri-tafakkur ustoz-farosatli kishilar; aql sarrofi- aql zargari, aqlning baholovchisi Aql o'yini-miya, fikru xayol; aql xirmoni- aql mujassamligi; aql chirog'i- aqlning kuchi, aqlning quvati; aql eshigi- aqlning yo'li, ongli yo' l; aql o'ti-zehn o'tkirligi, hushyorlik; aql hushi-bunga izoh hojat emas Aql hisobi-ong doirasi, chegarasi. Aqldan begona-telba; aqli javohirshunos- yetuk, komil va so'zning yashirin sirlarini yaxshi tushunadigan nozikta'b kishilarning idroklisi; aqli zoyil-aqli ketgan kishi; aqli

---

HPxcuB A. 6by AJIH HOH CHHOHRHT \$ajicaij)Hft KapamjiapH.-JXyinaH6e:Hp4»OH, 2006.-78-6CT.

ASnyiuacBa HIA . 3aftHHT7iHHoBa M.A., XajJHKoM r.H. // FlcaarorHqecKMe Rir/uuw cytfjHeB. WcropHii nejjarorHKM

TomKeHT <DaH Ba axdopor TexHojiurHjmapH, 2017-106-c.

ASnyiuacBa HIA . 3aftHHTQHOBa M.A., XajJHKOBa F.H. // riejarorHqecKHe Binuuui cytjueB. WeTopHi ncuarorwKM-

TomKCHT <DaH aa ax6opor TexHojiorwxJiapH, 2017.-112-c.

zulmoniy-xira aql, o'tmas zehn, aqli kuni-eng yetuk aql, aqli maslabatbin-maslahat ko rsatuvchi, to'g'ri yo l vato'g'ri fikrga yo' llovchi aqj. Aqli musharraf-sof, sharafli aql; aqli mustaqim-ikkilanmaydigai. To'g'ri aql egasi qat'iy fikrli odam; aqli musohib-fahm farosatli kishi; aqli oz- aql dan adashnng; aqli saloh-to'g'ri,sog'lom fikr, aqli sarkash-itoatsiz,o'jar, qaysar,bo'yin tovlovchi aql; aqli sitamkori-jabr-zulum qiluvchi, jafo yetkazuvchi. Aqlu fahmi hurdadoi-nozik aql-fahm; aqli xudbin-faqat o'zini o'yaydigan shaxs; aqli xurdabin-sezgir,nozik aql va h.k. Alisher Navoiy «aql» tushunchasini «bilimdonlik»dan kengroq ta'riflab, “aql” so'zming 27 darajasi va 27 sifatini ajratadi. Ushbu sifatlardan eng muhimi va ijobiy lari bevosita bilimdonlikka aloqadordir. Demak, aqlmng o'zi bitta, lekin odamliming aqliy darajasi ko'pdir, barcha odamlar aqlga ega ekanlik lari bilan bir xildir,lekin ular aqliy darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Yer yuzida qancha odam bo'lsa, hammasi aql darajasi bilan ozgalardan farq qiladi Dunyoda nekbin aql egalari va xudbin aql egalari bor. Nekbin aql egalari dagi aql insoniyatga ezigulik keltiradi, xudbin aql egalari dagi aql esa faqat o'z egasiga naf keltiradi. Aql bobidagi misollami boshqa mutafakkir va allomalar asar lardan ham ko'plab keltirish mumkin.O'rta asrlarda Sharq mamlakatlari falsafasida “Aql al-fa'ol” degan tushuncha qo'tlangan, U islom dunyosida hozir ham muomalada Forobiy, ibn Sino, ibn Rushdning falsafiy taTimotlari Aql al-fa'ol olamning vujudga kelishida-dunyoviy aql shak lida birinchi sabab-Allohdan kelib chiqadi. Bu dunyoviy aql insondagi individual Aqlning yuzaga kelishi va rivojiga ta'sir etib turadi. Har bir inson aqli o'z navbatida dunyoviy aql bilan birlashishga intiladi. Insonmng shaxsiy aqli olamni borgan sari chuqurroq bilib,bir necha bosqichlami bosib o'tadi. U mutlaq bilimlar, ya'ni olamning ibtidosi va asosi haqidagi bilimlami o'zlashtirgandan so'ng dunyoviy aql bilan birlashadi;uni boyitadi Shaxsiy aqliy bilim bilan boyigan dunyoviy aql yana inson aqlining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi Sharqning ilg'or mutafakkirlari “Aql al-fa'ol” taTimoti asosida aqlning qudratini, uning ob'yektiv mazmunini, olam taraqqiyotidagi ahamiyatini isbotlashga harakat qiladi. Dunyoviy aql bilan inson shaxsiy aqlining munosabati haqidagi ta'limot jamiyat ma'naviy madaniyatining uzluksiz boyib borishii, inson aql-zakovatining ilm-ma'rifatga qo'shgan hissasi bilan manguliklari erishishi, har kim



tirikligida kelgusi avlodlarga ilm-madaniyat sohasida meros qoldirishi uchun intilishi zarurligi haqidagi fikrlarni ifoda etadi. Hozirgi zamon falsafiy tafakkurida ratsionalizm (Aqlga urg'u berish) va sensualizm (jonli mushohadaparastlik) kabi yo'nalishlar bir-biridan farq qiladi. Aql bilan jonli mushohadani bilish jarayonining zarur bosqichi va vositalari sifatida talqin etish va ulardan samarali foydalanish muhimdir. Bugungi kunda inson aqlini o'rganish, u bilan bog'liq sir-sinoatlarini tadqiq etishga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda. Dunyoda globallashtirish jarayonlan, axborot oqimi muttasil kushayayotgan hozirgi davrda faqat aql-idrok, ezgu g'oyalarga e'tiqod va yuksak ma'naviyat insonning asl tabiatini saqlab qolishi mumkin ekani tobora yaqqol ayon bo'lmoqda.

**O'quvchilarning aqliy rivojlanishini diagnostika qilish.** S.A. Rubinshteyn, B.G. Anan'ev birinchi qatorida o'quvchilarning umumiy aqliy rivojlanishini, umumiy intellektini tadqiq qilish bilan shug'ullanishdi. B.G. Anan'ev o'quvchining o'qish va mehnatdagi muvaffaqiyatini o'rganishga kirishdi. N.S. Leytes avvalo aql sifatlarini o'z ichiga oluvchi umumiy aqliy qobiliyatlar (garchi ular jiddiy ravishda iroda va emotsional xususiyatlarga bog'liq bo'lsa ham) o'quvchining nazariy bilish va amaliy faoliyat imkoniyatlarini xarakterlab berdi. O'quvchi intellekti eng muhim narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni aks ettirish hamda shu bilan voqelikni ijodiy ravishda qayta o'zgartirish imkoni bilan tavsiflanadi. N.S. Leytesning ko'rsatib o'tishiga qaraganda, oliy nerv faoliyati xususiyatlarida aktivlik va o'z-o'zini tartibga solishning ayrim shart- sharoitlari yashiringan bo'lib, bular umumiy aqliy qobiliyatlarini tarkib toptirishning muhim ichki shartlaridan biridir.

«Aqliy, intellektual tarbiya orqali bolalarda tabiatdan berilgan aqliy kuchlar sezgilar, ruhiy holatlar, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo'y olish hamda ko'zlagan maqsadga yetishish qobiliyati shakllantiriladi».

Ingliz mutafakkiri Jon Lokk o'zining «Tabiat qonuni borasidagi tajribalar asaridagi» «Agar hissiyotdan aqlga narsalar qiyofasi yetkazib berilmasa, u holda tafakkur uchun hech qanday material berilmagan bo'ladi va aql bilishni taraqqiy

<sup>1</sup> I.Y.Tursunov, U.K.Nishonaliyev, r. teaarorHKa -TouikKeHT: VKHTVBHM/OOL- 102-6CT.

ettirishi borasida tosh, yog'och, qum va hokazo qurilish materiallarisiz me'mor bino qurishda qanchalik ish qila olsa, shunchagina ish bajaradi»-, deb ta'kidlaydi.

O'quvchilarning aqliy rivojlanishini diagnostika qilishda G Gilford, Ayzenk, I. Rogov metodikalari va testlariga murojaat etish hamda ularda bilishga oid qiziqishlarini nvojlantirishga qaratilgan motivatsion- qiziqarli tomonlariga ko'proq e'tibor bensch lozim.

**Ta'lirn jarayonida yoshlarning intellektualligini va mustaqil fikrlay olish qobiliyati darajasini diagnostika qilish.** Ta'lim jarayonini diagnostikasiz boshqarish mumkin emas Ta'lim diagnostikasi ko'p hollarda yosh avlodda u yoki bu hislatlami (chidamlilik, iroda, qunt va boshqalar) ham aniqlaydi. Diagnostika odatdagi an'anaviy o'quvchilar bilim va qo'nikmalarini tekshirishdan farq qiladi. Diagnostika natijalami unga erishish yo'llari, vositalari bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi. Diagnostika o'z ichiga nazorat, tekshiruv, baholash, statistik ma'lumotlami to'plash, ulami tahlil qilish, dinamikani ko'rsatish, voqealaming keyingi rivojini bashorat qilish kabilami qamrab oladi Ko'pchilik ota-onalar o'z bolalarining intellektual rivojlanishlarini boshqa bolalar bilan solishtinb ko'rishadi. Psixolog, tibbiyot xodimlandan maslahat so'rashadi. Lekin pedagogik diagnozga, mutaxassisning tashxisiga kamdan kam murojaat etishadi.

Bolaning kamoloti quyidagilardan kelib chiqadi:

1. Jismoniy va ruhiy rivojlanish o'rtasida mustahkam aloqa mavjudligidan.
2. *Bolaning maktab talabiga tayyor bo'lishi awalo rivojlanishning ichki jarayonlariga bog'liqligidan*
3. *Bu yetilishning muhim ko'rsaldchi vizual differensial qabu! qilishning yetilishi. obrazlarga ajratish qobiliyatining borligidan.*
4. *Maktabda bolaning fanlami yaxshi o'zlashtirmasligi uning intellektual rivojlanishi pastligidan emas. balki maktabga yetarli darajada tayyor emasligidandir.*

«Bolaning maktabga yetarli darajada tayyor bo'hnasligi natijasida o'qish bola uchun juda og'ir yuk bo'ladi va bu yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Maktabga tayyorgarligi yetmagan bolalami maktabga bermasdan, balki ulami maktabga tayyorlash kerak'»).

O'quv muassasalarida tahsil oluvchilarning intellektuallik darajasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha farqlanadi va hisobga olinadi:

Jismoniy kamolotga erishganlik yo'nalishi;

Intellektual yo'nalish (differensiyalash qobiliyati, miqdor va ko'plikni tushunishning darajasi, xotiraning rivojlanish darajasi).

Mehnatga munosabati (vazifani bajarishga tayyorgarligi, diqqat va chidamni boshqara olishi).

Ijtimoiy yo'nalish (tarbiyachilardan hissiy mustaqilligi, guruh bilan munosabatga kirisha olish) va h.k.

Bolaning bilim olishga tayyorgarligi quyidagilar orqali tadqiq qilinadi:

shifokor tekshiruv orqali,

maktabga tayyorgarlikni aniqlovchi test o'tkazish orqali,

test jarayonida bolaning xulqini kuzatish orqali,

oldingi rivojlanishi haqida axborot to'plash va uni o'rganish orqali,

- bolaning ota-onalari bilan suhbat orqali.

Insonning intellektual rivojlanishini o'rganish hozirgi kunning muhim masalalaridan bo'lib kelmoqda. Bu borada juda ko'plab ilmiy ishlar qilindi, tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin mazkur masalani o'rganishda hanuzgacha yuksak natijaga erishilganicha yo'q.

**Intellektual rivojlanish nazariyalari.** Intellektual rivojlanishning quyidagi nazariyalari mavjud: o'quv nazariyasi, psixometrik nazariya, kognitiv nazariya (yoki axborot tahlili).

*O'quv nazariyasini* Tomdayk asoslagan bo'lib, u intellektni bilim egallash qobiliyati sifatida qaraydi. Bu nazariyada turli bilimlarni egallash jarayonining quyidagi bosqichlari keltiriladi: *signallarni oddiy egallash*, operativ taxlil; muammoni yechishning qoida va yo'llarini egallash.

<sup>1</sup> HHh eHKSMii K. nejarorMqecKas AwarHocTWKa. - MOCKBH: IlcijaromKa, 1991.-C.- 168 .

*Psixometrik nazariya* o'quv nazariyasidan axamiyatliroq bo'lib hisoblanadi. U turli omillarni analitik tarzda o'rganadi. Statistika metodi kabi *psixometrik nazariya* omillarni tahlil qilish alohida individual turli ko'rsatkichli va bir-biri bilan bog'liq omillarni guruhlaydi. Keyin bu omillar unda mujassamlashgan vazifalarni hisobga olgan holda verbal interpretatsiya qilinadi.

Pedagogik diagnostika va uning metodlari o'quvchi-yoshlarning bilimini, fikr-mulohaza yuritish olishlarini, ish bilan harakatning birligi hamda tarbiyalanganlik darajalarini o'rganib, ulardagi ijobiy fazilatlarini takomillashtirish va salbiy xislatlarni yo'qotish uchun zarur bo'lgan korrektsion ishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Bugungi kunda o'quvchilarning intellektual rivojlanishini aniqlashda J.J. Piajening "Bolaning aqliy rivojlanishini diagnostika qilish", L. S. Rubinshteynning "Modellashtirilgan pertseptiv harakatlarini egallab olish darajasini aniqlash", M. ye. Bershadskiyning "Ko'rgazmali-obrazli tafakkur harakatlarini tashxislash", E. Qozievning "Mantiqiy tafakkur harakatlarini shakllantirish" kabi metodikalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda aqliy darajani (IQ) aniqlaydigan maktab testi (SHTUR-ADAMT) ham bugungi kunda mashhur testlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu test maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy rivojlanishini tashxis qilish uchun mo'ljallangan. Uning tarkibida bir necha subtestlardan iborat topshiriqlar mavjud bo'lib, ular: «bilimdonlik», «analogiya («o'xshashlik»)), «klassifikatsiya» (tasniflash), «umumlashtirish», «sonli qatorlarwini o'z ichiga kamrab oladi. Test o'zaro ekvivalent bo'lgan A va B shakllardan iborat.

Shaxsning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlariga qarab tadqiq qilish metodikalarini tanlash joizdir. Bunda proyektiv testlar (shaxsni tadqiq qilishning yaxlit holda o'rganish usullari majmuasi) bo'lib proyeksiya (tasvir, aks, soya kattalashtirish ma'nolarida) natijalarini pedagogik diagnostika asosida izohlashga asoslanadi. (Misol uchun shaxs biron bir holatda voqelikni o'zicha o'zining xislatlariga mos idrok qilib o'zidatasawur hosil qiladi).

### **Proyektiv testlar:**

A) assotsiativ va b) ekspressiv .

Assosiativ testlar. Masalan, tugallanmagan gap yoki hikoyalar tariqasida berilib, uni davom ettirish orqali shaxsning o'ziga xos his-tuyg'ulari(emotsiyalari) va boshqa hislatlari tekshiriladi.

Ekspressiv testlar. Masalan, psixodrama erkin mavzuda rasm solish, o'yinlar va k. orqali shaxs xususiyatlari tadqiq etiladi.

Bundan tashqari psixosemantik usullar ham borki, ular ongning xarakteristikalarini ya'ni shaxsning ob'ektiv tomonlarini o'rganish uchun mo'ljallangan bo'lsa, yuqoridagilar shaxsning sub'ektiv tomonlarini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqot usullaridir. Uning ob'ektiv tomonlarini tadqiq etishda shaxs xususiyatlari nazariyasi tadqiqotlari usullari maxsus so'rovnomalar shu bilan birga shaxsning aqliy qobiliyatini o'rganishning genetik metodlari hamda shaxsning intellektini o'rganishning ko'rsatmalilik(ustanovka), dispozitsiya metodlari qo'llaniladi.

Shunday qilib, jamiyatimizdagi yoshlarni har tomonlama tashxislash va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida o'ta dolzarb muammolardan biridir. Respublikamizda ma'naviy-ma'rifiyishlarning bugungi holatidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiyaviy bosqichlararo uning uzviylik va uzluksizligini ta'minlaydigan metodikani yaratish, muammoning pedagogik va metodik jihatlarni asoslash lozimligini ko'rsatadi.

## MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

### TESTLAR:

**1. Ta'lim -tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarining tadbqiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ilmiy tadqiqot metodi -bu...**

- A) Kuzatish metodi
- \*B) Tajriba -sinov metodi
- S) Suhbat metodi
- D) Modellashtirish metodi
- E) Ijtimoiy fikmi o'rganish metodi

**2. Metod so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'ri belgilangan qatorni ko'rsating:**

- \*A)lotincha: «metodos»-«yo'l», “uslub”
- B) vazifa, faraz
- S) qo'llanma
- D) yo'riqnoma
- E) nasihat, maslahat

**3. Intellektual rivojlanish nazariyalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang:**

- \* A) Psixometrik, kognitiv nazariya, axborot tahlili,
- B) Sotsiometnk, uzviylik, tadjrijiylik;
- S) Psixometrik, konseptuallik, axborotyig'ish;
- D) Intellektual, jismoniy, kognitiv, geshtaltiv.

O'quv muassasalarida tahsil oluvchilaming intellektuallik darajasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha farqlanadi va hisobga olinadi:

**4.0'quv muassasalarida tahsil oluvchilaming intellektuallik darajasi quaysi yo'nalishlar bo'yicha farqlanadi va hisobga olinadi?**

- \*A) Jismoniy kamolotga erishganligi, intellektual qobiliyati, mehnatga munosabati, ijtimoiy munosabatga kirisha olish;
- V) Vazifani bajarishga tayyorgarligi, diqqat va chidamni boshqara olishi;.

S) tarbiyalanganligi, hissiy mustaqilligi, guruh bilan kirishimliliigi;

D) miqdor va ko'plikni tushunishning darajasi, xotiraning rivojlanish darajasi.

**5. Tahsil oluvchilarning bilim olishga tayyorgarligi qaysi ko'rsatkichlar orqali tadqiq qilinadi:**

A) Shifokor tekshiruvi, maktabga tayyorgarlikni aniqlovchi test o'tkazish orqali;

V) Test jarayonida bolaning xulqini kuzatish orqali, oldingi rivojlanishi haqida axborot to'plash va uni o'rganish orqali;

S) Bolaning ota-onalari bilan suhbat orqali;

\*D) Barcha javoblar to'g'ri.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR va AXBOROT MANBALARI:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. -Toshkent, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standartlari to'g'risidagi Nizom- Toshkent: 2017 yil, fevral.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. -Toshkent O'zbekiston, 2017.-488 bet
4. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika-Toshkent: Fan va texnologiyalar,2010,256 b.
5. Abdullayeva Sh A , Choriyev R.K. Hamkorlik pedagogikasi - Toshkent:Komron-Press, 2016.-104 bet.
6. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stutgart: Klett ,2007.-196 p.
7. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogischen diagnostik -Berlin,1991, 240 p.
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
9. [www.wedu.uz](http://www.wedu.uz)
10. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
- 11 [www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)

**mavzu. O'QUVCHILARNING AXLOQIY TARBIYALANGANLIK  
DARAJASINI TASHXIS ETISH**

*Tarbiya biz uchun yo hayot,mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat. yo falokat masalasidir*

*Abdulla Avloniy*

**O'quvchilarning axloqiy tarbiyalanganligi ko'rsatkichlari va mezonlari.**

Inson tarbiyasi va uning tarbiyalanganlik darajasi o'z davrining ilmiy-amaliy mezonlari bo'yicha tadqiq etishlik ko'p asrlik fan tarixiga ega. Insoniyatning yer yuziga kelishidan e'tiboran kishilar muayyan sotsiumning a'zosi tariqasida shaxslararo munosabatga kirishishi, muloqot o'rnatishi, muomala maromiga rioya qilishi lozim, deb belgilanishi tarbiyalanganlik o'lchovlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Taraqqiyot, ijtimoiy ong, aql-zakovat. komfortga intilish hissi tarbiyalanganlikning ham harakatlantiruvchisi, ham mexanizmi, ham zarurat ekanligini ta'kidlovchi omil bo'lib xizmat qilgan va bundan keyin ham ko'p funksional vazifani ado etaveradi.

**Tarbiya jarayonining** mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy-milhy, madaniy qadriyatlami, uning odob-axloqini belgilab beruvchi Qur'oni Karim, Hadisi Shariflar, imom Buxoriy, imom Termiziy Bahouddin Naqshband, az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy kabi mutaffakkirlarning bebaho merosini; Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Al Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnakiy, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi allomalarning jahon fani va



madaniyati xazinasiga qo'shgan ulug', bebaho hissalarini tadqiq etish va shu asosda yosh avlodni tarbiyalash muxim axamiyat kasb etadi.

Axloq-ma'naviyatning o'zagi, inson axloqi shunchaki salom-alik, yaxshi muomaladangina iborat emas. Axloq-bu, awalo insof va adolat tuyg'usi, imyon, haloilik demakdir. Ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, Sharqona axloq Kodeksini ishlab chiqqanlar. Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishiga chorlagan. Har bir insonga, oila, jamoa, xalqqa rahnamo bo'lgan. Kishilarni og'ir sinovlarga bardosh berishga, yomg' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuch-quwat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehr-oqibatini oshirgan «Demak, din xalq ma'naviyatining, ma'rifatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar yeuzganda dinni eng awalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarning ma'naviy kiyofasini shakllantirishda, ularni ilm-ma'rifatli, diyonatli, yuksak axloqli bo'lishlari bilan birga, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o'zlashtirib olishlariga katta axamiyat berilmokda. O'zbekiston Davlati fuqarosining ma'naviy qiyofasini belgilovchi fazilatlar-vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur, mehnatsevarlik, baynalminalchilik kabilar maktab va o'qituvchining faol ishtirokida, taibiyaviy ta'siri ostida shakllanadi O'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega. Shuning uchun ham, awalo, muallimning o'zi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni puxta o'zlashtirib olishi va axloq bobida shaxsan ibrat bo'lishi zarur Demak, inson tarbiyasi va uning tarbiyalanganlik darajasi o'z davrining ilmiy-amaliy mezonlari bo'yicha tadqiq etishlik ko'p asrlik fan tarixiga ega Insoniyatning er yuziga kelishidan e'tiboran kishilar muayyan sociumning a'zosi tariqasida shaxslararo munosabatga kirishishi, muloqot o'rnatishi, muomala maromiga rioya qilishi lozim, deb belgilanishi tarbiyalanganlik o'lchovlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Mustaqil, ma'rifiy-madaniy, adolatli va insonparvar jamiyatda yosh avlodm har tomonlama yetuk, axloqli, odobli insonlar sifatida kamol toptirish dolzarb vazifadir. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Pedagogika fani Konsepsiyasi» talablari bilan hamohang ravishda barkamol insonni voyaga yetkazish uchun yoshlarda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish lozim:

-ijobiy fazilatlar mohiyati va mazmunini to'g'ri tushunish hamda tahlil qilish, shaxsiy munosabatini bildira olish;

-jamoadayashash, mehnat qilish malakalarini egallash;

-barkamol inson siymosini idrok etish, uning ma'naviy qiyofasini shakllantirish usullarini izlash.

YOshlarni ma'naviy boy, jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab, ularning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash lozim.

«**Tarbiyalanganlik-jamiyatda** qabul qilingan axloqiy normalarga bo'ysunish va o'zgalaming nafratini qo'zg'atadigan hatti-harakatlardan o'zini tiya bili sh».

Abdulla Avloniyning fikricha,: ». . xulq-nafsning suvrati» bo'lsa, Hamza Hakimzodaning ta'riflashicha: «Axloq xulqni ja'midur. Axloq ikki qism o'lur. Biri axloqi husniya(yaxshi xulqlar), ikkinchisi axloqi zamima( yomon xulqlar)dur. Axloqi husniya insoniyat olamining bir gulshanidirki, anda hayo, hilm, saxo, qanoat, rizo, shukr, sabr| tavba, sidq, tavoz'u, ajz, faqrqa o'xshash adolat gullari bila muzayyan va muattar o'lur. Axloqi zamima bir sho'razoredurki, oni aksincha jafo, zulm, hasad, kibr, kufir, tama', g'azab, nifoq, gasb, namima, kizb, bo'hton, g'iybat, buixl, xiyonat, isrof, hirs, poyriq, ta'jil, fitna, hosil; bunga o'xshash turju qabohat nimarsadan boshqa shaylar ko'karmaslar»\* Demak, tarbiyalanganlik barcha ijobiy xulqlarni o'zida mujassamlashtirib, salbiy xulqlardan forig' bo'lish demakdir.

YOshlarda axloqiy xislatlar bilan birga, umuminsoniy fazilatlarini, ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda pedagogik diagnostika va kooreksiyalash faoliyatiga murojaat etish zarur. Buning uchun, eng awalo, inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va

<sup>1</sup> SvyHOB A. XX acp 6onuiarH.ua HKOJ 3TraH Ma-^jntijaTnapBapnap // ricaarorBKa Tapwxn -ToiHKeHT MaLHaBKHT. 2010.-47-6CT.

o'mini aniqlab olmoq lozim Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi

Tarbiyalanganlikning asosiy belgilan quyidagilardan iborat, deb hisoblaydi mutafakkir Alisher Navoiy:

— jahl chiqqanda o'zini bosa olish; har bir ishni qilganda «etti o'lchab bir kesish»; sir saqlay olish, mulohaza qilib, ayrim gaplarni ichgayutish;

— doimo ishonch bilan yashash va olg'a intilish; andisha chegarasidan chiqmagan holda dadil bo'lish;

— bir ishni boshlagandan keyin uni oxiriga yetkizmay quymaslik

— topgan-tutganini tejab-tergab sarflash va hokazolar<sup>2</sup>.

Az-Zamaxshariyning fikricha, tarbiyalanganlikning o'rrta nishonasi farqlanadi:

— birinchisi- xalq to'g'ri deb topgan narsani noto'g'ri deb qaramaslik;

— ikkinchisi — o'z nafsiga erk bermaslik;

— uchinchisi — birovdan ayb qidirmaslik;

— to'rtinchisi — yomonlikni yaxshilikka yo'yishlik;

— beshinchisi — agar gunohkor uzr surasa, uzrini qabul qilish;

— oltinchisi — muxojirlar hojatini chiqarish;

— yettinchisi — el g'amini yeyish;

— sakkizinchisi — o'z aybini tan olish;

— to'qqizinchisi — el bilan ochiq yuzli bo'lish;

— o'ninchisi — odamlar bilan shirin muomalada bo'lish<sup>3,4</sup>.

«Xushxulqli, yaxshi tarbiya ko'rgan kishi yaqinlari, yoru do'stlari uchun misli o'chmas chiroqdirS>,-deb yozadi Servantes. Demak, har bir tarbiyachi birinchi navbatda o z faoliyatini va unda ko zda tutilgan maqsadni aniq tasavur eta olishi, bu maqsadning muhimligini tushunishi lozim

<sup>2</sup> XOIHHMOH K AiTHMep HaBOHiHHHrncaroniK KapamiapH rieaarorHKa TapHXH -TOIHKCHT ^KHrB'tu 1999 - 112-OCT

<sup>1</sup> XOIHHMOB K. Aa 3aMaxxiapHAHHHr ueaarorHK Kapamnapu...// rieaarorHKa rapuxH.-TOIOIKCHT: VKHTYBHH, 2003.- 57-OCT.

<sup>4</sup> CepBaHTec MHR-V3.IJ. ae Caancaao neaarorHHeKkaa aHroionia noa o6m. Pea K HBAHoBa.-MockBa:CeHTa6pi>, 2008.-C.-91.

O'qituvchilaming umumiy madaniyat va tarbiyalanganlik darajasini oshirish uchun optimal pedagogik-psixotogik vaziyatlarni tashkil qilish, fanlararo integratsiyalashuv jarayonini ta'minlashda taqdim qilinayotgan o'quv matnallarning sifat ko'rsatkichini oshirish lozim.

Bundan tashqari, o'quvchilaming tarbiyalanganlik darajasini o'stirish uchun ularda: axloqiy kategoriyalarni anglash, idrok qilish va ijtimoiy hayotda amal qilish tarbiya maqsadining kafolatlagan natijasidir. Bu esa o'z navbatida mustaqilligimizni qadrlay oladigan, o'zligini, jamiyat, davlat va oila oldidagi mas'uliyatni anglaydigan yetuk shaxsni shakllantirish kabi vazifalar bilan bog'liq jarayondir. Qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avaldan tasavvur etish zarur. Bunda pedagogik diagnostika katta ahamiyatni kasb etadi.

Abu Rayhon Beruniy insonning kamolotga etishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot muhim ahamiyat kasb etmasada, nasl - nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatlari ham katta ta'sir kuchiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson kamolga etishuvining eng muhim omillari ilm ma'nafath bo'lish va yuksak axloqiylikdir. Axloqiylikning belgilari: yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat, poklik, go'zalik intilish kabilardir.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Ta'lim natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib ushishiga ishonadi. "...Yosh bola yaxshi nima-yu, yomon nimaligining farqini bila olmaydi, chunki uning tushunish, fikrlash, muhokama qilish qobiliyati o'smagan bo'ladi. Shu sababli, u o'z xususiyatiga binoan salbiy ta'sir natijasida yaramas, noto'g'ri yuldan ketishi mumkin. Demak, bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq kerak.

Tarbiya insonga o'zidayaxshi odat va fazilatlar paydo qilishgayordam beradi. Alisher Navoiy tarbiyaning kuchiga e'tibor berish bilan birga, kishining qanday odam bulib voyaga yetishiga kursatadigan boshka omillarni ham unutmadi. Shirin so'z xar bir kishi uchun eng yaxshi fazilatdir. Dag'allik, qo'pollik bilan muomala qilish eng yomon xislatdir. Yomon xulqilar voboz o'zlarigaqina emas balki xalqa ham

yetkazadilar”<sup>1</sup> Alisher Navoiy laganbardorlikni, xushomadgo'ylikni yomon xislat deb biladi. Ota-onalami o'z bolalarini chin insonga xos bulgan eng yaxshi faziladar egasi qilib

tarbiyalashga da'vat etadi. Alisher Navoiyning fikricha, tarbiyaning maqsadi — yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlariga ega kishi qilib yetishtirishdir. Navoiy injik, yalqov, yomon xulqli bolalami xam tarbiya va o'qitish yo'li bilan tuzatish mumkinligiga ^nonch bildiradi

Navoiyning fikricha, odob — odamning oliyjanob fazilalaridan biridir. Odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, yoqimli bo'iadi. Bunday kishilar uchun ikki yuzlamachilik, qo'pollik yotdir. Odobli odam doimo xurmat va izzatda bo'ladi Ota-ona, aka-uka, opa-singilni, do'stlanni xurmat-izzat qilmok, — xar bir odobli kishining

burchidir. Demak, ajdodlanrmzning ma'naviy me'rosida xam axloqiy tarbiya masalalan

muhim o'rin tutadi. Ulardan zamonaviy pedagogik diagnostika asoslarini nvojlantirishda, Sharqona tarbiya masalalarini hal etishda foydalanish ahamiyatlidir.

**Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash testlari** Shuni alohida qayd etish lozimki, bugungi kunda pedagogik diagnostikada tashxislash metodlari to laqonli organilib chiqilmagan.

Bugungi kunda tarbiyalanganlik darajasini aniqlaydigan quvidagi testiar mavjud:

1. Umuminsoniy sifatلامي shakllantirish testlari;
2. Axloqiy tushunchalami shakllantirish testlari;
3. Ijtimoiy va boshqa sifatlaming shakllanganligini aniqlash testlari;

Shaxsning alohida sifatlati (temperament, idrok, xarakterjni aniqlash testlari.

Pedagogik diagnostika va korreksiya jarayoni reja asosida, tizimli va maqsadli olib borilsa, komil insonni tarbiyalashdek asrlardan beri azaliy orzuni amalga oshirish istiqbollarini kengaytiradi.

Yoshlami diniy ekstremizm, aqidaparastiik, deviant xulqlilik, giyohvandlik,

---

<sup>1</sup> Xondamir Makonmiil axioK -Toshkent.: Fan, 1941, 23-bet.

lozim. Buning uchun yoshlarda ma'naviy-ma'rifiy qarashlar ko'lammi kengaytirish, sayqallaShib qolgan uslublardan voz kechib, yangi, zamon talablanga mos keladigan tizunli metodikani, pedagogik treninglami ishlab chiqish kerak Tizimh reja asosida olib bonladigan tarbiyaviy ishlarda «Kamolot» yoshlar harakati, «Xotin-qizlar qo'mitalari, «Mahalla oqsoqollan» faol ishtirok etishlari kerak.

«Avlodlar uchrashganda. . .» «Liderlar», «Yosh avlod», »16dan keyin» klublari tashkil qilinib, unda ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy o'qishlar, turli madaniy tadbirlar o'tkazilishini ta'minlash zarur. Bu klublar faoliyati viloyat, Shahar, tumandagi pedagogik tashxislash, yoshlami reabilitatsiya qihsh markazlari tomonidan nazorat olib borishlari kerak.

Metodik ishlar talabalaming umumiy tarbiyalanganlik darajasi (nazariy, metodik saviyasi) barcha qirralarini qamrab olishi va uning malakasim uzluksiz takomilaShib borishiga xizmat qilmog'i kerak. Ya'ni metodik xizmatda talabanning kasbiy malakasining barcha fazilatleri yaxlit mujassamob'ekt sifatida tadqiq qilinadi. Shu asosda korreksion va nvojlantiruvchi tadbirlar belgilanib amalga oshiriladi Demak, metodik ishlarda asosiy mezon talabalaming kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining takomillashuvi, madaniy saviyasining o'sishida ularga aniq faol yordam berish, pirovard natijada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdir.

Metodik xizmat tizimida diagnostika ishlari ana Shu bosh mezon nuqtai nazaridan yondaShilgan holda amalga oshiriladi

Ta'lim-tarbiya jarayonining dolzarb muammolarini, nuqsonlanni tezkorlik bilan tugatish uchun metodik ishlaming istiqbolini belgilash lozim.

Ta'lim tizimida diagnostika, birinchidan, qandaydir nuqson yoki kamchiliklami aniqlash bilan ulami bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash maqsadida amalga oshiriladi. Har bir diagnostikadan so ng, albatta korreksion ishlar amalga oshiriladi Ba'zi vaqtlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy burilishi yoki xatolaming oldini olish uchun diagnostika o tkazilib bu sog lomlaShtirish (profilaktik) xaraktenga ega bo'ladi. O qituvchining korreksion ishlami olib borishdagi mahorati taTim berishda psixologik yondashuv natijalari, o'quvchilaming o'zlashtirish jarayonlari sifati va samaradorligi bilan belgilanadi

Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni tarbiyalashda metodik xizmat tizim o'qituvchi faoliyati<sup>nl</sup> ham tashxis qilishni nazarda tutadi. Yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va korreksiyalash qo'yidagi tartibda amalga oshiriladi:

- tashxis ob'ektini tanish;
- tashxis metodikasini belgilash (ishlab chiqish);
- tashxis o'tkazish;
- natijalarni tahlil qilish (interpretatsiya);
- diagnostika tahlili asosida korreksion tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish;
- metodik xizmat qilish mazmunini belgilash va amalg oshirish (korreksiya va sog'lomlashtirish ishlari);
- qayta tashxislash, sifat o'zgarishlarini aniqlash.

Yoshlarda ijobiy xislatlarni shakllantirish, ularning sog'lom irodali bo'lishlari uchun tarbiyaviy tadbirlarni yosh xususiyatlariga mos ravishda bir qator bosqichlarda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik litseylarda, oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy korreksiyalash ishlarini Myunstenberg metodikasi bo'yicha amalga oshirish samarali natijalar beradi.

Timoti-Liri metodikalariga tayanilgan holda ishlab chiqilgan va tavsiya qilinayotgan tizim o'spirinlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda (mikroguruhdagi xususiyatlar o'rganilib chiqilgach, sotsiometriya, referentometriya, (o'zaro kirishuvchanlikni shakllantirish) muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik faoliyat - kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biri ekan, zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy pedagog-psixolog bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga solish, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

O'xshash qilib, pedagogik korreksiyalash oqilona tashkillashtirilganda 16-17, 18-19. 20-23 yoshlilarning rivojlantiriladigan **ma'naviy sifatlar:** vatanparvarlik, ziyolilik, ma'rifatparvarlik, adolatlilik, mas'uliyatlilik va boshqalarni tashkil etsa, **Shaxsiy sifatlar:** oliyanoblik, kirishuvchanlik, ochiq ko'ngillilik, hamdardlilikka

moyillik kabilami samarali Shakllantirish va xulqidagi salbiy nuqsonlami bartaraf etish mumkin.

SHunday qilib, mustaqil O'zbekistonimizda ta'lim-tarbiya mazmunini modernizatsiyalaSh bosqichida diagtostik va korreksion jihatdan foydali, samarali didaktik ta'minotlami tuzish va amalga tadbii qilishni davr taqozo etmoqda. Pedagogik diagnostika va korreksiyalash muolajalari to'g'ri tashkillashtirilganda o'sib kelayotgan yosh avlodda jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhi tarbiyalanadi. Ushbu tarzda munosabatlar shaxsning vatanparvarlik, fuqaroviy yetuklik, baynalminallik kabi fazilatlarida aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi.

Mehnatga axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning turmushdagi rolini anglashida, xususiy va jamoaviy mehnatga tayyorlikda va mehnatsevarlikda ifodalanadi

Pedagogik diagnostika metodlaridni tolaqonli organish orqah zamonaviy pedagoglar tarbiyalanuvchilarda o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash evaziga jamoatchilik, ko'pchilik manfaatini o'z Shaxsiy manfaatidan ustun qo'yish kabi xislatlami shakllantirishga to'laerishadilar.

Pedagogik diagnostika va korreksiya ishlan pedagoglar tomonidan maxsus turdagi topshiriqlar, mustaqil faoliyat turlarini bajarish orqali ro'yobga chiqarilgandagina ularning samaradorligi muayyan mezonlar yordami bilan amalga oshiriladi.

Pedagogik diagnostika va korreksiya muolajalan tashxislanuvchilaming hissiy olamini kengaytirish orqali intellektual jihatdan o'sishini ta'minlaydi. Intellektual jihatdan o'sishi orqali esa, xulqidagi nuqsonlami bartaraf etishga zamm hozirlaydi Axloqiy fazilatlami kamol toptirishga qaratilgan kompleks topshiriqlardan foydalanish orqali yoshlarda tahdid va stress: vaziyatida qadriyatlarini o'zgartirmaslikka yordam beradi. Ularda sabr va iroda, bayrat va matonat kabi sifatlami Shakllantiradi va rivojlantirishga xizmat qiladi..



Pedagogik diagnostika va korreksiyaning istiqboldagi holati malakali tyutorlar (Internet tarmoqlarida ishlaydigan malakali o'qituvchi-mutaxassislar) yordamida masofaviy pedagogik diagnostika va korreksiya tadbirlarini o'tkazish mumkinligini tasdiqlaydi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, o'spirinlar xulq-atvoridagi nuqsonlarni bartaraf etish shaxslilik, aqliy, kognitiv, irodaviy, hissiy fazilatlarini shakllantirish va takomillashtirishni ro'yobga chiqaradi. Demak, korreksiya komil insonga xos bo'lgan fazilatlariga intilishning xarakterologik sifatlarini tarkib toptirishning mexanizmidir.

### **MAVZU BO'YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan korreksiyalash ishlarini olib boradigan o'qituvchi bolalarda qanday hislatlarni shakllantirishga e'tiborini qaratishi kerak? Buning uchun qanday metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq?

2. O'smir o'quvchilar orasida munosabatlarni barqarorlashtiruvchi faoliyat qanday nomlanadi?

3. O'smirlik va o'spirinlik yoshidapsixologik jihatdan eng muhim hislat nima? U qanday ko'rinishlarda o'z ifodasini topadi?

4. Ushbu jumlaning o'qini. Qaysi yoshdagi o'quvchilar to'g'risida fikr bildirilayotganligini aniqlang.

*«O'quvchilar o'z idroklarining softligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan farqlanadilar, tartibli, maqsadga muvofiq tahlil qilish faoliyati zaifligi uchun ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda ko'pincha xatolarga yo'l qo'yadilar.*

*Bu yoshdagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. O'qituvchining gapini ular uchun qonun sifatida qabul qilinadi. Ular o'qituvchi siymosida o'zining ezgu niyati, orzu-istagi, ajoyib his-tuyg'ularini ro'yobga chiqaruvchi mo'tabar shaxsni ko'radi...» .*

5. Mazkur matnning o'qini va tahlil qiling. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan korreksiyalash jarayonini qiyoslang.

*«Korreksiyalash jarayonida o'smirlarga o'z Shaxsiy hayotiga maqsadli yondaShuv hissini o' yg otish. ularga reja va amal birligida harakat qilishni o' rgatish muhim pedagogik muammo, bunda o'smirlarda:*

-madaniy, siyosiy, dunyoviy va diniy bilimlami egailshga bo'lgan talablanni Shakllantish,

-o quvchilaming malakalarini oshirish, ulami tobora boyitish, estetik tushunchalarini takomillashtinsh;

-har bir o smir yigit-qizning ijodiy imkoniyatlanni aniqlab, ulami rivojlantirish o'ta zarurdirw

6. Quyidagi tahlilga asoslanib, o zingiz tanlagan yoshdagi o'kuvchilar orasida muayyan sifatlami aniqlash uchun anketa so'rovnomasini o'tkazing. O'tkazilgan so rovnomaga asoslanib, xulosa yozing.

«...O'quv muassasalarida o'qituvchilar, ota-onalar va o'kuvchi-talabalar bilan o'tkazilgan anketa-so'rovnomalari tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ldi:

- *binchidan. kattalar: o'qituvchilar, tarbiyachUar, ota-onalaming asosiy qismi yoshlarda umumiy madaniyat va tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilishga qiynaladilar. Bu esa pedagogik korreksion tizimli metodikaning yaratilishini yana bir bor isbotlaydi.*

- *ikkinchidan, pedagogjk diagnostika va korreksiyaga oid maxsus adabiyotlaming kamligi yoki mavjud emasligini qayd etishganlar, shu sababli, guruh rahbarlaridan: maktablardagi o qituvchilaming 286 tasi; o'rta maxsus ta'lim muassasalarida 354 kishi va oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsalayotgan professor-o qituvchilaming 189 Idshi yoshlaming umumiy madaniyat darajasini diagnostika qilishda qiynalishlarini ta kidlashgan;*

- *uchinchidan, dasturlarda tadqiq qihnayotgan mavzu doirasida hal etilishi lozim bo 'lgan maxsus tavsiyalar berilmaganligi, o'qituvchining o'ziga xos har doim ham zaruriy ko rsatmalami tanlsh murakkab ekanligi aniqlandi.*

*Ko'rinib turibdiki, yoshlarda tarbiyalanganlik darajasini o'stirish uchun yaxlit umumiy madaniyatni Shakllantiruvchi metodika tarkib topmaguncha bu masala o'z yechimini topa olmaydi.*

*Ayrim hollarda ta'lim berishda asosiy urg'u bilim berishga qaratilishi va ayrim tarbiyaviy masalalar inobatga olinmayotganligining guvohi bo'ldik. Shu sababli bugungi kunda jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy negizini takomillashtirish maqsadida taqdim qilinayotgan o'quv materiallarining g'oyaviy jihatdan yetuk bo'lishiga erishish zarur. Bunda yoshlarga tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish orqali umumiy madaniyat saviyasini o'stiradigan. zarur bo'lsa, xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etuvchi tizim orqali ta'sir etish zarur...»*

### **QUYIDAGI TOPSHIRIQLARGA IJODIY YONDASHING:**

1. «Xalqimizning o'tmishdayaratgan madaniy merosi» mavzusida esse yozing.
2. «Ma'nfatli va ma'naviyatli insonning asosiy fazilatlarini», «Shaxsning kamol topishida mustaqillikning ma'navi zaminlanuvchi», «Tarbiya va rivojlanishning o'zaro bogliqligi» mavzularidan biriga esse yozing.
3. Mahallada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqing.

A) «Umuminsoniy qadriyatlar» mavzusida kichik guruhlarda debat uyushtiring

B) Mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar qaqida ma'lumot to'plang va ular asosida doklad tayyorlang.

S) Buyuk mutafakkirlar va allomalarimizning asarlaridan, odob-axloqqa oid qarashlardan foydalangan holda tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tuzing

D) Mustaqil O'zbekiston respublikasi rivojlanishining ma'naviy, axloqiy negizlari to'g'risidagi tushunchaga ega bo'lish, ijtimoiy-ma'naviy sohada tarbiyaga e'tibomning kuchayishi masalalarini tahlil qiling.

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR va AXBOROT MANBALARI:**

- 1 O'zbekiston Respublikasining «Ti'lim to'g'risidawgi Qonuni -Toshkent, 1997
2. O zbekiston Respublikasining Divlat ta'lim standartlan to'g'risidagi Nizom-  
Toshkent: 2017 yil, fevral.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va firovon, demokratik 0'zbekiston davlatini  
birgalikda barpo etamiz -Toshkent:0'zbekiston, 2016 -56 bet.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvoriigi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt  
taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent:o'zbekiston, 2017.-48 bet.
5. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika.-Toshkent: Fan va  
texnologiyalar,2010,256 b.
6. Abdullayeva Sh.A, Chonyev R.K. Hamkorlik pedagogikasi -  
Toshkent:Komron-Press, 2016 -104 bet.
7. Weiner B, Theonen der Motivazion. Stutgart: Klett ,2007.-196 p.
8. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin,1991,240 p.
- 9 [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 10.[www.eduuz](http://www.eduuz)
- 11.[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
- 12.[www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)

## **mavzu. O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA**

**Bo'lajak kasbni tanlashda irsiyat va tabiiy layoqatning roli.** Hozirgi davrda yoshlarning kasbga oid bilimlarini hayotda qo'llay olishlari uchun keng imkoniyat yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifa ta'lim sifatini yuksak darajada ko'tarishni, puxta va bilimli raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashni, boshqacha qilib aytganda, ta'lim va tarbiya tizimida tub sifat o'zgarishlarini sodir etishni talab qiladi. Shunday ekan, pedagogik diagnostika asosida tashkil qilingan ta'lim va tarbiya o'quvchi shaxsining "Men"ni yorqinroq namoyish etishga, qobiliyat va iqtidorini anglashga, uni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik diagnostika ta'lim jarayoni sifatini loyihalashtirish, unga erishish va qo'llab-quvatlash hamda uni amalga oshirish yo'llarini o'rganadi, natijalarini tashxislaydi. Bu jarayonda ta'lim sifatini ta'minlash, zamonaviy yondashuvlarining asosiy negizi- turli xil boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etish xam amalga oshiriladi. Bo'lajak kasbni tanlash uchun o'quvchilarni maktab davridanoq kasb egallashga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning irsiy va kasb tanlashga bo'lgan hohishini o'rganish - zamonaviy pedagogik diagnostika metodlariga murojaaat etishni talab etadi O'z kasbini sevgan inson ijodkorlikka intiladi, yangilik yaratishga qodir bo'ladi.

Germaniyaning «Ta'limni rivojlantirish yagona rejasi»da shunday deyiladi: «Pedagogik diagnostika tushunchasi pedagogika sohasidagi barcha jarayon va muammolarni yoritilishini, o'zlashtirishni va o'quv jarayoni samaradorligini oshirishni, ta'lim olish sohasidagi har bir kishining imkoniyatlarini aniqlash choralarini, ayniqsa, maktab ta'limi tizimida xohlagan kasbni va ta'limning uchinchi bosqichini tanlash choralarini nazarda tutadi».

Yoshlarning kasb-hunarga layoqatini o'rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilish, malaka va ko'nikmalarini o'rganish lozim. Kasb tanlash - jiddiy va mas'uliyatli ishdir. O'z hayot yo'lini jiddiy suratda belgilab

olish - oson ish etnas. Buning uchun uzoq vaqt, maxsus tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, perseptiv va h.k.) qobiliyatlar yuksak bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishi, to'garak va qo'shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushirilishi, maktablarda kasb-hunar to'g'risida ma'ruzalar o'qilishi, suhbatlar, munozaralar, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko'rgazmalarni tashkil qilinishi zarur. Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Mehnat ta'limini turmush bilan bog'lash, uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarni hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan irodaviy zo'r boshni, aqliy jiddilikni va sinovlarga bardosh bera oladigan yigit — qizlarinigina mazkur tanlangan kasbga nisbatan yaroqli bo'lishga undaydi. O'quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo'naltirishdan avval uning shaxsini o'rganish lozim. Buning uchun uni kuzarish ( bevosita, bilvosita ) o'quvchining maktabdagi, jamoat joylandagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatlarini tahlil qilish, so'rovnomalar o'tkazish, suhbat, test, olish mumkin. Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimizda qaysi soha mutaxassislanga ehtiyoj mavjudligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o'quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so'ng kasbgayo'llash lozim.

Kasbga yo'naltirishda turli kasblar, ularga qo'yiladigan talablar, bu kasbni qayerda egallashlari mumkinligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Kasb mahorati va insoniy tafakkurning rivojlanishi, fandagi mavjud muammolarni va ularni hal etish yo'llarini ko'ra bilish qobiliyati bularning hammasi muammoli - evrisrik saviyadir.

Shu o'rinida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning nazariy va amaliy aspektlari mavjud, ular quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

\_ kasbga yo'naltirishning nazariy aspekti kasb faoliyatining barcha tomonlari to'g'risidagi chuqur bilimlarning shakllanishi, shu bilimlarga tayangan holda ta'lim olishni, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbqiq etish va buning aksi bo'lgan amaliyotning nazariyaga ko'chirish yo'llarini o'rganishni nazarda tutadi

Kasbga yo'naltirishning amaliy aspekti esa egallangan bilimlarni hayotiy faoliyatning ma'lum bir sohasida qo'llashni o'rganishdan iboratdir. Bu esa yoshlarni biror kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. O'quvchilar kasblar to'g'risidagi ma'lumotlarni, bilimlarni faqat maktabda emas, balki ommaviy axborot vositalaridan, tanishlari yoki qarindoshlaridan ham bilib oladilar. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda yoshlarni kasbga yo'naltirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

— o'quvchilarning faolligi, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu — niyatlarini, xususan kasbga bo'lgan qiziqishlarini vaqtida aniqlash;

— o'quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo'llash;

— kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun yoshlarning aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqligini aniqlab, so'ng kasbgayo'llash kerak;

— ota-onalar bilan mustahkam aloqa o'rnatish;

— kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar uyushtirish lozim bo'ladi. O'quvchi - yoshlarni kasbga yo'naltirish - ularga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy - iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish — texnik tadbirlarning asoslangan tizimi hisoblanadi. Yoshlar mehnatining mazmuni mamlakat oldida turgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vazifalar, viloyat va tumanlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quv yurtlarining ichki imkoniyatlari va talablari asosida belgilanadi. Kasb egallash istagi o'quvchilarda atrof muhit omillari va maktabda o'tkaziladigan kasb hunarga yo'naltiruvchi ishlar orqali shakllanadi.

Kasbiy motivatsiya o'zgaruvchan bo'lib, uning shakllanishi uzluksiz jarayon hisoblanadi va u ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida kechadi. SHu sababli kasbiy

motivatsiyani ilk bosqichlarda aniqlab, zarurat tug'lsa, uni korreksiyalash maqsadga muvofiqdir. Kasbiy motivatsiya (moyillik) kasb tanlashga sabab bo'ladigan aniq rag'batlantiruvchi harakatdir. Shu sababli zamonaviy o'qituvchi tahsil oluvchilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishi, turli metodlar orqali ularda tanlangan kasbiga bo'lgan ishtiyoqni rivojlantirishga harakat qilishi va bu boradagi ilg'or metodikalardan xabardor bo'lishi talab etiladi.

## **KASBIY YO'NALGANLIKNI TASHXISLASH**

### **(Xolland metodikasi asosida)**

Amerikalik psixolog olim YA Xolland taklifi bo'yicha muayyan kasblarni shartli ravishda 6 guruhga bo'lish mumkin (realistik, ijtimoiy, konvensial (shartli), tadbirkor, artistik tiplar). Bu metodika asosida yuqorida qayd qilingan tiplarni qay biri qay darajada shaxsda namoyon bo'lishini aniqlash mumkin. Mazkur metodika shaxs ruhiyatida qaysi bir yo'nalish ko'proq shakllangan bo'lsa, shu kasb uni o'ziga ko'proq jalb qilishini ifodalaydi.

Metodikani o'tkazish tartibi:

Metodika savolnomasini o'quvchilarga berishdan oldin, ularga quyidagi ko'rsatma beriladi: «Quyidagi juftlikda taklif etilgan - kasblardan o'zingiz uchun bitta yoqadigan kasbni tanlang, yoki shartli ishoralar asosida «a», «b» grafalari yonida «+» yohud «—» belgisini qo'ying.

### **Ikkala kasbdan bittasini tanlash shart**

1.	a) quravchi	b) loyiha tuzuvchi
2.	a) elektron texnik	b) sanitariya shifokori
3.	a) tokar (chiiangar)	b) kotiba
4.	a) suratkash	b) do'kon mudiri
5.	a) arxitektor	b) dizayner
6.	a) faylasuf	b) psixiatr
7.	a) tilshunos	b) advokat
8.	a) ilmiy jurnal muharriri	b) badiiy jurnal tarjimoni
9.	a) pediatr	b) statist
10.	a) sport shifokori	b) feletonchi
11.	a) notarius	b) ta'minotchi
12.	a) parmalovchi	b) hajviy sur'at sohvichi rassom



13.	a) siyosiy arbob	b) yozuvchi
14.	a) bog'bon	b) meteorolog
15.	a) avtobus haydovchi	b) feld'sher
16.	a) elektron uskunalar muhandisi	b) kotiba
17.	a) bo'yoqchi	b) yog'och yoki metal bo'yicha rassom
18.	a) biolog	b) ko'z shifokori
19.	a) teleoperator	b) rejissyor
20.	a) gidrolog	b) taftishchi
21.	a) zoolog	b) menejer
22.	a) matematik	b) me'mor
23.	a) bolalar xonasi noziri	b) hisobchi
24.	a) o'qituvchi	b) marketolog
25.	a) tarbiyachi	b) kulol
26.	a) iqtisodchi	b) muhandis
27.	a) yurist	b) iqtisodchi
28.	a) shifokor	b) dirijer
29.	a) radiooperator	b) fizik yadrochi
30.	a) sozlovchi	b) montajchi
31.	a) agronom	b) gidrolog
32.	a) bichuvchi	b) dekorator
33.	a) arxeolog	b) kompyuler muhandisi
34.	a) muzey xodimi	b) kardiolog
35.	a) olim	b) akter
36.	a) logoped	b) stenografist
37.	a) terapevt	b) diplomat
38.	a) hisobchi	b) rejissyor
39.	a) shoir	b) ruhshunos

Metodika natijalarini tahlil qilish uchun har bir o'quvchining javob varaqasi alohida ishlab chiqiladi. Buning uchun 6 yo'nalish bo'yicha berilgan maxsus kalitdan foydalaniladi. Har bir savolning javobi kalitda berilgan natija bilan to'g'ri kelsa 1 ball qo'shiladi va oxirida har bir yo'nalish bo'yicha umumiy ballar yig'indisi hisoblab chiqiladi Eng ko'p ball to'plagan yo'nalish yetakchi hisoblanadi, bunda shu yo'nalish ballaryig'indisi 5 balldan kam bo'lmasligi kerak. Kalit:

Realistik tip	1a, 2a, 3a, 5a, 14a, 15a, 16a, 17a, 19a, 29a, 30a, 31a, 32a.
Aqliy tip	1b, 6a, 7a, 8a, 14b, 18a, 20a, 21a, 22a, 29b, 33a, 34a, 35a
Ijtimoiy tip	2b, 6b, 9a, 10a, 15b, 18b, 23a, 24a, 25a, 34b, 36a, 37a, 39b
Konvensial (shartli) tip	3b, 9b, 11a, 12a, 16b, 20b, 23b, 26a, 27a, 30b, 33b, 36b, 38a

Tadbirkor tip	4b, 7b, 1 lb, 13«, 19b, 2 lb, 24b, 26b, 28a.31b, 35b. 37b, 38b
Artistik tip	4a, 5b, 8b, 10b, 12b, 13b. 17b, 22b. 25b. 17b, 28b, 32b, 39a

### *Tiplarning tahlili:*

*Realistik tip.* Bunday tipdagi shaxs ko'proq konkret, ya'ni aniq ob'ektlar (narsalar, asbob uskunalar, hayvonlar, mashinalar) bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar, konkret ob'ekt bilan shug'ullanish, chaqqonlik va aniqlikni yoqtiradi. Odamlar bilan muloqotda bo'lishni yoqtirmaganliklari sababli yuqori lavozimlarda ishlashni xush ko'rmaydi. Injener, mexamk, elektrik, agronom, bog'bon, haydovchi va shunga o'xshash kasblami tanlaydi.

*Intellektual tip.* Bunday odamlar o'zining sezgir va boy xayoloti bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular amaliy mashg'ulotlami bajanshdan ko'ra, muammolami nazany hal qilish ustida o'ylashm yoqtiradilar Mavhum kasblami tanlashadi: biolog, botanik, astronom, fizik.

*Ijtimoiy tip.* Bunday odamlar muammoni yechishda ko'proq o'zlarining intellektual qobiliyatlaridan ko'ra shaxsiy hissiyot va tuyg'ularga asoslanadilar. Avtomat-mashina-avtomat tamoyili asosidagi faoliyatni yoqtirmaydilar. Ko'proq ta'lim va sog'liqni saqlash sohasiga qiziqadilar: shifokor, psixolog, o'qituvchi kasblarini tanlashlari mumkin, chunki ularda muloqotga kirishish, boshqaruv va san'atga ehtiyoj katta

*Konvensial (shartli) tip.* Bunday insonlarda moslashish salohiyati juda past Ularga past faollikm talab qiluvchi mashg'ulotlar va mutaxassisliklar hamda aniq tizimli faoliyatlar ko'proq yoqadi. CHunki bunday faoliyatlarda aniqlik va noaniqlik belgilab berilgan. Boshqaruv faoliyati qo'l kelmaydi, chunki bunday odamlar masalalami hal qilishda ko'proq boshqalaming fikriga suyanadilar. Tavsiya etilgan kasblar iqtisod, hisobchi, kotiba va hokazo.

*Tadbirkorlik tipi.* Bunday tiplar yuqori lavozimlarda ishlashni yoqtiradilar, Ularga qo'l mehnati, diqqatni bir nuqtaga jalb etuvchi faoliyatlar yoqinaydi. Ular quyidagi kasblami tanlaydilar: direktor, teleoperator, artist, diplomat, jumalist. 6. *Artistik (kreativlik) tip.* Bunday insonlarda xayol va intuitsiya yaxshi rivojlangan. Ular hayotni murakkablashgan holda qabul qiladilar. "Erkaklashtirilgari" — sport,

avtota'mirlash kabi ishlar qiziqitirmaydi. Ular ijodiy xarakterdagi mashg'ulotlarni xush ko'radilar. YA'ni, musiqa, rassomchilik, adabiyot va shu kabi sohalarda yuqon natijalarga erishishlari mumkin.

## **KASBIY TAYYORGARLIK SO'ROVNOMASI.**

**Ta'rif:** So'rovnomada o'quvchining o'z imkoniyatlari va alohida ko'nikmalaridan kelib chiqqan xolda kelajakdagi kasbga (real) xaqiqiy munosabatini aks ettiruvchi ma'lumotlar kiritilgan So'rovnomada tasvirlangan barcha faoliyat turlari insonni mehnat yoki o'qish faoliyatida uning tipik kasbiy tayyorligini 5ta kasbiy sohaga ajratadi: I.B.-“Inson va belgilar”; I.-T- “Inson va texnika”; I.-AT;- “Inson va atrof-tabiat”; I.-BO- “Inson va badiiy obraz”; I I-“Inson -inson”.

### **So'rovnoma bilan ishlash tartibi:**

Javoblar blankidagi xar bir katak biron- bir tipdagi kasbga tegishli. Javoblar blankasida harflar bilan belgilangan qatorlar xar bir savolga berilgan uch xil javobni ko'rsatadi:

“a”- o'z ko'nikmalarini baholash

“b”- o'zini emotsional munosabatini baholash

v- o'zining kasbiy hohish -istaklarim bahoish:

YAkunlovchi natijalarni ishlab chiqishdan oldin javoblar varaqasini etibor bilan ko'rib chiqish zarur. O'quvchi tomonidan o'z ko'nikmalarini baholash qatorida “0” bahosi uchrasa, uni natija hisoblarini ishlab chiqishda inobatga olmaslik shart. Masalan: “0-12-11” bu holatda 2-chi va 3-chi baholar ball hisoblashda inobatga olinmaydi.

Xar bir (shkala) qatordagi kasbiy sohaga oid ko'nikma va emotsional munosabat kasbiy hohish-istaklar ballar asosida hisoblab chiqiladi.

Kasblar tipi																			
I.B				I.T				I.AT				I.BO				II			
Na	a	b	v	Ng	a	b	v	Ns	a	b	v		a	b	v	Ns	a	b	v
1				2				3				4				5			
6				7				8				9				10			
11				12				13				14				15			
16				17				18				19				20			
21				22				23				24				25			
26				27				28				29				30			
31				32				33				34				35			
36				37				38				39				40			
41				42				43				44				45			
46				47				48				49				50			
E				E				E				E				E			
E																			

I-B- “Inson va belgilar”

I-T- “Inson va texnika”

I-AT- “Inson va atrof muhit”

I-OB- “Inson- badiiy obraz”

I-I- “Inson -inson”

Eng ko‘p ball to‘plagan qatordagi kasbga qiziqish va moyillik ushbu guruxdagi kasbga motivatsiyani belgilaydi.

Kasbiy moyillikka diagnoz qo‘yganda eng yuqori, o‘rtacha va past ko‘rsatgichlarni hisobga olish kerak.

Eng maqbul keladigan kasb sohasini (yoki bir necha sohani) tanlash bir necha kasbiy sohalarda to‘plangan ballarni qiyoslash orqali kasbiy motivatsiya qatoridan aniqlanadi. Eng ko‘p ball yig‘ilgan kasbiy sohalarga etibor beriladi Keyin xar-bir kasb sohasidagi uch qator bo‘yicha yig‘ilgan ballar qiyoslanadi. Eng ijobiy ko‘rsatgich 2-chi 3-chi qatordagi ballar yig‘indisini 1-chi qator ballariga mutanosib ekanligi bilan solishtiriladi. Masalan: 10-12-11. Agar ballar 3-8-12 bo‘lsa. tanlangan sohaga oid o‘quvchining ko‘nikmalari yetarli emasligi aniqlanadi.

Keyin alohida savollar ko'rib chiqiladi bu savollarga javoblar quyidagi ballarda:2-2-2; 2-2-1, 1-2-2;da ifodalanadi. Bundan ko'zlangan maqsad - birinchidan, o'quvchi taniagan kasbiy sohani aniqlash. Masalan: Inson -belgilar tartibi sohasida harflar, so'zlar, matnlar bilan ishlash sohasi kiradi. Bulardan (filolog, tarixchi, muharrir va boshqalar) chet va xorijiy belgilar, matnlar (texnik, tajjimon, gid- tajjimon ), matematik belgilar dasturchi, matematik, iqtisodchi va h.k. kasblarga munosiblikni ko'rsatsa, ikkinchidan, bu bir kasbiy sohadan keyingi sohaga o'tish oralig'ida joylashgan ma'lumotni aniqlashga qaratilgan. Masalan: matematika o'qituvchisi (“inson-inson”) va “inson- belgilar” tartibi: modeler (“inson-badiy obraz”, “inson va texnika” kasbiy sohalari oralig'i bo'lishi mumkin.

Javoblar natijasiga qarab, o'quvchining qaysi kasbiy sohaga motivatsiyasi kuchliligi aniqlanadi.

### **1- “Inson va belgilar” :**

Siz hisob- kitob, chizmalar, sxemalar, malumotlarni tartibga solishni yoqtirasiz. Axborotlarni qayta ishlash: sonlar, formulalar, jadvallar, chizmalar, sxemalar, xaritalar, ona-tili va chet tillaridagi matnlarni ishlashga ishtiyoqingiz baland.

Bu soha egalaridan quyidagi professional qobiliyalar: mantiqiy fikrlash, so'z va sonlarni eslab qolish xotirasining kuchliligi, uzoq vaqt mobaynida belgili materiallarga fikrni jamlay olish ko'nikmasiga ega bo'lish talab etiladi Bu tipdagi insonlarga quyidagi kasb yo'nalishlari to'g'ri keladi: injener-dasturlovchi, iqtisodchi, hisobchi, quruvchi-muhandis, arxitektor, geodezist, konstruktor, muhandis-texnolog, mexanik-muhandis, sotsiolog, jumalist, muharrir, tajjimon, lingvist, ish-yurituvchi.

### **2- “Inson va texnika”.**

Kasbiy soxangiz asosini fizika, kimyo, elektro-texnika kabi fanlar ifodalaydi. Agarda bu fanlar bo'yicha siz maktabda laboratoriya ishlarini bajarishni yoqtirgan bo'lsangiz, texnikaga oid narsalarni modellashtirishga, ularning tuzulishini tushunishga, kashfiyotlar yaratishga, yangiliklarni biron sohaga tatbiq qilishga, xar-xil mexanizm va apparatlarni tuzatadi va ishlatishga moyilligingiz bo'lsa, u xolda siz

texnika sohasida faoliyat yuntishmgiz mumkin Chunki, ko'pgina kasblar hozirgi paytda texnikaga oid, jumladan: stanoklarda ishlash, transportni boshqansh, avtomatik sistemalarda ishlash, texnik uskunalami tuzatish, ulami yaratish, montaj, texnik uskunalami yig'ish, xar-xil detallami ishlab chiqish, uskunalar bilan ishlash, ulami tuzatish va yo'naltirishga moslashgan Buning uchun shaxsda quyidagi qobiliyatlar mavjud bo'lishi zarur: texnik va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, ijodiy tasawumi rivojlantirishga moyillik, diqqatli, etiborli bo'lish, ko'rgan narsani xotirada saqlab qolish, xarakatlaming o'zaro muvofiqligini anglay olish va boshqalar.

Bu tipdagi insonlarga quyidagi kasb yo'nalishlari to'g'ri keladi: duradgor, mebel restavradori, arxitektor, chizmalar chizuvchi, quruvchi-muhandis, muhandis-mashmasoz, transport bo'yicha muhandis, konstruktor, muhandis-mexanik, payvandlash muhandisi, elektromexanik muhandis va boshqalar

### 3- **“Inson va atrof muhit”**

Kasbiy qiziqishingiz va moyilligingizflora va fauna (o'simliklar, hayvonlar) bilan ishlashga qaratilgan. Siz o'simliklar va hayvonlami o'z hohishingiz bilan parvarish qilishni yoqtirasiz, ekologiyaga oid masalalarga etiborhsiz. Bu kasb sohasida faoliyat ko'rsatuvchilar quyidagi qobiliyatlarga ega bo'lishi talab etiladi: sezgirlik, tahliliy qobiliyat, tanqidiy fikrlash, zukkolik, oldindan tabiat obektlarining o'sishi, rivojlanishini bashorat qila olish, uzoq vaqt jismoniy va ruhiy zo'riqishlarga chidamlilik. Bu tipdagi insonlarga to'g'ri keladigan kasbiy yo'nalishlar: gidrobiolog, agroximik, o'rmonchilik, yilqichilik, asalarichilik, fermerlik, parandachilik, agranom, mikrobiolog, zootexnik va boshqalar

### 4- **“Inson- badiiy obraz”:**

Kasbiy sohangizga adabiyot, tasviny sanai, musiqa, aktyorlik faoliyati kiradi. Siz insholar, maqolalar yozishni, o'z qo'lingtz bilan chiroyli nafis narsalami yasashm, rasomchilik, grafikada asarlar yaratishni, yangi, “nou-xau” darajasidagi qiziqarli kiyim modellan va xona inter'erlarini yaratishni yaxshi ko'rasiz. Boshqalarga qaraganda oddiy narsada xam go'zallikni tez ilg'ay olasiz. Bu soha vakillari quyidagi

kasblarda muvaffaqiyat qozomshlari mumkin: rassom, arxitektor, dizayner, adabiyotshunos, yozuvchi, sanatsunos, filolog, jurnalist, modeler, zargar, musiqachi aktyor vahk.

#### **5- “Inson -inson”.**

Kasbiy qiziqishingiz va moyilligingiz talim berish, tarbiyalash, raxbarlik qilish, odamlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq. Siz sabr, toqat, etibor bilan odamlarni eshitasiz, tushuntirasiz, ishontirasiz, nizolarni oldim olasiz, janjallarni bartaraf eta olasiz, qo'lingizdan kelganicha yordam bera olasiz. Sizga odamlar ichida bo'lish, ular bilan muloqot o'ratish yoqadi.

Ushbu kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishda quyidagi qobiliyatlar zarur: muloqatchanlik, kirishimlilik, verbal qobiliyat, odamlar bilan tez til topish, mexribonlik, o'ziga va o'zgalarga talabchanlik, empatiyaga moyillik.

Bu tipdagi insonga quyidagi yo'nalishdagi kasblar to'g'ri kelishi mumkin: pedagog, tarbiyachi psixolog, xamshira, murabbiy, kadrlar bo'yicha menejer, ofis-menejer, ijtimoiy pedagog, xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari (sotuvchi, texnolog, sartarosh, ofitsiant va h.k.)

#### **6- “Inson -belgi va inson -texnika”**

Kasbiy qiziqishingiz va mohiyatingiz ikki kasbiy soxalar oralig'idajoylashgan. Bu tipdagi odamlarga quyidagi yo'nalishdagi kasblar to'g'ri kelishi mumkin: mashinasoz-muhandis, transport-muhandisi, quruvchi muhandisi, muhandis-mexanik, muhandis-dasturlovchi, muhandis- elektrik, muhandis-avtomatchi vah k.

#### **7- “Inson -inson va inson -belgi”**

Kasbiy qiziqishingiz va layoqatingiz ikki sohadagi muammo yechimlarini topish, tartibga solish, tahlil qilish, axborot yig'ish, maslahat berish, tadbirlar uyushtirish, diskussiya o'tkazishga undaydi. Bu tipdagi insonlarga quyidagi kasblar yo'nalishi to'g'ri kelishi mumkin: matematika, fizika, kimyo, iqtisod, filologiya, tarix, sotsiologiya, tajjimonlik, moliyaviy menejerlik va h.k.

## **8- “Inson -belgi va - inson badiiy obraz”**

Kasbiy qiziqish va layoqatingiz mazkur yo'nalishdagi sohalar oralig'ida joylashgan. Badiiy asarlar yozish, san'at va madaniyat sohalanda axborotlarni tartibga solish, original proyektlar yaratishga qodirsiz. Bu tipdagi insonlarga quyidagi yo'nalishdagi kasblar to'g'ri kelishi mumkin. dizayner, arxitektor, kompyuter grafikasi muhandisi, musiqiy redaktor, va boshqalar

## **9- “Inson - texnika va inson badiiy obraz”**

Kasbiy qiziqishingiz va layoqatingiz mazkur yo'nalishdagi sohalar oralig'ida joylashgan Sizga texnik faoliyatga yo'naltirilgan mehnat bilan birga, o'z qo'lingiz bilan nafis narsa yasash, tugallangan badiiy asarlar yozish, yangi konstruksiyalar yaratish yoqadi.

Bu tipdagi insonlarga quyidagi yo'nalishdagi kasblar to'g'n kelishi mumkin: arxitektura, konstruktorlik, quruvchi muhandis, tannakorlik, temirga badiiy ishlov beruvchi muhandis, tikuv sanoati texnologi.

## **10- “Inson - texnika va inson- inson”**

Kasbiy qiziqishingiz va layoqatingiz mazkur yo'nalishdagi sohalar oralig'ida joylashgan bo'lsa sizning ko'nikmalingiz texnik obektlarga yo'naltirilgan kasblarga qaratilgan va shu bilan birgalikda insonlarga rahbarlik qilishni hohlaysiz va buni bilasiz. Ushbu tipdagi odamlarga to'g'ri kelishi mumkin bo'lgan kasblar. mehnat o'qituvchisi, mashinasozlik bo'yicha muhandis- mexanik, elektrotexnika muhandisi, sanoat sohasi menedjeri, quruvchi muxandis.

## **11. “Inson- inson va inson badiiy obraz”.**

Kasbiy qiziqishingiz va layoqatingiz mazkur yo'nalishdagi sohalar oralig'ida joylashgan Siz jamoa bilan ishlashga, ularni o'qitishga qodirsiz, ijodiy tafakkurningizning cheki yo'q. Ushbu tipdagi odamlarga quyidagi yo'nalishdagi kasblar to'g'ri kelishi mumkin: jumalist, diktora, rejissyor, prodyusser, xoreograf, aktyorlik ustasi o'qituvchisi, ko'rgazmalar tashkilotchisi, redaktor, rassom.



## **12- “Inson- inson va inson tabiat”.**

Kasbiy qiziqishingiz va layoqatingiz mazkur yo'nalishdagi sohaier oralig'ida joylashgan. Bu soha egalari insonlar bilan doimiy muloqotda bo'lish, tabiatni sevishga qodir. Ushbu insonlarga quyidagi yo'nalishdagi kasblar to'g'n kelishi mumkin: marksheyder, muhandis, ekolog, zoologik ko'rgazmalar tashkilotchisi, geografik ekspeditsiyalar rahbari, o'simlik va hayvonlar olami to'g'risidagi teleko'rsatuvlar boshlovchisi va h.k.

### **KASBIY MOTIVATSIYANI ANIQLASH METODIKASI**

**Ta'rif:** Shaxsning kasbiy motivatsiyasini hamda guruhlarda kasbiy motivatsiyani o'rganish uchun turli metodikalar mavjud. Shulardan birini ko'rib chiqamiz.

O'smirlarga javoblar uchun blanka tarqatilib, bajarilishi lozim bo'lgan yo'riqnoma o'qiladi. Savolnomada tasdiq jumladan iborat har bittasi 3 ta turli ma'no bilan tugallangan gaplar mavjud. 3 variant javobdan faqat bitta to'g'ri kelgan javobni topib, javoblar blankasiga belgilash lozim Diqqat qiling, har bitta tasdiq uchun 1 ta javob belgilangan bo'lishi kerak.

Javob berganda, lo'nda javobdan ko'ra ballaming jamlanmasi muximroq hisoblanadi.

#### **SAVOLNOMA:**

1.
  - a) Menga mehnatim zoye ketmaydigan ishni bajarish yoqadi (1 ball);
  - b) Oldimga quyilgan maqsadlarimga erishish uchun yangi bilim olish yoqadi(2 ball);
  - v) Menga xamma ishlami iloji boricha yaxshi bajarish yoqadi, chunki bu hayotimda asqotadi(3 ball).
2.
  - a) O'ylaymanki, berilgan topshiriqlami iloji boricha yaxshi bajarish kerak, chunki bu hayotimda asqotadi(2 ball);

- b) Uylaymanki, bajargan ishlar bilan atrofdegilarga egulik keltirish kerak, chunki ulardan ham shu yaxshilik qaytadi(3ball);
- v) Qanday qihb bo'lsa xam, qoyilgan maqsadlarga enshish lozirn, deb o'ylyayman(l ball).
- 3.
- a) Kelajak hayotira uchun yangi bilim olishim zarur(2 ball);
- b) Agar bajarayotgan ishimni kimdir baholasa, uni yaxshi uddalashga harakat qilaman(1 ball);
- v) Har qanday ishm yaxshi bajarishni istayman, chunki bundan atrofdegflar xursand bo'ladi(3 ball).
- 4.
- a) Asosiy <sup>va</sup> sevimli ish, bu atrofdeki insonlarga foyda keltiradigan ish, asosiy muhim va yoqimlidir(3 ball),
- b) Hayotda xamma narsada kuch sinab ko'nsh kerak, deb hisoblayman(1 ball);
- v) Hayotda eng muhimi - doim yangi bilimlarga intilish, deb hisoblaymarXI ball).
- 5.
- a) Har qanday ishm men yaxshi bajara olganday qilsam ko'nglim ko'tarilirii( 1 ball);
- b) Mehnatim atrofdegilarga foyda keltirsa, kunglim ko'tariladi, chunki buhar qanday ishda muhim hisoblanadi(3 ball);
- v) Ishlash doim yoqimli bo Iganligi uchun, har qanday ishni bajarishdan ko nglim ko'tariladi(2 ball)
- 6.
- a) YAngi bilim olish jarayoni meni jalb etadi(1 ball);
- b) Qo'limdan kelgan barcha ishni bajarish meni jalb etadi(1 ball);
- v) Atrofdegilarga foyda keltiradigan lish jarayoni mem jalb etadi(2 ball).
- 7.
- a) Har qanday muhim va mas'ul ish qiziqarli bo'lishiga ishonchim komil(1 ball);
- b) Har qanday ish qiziqarli bo hsliga ishonchim komil, agarda u menga foyda keltiradigan bo lsa( 1 ball);

- v) Har qanday ish qiziqarli bo'lishiga ishonchim komil, agar uni ustalik bilan bajara  
o'lsam(2 ball).
- 8.
- a) Menga o'z ishimning ustasi bo'lish yoqadi(2 ball);
- b) Menga biror ishni kattalar yordamisiz bajarish yoqadi(2 ball);
- v) Menga doim yangi narsa o'rganish yoqadi(1 ball).
- 9.
- a) O'qish menga qiziqarli(2 ball);
- b) Atrofdagilarga seziladigan ishlarni qilish menga qiziqarli( 1 ball);
- v) Menga mehnat qilish qiziqarli( 1 ball).
- 10.
- a) O'ylaymanki, bajargan ishlarimning natijalari atrofdagilarga sezilsa yaxshi  
bo'lardi(1 ball);
- b) O'ylaymanki, har qanday ishda muhimi natijadir(2 ball);
- v) O'ylaymanki, hohlagan ishlarni mustaqil qilish uchun tezkor kerakli bilimlarni  
olish lozim(2 ball).
- 11.
- a) Men fakat o'zimga yoqadigan ishlar bilan shug'ullanishni hohlar edim(1 ball);
- b) Men har qanday ishni qo'ldan kelgancha, yaxshi bajarishni hohlayman, chunki  
shu yo'l bilan haqiqatgayaqinlashsabo'ladi(1 ball);
- v) Mening ishim atrofdagilarga foyda keltirishini hohlayman, chunki bu mening  
kelajak hayotimda yordam beradi(3ball).
- 12.
- a) Ko'pchilikning qo'lidan kelmaydigan ishni qoyilmaqom qilib quyish men uchun  
qiziqarli(2 ball);
- b) Avval qilolmaydigan ishimni o'rganish men uchun qiziqarli(2 ball);
- v) O'ziga diqqatni jalb etadigan ishlarni bajarish men uchun qiziqarli( 1 ball).
- 13.
- a) Men hamma qadrlaydigan ishni bajarishni yaxshi ko'raman(1 ball);
- b) Menga xalaqit berishmasa, barcha ishlarni bajarishni yaxshi ko'raman(1 ball);

v) Bajarishim lozim bo'lgan ishim borligini yaxshi ko'raman(3 ball).

14.

a) Men turli ishlarni bajarishni hohlayman, chunki menga natijalari qiziqarli (2 ball);

b) Men foyda keltiradigan ishni bajarishni hohlayman(1 ball);

v) Menga yoqadigan ishni bajarishni hohlayman (2 ball)

15.

a) Har qanday ishda eng qizig'i uning bajarilish jarayoni, deb hisoblayman (1 ball);

b) Har qanday ishda eng qizig'i uning natijasi, deb hisoblayman(2 ball);

v) Har qanday ishda eng qizig'i, boshqa odamlarga uning qanchalik muhimligi deb hisoblayman(2 ball).

16.

a) Menga kelajakda kerak bo'ladigan barcha narsalarni o'rganish yoqadi(2 ball);

b) Menga kerak bo'lsayam, bo'lmasayam yangi bilimlarni olish yoqadi(1 ball);

v) Menga o'qish jarayonining o'zi yoqadi (1 ball).

17.

a) Meni o'qishdan so'ng ochiladigan manzara qiziqtiradi(0 ball);

b) Meni o'qishdan so'ng kerakli odam bo'lishim qiziqtiradi(2 ball);

v) O'qishni menga foydaliligi qiziqtiradi(2 ball).

18.

a) O'rgangan narsam menga doim kerak bo'lishiga ishonchim komil(2 ball);

b) Menga o'qish doim yoqishiga ishonchim komil(1 ball);

v) O'qishdan so'ng kerakli odam bo'lishimga ishonchim komil(3 ball).

19.

a) Ishimning natijasi atrofdagilarga ko'rinishi menga yoqadi(1 ball);

b) O'z ishimni ustalik bilan bajarish menga yoqadi(2 ball);

v) O'z ishimni boshqalar bajara olmaydigan darajada yaxshi bajarish menga yoqadi(1 ball).

20.

a) Topshirilgan • vazifani sifatli bajarish men uchun qiziqarli(2 ball);

b) Atrofdagilar sezadigan ishni bajarish men uchun qiziqarli(0 ball);

.) Ishxonada nima bilan bandligimni xamma bilishi men uchun qadrlidir( 1 ball).

**Kalit:** Savolnomada keltirilgan javoblar yonidagi ko'rsatilgan ballar tashxis qo'yuvchi uchun mo'ljallangan. Savolnoma tarqatilganda tashxislanuvchilarga har bir javob uchun mo'ljallangan ball ko'rsatilmaydi. So'rovnomada oxirida ballar jamlanadi. Yig'ilgan ballar jamlanmasi 40 dan yuqori bo'lganda o'quvchining kasbiy moyilligi va motivatsiyasi kuchlligidan dalolat beradi.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR va AXBOROT MANBALARI:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g' risida»gi Qonuni. -Toshkent, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standartlari to'g'risidagi Nizom- Toshkent: 2017 yil, fevral.
3. Mirziyoev Sh M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2016.-56 bet.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson nianfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent:o'zbekiston, 2017.-48 bet.
5. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika.-Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010,256 b.
6. Abdullayeva Sh.A., Choriyev R.K. Hamkorlik pedagogikasi - Toshkent:Komron-Press, 2016.-104 bet.
7. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart: Klett ,2007.-196 p.
8. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogischen diagnostik.-Berlin,1991, 240 p.
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
10. [www.eduuz](http://www.eduuz)
11. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
12. [www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)

## **mavzu. SINF (GURUH) JAMOASINING TARBIYAVIY IMKONIYATLARINI TASHXIS ETISH**

**Sinf (guruh) jamoasining “tarbiyaviy imk«niyatlari” tushunchasining mohiyati.**

Sinf jamoasi faqat o'quv faoliyati birligi bo'libgina qolmasdan, baiki o'quvchilarga tarbiya berishni tashkil etishning muhim jamoa shakli hamdir. Z Qo'zievning fikricha «jamoaga qoyilgan umumiy talablarga ko'ra jamoa a'zolari quyidagilardan qoniqish hosil qilishlan kerak: o'zaro munosabatlardan;o'qish va mehnat jarayonidan; rahbarlikdan; uyushqoqlikdan; ongli intizomdan; oqilona va foydali faoliyatdan; xotijamlikdan; o'z qadr-qimmatini saqlashdan; jamoa bilan faxrlanishdan; himoyalanganlikdan.

Jamoa a'zolariga:

- ixtiyoriylik;
- demokratik faoliyat;
- so'z erkinligi;
- tashabbuskorlik;
- mastaqillik,
- faollik;
- ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun imkoniyat yaratilishi kerakw<sup>6</sup>.

O'quvchilar jamoalarini tuzish guruhlarda, sinflarda turli farqlar bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun barcha sinflar uchun bir xildagi yo'l-yo'riqlami belgilab bo'lmaydi. Ayniqsa, boshlang'ich, V va IX sinflarda o'quvchilar jamoasini tashkil etish va jipslashtirish katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bu sinflarda ko'pincha o'quvchilar tarkibi mutloq yangi yoki qisman o'zgaradi. Shuning uchun o'quvchilar jamoasini yangidan tuzishga to'g'ri keladi

---

Qo'ziev Z. Sini'raxbari isliini tashkil etish va rejalashtirish. Toshkent. 1997, 49- bet.

VI-VII sinflarda o'quvchilar faollari kengayib boradi. Ular ko'proq jamoatchilik ishlarida qatnashadilar, o'zlarining axloqiy tajribalarini boyitadilar, mehnat qilish malakalari va ko'n ikmalarini rivojlantiradilar.

Sinf rahbari quyi va o'rta sinflarda bu ishlarni amalga oshirishda bolalar va o'smirlar uyushmasiga, yuqori sinflarda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati yordamiga tayanadi. «... Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol qatnashuvchi odamgina shaxs deb ataladi»<sup>7</sup>, - deb ta'kidlaydi L.S. Rubinshteyn.

Zigmund Freyd o'z asarlarida bayon qilgan nazariyaga ko'ra, bola agar atrof-muhitning talablari va ong ostidagi qudratli mayllarni muvozanatda ushlab tura olsagina, mustaqil mavjudotga aylanadi. Bizning o'zimizni anglashga bo'lgan qobiliyatimiz ongsizlik xurujlarini bosish yo'li bilan rivojlanadi.

J.G. Mid fikriga ko'ra bola boshqalar uning o'ziiga nisbatan o'zlarini qanday tutayotganliklarini ko'rib, o'zini aloqida mavjudot sifatida anglay boshlaydi. Keyinroq, o'yinlarda qatnashib, o'yin qoidalarini o'rganib bola «umumlashtirilgan o'zga»- umumiy qadriyatlar va madaniy me'yorlarni tushuna boshlaydi.

Jan Piaje bolaning dunyoni ongli idrok etish qobiliyatining rivojlanishida bir nechta asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatadi. Har bir bosqich yangi bilish qobiliyatlarini o'zlashtirish bilan tavsiflanadi va oldingi bosqichning muvaffaqiyatlilikiga bog'liq bo'ladi. Piaje fikriga ko'm, kognitiv rivojlanishning bu bosqichlarni ijtimoiylashuvning umumiy xususiyatlari hisoblanadi.

«Ijtimoiylashuv- bu chaqaloqning boshqa odamlar bilan muloqatga kirishish orqali o'zini anglaydigan, o'zi tug'ilgan madaniyatni tushunadigan aqlli mavjudotga aylanish jarayoni»<sup>8</sup>.

Ijtimoiylashuv agentlari- bu eng muhim ijtimoiylashuv jarayonlari yuz beradigan tuzilmaviy guruqlardir. Barcha madaniyatlarda bola ijtimoiylashuvining asosiy agenti oila qisoblanadi. Bundan tashqari, tengdoshlar guruqlari, maktab, ommaviy axborot vositalari ham ijtimoiylashuv agentlaridir.

---

PyfjHnurrettH JI.C. nCHXDJiorMa. -MOCKBI CeHTISpb, 2010.-S. 147.

Entoni Giddens Sosiologiya. -Toshkent "Sharq". 2002. 111- bet.

Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiylashuvda jamoaning o'zi beqiyosdir. «Jamoat ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyat uchun jipslashgan o'quvchilar birlashmasidir»<sup>9</sup>

Sinf jamoasini jipslashtirish yo'llari: jamoatchilik topshirig'i berish; sinf faollarini to'g'ri tanlash; o'quvchilarni istiqbolga chorlash;

4. Sinfda ijobiy an'analarni qaror toptirish; o'quvchilarga yagona talablar qo'yishdan iborat.

**Sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini ta'xis etish metodikasi.** Jamoatchilik topshiri\_i. Jamoat bo'lib ishlash, amaliy faoliyat ko'rsatish sinf jamoasini jipslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyat sinf jamoasi hayotini mazmundor va qiziqarli qiladi. Sinfdagi barcha o'quvchilarga, qatto qoloq, intizom bo'sh o'quvchilarga ham jamoat topshirig'i berish kerak Bu bolalarni mehnatsevarlik, tejamkorlik va tartib-intizomga o'rgatadi.

Sinfdagi faollarni aniqlash .Sinf raqbari dastlabki kunlardan o'quvchilarni jamoat topshiriqlari orqali kuzatib boradi Ular ichidan faol bolalarni tanlab oladi. Shunday ongli, tashabbuskor, tashkilotchi, alochi o'quvchilardan sinf faollarini saylaydi.

Jamoat ishini faqat faollar zimmasiga emas, balki barcha o'quvchilar orasida taqsimlash maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni istiqbolga chorlash. Istiqbol - bu yorqin qiziqarli va quvonchli voqealar manzildir. Sinfda yorqin va jozibador istiqbollarning bo'lmashligi, bu jamoada bir xillik va zerikarli qolatlarni keltirib chiqaradi.

Istiqbol odatda, oddiy kundalik ishlar: sinf xonasini jihozlash, kutubxona tashkil etish, musobaqalarga tayyorlanishdan boshlanib, sayr-tomoshalarga chiqish, kino, teatrlarga jamoat bo'lib borish orqali davom ettiriladi. So'ngra murakkabroq istiqbolli vazifalar qo'yiladi: kecha tayyorlash, dramatik to'garak tashkil qilish, olimpiadalarda qatnashish, sovrinlarni («Zulfiya», «Nihol»kabi) qo'lga kiritish uchun harakat qilish kabi.



«An'ana» asli arabcha so'z bo'lib, uzoq zamonlardan beri avloddan-avlodga, otalardan bolalarga o'tib davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir»<sup>10</sup>. Bu jamoa hayotiga mustaqkam o'mashib qolgan ijobiy tajribalardir. Turli bayramlarni nishonlash, ijodiy ko'riklar tashkil etish, maktabni bitirganlar bilan uchrashuvlar, tug'ilgan kunlarni muborakbod etish kabi an'analar bo'lishi mumkin.

Har qanday an'ana sinf o'qituvchilari va ota-onalar nazariidan chetda qolmasligi kerak. Ular qo'llab-quvatlagan taqdirdagina bu boqiy an'anaga aylanadi. Yaxshi an'ana sinf jamoasining jipslashuviga ko'maklashadi.

## MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

### TESTLAR:

#### 1. Tarbiya - bu...

A) Insonni o'z-o'zini taraqqiy ettirish jarayoni

\*B) uzoq muddatli, ko'p xususiyatli, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi qo'shaloq jarayon bo'lib, bunda tarbiyalanuvchida muayyan sifatlar, ko'nikmalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi

S) Murakkab vazifalarni hal qilish, qaror qabul qilish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni

D) Muhim belgi va sifatlarni tarkib toptirish jarayoni

E) Barcha javoblar to'g'ri

#### 2. Tarbiya qaysi faoliyat maxsuli xisoblanadi?

a) mehnat;

b) o'qish;

c) ko'nikma;

d) malaka;

e) tajnba;

**3. Tarbiya turiari to'g'ri ko'rsatilgan qatomi belgilang:**

A) Jismoniy, estetik, valeologik, diskriptiv

\*B) Axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik va boshqalar

S) Estetik, axloqiy, biologik, mehnat tarbiyasi

D) valeologik, fiziologik, ruhiy va boshqalar

E) Genetik, irsiy, biologik, ijtimoiy

**4. “Al-hosil, bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo xalokat, y« saodat-yo falokat masalasidir...” degan so’zlarning muallifi kim?**

a) Fitrat;

b) Bexbudiy;

c) Abdulla Avloniy;

d) Sadnddin Ayniy;

e) Abdulla Qodiriy

**5. Insonning shaxs sifatida kamol topishida qaysi omillar muhim ahamiyat kasb etadi?**

A) Ijtimoiy, jismoniy

\*B) ijtimoiy, biologik, ruhiy omillar

S) dunyoqarash, genetik

D) Irsiyat, ijtimoiy

E) Biologik, egotsentnk

**6. Jamiyat mafkurasi nima?**

a) Inson manfaatlarini ifoda etuvchi, bexatar, tinch-totuv, farovon turmushga yo'llovchi manba;

b) Muqaddas an'analarimizni anglash;

c) Xilma -xil fikrlar va g'oyalarni bir bayroq ostiga birlashtirish;

d) Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

e) Fikrlar xilma-xilligi va hurfikirlik.

**7. Milliy mafkura vositasida nimaga erishiladi?**

- a) el-yurt birlashadi;
- b) iqtisodiyot rivojiga erishiladi;
- c) ma'rifatga erishiladi;
- d) barqarorlikka erishiladi;
- e) a,v,s,d.

**8. Komil inson g'oyasi- bu...**

a) komil inson g'oyasi - odamzotga xos yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni ezgulikka undaydigan olijanob g'oya;

b) komillik - mehr - muruwat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tabbirkorlik, matonat kabi asl insoniy xislat va fazilatlaming majmuidir,

c) komil inson g'oyasi azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'anaviyatining uzviy qismi bo'lib kelgan;

d) komil inson - qullik, mutelik, boqimandalikdan butunlay xolos bo'lgan, o'z maslagi, vatani, xalqi manfaatlariga yot, zarali g'oyalami tarqatayotgan kimsalar ortidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydigan, ogoh va faol insondir;

e) Barcha javoblar to'g'ri.

**9. Tarbiya qaysi faoliyat maxsuli xisoblanadi?**

- a) mehnat,
- b) o'qish;
- c) ko'nikma;
- d) malaka,
- \*e) tajriba;

## **TOPSHIRIQA IJODIY YONDASHING:**

1. Ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohlarida islohotlar haqidagi ma'lumotlarni to'plang va ularni tahlil qiling.
2. Ta'lim - O'zbekiston xalqi ma'naviyatining yaratuvchisi sifatida ekanligini ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali olingan ma'lumotlar asosida tahlil qiling. Mamlakatimizda shaxsning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilayotganligini hayotiy misollar bilan asoslab bering.
3. "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da «tarbiya» kategoriyasiga berilgan ma'lumotlarni to'plang va tahlil qiling.

## **MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:**

- Tarbiyalarayonida tarbiya tamoyillarining ahamiyati qanday?
- «Tarbiyaning maqsadga qaratilgan bo'lishi» deganda nima tushunasi?
- Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya tamoyilining hozirgi kundagi ahamiyati qanday?
- Tarbiyada milliy va umuminsomiy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash nima uchun zarur deb o'ylaysiz?
- Ijtimoiy ongning shakllantiruvchi usullarga nimalar kiradi?
- Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash usullariga qo'yilgan talablar to'g'risidagi fikr bildiring.
- Individ, shaxs va jamoa tushunchalarni qanday tushunasiz?
- Jamoaga qanday talablar qo'yiladi?
- Sinf jamoasini jipslashtirish va shakllantirish yo'llari nimalardan iborat, deb o'ylaysiz? Bunda sinf raqbarining o'rnini qanday?
- Jamoa bola tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
- Sinf raqbari o'quvchini va sinf jamoasini qanday yo'llar bilan o'rganishi mumkin?

## **TOPSHIRIQLAR:**

1. «Bola tarbiyasiga jamoaning ta'siri» va «Jamoaga bolaning ta'siri» mavzularida munozara va debat uyushtiring. ikki guruqga bo linib, birinchi guruh jamoaning boiaga (shaxsga) ta sirini, ikkinchi guruq shaxsning(bolaning) Jamoaga ta 'sirini yoritib o zaro munozara uyushtiring. Bunda Har guruq o 'z qarashlari va g 'oyalarini hayotiy misollar bilan asoslab berishga harakat qilishi lozim.

Munozarada quyidagi ma'lumotlarga tayanishni unutmang. Jamoaning bola tarbiyasiga ta 'sir ko rsatish shakl va usiublari quyidagilar:

- / Jamoaning jamoatfikriga tayanishi.
- 2. O quvchilar Jamoasida tanqid va o 'z-o 'zini, tanqidni rivojlantirish.
- 3. O 'quvchilarning sinf majlisi.
- 4. Sinf devoriy gazetasi.
- 5. -Makro va -mikro guruqda lideming o 'mi.

1. «Men rahbar bo 'lganimda. . .» mavzusida 5 minutlik esse yozing.

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR va AXBOROT MANBALARI:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. -Toshkent, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standartlari to'g'risidagi Nizom- Toshkent: 2017 yil, fevral.
3. Mirziyoev SH.M Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariiga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi,-Toshkent:O'zbekiston, 20017.-104 bet.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2016.-56 bet.

- 5 Mirziyoev Sh M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlanni ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonliginmg garovi -Toshkento'zbekiston, 2017.-48 bet.
6. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika-Toshkent: Fan va texnologiyalar,2010,256 b
7. Abdullayeva Sh.A., Chonyev R.K. Hamkorlik pedagogikasi,- Toshkent Komron-Press, 2016.-104 bet
8. Weiner B, Theorien der Motivazion Stuttgart: Klett ,2007.-196 p
9. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin,1991, 240 p.
- /0.G'oziyev E. Yosh davrlari psixologiyasi. -Toshkent: O'qituvchi, 2008. Uchinchi nashr -282 bet.
11. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
12. [WWW.eduuz](http://WWW.eduuz)
13. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
14. [www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)

## **mavzu. OILANING TARBIYAVIY IMKONIYATLARINI TASHXIS**

### **ETISH**

**Oilaning “tarbiyaviy potentsiali” tushunchasining mohiyati** Oila jamiyatning boshlang ich ijtimoiy bo'g'inidir. U o'zida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllan, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Ota-onalarning bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy-axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi.

Oilalar respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy-iqtisodiy umumiylik asosida rivojlanadi. Ayni paytda oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham egadir. Pedagogik tashxislashda oila tarbiyasi o'z milliy va demografik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanishini hisobga olish zarur. Oilaviy tarbiyada oilaning moddiy farovonligi, madaniy-ma'naviy saviyasi, osoyishtaligi, oila a'zolarining soni, tarkibi alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika va psixologiya fanlarida ota-onalar bilan ish olib borishga doir turli hil yondashuvlar mavjud. Shulardan K. Leongard, Myunstenberg, Dembo-RubinShteyn, ye. Klimov, I Grebennikov, A Q. Munawarov, O. Musurmonovalar tomonidan yosh va pedagogik psixologiyaga asoslangan holda yaratilgan ma'rifiy-axborotli yondashuvlardir. Bu yondashuvlarning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda ota-onalarga uzluksiz va ma'lum tizim asosida yordam berish maqsadida oila uchun ommaviy ta'lim dasturlari ham ishlab chiqilgan. Bu dasturlar asosida oilaning bolalar tarbiyasidagi rolini faollashtirishga muvaffaq bo'linmoqda

Ma'lumki, tiniq manzilga qaratilgan har qanday faoliyat o'z samarasini beradi, shuning uchun nrtuayyan ijtimoiy pedagogik yordamga muhtoj oilalarni ijtimoiy pedagogik tashxis asosida aniqlab, ularga real yordam ko'rsatish, ya'ni oilada valeologik sog'lom turmush tarzini shakllantirish va bolalarga to'g'ri tarbiya berish maqsadga muvofiqdir. Oila tarbiyasida aynan oila tashxisi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir oilaning ehtiyojlarni inobatga olgan holda ularga ijtimoiy pedagogik yordam berishda maxsus amaliy ishlar (spetspraktikumlar) muhim ahamiyatga ega

**Oiladagi sog'lom muhitni tashxis etish.** Oilada sog'lom turmush tarzini saqlashga doir-ota-onalarning pedagogik-psixologik tayyorgarligiga bolgan ehtiyojni tashxis etish bo'yicha maxsus amaliy ish quyidagicha amalga oshiriladi:

-maqсадni belgilash, ya'ni oiladagi enshilgan yutuqlarni aniqlab, ularga suvangan holda ota-onalarning yana qanday imkoniyatlarga ega ekanliklarini hamda qanday yordamga muhtoj ekanligini belgilash;

-harakatlar algoritmi, ya'ni ota-onalar orasida oila tashxisini o'rnatishga doir anketalar tarqatish, ularga javoblar olish, tahlil etish, ularning tavsifiga ko'ra ota-onalarni kichik guruhlariga ajratish va tashxis natijalari bilan tanishtirish kabi faoliyatdir;

-tashxis asosida pedagogik konsiliumlarni tashkil etish, psixologik xizmatni amalga oshirish rejalarini tuzish ishlari amalga oshiriladi.

Oila diagnostikasi amalga oshirishda oila va oilaviy munosabatlarning psixologik holatini, muhitni o'rnatishga doir

»Oilada pedagogik muhitni aniqlash», «Tipik oilaviy hayot», «To'g'ri yolg'izlik», «Oilaning kinetik rasmi» nomli mashhur metodikalardan foydalanish mumkin.

Oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bola uchun ota-ona, qon-qarindoshlik, avlod-ajdod hislatlarini uzatadi, uning davomiyligini saqlaydi, farzandni shaxs sifatida shakllantiradi, hayotga tayyorlaydi


«Oilaviy tarbiya doimo o'zining murakkab va ko'p qirraliligi, ajoyib va seijiloligi bilan ajralib turadi»<sup>11</sup>-, deb ta'kidlaydi A. Munawarov. Har bir oila o'ziga xos bir olam, olam ichidagi va shu bilan birga olamga sig'magan olam, u tarbiya ishida o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o'zida namoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning hammaga ma'qul tushadigan yo'l-yo'riqlari mavjud emas. \*

---

Munawarov A. Oila pedagogikasi TOUKCHT VKnryBW, 1994, 54-b.



Tashxislash jarayonida jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lmish-oilaning vazifalarini ham inobatga olish lozim. Bunda oilaning asosiy vazifalari, funksiyalari quyidagilardan iborat ekanligini qayd etib o'tish joiz (9-rasm):



**9-rasm. Oila funksiyalari**

Bola maktabga kelguncha oilada tarbiyalanadi. Oila bolaning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy xoldir. Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdagi eng birinchi vazifalari bolalarning sog'ligini saqlashdir. Buning uchun bola to'yib ovqatlanishi, gigiyena talablariga rioya etishi lozim bo'ladi. Ota-onalar o'zlarining mehnat faoliyatlari, xulq-atvorlari bilan ham bolaga namuna bo'lishlari shart. O'zaro oilaviy jamoada yaxshi iborali so'zlashuvni tashkil etish lozim.

Ota-onalar bolalarining maktab-o'quv vazifalarini yaxshi bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilarga rioya qilsalar maqsadga muvofiqdir:

- bolalarning darsga kech qolishlariga va sababsiz dars qoldirishlariga yo'l qo'ymaslik;
- bolalarning mashg'uloti uchun uyda unga qulay sharoit yaratish;
- bolalarning uy vazifalariga halollik bilan qarashga o'rgatish, bolalarning g'ayrat va chidamliligini oshirish;
- bolalarni vijdonli va rostgo'y bo'lishga, mustaqil ishlarga o'rgatish.

O'zbek xalqining milliy xususiyatlari : axloqiylik, o'z-o'zini anglash, milliy tuyg'u, milliy madaniyat, milliy kiyinish va yurish-turishda o'z aksini topadiki, o'zbek oilasining tuzilishi va Shaxslararo munosabatini o'rganishda bulami chetlab

o tish mumkin emas. O zbek oilalan tuzilishiga quyidagi sifatlar xosdirko'p bolalilik; oilada otaning bosh tarbiyachi sifatida namoyon bo'lishi; qanndoshchiltk, bir necha avlodlarning birgalikda yashashi.

**Oiladagi pedagogik muhitni tishxis etish.** Oiladagi sog'lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning o zaro yaxshi munosabati, mehribonligi, g amxo'rliqi oiladagi farzandlarning munosabatlarini to'g'ri Shakllantirishga yordam beradi. Ona qizida muloyimlik, Shirinsuxanlik, qizlarga xos oriyat, uyatchanlik, ibo, iffat kabi fazilatlarini tarbiyalash bilan birga, unga uy-ro zg'or yumushlarini o'rgatish ham lozim Ota o'g'lida to'g'riso zlik, mehnatsevarlik, oliyjanoblik, fidoiylik, saxovatpeShalik kabi hislatlarini Shakllantirishi bilan birguyda erkaklar bajaradigan barcha yumushlardan xabardor qilishi kerak Ayrim statistik ma'lumotlarga qaraganda<sup>1</sup> bugungi intensiv turmush tarzini kechirayotgan oilalarda ideal siymoga yaqin ota haftasiga farzandlari tarbiyasiga atigi 1,5 soat, ona-4-5 soat, ish bilan mashg'ul deb qaraluvchi ota-12 minut, ona-3 soat vaqtini ajratar ekan Bundan ko'nnib turibdiki bu ajratilgan vaqt bolalarning barkamol shaxs sifatida qaror topishida yetarli emas Ayrim oilalarda erkaklarning bola tarbiyasidagi ishtiroki kam vaqtini egallaydi Shu sababli bugungi kunda ko cha bezori, deviant xulqli bolalar paydo bo Imoqda.

Ma'lumki, oila va qanndoshlik munosabatlari har qanday kishi hayotining zaruniy qismi hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar-er va xotin, ota-onalar va bolalar, aka-ukalar va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar har jihatdan iliq va qoniqarli bo lishi mumkin. Ammo bu munosabatlar yoshlarni chuqur umidsizlik va gunohkorlik to'yg'ulariga yetaklovchi muammolar va ixtiloflar bilan ham to'la bo lishi mumkin. »Oilaviy hayotning «qorong'u tomonlari» televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida namoyish qilinadigan ayrim ko'rkam manzaralariga ziddir. Oilaning buzilishiga va ajralishiga olib keladigan ziddiyatlarni, janjallarni hisobga olgan holda, oilaviy hayotning o'ziga tortmaydigan ko'pgina salbiy tomonlari ham mavjud. Ba'zan ruhiy kasalliklar ham oilaviy munosabatlar xarakteriga ta'sir etadi. O'zming salbiy oqibatlariga ko ra, oilaviy hayotdagi

<sup>1</sup> Rudiger Prozediagnos als neueres Konzept der Lemfalngkeitsdiagnose-In Mandi H neue modelle Annahmen und Behme, 2002,7p.

agressivlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik va boshqa illatlar og'ir holatlar hisoblanadi»<sup>1</sup>.


Ayniqsa, ota-onalar ajralishining bolalarga o'tkazadigan salbiy ta'sirini baholash juda qiyin. Ajralish oldidan ota-onalar o'rtasidagi tortishuvning qanchalik kuchli ekanligiga, bolalaming yoshiga, ularning qarindoshlari bor-yo'qligiga, bolaning ajralgan ota-onaga bo'lgan munosabatlariga, har ikki ota-onaning tez-tez ko'rishib turish imkoniyatimng bor-yo'qhgiga ko'p narsa bog'liq. Bular va boshqa bir qator omillar bolaning ko'nikish jarayoniga ta'sir ko'rsatadilar. Hatto oiladagi ruhiy-ma'naviy tanglikni bolalar tezda seza olish qobiliyatlariga egadirlar. Ajralish holatlarining salbiy oqibatleri bolalar uchun nihoyatdaog'ir kechadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalari ajralganidan so ng. ko p hollarda bolalar o'zlanga kela olmay, xomush yurishadi.

Oilada pedagogik muhitni tashxislash bo'yicha!954 yili T. Liri, R. L. Lafoije, R. F. Sucheklar tomonidan ota-onalaming interpersonal xulqini tashxislash metodikasi yaratildi. Mazkur metodikadan dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida hanuzgacha foydalanishadi, chunki u o'zining dolzarbligini yo'qotganicha yo q. Metodika mualliflarining fikricha, ota-onalaming oilada individual interpersonal xususiyatlari bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, inson doimiy ravishda tevarak-atrofdagilar bilan muloqatda bo'ladi, shu sababli uning interpersonal xulqini 16 ko'rsatgich bo'yicha turkumlash mumkin. Bur ■ biz quyidagi chizma orqali tasvirlaymiz.

---

<sup>1</sup> ФАУЧС ЗНТУНН. СОУНОЈУФН. -Т.,2002,4506.



Il-rasm Ota-onalarning interpersonal xulqlaridagi asosiy omiUar

<sup>A</sup>-Ota-onaning oiladagi dominantatik xususiyati-hukm qilishadi; Ish joyida boshqana oladi. rahbarlik qila oladi, mustaqil qaror chiqaradi, o z bolalarida hunnat r<sup>h</sup>yg usini o'yg'otadi;

V-Ota-onaning egotsentrik xususiyati-maqtanadi, kibarli, o'z-o'ziga o 'ta aro beradi, qat iyatli, o'ziga ishonchi komil, mustaqil;

<sup>S</sup>-ra qobatlilik xususiyatiga ega, ekspluatatsiya qilishga moyil, ishonchsizlik bildirishga usta, bolalarida pessimistik to 'yg 'ulami shakllantiradi;

O-agressiv, kinoyali va kinoyaomuz xulqga ega, kat 'iyatli;

E- barakatchan. muxoliflarcha harakat qiladi, ochiq, tanqidiy hatti-harakatga ega;

F-fanqidiy-Shikoyatchi. jahldor, gina-qudratchi, haqiqatparvar, boshqalarga o <sup>xS</sup>hamaydi;

O-Shubhachi-ishonchsiz. o'zini o'zgalardan kam biladi, hushyor;Bo'alarida ishonchsizlik alomatlarining paydo bo 'lishiga sabab bo 'lishadi.;

bl-Kamtarin-o z-o zini tanqid ostiga oladi, o 'zini aybdorlarcha his etadi, xulqida tez-tez o zgarishlar seziladi, orqa o rinda bo lishni yoqtiradi;

*-1-0 zini xurlangan. qimtilgan etib his etadi, kuchsiz iroda va xarakterga ega. o'z ishini sidqidildan bajaradi, to 'g'riso 'z bo 'lishga harakat qiladi, o 'zgalarfikrini ustun qo yadi: Bolalari an itoatgo 'ylikni talab qilishadi;*

*U-Konjbrmli-tez muloqotga kirishadi. kirishuvchan.o'ta mehribon. nazokatga ega, o'zgalar maslahati va rahbarligini lan oladi, o'zgalar g'alabasini chin dildan qabul qiladi. bolalariningfikrini inobatga oladi;*

*K-Giperkonformli-kompromiss(yon berishjga boradi, yordamga muhtoj, farzandlarining fikrini tan oladi, ishonuvchan. takallufli;*

*L- Kooperativ-kompromissga boradi, doim konadi, mehribonlikka loyiq, oila a zolari bilan hamkorlikda ishlashni xush ko radi, kirishuvchan:*

*M-Giperafiliativ-do'stona munosabatda ish qilishni xush ko'radi,ko'ngilchan.*

*yoqimtoy,kirishuvchan. o'ta mehribon; Bolalaribilan o'z tenqurlari kabi munosabatda bo lishadi;*

*N-Giperprotektiv ota-onalar- yumshoq, o'ta his-hayajonga beriluvchan(ijobiy munosabatda bo lishga loyiq), kirishuvchan, ko ngilchan. Bolalarining qiziqishlarini inobatga olishadi;*

*O-Mas 'uliyatli- bildirilgan ishonchni oqlashga harakat qilishadi, yordamga tayyor, tashabbuskor, o'zgalar g'amini yeydi. Bolalarida mas 'uliyatlilik hissini o'stirishga moyil;*

*P-Avtokratik-hurmat va izzattalab, pedant, dogmaga moyil, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega maslahat berishga usta. o 'zgalami o 'tgatishni xush ko 'radi;*

Tajribalar ko'rsatishicha, har bir ota-ona mterpersonal omillarning besh boskichini o'z boshidan albatta kechiradi. Ayniqsa, 1,2,5 bosqichlar muhim ahamiyatga ega. 1-bosqich toifasiga mansub ota-onalar o'zgalar tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalarini qabul qilishga tayyor kishilar deb baholanadi. 2-bosqich guruhiga moyil insonlar esa ko'proq yaqin kishilarining-ota-onasi, rafiqasi, qarindosh-urug'i, do stlari va hokazolaming axloq normalariga bo'lgan qarashlarini inobatga oladi va mazkur qoidalarga binoan yashashga harakat qilishadi. 5-bosqich insonlarning idealiga mos ravishda, o zining axloqiy «Men»ini aks ettiradi.

Kuzatuvlardan aniqlanishicha, 16 omillarning barchasi «Buysunish dominantligi» va «Do stona-Muxoliflik» omillariga aloqador. Bundan o'xshash xulosa kelib chiqadiki, barcha interpersonal omillar ushbu to'rtta bosqichga tobedir. Ularning kombinatsiyasi Shaxsmng vertikal o'q orqali to'rtga bo'lingan aylanadagi bo'laklar o'zini belgilaydi (Buysunish-dominantlik) va gonzontal o'q (Do stona-muxoliflik).

Alohida interpersonal omillar qo'yidagi aspektlarda belgilanadi (9-rasm).

- 1) >chki aylana-adaptiv xulq;
- 2) o'rtta aylana- o'zgarar ta'siri ostida paydo bo'luvchi xulq;
- 3) tashqi aylana-ekstremal holatdagi xulq.

<sup>1</sup>-rasm da raqamlar bilan qo'yidagilar belgilangan:

1- *Rahbarlik qilishga moyillik. o'z ortidan ergashtirish hissining mavjudligi;*

2- *O'z-o'ziga ishonch, erkinlik hissining mavjudligi*

2- *Musobaqalashishga istak-hohishning mavjudligi;*

4- *Agressivlik, qat'iyatlilik;*

5- *Samimiylik, to'g'riso'zlik, tanqidiylik*

6- *Realistik to'yularga ega, o'zini oqlashga moyil, nostandart hatti-harakat qiladi*

■\* - *Ehtiyotkorlik, sezgirlik, ziyraklik, kamtarinlik*

<sup>E</sup> *Oiladagi deyarli barcha vazijalami bajarishga moyillik, tobelik xususiyatiga ega*

*Hurmat ko'zi bilan qarash, o'zgalarga mahliyo bo'lish, tobe bo'lish*

*Maslahat so'raShga tayyor, oilada yangilik kiritish istagining kuchliligi, o'z yordamint ayamaslik, ishonuvchanlik*

<sup>!</sup>~ *Hamkorlikda ishlashga moyillik, umumiy ishlarda qatnashishga bo'lgan istakning kuchliligi.*

<sup>!</sup>~ *hdehribon, muruwatii. saxiy*

<sup>^</sup>~ *Dilkash. sevgiga o'ch, mehribon*

<sup>!</sup>\$~ *Yordamga tayyor, olishdan ko'ra berishga moyil*

<sup>!</sup>~ *Ishni boshqarishga moyil. rahbarlik xususiyatlariga ega*

- 17- *Oilada ustunlik qilishga usta. tiddaburon. qat 'iyatli*
- 18- *Maqtanchoq. kiborli. izzattalab*
- 19- *Ekspluatatsiva qilishga moyil, barcha narsani inkor va Shubha ostiga olishni yoqtiradi*
- 20- *Jazolashni, do q-po pisa o rishni, masxaralaShni yoqtiradi*
- 21- *Agressiv, g dnimlarcha ish ko 'rishni xush ko radi*
- 22- *Qattiqqul, agressiv, cho'rtkesar*
- 23- *Barcha narsadan ko'ngli to'lmaydi, agressiv, shubhali hali-harakatni xush ko radi*
- 24- *Xavotirli, o'zini qattiq tanqid ostiga oladi, ko'p vaziyatlarda o zini aybdorlarcha his etadi*
- 25- *Bo 'ysunuvchan. irodasiz, subutsiz, bolalariga qattiqqo 'llik qila olmaydi*
- 26- *Bo ysunuvchan, gapga kiruvchan, ta sirchan*
- 27- *Sadoqatli, izzatli, farzandlaridan ham shuni talab qiladi*
- 28- *Kompromissga moyil, kirishuvchan*
- 29- *Hatti-harakatlarida tizimsiz, o rtoqlashishga moyil*
- 30- *Rahmdil, mexribon, muhabbatli*
- 31- *Mas uliyatli, ekstremal vaziyatda operativ hatti-harakat qiluvchi*
- 32- *Pedant, dogmaga moyil, izzattalab.*

O'zgaruvchanlar orasidagi munosabat aylanada kamayuvchi funksiyani tashkil etishini ko zda tutsak, ballar yig'indisi (vertikal o'qdagi) AR omillar dominantalik qiluvchi indeksda o'z aksini topadi. Aylana markazidan olingan ko'rsatkichlargacha bo'lgan masofa Shaxsning interpersonal xulqidagi adptatsiyaga yoki kam adaptatsiyalikka moyillikni bildiradi.



12- *rasmi Ota-onalaming interpersonal hulqlaridagi asosiy kategoriyalar*

Yuqorida keltirilgan ota-onalaming interpersonal xulq kategoriyalariga qarab oilada ular bilan ijtimoiy pedagogik tashxislash ishlarini olib borish mumkin

Bizning fikrimizcha, ota-onalaming interpersonal xulqini nafaqat 16 omillik tizim bo'yicha, balki xulq omillarini sakkiz ko'rgazmali xulq kategoriyalari bo'yicha ham-tavsiflash mumkin. Buning uchun yonma-yon joylashgan qo'shni omillar bittaga umumlashtirilib, izlanuvchi 8 kategoriyani topish mumkin (1-rasm). Bu oilada ota-onalami diagnoz qilishda ulaming nafaqat interpersonal xulq-atvonni, balki u yoki bu vaziyatga nisbatan bildirishadigan munosabatini ham o'rganishga imkoniyat yaratadi. Masalan, AR kodli shaxsning A (dominantlik) va R (tan olingan mashhurlik) omillari uchun quyidagi xususiyatlar ustunlik qilgan:

Hukm, kuch va ambitsiya (tez xafa bo'lish) xususiyatlar namoyish etishadi. Adaptatsion shaklda bu inson qobiliyatlariga asoslangan energetik mutasaddi xulq va



obro' bo'lsa, ekstremal holatda avtokratik, diktat va pedantizmga xos maniakal xususiyatni namoyish etishi mumkin. Bunday tipdagi ota-onalar IJ (harflar aylanadagi xulq turlariga mansub belgilami bildirishadi) xulqiga mansubligini namoyon etadi.

Egotsentrik shaxs-VS (o'zligini namoyish etuvchi):V-o'ziga ortiqcha erk berish; S-raqobatga asoslangan o'zligini namoyish etish.

Adaptiv holatda bunday ota-onalar bolalari bilan erkin muloqotga kirishishi, ularda ishonch hissini hosil qilishlari, o'sib kelayotgan avlodda esa hurmat hissini o'yg'otishlari mumkin. Ekstremal (kutilmagan, g'ayritasoddiy) vaziyatlarda ularda egoizm, egotsentrizm, ekskibitsionizm hislatlari kuchayadiki, bu ulami o'z bolalaridan o'zoqlashtiradi, yoshlaming his-to'y'g'ularini tushunmaslikka olib keladi, natijada bola tarbiyasida salbiy o'zgarishlar sodir bo'ladi Bu xulq GHJ bilan belgilanadi. Agressiv shaxs-DE (agressivlik va duShmanlik): D-mehrsizlik va qattiqqo'llik; E-takallufsizlik va tanqidiylik Mazkur xulqdagi ota-onalar bola tarbiyasida o'ta qattiqqo'lligi tufayli ikki muxoliflik lageri: ota-onalar va bolalar guruhiga bo'linib, oilada mushkul vaziyat paydo bo'lish xavfi bor. Adaptiv holatda bu me'yori vazminlik va qattiqqo'llik bo'lishi, kam adaptiv holatda esa hissiz rigidli psixopatiya, sovuqlik va Shafqatsizlik holati (vaziyatni adekvat baholay olmaydigan Shaxslar sababli) bo'lishi mumkin. Bunda yoshlar kattalardan hayiqa boshlab, ularga o'z sirlarini aytmaslikka harakat qilishadi va ko'p hollarda ularning ichki dunyosi ota-onalarga qorong'uligicha qoladi. Natijada bir-biriga yot odamlar bir oilada yashayotganliklarining guvohi bo'lamiz. Bu xulq-atvorlilar- FGN bilan belgilanadi.

Shubhachi ota-onalar- FG(barcha narsaga ishonchsizlik bildiruvchilar): F-o'ta ishonchsizlik; G-o'ta shubhalilik. Bu tipdagi ota-onalar ijtimoiy muhitga bo'lgan Shubhasini bolalariga ham o'tkazishga harakat qilishadi va o'zgalari bilan ma'lum masofada muloqotga kirishishi natijasida ko'p hollarda bolalari ham kam komformli, ichimdagini top qabilada ish ko'ruvchan qilib tarbiyalanadilar. Adaptiv holatda ijtimoiy muhit tanqid ostiga olinsa, kam adaptiv holatda shubhali xulq oqibatida ijtimoiy normalardan chetlashiladi va natijada noumidsizlik, hayotdan sovuSh kabi hislar bolalarga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi Bu VSD bilan belgilanadi

Bo'ysunuvchan Shaxs- HI(fan tilida submissivlik deb nomlanadi): H-kamtarinona uyatchanlik; I-boshqaruvchan passivlik. Mazkur xulqdagilar kamtarinligi, kuchsizligi, aynm holatlarda subutsizligi bilan ajralib turishadi. Adaptiv holatda bunday ota-onalar emotsional his-to yg'ularini bosiqlik bilan ko'rsatishadi, k»m adaptiv holatlarda ular passiv, gipersubmissivlik, vaziyatga mos bo'lmagan hatti-harakatlar ko rsatishadi. Ular VS va DE bilan belgilanadi.

Giperkonformli shaxs-JK( subutsizlik bilan bo ysunuvchanlik): I-minnatdorhk hissining mavjudligi; K-xavotirli ishonch

Tobeli konformlilik, yumShoqko'ngillik, maslahatgo'ylikka o'chlik mazkur tipdagi Shaxslami tavsiflaydi. Adaptiv holatlarda bunday ota-onalar o z bolalarining o' qishi va xulqiga katta e'tibor berishadi, ulaming axloqiy Shakllanishida eng yaqin do st sifatida ish yuritishadi. Bu yoshlaming ma'naviy-ma'rifiy kamol topishida ijobiy natijalarga olib keladi. Kam adaptiv holatlarda esa bu xulqqa mansub ota-onalar bola tarbiyasining tizginini o'z oqimiga qo yib yuborishadi, ayrim holatlarda o ta ko ngilchanliklari natijasida yoshlarda e'tiqodsizlikni va o'z so zida tura olmaslik kabi hislatlami shakllantirishadi. Jiddiy pedagogik masalalami o zlari hal eta olmaydilar. Bu AR va NO bilan belgilanadi.

Giperaffihativ Shaxs-LM(affiliatsiya):


L-ishonchli kooperativlik hissi; M-do'stona muhabbat

Bunday tipdagi insonlarda do stona muloqat va o zgalar bilan o rtoqlaShish hissi kuchli rivojlanganligi bilan tavsiflanadi. Adaptiv holatda: ekstravertiv do stona xulq, hamkorlikda ishlashga moyillik, konformizmga ishtiyoq, ijobiy ijtimoiy munosabatga kirishish, kam adaptiv holatda stereotipga asoslangan yoqimli, mehnbon-ozgalar hohishini qoniqtirishga tayyor, ijobiy munosabatlami xushlaydigan. Bu MN bilan belgilanadi


Giperprotektiv shaxs-NO(protektivlik, horruylik): N-yuqon darajadagi takalluflik,O- altruistik mas'uliyat Bu xulqdagi insonlar omadli, dunyoqarashi ken,g, mustaqil, kuchli xarakterga ega bulgan shaxslardir. Adaptiv holatda oilada, ko'chada, o'yda, jamoada o'zgalar va oila a'zolari, yaqinlari bilan do'stona munosabatda bo'lishadi, yordamga, emotsional kontakt qilishga tayyor kishilar. Bunday oiladi

tarbiyalangan farzandlar deyarli ko'pchiligi mehribon, o'z so'zida tura oladigan, o'zgalar manfaatini hisobga oluvchi, kinshimli, nazokatli, ayrimlari altruist bo'lib voyaga yetishadilar. Kam adaptiv holatda KL bilan belgilanuvchi bunday shaxslar faol hatti-harakatdabolishadi, mas'uliyatliliklan bilan ajralib turishadi.

Intihoviy ma'noda mazkur metod 128ta sifatlovchi belgilami o'z ichiga qamrab olishi mumkin. Ulaming sakkiztasi doimiy ravishda interpersonal xulqning o'n olti omillari bilan o'sish tartibida o'xshash joylaShadiki, bunda xulqning past, o'rta va ekstremal intensiv holatini to'liq aks ettira oladi. Amaliyotda ko'p hollarda interpersonal xulqning ko'rsatilgan sakkiz omili: dominantli-submissivlik va muxolifona-affiliativozgaruvchanliklari qo'llaniladi.(10-rasm)



13-rasm a) Subektning interpersonal diagnostik chizgisi



*14-rasm b) Avtoritativ subektning interpersonal diagnostik chizgisi*

O'tkaalayotgan diagnostika uchun test daftari, javoblar blankasi va bayonnomalardan foydalanish mumkin. Yo'riqnomaga asoslanib, respondentlar javoblarini blankada belgilashganlaridan so'ng, ko'zatuvi metodi orqali o'zgaruvchilarni ham (1-bosqich bo'yicha) baholay olishlari, o'zlarini, oila a'zolarini yo'riqnomaning 2-bosqichi bo'yicha, idealiga munosabatini esa 5-bosqich bo'yicha baholay olishlari mumkin.

So'rovnomani to'ldirish uchun 10-15 minut vaqt ajratiladi. Qo'ng'ir kiritilgan natijalarni bir nechta uslubda ishlab chiqish mumkin. Natijalar alohida qayd etilishi ota-onalarning tiplarini aniqlashga, turkumlashga, musharraf bo'lish imkoniyatini yaratadi. (Masalan, «Men-eng ajoyib va mehnatsevar ona», «Men»-ota-ideal va hokazo).

Savol va ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabat biserial korrelyatsion koeffitsiyentini o'lchash bilan aniqlanadi. Bunda ularning mohiyati asosan o'rtacha ahamiyatni kasb etgan holda 0,12-0,61 diapazon atrofida tebranadi. Savollarning ijtimoiylashuvi oilalarda ota-onalarning muayyan xususiyatlari va tavsiflarini qiyoslash asosida besh ballik shkala bo'yicha aniqlanadi. Alohida omillar va

oktanlar uchun korrelyatsiya ahamiyati sifatida 0,993 dan 0,999 gacha qabul qilindi. Savolning qabul qilinishi va uning ijtimoiylashuvi orasidagi ahamiyati 2-bosqichdagiga nisbatan 5-bosqichda yorqin namoyon bo'ldi (bunda 20% korrelyatsiya koeffitsiyenti statistik ahamiyatlilikdan past darajada belgilanadi). 2-bosqichda esa 39% korrelyatsiya koeffitsiyenti statistik ahamiyatlilikdan past darajada ekanligi aniqlanadi.

Ichki kelishuvchanlik koeffitsiyenti 2-bosqichda 0,35 dan 0,72, 5-bosqichda esa 0,16dan 0,66gacha, ayrim oktanlar uchun 2-bosqichda-0,62dan 0,75gacha, 5-bosqichda-0,46dan 0,74 gacha ahamiyatli ko'rsatkichlarga molik bo'ladi. Vaqtdagi stabillik (10 kundan so'ng tadqiqot takrorlanadi) korrelyatsiya koeffitsiyentlarining ishonchligini ko'rsatadi. Bunda ayrim omillarning 0,63 dan 0,81gacha, oktanlar uchun esa-0,69dan 0,80gacha ekanligini ko'rsatadi. Mazkur metod va 16ta RF o'rtasidagi munosabatni belgilovdii korrelyatsion matritsa 30 fbizga yaqin korrelyatsiyalar statistik ahamiyatlilikka ega ekanligini yaqqol namoyish etadi

Aylanma diagnostik modelning tahlili (ayrim og'ishlarni inobatga olmaganda) interpersonal xulqning aylanma o'zgaruvchilari joylashuvi nuqtalarining to'g'ri ekanligini isbot etadi. Omillar natijalari tahlili ikki ortogonal omil (DOM va LOW ) mavjudligini ham isbotlaydi.

Oila doimo maktab, mahalladagi pedagog-psixologlar, faollar bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Bu albatta yoshlarning ma'naviy-manfiy sohada yuksak samaradorlikka erishishlariga yordam ko'rsatadi va ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Davlatimiz, Prezidentimiz tomonidan bugungi kunda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda va har bir oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa iqtisodiy- ijtimoiy tomonlari o'rganilib, bu borada g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda

#### **ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 6-nashr.-Toshkent:O'zbekiston, 2015.-38 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni -Toshkent, 1997.

3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlan va 2017 yil istiqbollariiga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.-Toshkent:O'zbekiston, 20017.-104 bet.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2016.-56 bet.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalqfarovonligining garovi.-Toshkent:o'zbekiston, 2017-48 bet.
6. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika-Toshkent: Fan va texnologiyalar,2010.-256 b.
7. Weiner B, Theonen der Motivazion. Stuttgart: Klett ,2007.-196 p.
8. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin,1991, 240 p.
9. Munawarov A. Q. Oila pedagogikasi.-Toshkent: O'qituvchi,1994y. 7-23-betlar.
- /0.G'oziyev E. Psixologiya. -Toshkent: O'qituvchi, 2012. To'rtinchi nashr.-304 bet.
11. [www ziyonetuz](http://www.ziyonetuz)
12. [www eduuz](http://www.eduuz)
13. [.www. pedagog uz](http://www.pedagog.uz)
- 14.[www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)

## **mavzu. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA ASOSIDA UZLUKSIZ TA'LIMDA TARBIYAVIY ISHLARNI REJALASHTIRISH**

**Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish.** Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan. Har bir insonga, oila, jamaa, xalqqa rahnamo bo'lgan. Kishilarni og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuch-quwat bag'ishlagan, irdasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehr-oqibatini oshirgan.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda tarbiyaning bir qancha turlari mavjudligini tarbiyachi aniq anglashi lozim va tarbiyaviy tadbir nima maqsadda rejalashtirilayotganligini, undan kutilajak natija qanday bo'lishi lozim, degan savolga javob topishi kerak. Tarbiyaning quyidagi turlari farqlanadi: aqliy tarbiya: bilim, ilm, malaka, ko'n ikma; aql, ong, faxm; axloqiy tarbiya: axloq, odob, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, sharm, hayo, vatanparvarlik va boshqalar; mehnat tarbiyasi: faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik; aqliy ish, jismoniy mehnat; jismoniy tarbiya: chiniqish, jismoniy o'yinlar; nafas tarbiyasi: go'zallik, kiyinish madaniyati, muomala madaniyati, saranjom-sarishtalik; ekologik tarbiya: tabiat, atrof-muhit, flora va faunaga sog'lom yondashuv; iqtisodiy tarbiya: tejamxorlik, bozor iqtisodiyoti, sarf, isrof; foyda, mulk, mulkka egalik, tadbirkorlik; huquqiy tarbiya: insonparvarlik, burch, vijdon, tenglik, adolat, to'g'rilik, xalollik kabi tushunchalarni shakllantiradi.

O'zbek xalqining etnopedagogikasi umuminsoniy va milliy tarbiyaning qudratli omili, vositasidir. Turkiy xalqlar o'z bolalarini yoshlikdan uy-ro'zg'or mehnatiga o'rgatishga katta e'tibor bergan. O'zbek xalq pedagogikasi bolalarga-kimki yaxshi mehnat qilsa, yaxshi buyum tayyorlasa, u yaxshi usta, degan g'oya singdirilgan.

Bundan tarbiya jarayonida: “Awal bil, keyin qil”, “Awal o'rgan, keyin o'rgat”, “Aql ko'pga yetkazar, hunar ko'kka”, “Ustoz shogird-jonsiz kesak”, “Ustoz ko'rmagan shogird-har maqomdayurg'alar” kabi maqollarning ahamiyati katta bo'lgan.

O'zbek xalq pedagogikasida qo'llanib kelingan tarbiya usullari yoshlarga o'zaro izzat-hurmatda bo'lish, qadr-qimmatni anglash, samimiylik, iltifotlilik, haqiqatlilik, mardlik, jasurlik, mehribonlik kabi msoniy fazilatlarini singdirishga xizmat qilgan. Bolani elga manzur, odobli farzand qilib tarbiyalash ota-onaning burchi hisoblangan. O'zbek xalqi yaratgan maqol, naql, afsona, rivoyat, hikoyatlarda ma'naviy axloqiy ideallar, ibratli, qiziqarli o'g'itlar shaklida bayon etilgan. “Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan”, “Har kim ekkandin o'radi”, “Bola aziz, odobi undanda aziz” kabi maqollar shular jumlasidandir.

Bayon qilingan pedagogik fakt va mulohazalar o'qituvchining axloqiy fazilatlarini tarbiyachilik ishining va tarbiyashunoslik ilmining tarkibiy qismi sifatida pedagog diagnostika elementlarining qo'lanilishii zaminida vujudga kelib, asrlar davomida sayqallanib, takomillanib borganidan dalolat beradi. O'zbek oilasining bola tarbiyasi bobida to'plagan tarixiy tajribasi, milliy axloqiy qadnyatlarimiz o'qituvchi odobining bebaho manbai, bitmas tunganmas sarchashmasidir.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda pedagogik diagnostika imkoniyatlarini keng. Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va uni sifatli rejalashtirishda monitoring ishlarini tashkil etish, pedagogik-psixologik va funksional vazifalarni, natijalarni o'zida aks ettiruvchi ko'pqirrali tizimni yaratish -har tomonlama barkamol, intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash g'oyasiga monand keladi.

Tarbiya sifatini oshirishda tarbiyachining muvofiqlashtirish funksiyasini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama sog'lom avlodni yengib bo'ladimi? Bugun biz o'z oldimizga quygan yuksak maqsadlarga yetishda ana shu navqiron avlodimiz hal qiluvchi kuch bo'lib



maydonga chiqayotgani barchamizga. g'urur va iftixor bag'ishlaydi<sup>1</sup>. Darhaqiqat, XXI asrda ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmokda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida maydonga chiqdi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya sifati - kasbiy anglashning kompleks tavsifi bo'lib, zamonaviy rivojlanish bosqichida iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanadi.

Tarbiyaviy ishlarni diagnostika qilishda tashxis qiluvchining muvofiqlashtirish funksiyasi qo'yilgan maqsadlarga erishishiga yordam beradigan yangi holatga samarali tarzda o'tishni ta'minlaydi. Bu quyidagi tashxislash bosqichlarida namoyon bo'ladi:

- *birinchidan*, har qanday tarbiyaviy ish maqsadli faoliyatdir;
- *ikkinchidan*, tarbiyaviy ish boshqa barcha faoliyat turlaridan farq qiladi;
- *uchinchidan*, tashxislanuvchining yoshi, jinsi, motivlar doirasi inobatga olinadi;
- *to'rtinchidan*, tarbiyaviy ishning bir sifat holatidan boshqa yuqoriroq sifat holatiga o'tish zarurati bilan xarakterlanadi.

**Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni tashxis etish.** Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni tashxis etish bir nocha yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Ta'lim muassasadagi tarbiyaviy ishlarning maqsadga yo'nalganligi va uyushqoqligini ta'minlaydigan sub'ektlarning faoliyati o'rganiladi; rejalashtirish, tashkillashtirish, rahbarlik qihsh va nazorat qilish ahvoli tashxislanadi; tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda ular maqsadga yo'naltirilganlik, tizimlilik, prognostiklik, davriylik xususiyatlariga ega bo'lsa, samaraberishi mumkinligi qayd etiladi.

Tarbiyaviy ishlarni oqilona rejalashtirilganligini tashxislashda:

a) tarbiyaviy ish mexanizmi ob'ektning murakkabligiga va sub'ekt imkoniyatlariga mos kelsa;


b) yetarli zahira (vaqt, boshqamvdagi yechimlar va b.) mavjud bo'lsa;

v) mezonlar to'g'ri tanlangan bo'lsa;

g) yaxshi rivojlangan teskari aloqa tizimi mavjud bo'lsa;

d) inson omili hisobga olingan bo'lsa samarali natija berishi inobatga olinadi.

Tarbiyaviy ishlarning samarasini tashxislash natijasida tarbiyachining muvofiqlashtirish funksiyasini rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va baholash vazifalari bilan uyg'unlikda bajarilishi umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining intellektual jihatdan voyaga yetishiga, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga va pedagog xodimlarning ilmiy-ma'naviy jihatdan o'sishiga, siyosiy va fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga olib keladi.



**IS-rasm. Pedagogik diagnostika asosida uzluksiz ta'limda tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish**

Ta'lim muassasasida tarbiyaviy ishlarni boshqaruvchi faoliyati tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun jamoada zaruriy sharoitlarni yaratish, intellektual yoshlarni tayyorlash va yaxlit ta'lim tizimini rivojlantirishdan iborat hisoblanadi va o'z navbatida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish samaradorligini ta'minlay olish qobiliyatiga bog'liqdir.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish samaradorligini ta'minlay olish — bu ta'lim muassasasi jamoasini uyushtira bilish, ya'ni jamoada ahillik, birdamlik va hamkorlikni vujudga keltirish jamoa a'zolarini jipslashtira olish va ikkinchidan, tarbiyachining shaxsiy ishini to'g'ri tashkillashtira olish qobiliyatidir.

Tarbiyaviy ishlar sifatini oshirish o'qituvchidan o'z ishini tashkil qila bilishi, boshqaruv faoliyatini to'g'ri rejalashtirishi, topshiriq ijrosini tekshirish, o'quvchilarni faoliyatini baholash hamda turli xil qarorlar qabul qilishi va uni nazorat qila olishi; tarbiyaviy tadbirlarni jamoa bilan birgalikda tashkil qila olish qobiliyati; tarbiyaviy tadbirlar ssenariylarini tuzish, tarbiyaviy masalalarga oid me'yony-xuquqiy hujjatlardan xabardor bo'lish; turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish madaniyati; ota-onalar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi, mavjud pedagogik qiymchiliklarni kompetentli baholay olishi, yechimini topa olishi, ish haqida qisqa va aniq gapirish, nutq qobiliyati, tinglay bilish madaniyati; asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qila bilish, maqsadlarga erishishda o'quvchilarning ma'naviy manfaatdorligini ta'minlash qobiliyatlari va boshqalar nazarda tutiadi.

Pedagogik diagnostika asosida uzluksiz ta'limda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ta'lim mazmunida, o'qitish metodlarida, dars shaklida, o'qitish turlarida, o'qitish vositalarida namoyon bo'ladi. Ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish innovatsion yondashuv asosida olib borilsa maqsadga muvofiq. Bunda tarbiyaviy ishlarning vaqtga bog'liqlik xususiyatlariga ko'ra kunlik - eng zarur, haftalik - zarur, oylik - ulgurilishi zarur bo'lgan va yillik - bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ishlar kabi toifalarga ajratishlari hamda shunga ko'ra rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish, nazorat va tahlil ishlarini qamrab oladi.

Mazkur toifalar bo'yicha bajariladigan ishlarini rejalashtirish va tashkil etishda tashxis qiluvchining rejalarni muvofiqlashtirishi tarbiyaviy maqsadlarga erishishda samarali hisoblanadi. Diagnostika jarayonida inobatga olinadigan bir qancha omillar bor-ki, bular bevosita maktab faoliyati boshqaruv tizimida tashxis qiluvchi shaxsning innovatsion faoliyati bilan bog'liq bo'lib, yuqorida izohlangan toifalar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda quyidagi tashxis qilish parametrlari bo'yicha erishilgan yutuqlar asos qilib olinadi.

1. O'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha bilimlar bellashuvidagi ishtiroki va ularning natijalari.
2. Ta'lim-tarbiya sifati monitoringi natijalari.
3. Fan olimpiadasining viloyat bosqichi natijalari.
4. "Ingliz tili bilimdonlari" ko'rik tanlovi natijalari.
5. "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik-tanlovi natijalari.
6. "Yilning eng yaxshi maktab direktori" ko'rik-tanlovi natijalari.
7. "Yil metodisti" ko'rik-tanlovi natijalari.
8. "Eng yaxshi maktab veb-sayti" ko'rik-tanlovi natijalari.
9. "Eng yaxshi o'qituvchi veb-sayti" ko'rik-tanlovi natijalari.
10. "Eng yaxshi o'quvchi veb-sayti" ko'rik-tanlovi natijalari.
11. "Eng yaxshi elektron axborot resurslari" ko'rik-tanlovi natijalari.
12. Ilg'or ish tajribalarining respublika miqyosida ommalashtirilishi.
13. Vazirlik tomonidan tavsiya etilgan pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga samarali joriy etilganligi.
14. "Eng obod ta'lim muassasasi" ko'rik-tanlovi natijalari.

Tarbiyaviy ishlarining samarasini tashxislashda ilmiy asoslangan ma'lumotlarga tayanish zarur hisoblanadi. Har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish masalasining ko'p qirrali va murakkabligi bugungi ta'lim tizimida pedagogik kompetentlik muammosining hozirgi zamon tarbiya nazariyasi va amaliyoti uchun muhimligini ko'rsatib bermoqda. Chunki bu vazifani o'qituvchi mahorati, uning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasi, maxsus bilimsiz amalga

oshirib bo'lmaydi. Bu borada ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ta'lim-tarbiya sifatining yo'nalishlarini belgilashda eng maqbul yo'llarni topishga urinishlar bilan strategik rejalashtirishning uyg'unlashuvi alohida o'rin egallaydi. Ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning ham ustunliklarni, ham uning zaif tomonlari va kamchiliklarini sinchkovlik bilan hisobga olish, tahlil va tashxis qilish yana bir muhim omillardan hisoblanadi

### **Nazariy dalillarga tayangan holda quyidagi mavzularda seminar mashg'ulotiga rta'ruza tayyorlang:**

- Har tomonlama barkamol, malakali kadrlarni tayyorlashda jamiyatimizda qabul qilinayotgan islohotlar
- «Temumoma», «Bobumoma», «Guliston», «Temur tuzuklari», «Qutadg'ubilig», «Maxzub ul-Qulub» kabi asarlarda inson shakllanishida tarbiyaning ahamiyati.
- Tarbiya jarayonida ta'lim muassasalarining roli.
- Tarbiyaning asosiy mezonlari.
- Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari.
- Yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasi.
- Mas'uliyat, imon, vijdon, adolat va tarbiya.
- Mafkuraviy tarbiya oiladan boshlanadi.
- Bobolar va momolar tarbiyasi-savodxonlik maktabidir.
- Mahalla - tarbiyachi sifatida.
- Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini
- “Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga qo'ramiz”,  
“Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va

xalq farovonligining garovi” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev asarlari asosida)

- Abdulla Avloniyning vatanparvarlik tarbiyasi haqidagi qarashlari
- «Inson», «shaxs», «individ» tushunchalariga berilgan tavsiflar.
- Jamoaga qo‘yilgan umumiy talablar.
- Sinf jamoasini jipslashtirish va shakllantirish yo‘llari.
- Jamoaning bolalar tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatish shakl va usullari.

### **ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 6-nashr.-Toshkent:O‘zbekiston, 2015.-38 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. -Toshkent, 1997.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak-Toshkent: O‘zbekiston, 20017.-104 bet.
4. Mirziyoev Sh.M, Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O‘zbekiston, 2016.-56 bet.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti vaxalq farovonligining garovi.-Toshkent:o‘zbekiston, 2017.-48 bet.
6. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika-Toshkent: Fan va texnologiyalar,2010,256 b.
7. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stutgart: Klett ,2007.-196 p.
8. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin,1991, 240 p.
9. G‘oziyev E. Psixologiya. -Toshkent: O‘qituvchi, 2012. To‘rtinchi nashr.-304 bet.
10. [www.ziyonetuz](http://www.ziyonetuz)
11. [www.wedu.uz](http://www.wedu.uz)
12. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
13. [www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)

## **2-BOB. KORREKTSION FAOLIYAT METODOLOGIYASI**

### **mavzu. KORREKTSION FAOLIYATNING MAZMUN-MOHIIYATI**

**Korreksion faoliyatning mohiyati.** Pedagogik diagnostika o'z zamirida korreksion tadbirlarni nazarda tutadi.

*Korreksiya-hayatiy* chekinishlarga uchragan bolalar va o'srurlar bilan olib boriladigan amq faoliyatdir. Bir qator olimlar RS. Nemov, D. V. Olshanskiy, G. Broyer, G. Matteslar: "Pedagogik korreksiya-tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi oldindan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish jarayonidir" \*- deb hisoblaydilar.

N. V. Kuzmina bu jarayonni: «Korreksiyalash jarayoni-o'quvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvdii va turli ijobiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi faoliyat turidir» -deb tavsiflaydi. Korreksiyalash ta'sinda o'quvchi-yoshlarning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiya masalalarini amalga oshiriladi.

Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsiga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqini idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi.

Demak, pedagogik diagnostika va korreksiya jarayonida bulardan birortasi (tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi

«Muayyan bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalarini tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi<sup>2)</sup>)» - deb yozadi Fleyk Xobson «Razvitiye rebyonka i yego otnosheniye s okrujayushimi» nomli asarida. Uning

HBMOB P.C. IlejjarDniHccKaji KoppeKiwji -MOCKM:CCHTS6PL, 2012.-C.71.

Kyn>MMHa B. riyn. OT HpaBcrBeHHoro noHMTnik HpiBcTbcHHOMy yCoKfleHBKi-MocKBa: 3HanMe, 1998-C. 45  
Oлc^K XoГoCOn. PaиBHrwc пeoeHKa H epo УТHOLBSSHCC c oKpuxawmmMM -MocKBa: neaaroraKM, 1991.-C. 68.



fikricha, muayan hislatlami tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi va belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalami qaysisini va qaerda ishlatish rejalashtiriladi.

Bunday reja asosida olib borilgan tarbiya mohiyati ta'lim - tarbiya tizimini, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatini tashkil qiladi. Demak, pedagogik diagnostika va korreksiya jarayoni ham reja asosida, tizimli va maqsadli olib borilsa, komil insonni tarbiyalashdek asrlardan ben azaliy orzuni amalga oshirish istiqbollari kengayadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya ishlari metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganda jamiyatning har bir a'zosi ongiga milliy istiqlol g oylarini singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, o'quvchilarning o'zligini anglashda, vatanparvarlikni, millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo'lgan fazilatlami: sofdillik, togrisozlik, adolatparvarlik, sahovatlilik, or-nomuslik, tantilik va boshqa sifatlami tarkib toptirishda ijobiy samara beradi.

Pedagogik tashxislash va yoshlarning xulqidagi nuqsonlami korreksiyalash masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi mustaqil O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishidan, jamiyat a'zolarning ma'naviy-ma'rifiy hayotida paydo bo'lgan muammolarini hal etilayotganidan dalolatdir.

**O'QUVCHILAR XULQIDAGI SALBIY XISLATLARNI  
KORREKSIYALASH  
(PEDAGOGIK TRENING)**

**Jihozlar:** *Multimedia, Elektronko'z, Shaxsni sifailovchi 44 tavsifiy belgidan iborat ro'yxat aks ettirilgan hlankalar.*

**Yo'riqnoma:**

**1-BOSQICH.** Yoningizdagi varoq blankalarida axioqiy fazilatlarni aks ettiruvchi iboralar bitilgan. Turli pedagogik vaziyatlarda ulardan qanday foydalangan bo lardingiz? Bo Sh kataklami to ldiring.(l-Ilovaga qarang)

O'smirlarga blankalami mavzular bo yicha guruhlab chiqish tavsiya etilgach, har bir guruhga taalluqli ibratli so'zlaming jami hisoblab chiqiladi Ichki va individual his-tuyg'ulami belgilovchi yig'indi qaysi mavzular dominantalik qilishi bilan tavsiflanadi.

Standartlashgan testlarga qaraganda bu alfozdagi so'rov xulq-atvomi tarbiyalashdayetakchi ahamiyatga ega.

1. *Hayoning tamomi vujudi yaxshi,  
Hayo-komillik va ezgulik naqShi.*
2. *Qasam ichish erur ko'pyomon odat,  
Buzgaysan yo undan kelgay nadomat*
3. *Agarda doimo bo 'lsang ehtiyot,  
Sen uchun. bil erur bu yarim hayot.  
Ehtiyoj tug'ilgay yomon gumondan.  
Har lahza ogoh bo 'I yaxshi-yomondan*

*4 Ikki yomon xislat bo'lsa mo'inda,  
Baxillik, nopoklik, chunki yo'q dinda.*

*5. Hayo va kamg'aplik xislat tilsimi,  
Bilsangiz iymonning ikkita qismi,  
Sergap-ibosizlik qo'shilganda bil,  
Munofiqlik bo'lar ulardan tashkil.*

*1. Odamlar kimni ko'p maqtashsa Shoyon,  
Xudonimg' do'stidir bilg'il ul inson.  
Bo'lsa ehsonu lutfga loyiq,  
Bekorga maqtamas uni xaloyiq.  
Doim maqtov ila arzanda bo'ling,  
Xudoga yoquvchi xushbanda bo'ling!*

### **Yo'riqnoma:**

2-BOSQICH-qat'iyatlilik, o'zso'zida turaolishlko'nikmalarini Shakllantirish.

(Talabalarga blankalar tarqatib beriladi.)

Tadqiqot davomida talabalar kichik 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo'linadilar.

Har bir guruhga sardorlar tavinlanadi.

## Shaxsni tavsiflovchi belgilar

	Oriyadi	Vijdonsiz
	Shuxratparast	Beg'araz
	G'amxo'r	Boqibeg'am
	Qat'iyatii	Jur'atsiz
	Mehnatsevar	Dangasa
	Shiddatli	Lapashang
	His-hayajonga	Sovuqqon
	Sabri	
	Faol	Toqatsiz
	Yuvoish, itoatkor	Passiv
	Fikr-mulohazali	Qaysar
		Shoshma-Shoshar
	Samimiy	
	Quvnoq	
	Sahovatli	
	Bosiq	Ikkiyuzlamachi
	Optimist	Kamgap
	Kirishuvchan	Safsataboz
	Hazil-mutoyibaga moyi!	Badjahl
	Mas'uliyadi	Qizg'anchiq
	Tirishqoq Kamtarin	Tortinchoq
		Pessimist
		alchimdagini top»
		Loqayd
		Mas'uliyatsiz
		Sustkash
		Maqtanchoq, kiborii

**Topshiriq:** 1)Shaxsni tavsiflovchi so'zlami diqqat bilan o'qib chiqing O'zingizga talluqli bo'lgan sifatlovchi so'z yoniga belgi(^) qo'ying. Ikir-chikir detallar to'g'risida o'ylab o'tirmasdan, ikkilanmay o'zingizga baho qo'yishga harakat qiling. Sifatlovchi belgilaming mosini tanlaganingizdan so'ng, guruh sardoriga e'lon qiling;

2) tadqiqotning ikkinchi bosqichida siz o'zingizda mavjud bo'lgan sifatlovchi belgilarga to'g'ri baho berayotganligingizga ishonchingiz mukammal bo'lmagan taqdirda, aynan o'z shaxs so'zlar tagiga chizib chiqing.

3) Tadqiqotning uchinchi bosqichida, siz o'zingizda mavjud bo'lgan tavsifiy belgilaringizga yanada aniqroq baho berishga harakat qiling va har bir tavsiflovchi belgi yoniga foizlarni chiqarishga harakat qiling. Masalan, qat'iyatlilik-45%;, qaysar-65%; kamtann-60%, itoatkor-30% va h.k.

4) Sifatlovchi belgilar juftligini hamda ularga qo'yilgan foizlarni yana bir bor sinchiklab o'rganib chiqing.

### Natijalar ishlovi:

1. Guruh sardorlari tadqiq qilinuvchi talabaning ishlashiga sarflangan vaqtini sarhisob qilib, har bir bosqichda kiritilgan o'zgartinshlami inobatga olishi lozim.
2. Har bir talabaning tadqiqotdagi natijalarini D. Dauneay Shkalasi bo'yicha baholash lozim:
  - a) birlamchi javob uchun sarflangan vaqt jadvali

### Korreksiyalashda natijalami baholash

7-jadval (a)

Topshiriqni bajarish uchun sarflangan vaqt	Ballarda baholash mezon
1,8»-1,53»	10
1,54»-2,18»	9
2,19»-2,34»	8
2,35»-2,49»	7
2,50»-3,09»	6
3,10»-3,26»	5
3,27»-3,56»	4
3,57»-4,2»	3
4,31 »-5,40»	2
5,41-15,	1

Ballning yuqoriligi va o'zgartirishlaming kamligi shaxsning shiddatkor, qat'iyatli ekanligidan dalolat beradi.

B) Fikr-mulohazadagi qat'iyhk (foizlarda) 100% nisbati uchinchi va to'rtinchi bosqichlardagi farq asosida hisoblanadi(22ning ikkinchi bosqichda to'g'ri belgilangan sifatlar yig'indisi).

V) Tadqiqotning to'rtinchi bosqichida vaqt orasidagi tafovutning ranjirovkasi.

7-jadval (b)

Topshiriqni bajarish uchun sarflangan vaqt	Ballarda baholash mezoni
0»-13»	10
14»-22»	9
23»-30»	8
31-35»	7
36»-42»	6
43»-53»	5
54»-1,1»	4
U»-1,10»	3
1,11 »-1,46»	2
1,47»-5,34»	1

Ballning yuqoriligi va o'zgartirishlarning kamligi Shaxsning Shiddatkor, qat'iyatli ekanligidan dalolat beradi, oldin bajarilgan ishdagi ikkilanish uchramaydi

4. Yig'ma jadvallarda barcha tadqiq qilinuvchilarning uchala bosqich bo'yicha erishgan natijalarini aks ettiring.

5. Korrelyatsion koeffitsiyent ko'rsatkichlarini rab, rab,rbv (2-ilovaga qarang). hisoblab chiqing.

1. Tadqiqot jarayonida qat'iyatlilikni namoyish etuvchi sifat tezligi har bir bosqichda o'zgarganligini xulosalang.
2. 1,5 va 6-bosqichlarda qo'lgakiritilgan natijalarni sarhisob qiling hamda uning Shaxsni sifatlovchi belgilarini tashxislashdagi ahamiyatini argumentlaShga harakat qiling.

Bu alfozda o'tkazilgan treninglar o'smir va o'spirinlarda zo'r qiziqish o'yg'otdi Tadqiqotda qatnashgan 120 ta talabani 65,7% tasi qat'iyatlilikni namoyish etgan bo'lsa, 47,3 % talaba o'rta miyonada tashabuskorlikka ega ekanligini ko'rsatdi va 7% talaba tadqiqotlarda past ko'rsatkichlarga ega bo'lishdi. Shu sababli biz keyingi bosqichlarda yoshlarni o'z-o'zini tarbiyalash metodikalariga e'tiborni kuchaytirdik.

### 13- mavzu. KORREKTSION FAOLIYATNING ASOSIY TAMOYILLARI

**Korreksion faoliyatning umumpedagogik tamoyillari.** Ta'lim muassasalarida pedagogik korreksiya o'tkazish yo'llari xilma-xildir. Bunda o'smir va o'spirinlar bilan ishlash mazmuni ota-onalar va pedagoglar jamoasining hamkorlikka asoslangan, maqsadgayo'naltirilgan ish rejaları bilan belgilanishi zarur.

Bu pog'onada pedagogik korreksiya yoshlarning xulqidagi nuqsonlari: sabrsizlik, betga choparlik, qat'iysizlik, janjalkashlik, agressivlik kabi xislatlarni bartaraf etishga qaratiladi.

Keyingi paytlarda o'smirlar va o'spirinlar orasida deviant xulqning turli-tuman ko'rinishlari progressivlashib bormoqda. Bu jamiyat, ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari va ijtimoiy pedagog-psixologlar oldiga o'ta dolzarb muammoni- dezadaptatsion holatdagi o'smirlar bilan ishlash yo'llari, metodlari, Shakllarini topishga, bu sohada o'smir rehabilitatsiyasi va zamr bo'lsa, axloqiy xulq normalaridan og'ish kabi holatlarning olinishiga ta'sir kuchi konsratsiyalashuvini belgilaydi.

L. M. Denyakina : «. . agar tarbiyachi, yoshlarga hech narsa va hech kim ta'sir qila olmaydi, deb da'vo qiladigan bo'lsa, bu narsa odatda tarbiyachining, o'qituvchining axloqiy pozitsiyasini belgilab beradigan ta'sirli referent guruhlardan mutlaqo xabarsiz ekanligini bildiradi\*»-deydi.

O'smirlar yoshida Shaxs tarbiyasi hal qiluvchi ta'sir ostida tarkib topadi. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida muayyan dasturning, anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta'sir ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asoslab belgilan vositalari, Shakllari hamda metodlarining qo'llanilishi bilan tasodifiy va stixiyali ta'sirlaridan ajralib turadi. «Sog'lom tarbiyaviy vaziyatsiz mukammal Shaxs vujudga kelgan yoki aksincha, to'g'ri tarbiyaviy ish olib borilgan paytda buzilgan Shaxs tarkib topgan birortaholni bilmayman'».

JjeiuiKMHa JI.M. riejarorHHeCKAJI jnarnocTUKa jBSDKVujaa cBJia nejiaronmecKoro KojueKTRBa.-MocKBa:Jloroc, 2013.-C.-98.

Hasanboev J. TapSBJiBnfi HmJiapHH TaiHKMJi кнннн ftynjiapH.-ToiiiKeHT:3He, 1999,45-oer.

O' rta maxsus va kasb-hunar muassasalaridagi, oliy o'kuv yurtlari talabalarining muayyan axloqiy qoidalar va normalami bilishi ma'naviy xulq-atvoming zarur Shartidir. Biroq, axloq normalarim Shu tariqa bilish o'z-o'zidan axloqiy xulq - atvorini tegishli darajaga erishtirmaydi. Buning ustiga, bilimlami ma'naviy xulq-atvor amaliyotisiz o'zlashtirib olish ma'naviy bilimlar bilan ma'naviy xulq - atvori ortasidagi ajralishda ifodalanadigan (axloqiy formalizm) deb atalovchi formalizmnning yuzaga kelishiga olib boradi. Shuning uchun o'rta maxsus va kasb-hunar muassasasi tarbiyalanuvchisining hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil qilishda ijodiy- axloqiy sotsial-ijtimoiy xulq-atvor tajribasi uning Shaxsini tarkib toptirishda asosiy bo'lishi kerak. O'smirda bu narsa ota-ona, do'stlar, turli referent guruhlari ta'siri ostida, tarbiyachi rahbarligidahosil bo'ladi. Yoshlarda bilimlar tizimini: tabiiy, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy bilimlar tizimini, (bu bilimlar muayyan darajada yetakchi rol uynagan paytda) tarkib toptirish bilan yuz berishi kerak.

L. S. Rubinshteyn, I. S. Kon, A. V. Petrovskiy, E. G'oziyev, G'.Shoumarov, U. Nishonaliyevlaming bergan ma'lumotlariga ko ra, birgina faoliyatning o'zida (bu faoliyatning bola uchun nima sababdan yuz berishiga qarab) Shaxsning har xil (va hatto bir-biriga qarama-qarShi bo'lgan) sifatlarini tarkib toptirish mumkin. Masalan,tarbiyalanuvchilami boshqalami ochiqdan ochiq va dadil tanqid qilishga o'rgatamiz. Ana o'xshash qilish bilan boiada prinsipiiallik, jasurlik sofdillik tanqidiy fikrlash fazilatlarini tarkib topadi, deb hisoblaymiz. Ammo biz aytilganlami xisobga olmasak, hamisha ham o'zimiz ko zlagan maqsadga erishavermaymiz. Chunki xulq - atvoming ana shu to'g'ri formasi negizida o'smir amal qiladigan motivlar yotadi. Bu xulq-atvor Shaxsan o'smiming o'zi uchun qanday ma'noga ega bo'lishiga qarab undan har hil sifatlar tarkib topishi mumkin. Agar o'smir o'z o'rtog' ini prinsipiial motivlar asosida tanqid qiladigan bo'lsa bu tanqid uning o'rtog'idagi xarakterida *prinsipiiallik*, *qat 'iylik*, *halollik* singari sifatлами tarkib toptirishga yordam beradi. bordi-yu o'z aybini o'rtog'ining bo'yniga quyish istagi bilan tanqid qiladigan bo'lsa, bu *xudbinlik*, *individuaiizmning* tarkib topishiga yordam beradi. Agar shaxsiy araz bilan tanqid qilinadigan bo'lsa, unda shu asosda *qasoskorlik*, *makkorlik*, *insofsizlik* hislatlarini tarkib topadi Agar bunday tanqid qilishga nihoyat o'qituvchidlan qo'rqish



va ung<sup>a</sup> ytxpsh istagi yoki mag'rurlik istagi prinsipial sabab bo'lsa, unda *laganbordorlik ikki yuzlamachilik* singari xislatlar tarkib topishi mumkin, binobarin to'g'ri xulq-atvor tajribasi bu hatti-harakat muayyan motivlar asosida amalga oshirilgan vaqtdagina ko'zlagan maqsadga olib keladi. Shuning uchun xulq- atvorini, to'g'ri motivlanni tajribada tarbiyalash va mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'smirlarda muayyan vaziyatlarda tarbiyaviy ta'sirlar vositasida yuzaga keladigan ijobiy motivlar ulaming tajribasida mustahkamlanishi va boshlang ich vaziyatlarga tarqalishi kerak.

Boshqacha qilib aytganda, shaxsning har bir sifat tarkibiga, binobarin, o'smiming tegishli hatti-harakatiga ijobiy munosabatda bo'lishiga imkon beradigan motiv ikkinchidan, hatti -xarakatlaming mustahkamlangan usuli kiradi. O'xshash qilib, Shaxsning sifati L JBojovichning iborasi bilan aytganda, hatti -harakat motivlari o ziga xos birikmalardir. Hatti -harakat barqaror, hukumron (asosiy) motivlaming sistemasini bazi pedagog, psixolog olimlar (N. Leytes, YU. Kleyberg, L.I.Bojovich, M S Neymark, E. G'oziyev)lar Shaxsning yo' nalishi deb ta'riflaydilar.

Korreksion faoliyatni tashkil etish. Tahsil oluvchilaming faoliyatyo'nalishini korreksiyalashda - **jamoaviy, shaxsiy** va **ishchanlik** yo'nalishlarini (ishga, faoliyat jarayoniga bo'lgan munosabat yo'nalishlarini, ijodiy faoliyatga qiziqishni) alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Yo'nalishning jamoa, Shaxsiy turlari bir xil, to'g'ri tavsifga ega bo'lmasligi kerak. Xaqiqiy yo'nalishdan tashqari "xudbinlik guruhi" deb atalgan yo'nalish - boshqa jamoalaming qiziqishlarini mutlaqo mensimagan holda faqat bitta jamoaning, (gurux) qiziqishlarinigina e'tirof etadigan yo'nalish ham bor. Shaxsiy yo'nalish Shaxsiy yutuqlarga erishishga qaratilgan yo'nalish sifatida hamma vaqt ham jamoa yunalishiga qarama - qarshi bo'lavermaydi.

Pedagogik korreksiyalashda tarbiyaviy ish metodlan qollanilayotganda, tarbiyalanayotgan o'smiming yosh va individual xususiyatlarini, ikkinchidan, Shu o'quvchi a'zo bo'lgan jamoaning xususiyatlarini, nihoyat, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan muayyan konkret Sharoitlami hisobga olish zarur. Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun yoshlaming barcha vaziyat va holatlarida to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishni bilishi, o'zi hurmat qiladigan kishilaming nima

qilayotganliklarini ko'rishi va o'zi ham to'g'ri xulq-itvorli bolishgamasq qilishi zarur.

Yoshlarda bilimlar - axloqiy tasawurlar va tushunchalarning muayyan sistemasini kamol toptirmasdan turib xaqiqiy e'tiqodlimi tarkib toptinb bo'lmaydi. O'z - o'zidan bu bilimlar axloqiy xulq - atvomi belgilamasdan turib, mga muhim ta'sir ko'rsata olmaydi.

Shaxsning ijtimoiy yo'nalganligi, ma'rifiy mukammallikka intilishi kabi insoniy to'yg ulami kamol toptirish zamonaviy pedagog, psixologlaming diqqat-markazidagi vazifadir. Pedagogik diagnostikada bilimdonlikning o'mi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik vaziyatlami oqilona baholash, ularning umumiy Shakllarini, uslublarini bilishni talab qiladi. Bu korreksiyalash ishlarini olib borayotgan o qituvchi, tarbiyach dan metodologik, nazariy, uslubiy, texnologik bilimlar bilan qurollanishni taqozo etadi. Korreksiyalash jarayonida yoshlarda ma'naviy-ma'rifiy sifatlami Shakllantirish nazarda tutiladi.

15-16-17 yoshlilardarivojlantiriladigan **ma'naviy sifatlari:** vatanparvarlik, ziyolilik, ma'rifatparvarlik, adolatlilik, mas'uliyatlilik va boshqalami tashkil etsa, **Shaxsiy sifatlari:** oliyanoblik, kirishuvchanlik, ochiq ko' ngillilik, hamdardlilikka moyillik kabilar qamrab oladi. **Ijtimoiy xulqni Shakllantiruvchi omillarga** atrofdagilarga ijobiy munosabatda bo'lish, optimizm, kuzatuvchanlik, o'z-o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish kabilar kiradi.

O'rta maxsus va kasb-hunar muassasalari, oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy korreksiyalash ishlarini Myunstenberg metodikasi bo'yicha amalga oshirish mumkin. Bunda mikroguruhdagi xususiyatlar o'rganilib chiqilgach, sotsiometriya, referentometriya,(o'zaro kirishuvchanlikni Shakllantirish) Timoti-Liri metodikalariga tayanib, biz o'spirinlaming xulqidagi nuqsonlami korreksiyalaydigan dzimni ishlab chiqdik. Tadqiqot jarayonida 16-17-20 yoshli o'rta maxsus va kasb hunar muassasalari hamda oliy o' kuv yurtlari talabalarini qatnashdi. Dissertatsiya sahifalarida tadqiqot natijalarini keltiramiz( «O'smirlar» deb belgilangan yosh davrlari o'rta va maxsus kasb-hunar muassasasi talabalarini, «o' spirinlar»deb belgilangan yosh davrlari-oliy o'kuv yurti talabalarini tavsiflaydi):

## O'Z-O'ZINI BOSHQARA OLISHNI SHAKLLANTIRISH

### (Pedagogik trening)

#### 1- mashq

Oq varoqqa o zingizga juda yoqadigan 5-6ta faoliyat turini yozing(Kitob mutoalaa qilish, kaShta tikish, Shaxmat-ShaShka, futbol. tennis o'ynash, musiqa, suv sporti bilan Shug'ullanish vah k ).

YOqtirgan faoliyat turiga hamohang quyidagi savollarga javob beri^iga harakat qiling:

A) yoqtirgan faoliyatingizni tanho yoki o'zga odamlar bilan birgalikda bajarasizmi?

B) Faoliyatni qayerda bajarasiz? Ushbu faoliyatni bajarishingizda yordam beruvchi yoki halaqit beruvchi omillar bormi?

V) Faoliyat bajarilayotganda vizual(ko'rish organkm ishtirokida), audio(tovuSh), yoki kinestetik(sezgi)lar ko'proq salmoqqa egami?

D) YOqtirgan faoliyatingiz moddiy xarajatlami takib qiladimi?

Savollarga javob berib bo'lgach, faoliyatingizdari qoniqish hissini bildiruvchi salmoqli ahamiyatga molik bo'lgan bir necha komponentga e'tibor bering

Bu mashqni bir necha bor takrorlagach, ehtimol uncha xush ko'rmagan faoliyatingiz( badan tarbiya, musiqa bilan Shug'ulkmish, kitob mutoalaa qilish, kaShta tikish va h.k.lar)da ham jozibali tomonlami topa olarsiz.

Ushbu mashqni bajarib bo'lgach, talabalar bitta faoliyatdangina emas, balki bir nechtasidan birdaniga qoniqish hissini sezishlarini qayd etishdi.

#### 2- mashq

Kuniga o'zingiz uchun 5-10 daqiqa vaqt ajratib, ushbu mashqlami bajarishga odatlaning:

1- **holat** Ochiq deraza yoki eShik yoniga kursini quyib, unga qulay joylaShing. CHuqur nafas olib, mushaklaringizni bo'Sh qo'ying.

2- **holat.** Tashqi omillaming ta'siri kuchli bo'lmaslngi uchun ko'zingizni yuming. Faqat yoqimli narsa haqida o'ylaShga harakat qiling.

**3- holat** Ko zingizyumuq holda o'zingizni baxtli his qiling. Dihngizdagi barcha g'uborlarga o'rin qoldirmang. Tevarak-atrofdagilarga baxtiyorligingizdan ulaShishga harakat qilayotganingizni his eting.

**4- holat.** O zingizga yoqimli( iloji bo lsa mumtoz) musiqani 3-4 daqiq mobaynida tinglang. Musiqaning inson sezgilariga ijobiy ta'sirini his eting. Musiqaning tarbiyadagi ahamiyatim o'nutmang.

**5- holat** O'zingizning energetik quwatingiz oshganligini, mushaklaringiz kuchga to'layotganligini, dilingizyayrab, insonlarga ezgulik va faqat ezgulik qilishga qodir va tayyor ekanligingizga ishonang.

**6- holat** O'rindiqdan turing. Qo lingizni yuqoriga ko'tarib, sekin tushiring. Ko'nglingizda yorqin his-to'yg ular paydo bo lganini, uning jozibali nurlari butun tanangizni chulg ab olganligini «ko'rishga» harakat qiling. Insonlarga hamdardlik qilishga, g'amxo'r bo'lishga tayyor ekanligingizga ishonang! Shunda haqiqiy baxtiyor ekanligingizni o'zingizga va o zgalarga isbotlagan bo' lasiz.

Ushbu mashqni muntazam ravishda bajarish o smir va ospirinlami stress holatidan chiqarishga, agressivlik holatining oldini olishga, o'z-o'ziga ishonch bilan qarashga hamda o'z-o'zini boshqara olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

## **XULQDAGIHKKIYUZLAMACHILIK, O Z SO ZIDA TURA OLMASLIK, YOLGONCHILIK KABI NUQSONLARNI KORREKSIYALASH METODIKASI**

Mazkur metodika Kettel, Ayzenk, Leongard kabi olimlaming «Shaxsni tavsifiy belgilariga qarab tashxislash» so rovnomalari asosida tuzilgan.

### **Yo'riqnoma:**

**1-bosqich.** Quyidagi savollarga «ha» yoki «yo'q» deb javob bering. Javoblaringiz ustida chuqur ntulohaza qilmang. Javoblami muayyan raqam ostida belgilab quying.

## SAVOLLAR:

1. Shovqin-suronli vaziyatlarni yoqtiraman.
  2. Har tomonlama tushunadigan do'stlarga ehtiyojim baland.
  3. Biron yumushni bajarishni so'raShganlarida hozirjavoblik qilaman.
  4. Jahlim tez-tez chiqib turadi.
  5. Kayfiyatirrimi ko'tarish yoki tushurish oson.
  5. Do'stlarim bilan chaq-chaqlashgandan ko'ra, kitob mutolaa qilganda yoki kompyuter bilan ishlaganda ko'proq bahra olaman.
  6. Uyquga ketayotganda turli-tuman fikrlar xalaq beradi.
  7. Menga aytilganlarni aynan o'nda bajaraman
  8. Birovning ustidan kulishni yoqtiraman.
9. O'zimni ba'zan o'ta baxtsiz xis qilaman, garchi bunga sabab bo'lmasada.
10. Men quvnoq va xushchaqchaq insonman.
  11. O'qiyotgan dargohitning ichki tartib-qoidalarini buzganman.
  12. Vaziyatdan qat'iy nazar, men axloq normalarni buzmaslikka harakat qilaman.
  13. Men har qanday simi saqlay olaman.
  14. Tengdoshlarim orasida men hazil-mutoyibalarni bisyor aytib, ularni xushnud qilaman.
  15. Notanishlar bilan uchraShganda o'zim birinchi bo'lib so'z boshlayman.  
Men ko'p hollardayolg'on so'zlayman.
  16. Men ahyon-ahyondayolg'on so'zlayman.
  17. Oxirgi paytlarda tez charchay boshlaganimni sezganman.
  18. Hayajonlanmasamda, ayrim paytlarda yuragim tez-tez uradi.
  19. Men tez xafa bo'laman.
  20. Tezjahlim chiqadiyu, xafachiligimni tez unutaman.
  21. Uy yumushlariga har kun kattalarga yordam beraman.
  22. Uy yumushlarida ahyon-ahyonda kattalarga yordam beraman.
  23. Uy yumushlarida kattalarga yordam bermayman.
  24. YAngi tanish orttirishni yoqtiraman.
  25. «YAngi do'stdan ko'ra, eskisi afzal» qabilida ish ko'raman.

26. Men ikkinchi darajali ishlar bilan darslarimni bajarib bo'lgach Shug'ubanaman.
27. Qarindosh-urug'lardan, qo'ni-qo'shnilardan birontasi haSharga chaqirishganda hozir javoblik bilan javob beraman.
28. Uylamay aytgan gapim bilan bironing ko'ngliga ozor yetkaysam uzoq vaqt iztirob chekaman.
29. Maqtanishni yoqtiraman, Shu sababli ayrim paytlarda yolg'on so'zlaytman.
30. Qaror qabul qilish uchun ko'p o'ylanib o'tirmayman.
31. O'qituvchi qaysidir sabablarga ko'ra darsni kech boshlaganda, toqalsizlik bilan ketish payiga tushaman.
32. Gohida qo'rqinchli tushlar ko'rib alahsirab chiqaman.
33. Menga yoqmagani inson to'g'risida, garchi pastkaShlik bo'lsada, yolg'on g'iybat tarqata olaman.
34. Milliy kuy va raqslar yoqadi.
35. Men Showqin-suronli o'yinlarga ishqibozman.
36. Ovqat tanlashda injiqlik qilaman.
37. Dars tayyorlayotganimda diqqatimni jamlay olmayman.
38. Oralariga sovuqlik tushgan do'stanlarni yarashtirish uchun yolg'on gapirishdan ham tonmayman.
39. Ota-onamga o'tamehribonman.
40. Har bayramda qarindosh-urug'larimdan hol-ahvol so'rashtirishni kanda qilmayman.
41. O'rtoqlarimdan kimdir yangi kiyim kiydi. Unga bu libos sira yarashtirmagan bo'lsada, «yarashtirib, qulluq bo'lsin», deyman.
42. Mehmonga borishni yoqtiraman.
43. Topshirilgan vazifani bajarishgahamisha mas'uliyat sezaman.
44. Biron nojo'ya ish qilib qo'ysam, afsuslanib, uzoq vaqtgacha mulzam bo'lib yuraman.
45. Yoqmagani yumushni bajarishimni iltimos qilishganlarida «Yo'q» deyishga qiynalaman.
46. Notanish odamdan yordam so'rashtirishga iymanam.
47. Muvaffaqiyatga erishganimda boshim osmonga yetadi.

48. Menga qo'pol gapirsalar men ham qo'pollaShaman.
49. Hayot faqat Shirin damlardan emas, balki iztirobli damlardan ham iborat ekanligini bilaman.
50. Dars zerikarli bo'lsada, o'kituvchiga xalaqit bermasdan uni tinglaShga harakat qilaman.

2- bosqichJavoblar jadvalda benigan baholar bo'yicha ballar jamlanadi

3- **bosqich** «YOlg'onw Shkalasi bo'yicha 5 dan ziyod to'plaganlar blankalari alohida ishlovdan o'tkaziladi.

### KALIT

EKSTRAVERSIYA (Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik)(E)

1. «Ha»: 1,3,9, 11, 14, 17, 19,22, 25, 27,30,36,39,44, 47,49.

NEYROTIZM (N):

2. «Ha»: 2, 5, 7, 15, 18, 21, 23, 26, 31, 34, 37, 38,42, 45,46,50.

3 »YOlg'on»:

«Ha»: 8, 16, 24, 28, 36, 44.

»Yo'q»: 4, 12, 20, 32, 40, 48.

17-20 yoshlilar uchun (E)-l 1-14 ball, «neyrotizm»- 12-17-ball, «yolg'on»-6-8 ball normativ bo'lib hisobladi.

Jadval N“

Ns	Savollar bo'yicha baholash (ball hisobida)	Savolhir bo'yicha baholash
	<b>E</b>	<b>N</b>

1.	0-4	0-4
2.	20-24	0-4
3.	20-24	20-24
4.	0^1	20-24
5.	0-4	4-8
6.	0-4	16-20
7.	0-4	8-16
8.	4-8	0-4
9.	8-16	0-4
10.	16-20	0-4
11.	20-24	4-8
12.	20-24	8-16
13.	20-24	16-20
14.	16-20	20-24
15.	8-16	20-24
16.	4-8	20-24
17.	16-20	4-8
18.	4-8	16-20
19.	4-8	4-8
20.	16-20	16-20
21.	12-16	8-12
22.	8-12	8-12
23.	16-20	8-12
24.	12-16	4-8
25.	8-12	4-8
26.	4-8	8-12
27.	4-8	12-16
28.	8-12	16-20
29.	12-16	16-20
30.	16-20	12-16
31.	8-12	16-20
32.	12-16	12-16

**1- tipdagi talaba**

**E: 0-4; N:0-4.**



**Pedagogik tavsifiy belgilari** Bosiq, hamma bilan kirishib keta oladi. Guruhdagilar uning fikriga quloq tutishadi. Do'stlikka chorlamaydi, ammo kimdir unga do'stona munosabat bildirsa, bu munosabatni inkor etmaydi. Qaysar, CHidamli. So'zlashganda o'ta bosiq. Fikr-mulohazali. Sovuqqon.

**Korreksiyalash yo'llari:** O'qituvchilarini kam bezovta qiladi, Shu sababli pedagog, trenerlar, tarbiyachilarning e'tiborsizligidan qiynaladi. Bu turdagi talabalar bilan ishlaganda ko'proq gunihda ularning ahamiyatga molik bo'lgan ishlarini maqtovg'a loyiq deb topish, talabalar jamoasini ularning bajarayotgan ijobiy ishlariga diqqatini tortish. Kamtarinligi va o'qishdagi natijalarini rag'batlantirib turish lozim.

## 2- tipdagi talaba

**E:20-24; N: 0-4;**

**Pedagogik tavsifiy belgilari:** Hamisha quvnoq. Kirishuvchan. Talabalar va o'qituvchilar diqqatini o'zigajalb qilishni yoqtiradi. Fanlami o'zlashtirish darajasi yaxshi. Optimist, o'z Shijoatiga ishonadi. Kechirimli. Murosali. Janjalli vaziyatlardan hazil-mutoyiba orqali chiqib keta oladi. YAngilikka o'ch. Talabalar orasida hurmat-e'tibor qozongan. O'qituvchilar uning kelajagiga ishonch bildirishadi. Artistlik qobiliyatiga ega. YAngilikka o'chligi sababli, boshlagan ishini oxirigacha yetkazishga sabri chidamaydi. Shu sababli natijalami qo'lga kiritishda sustkaShlik qiladi.

**Korreksiyalash yo'llari:** Mehnatsevarligini, yangilikka o'chligini, artistlik qobiliyatini rag'batlantirib turish lozim. Asta-sekinlik bilan (masalan, noyob topshiriqlar berish orqali) intizom, qat'iyatlilik va sabr-toqatli bo'lishga o'rgatish kerak. Bo'Sh vaqtini to'g'ri taqsimlashiga ko'maklaShish lozim.

## 3- tipdagi talaba

**E:20-24;N:20-24;**

**Pedagogik tavsifiy belgilari:** Faol, Shijoatli. Barcha (o'qituvchilar, ota-onasi, talabalar va yaqinlari) bilan «tenqurlari» sifatida muloqatga kirishishga harakat qiladi. Istehzoli. O'ta Shuhratparast. Kattalar tomonidan bildirilgan tanqidiy qarashlami salbiy qabul qiladi. O'ziga nisbatan befarqlikni kechira olmaydi.

**Korreksiyalash yo'llari:** Asosiy qurol: takalluf bo'lishi lozim. Bunday talaba bilan bosiq, ochiqko'ngillik bilan, e'tiqodiy chekinishlarga yo'l qo'ymasdan muloqotga kirishish kerak Affekt holatida istehzoli so'zlashishi muqarrar. Konflikt vaziyatlarda «orani ochishga» Shoshilmaslik zarur. Muammoli vaziyatni talaba o ziga kelgandan so ng yechish ma'qul Muammo yechimini topishga o'zini undaSh, tashkilotchilik qobiliyatini qullab-quwatlaSh hamda energetik salohiyatini ezgu ishlarga sarflaShga dav'at etish kerak. Tajriba ko' rsatishicha, bunday talabalami sport bilan Shug'ullantirish samarali natijalami beradi.

#### 4- tipdagi talaba

**E:0-4;N:20-24;**

**Pedagogik tavsifiy belgilari:** Injiq, o'z kuchiga ishonmaydigan, jur'atsiz. O'zgalardan tomonidan homiylik axtaradi. Kamgap. Qiyinchilik bilan muloqotga kirishadi Darslardagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari ko'p hollarda past. Tez xafa bo'ladi. Adaptatsiya jarayoni uzoq cho'ziladi. Faol hayot darajasi xushlamaydi. Kuzatuvchan. Falsafiy fikr-mushohada qilishni yoqtiradi. Muammoli vaziyatda o'zini yo'qotib qo'yadi.

**Korreksiyalash yo'llari:** Bunday talabani tengdoshlarining kulgi-istehzolaridan xalos etishga harakat qilish kerak Undagi ijobiy tomonlarga: fikr-mulohazaliligi, biron yumush topshirilganda saranjomlik bilan bajarishini alohida ajratib maqtab tunsh lozim Ijtimoiy xulq-atvorini Shakllantirish jarayonida faol muloqotga kirishuvchanlikni, o ta subordinatsiya talab qilmaydigan topshiriqlarni bajartirish kerak. Tevarak-atrofdagilarga bo'lgan qiziqishini faollaShtirish, ochiq ko'ngil talabalar bilan muloqotga kirishishini ta'minlash kerak.

#### S-tipdagi talaba

**E:0-4; N: 4-8;**

**Pedagogik tavsifiy beigilari.** Kuzatuvchan, bosiq Fanlarga bo'lgan qiziqishi sust. Ichki «to'qib chiqarilgan» uy-xayollarga boy, fantaziyaga moyil. Loqayd va befarqhg bilan nafaqat o qituvchilarni balki tengdoshlarini ham hayratga soladi

**Korreksiyalash yo'llari:** Unga quyiladigan talablarga o ta muhtoj Qanchalik ko'p mas'uliyatli topshinqlar yukatilsa, Shunchalik faolligi oshadi va o'zini kerakli

ekanligin\* his etadi O'qish va ishga qiziqishini oshirish uchun uning ehtiyojlarini o'zaro qo'llab-quvvatlash kerak va motivatsion sferasiga ta'sir o'tkazish lozim.

#### **6- tipdagi talaba**

**E:0-4;N: 16-20;**

**Pedagogik tavsifiy belgilari.** Kamtarin, his-hayajonga beriluvchan, notanish vaziyatlarda uyatchan. Fikr-mulohazali. O'z kuchiga ishonmaydi Muammoli vaziyatlarda o'zini qo'lgaoladi Qat'iyatsizroq.

**Korreksiyalash yo'llari:** Guruhda unga ko'mak berishga harakat qilish kerak Talabadagi ijobiy sifatlar: jiddiylik, madaniyathlik, takallufflik kabi xususiyatlariga e'tiborni qaratmoq lozim. Ezgu g'oya bilan qiziqtirib qo'yish kerak(Masalan, nochorlarga, o'zidan kuchsizlarga, nogironlarga yordam berish va h k ). Talabadagi optimistik ruhni o'stirishga harakat qilish kerak. Bu undagi o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

#### **7- tipdagi talaba**

**E:0-4;N: 8-16;**

**Pedagogik tavsifiy belgilari.** Kamtarin, bosiq. Darslarda faol qatnashadi. SHijoatli, o'zining butun borlig'ini bilim o'zlashtirishga chorlaydi. Adolatli. Guruhda o'rtoqlari ko'p. Vafodor do'st bo'la oladi. Topshirilgan vazifani qoyilmaqom qilib bajarishga harakat qiladi, ammo tashkilotchilik qobiliyati sust. O'qishdan tashqari tadbirlarda ishtirok etmaydi. O'quv maskanida o'tkaziladigan katta tantanalarda panada qolishni yoqtiradi. Ayrim paytlarda zerikarli falsafiy mushohada yuritadi.

**Korreksiyalash yo'llari:** Faoliyatida erkinhikka keng yo'l ochish lozim, chunki bu tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish kerak. Guruh a'zolari oldida tanqid qilmaslik lozim. Ko'proq tashabbuskorligini rag'batlantirib turish kerak. Biron bir kishi yoki g'oya ta'siri ostiga ko'r-ko'rona kirib qolishidan ehtiyot bo'lish kerak.

## **8- tipdagi talaba**

**E:0-4;N: 8-16;**

**Pedagogik tavsifiy belgilari.** Kirishuvchan, faol, tashabbuskor. O'z-o'zini boshqara oladi. Shuxratparast. Liderlik xususiyatlariga ega. O'qituvchilar va talabalar orasida hurmat qozongan. yengil xarakterga ega Didli, takallufli, nazokatli.

**Korneksiyalash yo'llari:** Liderlik qilishga imkoniyat yaratish kerak Shaxsiy va guruhdagi muammolami hal qilishga yordam berish kerak Ilmga bo'Igan qiziqishlarini rag'batlantirish zarur

## **9- tipdagi talaba**

**E:12-16;N: 4- 8-;**

**Pedagogik tavsifiy belgilari.** Faol, bosiq, o'rta miyonadagi kirishuvchanlik qobiliyatiga ega O rtoqlari kam bo'lishiga qaramasdan, ularga vafodor. O'z oldiga qo'ygan vazifaning uddasidan chiqa oladi. O'qishda raqiblik qilishga moyil emas. Ayrim hollarda tez xafa bo'ladi.

**Korreksiyalash yo'llari** Atrofdagilaming unga ishonch ko'zi bilan qarShiga intilish lozim. Ishbilarmonlarcha u bilan muloqotga kirishish kerak Jamoat topshiriqlanni yuklaSh lozim.

## **10- tipdagi talaba**

**E:12-16;N: 16-20;**

**Pedagogik tavsifiy belgilari.** Atrofdagilarga o'ta talabchan Mag'rur. Shuxratparast Faol. Ko'zga tashlanishni xush ko'radi. O'qishdagi va Shaxsiy xayotidagi mag lubiyatga uchraShlarini sir saqlaShga harakat qiladi Sovuqqon. Barchaning diqqatini o zigajalb qilishni yaxshi ko'radi.

**Korreksiyalash yo'llari:** Pedagogik muloqotga kirishganda o'ta samimiy va ochiq ko'ngillik bildirish zarur. Ushbu talabaga nisbatan qattiqqo'l bo'lish kerak Ayrim hollarda uning kamchiliklari ustidan kulish mumkin Bu uning kiborli xususiyatlaridan forig' bo'lishga yordam beradi.

## 11- tipdagi talaba

E: 16-20; N: 12-16;

**Pedagogik tavsifiy belgilari.** Mag' rur *O'* qishda gi kamchiliklarida o' zgalami ayblaShga moyil, Shaxsiy adovatni hamma narsadan ustun qo'ya oladi. Shubhachi. Liderlik xususiyatlariga ega. Bosiq. Maqsadiga erishish uchun qafiy harakat qiladi. Ayrim holatlarda artistlik qobiliyatlarini namoyon qila oladi.

**Korreksiyalash yo'IIari:** Manmanlikka va kiborga berilishiga yo'l quymaslik kerak. Liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ijobiy hatti-harakatini rag'batlantirish zarur. Talabalar orasida o'zini ustun qo'yishga bo'lgan intilishini bartaraf qilish kerak. Agressivlik xususiyatlarini neytrallaSh darkor. Ijtimoiy xulq-atvor qoidalariga rioya qilishiga hamda ijtimoiy ongini rivojlantirish zarur.

Mazkur metodika 16-20 yoshli talabalarga mo'ljallangan bo'lib, undan:

- o'quv muassasasidagi guruhjamoalarini tashkil etishda;
- guruh kuratorlari(rahbarlari)ning talabalar jamoasi bilan tanishuv ishlarini olib borishayotganlarida;
- «pedagogik tashxislash va korreksiyalash» markazlarida;
- yoshlami ish bilan ta'minlash borasida kadrlar bo lim boshliqlari ishlarida;
- jismoniy chiniqtirish guruhlarida, sport seksiyalarida;
- uzluksiz taTim tizimi jarayonida «O'qituvchi-o'quvchi-talaba» va «O'quvchi-talaba-sinf-guruh» tizimida pedagogik amaliyotda foydalanish mumkin.

O'xshash qilib, pedagogik diagnostika va korreksiyalashda talaba-yoshlaming umumiy tarbiyalanganlik modeliga asoslangan holda ish yuritish lozim, CHunonchi, onglilik va xushxulqlilikning birligi tamoyilini yoshlaming umumiy tarbiyalanganlik darajasidagi sifat ko'rsatkichlari belgilashini pedagogik treninglar natijasida amqlandi. Ular motivatsion ehtiyoj va ma'naviy-ma'rifiy tarkibdagi xalqani tashkil qiladi (-rasmga qarang). Pedagogik korreksiyada motivatsion ehtiyoj madaniy qadnyatlarga asoslangan holda qaraladi.

## YOSHLARDA IJOBIY XISLATLARNI SHAKLLANTIRISH

### METODIKASI

#### *Talabalar motivlar doirasini diagnostika qilish va salbiy xislatlarini korreksiyalash*

**Yo'riqnomasi:** Rag'batlantiruvchi material 100 ta hazil-mutoyibali iboralardan (HMI) iborat. Shulardan 40 tasi ko'p ma'noli bo'lib, tadqiq qilinuvchilar ulami o'zlaricha interpretatsiya qilishadi.

Asosiy mavzular: 1) agressivlik holati; 2) ijtimoiy hayot; 3) moddiy rag'bat; 4) san'atga moyillik; 5) insoniy xislatlarni shakllantirish;

#### HMI

1. Qanchalik yuqori parvoz etsang, shunchalik yerga tushishing qiyinlashadi.
2. Tentak mukammallikka erishgach, qizaradi.
3. Baxt-pulda emas, miqdorida.
  1. Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar.
  2. Olamda barcha narsalar o'zaro bog'liq. Shu sababli o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi tanish o'rttirish shart.
  3. Hayotdan hamma narsani olishga moyil edi. Ayniqsa moda sohasida.
  4. Bolalar-hayot gullari Oiladagi janjallarni og'zidan gulla shiga ruxsat bermang.
  5. Yiqilgan kura shundan charchamaydi.
  6. «Ichkilikbozlik-hayotni zaharlaydi. Uning natijasida insonlar boshini yo'qotib qo'yishadi», dedi YUDif, Shirakayf Ossuriya qo'mondoni Olofemning boshini tanidan judo qilgan ekan.
  7. U tulki dumidan tikilgan yoqali manto to'g'risida fikr bildirgan ekan, eri unga bo'ri qarash qildi.
  8. «Bo'g'moqda, demak sevadi», o'yladi Dezdemon.
  9. Boshini qotirmoqchi edi, bo'yni sinib qoldi vah.k.

Tashxislanuvchi har bir bosqichdagi (bosqichlarda lotin adan ibora mavjud, Shulardan 60 tasi «ishchi» qolganlari «chalg'ituvchi» bo'lib hisoblanadi.)

o'ziga yoqqan faqat bitta iborani tanlash xuquqiga ega. Tanlangan iborani maxsus harflar bilan belgilash lozim.(Yoqqan ibora:-a; aksincha boTsa-b;)

### HMI kaliti:

Intemal( ichki) hissiyotga beriluvchanlik: 2b, 3a, 4a, 5b, 6a, 7b, 8b, 10. va  
h.k

Ekstemal(tashqi) hissiyotga beriluvchanlik:2a, 3b, 4b, 5a, 6b, 7a, 8a, 10a,  
1 Ib, 12a, vahk.

CHalg' ituvchi bosqichlar: 1,6,9,15, 21,23,26,30; (4- Ilova).

### Natijalar ishlovi:

1. Tadqiqotda qatnashayotgan talaba ish jarayonidagi kayfiyat, ishga boTgan munosabat, yo riqnomada keltirilgan topshiriqlarga javoban bildirilgan reaksiyasi to g risidabatafsil bayon qilishi lozim.
2. Ilovadagi Shaxs tipiga qarab korreksion tadbirlami o' tkazish lozim.

Tavsifiy xususiyatlari	Korreksiyayo'llari
------------------------	--------------------

I-tipdagi talaba

E: 0-4;N: 0-4.

Bosiq, hamma bilan kirishib keta oladi. Guruhdagilar uning fikriga quloq tutishadi. Do' stlikka chorlamaydi, anuno kimdir unga dostona munosabat bildirsa, bu munosabatni inkor etmaydi. Qaysar, CHidamli. So'zlashganda o'ta bosiq. Fikr- mulohazah. Sovuqqon.	O'qituvchilarini kam bezovta qiladi, Shu sababli pedagog, trenerlar, tarbiyachilaming e'tiborsizligidan qiynaladi. Bu turdagi talabalar bilan ishlaganda ko'proq guruhda ulaming ahami yatga molik bo' Igan ishlarini maqtovga loyiq deb topish, talabalar jamoasini ulaming bajarayotgan ijdbiy ishlanga diqqatini tortish. Kamtarinligi va o'qishdagi natijalarini rag'batlantirib turish
---	--

Pedagogik korreksiyalashda - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilaming hamkorlikdagi faoliyati o'zaro ta'sir ko rsatish uslublariga bog liq ekanligi Shak-

Shubhasizdir Korreksiyalash har bir yoshga, Shaxsga, har qaysi yoshlar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Yoshlar xulqidagi nuqsonlarni bartaraf qilish uchun turli korreksion metodikalardan, jumladan: ijtimoiy ongini shakllantiruvchi ulublar; faoliyat jarayonida ijtimoiy ongini va tajribalarni shakllantirish uslublari; o'z-ozini tarbiyalash uslublari, rag'batlantirish vazajolash uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi talabalarining salbiy xislatlarini korreksiyalashda tadqiqot natijalarining sarhisobi ilmiy izlanishlarning samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatni kasb etadi

Ayniqsa mafkuraviy poligonlarda yoshlar ongi va qalbi uchun kuraSh keskinlashgan bir paytda pedagogik diagnostika va korreksiyalashning ahamiyati, o'tkazilgan har bir treningning o'zini beqiyos ekanligi shubhasizdir.

Korreksiyalashda otkaziladigan tajriba, tekshirish va kuzatishlarning natijalarida tasodifiylik elementlari har doim mavjud bo'lganligi uchun bu natijalarning samaradorligini matematika-statistikaviy uslub bilan tekshirish lozimligini unutmash kerak. Buning uchun pedagogik treninglar natijalarini tasodifiy miqdorlar bilan tekshirib, tahlil qilinadi va ishonchli xulosalar chiqariladi. Pedagogik korreksiyalashga xos bolganlik shundaki, bunda qo'llanilgan vositalarning samaradorligi muayyan bir guruh ob'ektlarining (talabalar, o'quvchilar, formal va noformal guruhlar va h.k) yoki turli ob'ektlarning ma'lum bir vaqt ichida erishgan yutuqlari yoki xossalarni taqqoslash asosida tekshirishda qiyinchilik tug'diradi.

Qo'llanilgan muayyan yangi korreksion yonalishning samaradorligini tekshirish uchun muayyan guruhlarni tanlab olish maqsadga muvofiq. Bu guruhlar matematik statistikatilida «bog'liq tanlama» deb ataladi.

Bog'liq tanlanmalar, tasodifiylik asosida tanlab olingan o'quvchi-talabalar qism-guruhlaridan iborat bo'ladi. Bog'liq tanlanmalar uzluksiz ta'lim tizimidagi o'quvchi-talabalarining turli o'quv guruhlaridan tasodifiylik asosida tanlab olingan talabalar qism-guruhlaridan iborat bo'ladi.



O'quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilishni tarbiyalashga qaratilgan topshiriqlardan unumli foydalanish samarali natijalami beradi. Shu bilan birga yoshlarning umumiy madaniy saviyasining o'sishi va tarbiyalanganlik darajasining Shakllanishida pedagogik treninglarning ahamiyati o'ta salmoqli ekanligini inobatga olish zarur. Pedagogik diagnostika va korreksiyalashda haqqoniylikka erishish amalda juda mushkul. Shuning uchun ahamiyatlilik darajasini tanlash tanlanmalami tuzish bo'yicha dastlabki jiddiy sinov, tajriba, kuzatuv va hisob-kitob ishlarini olib borishni taqozo qiladi.

Pedagogik diagnostika va korreksion rivojlantiriluvchi tadbirlar maqsadli belgilanib, amalga oshirilganda talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining takomillashuvida, madaniy saviyasining o'sishida va uning malakasini uzluksiz takomillashib borishiga erishiladi.

## **16- mavzu. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNING TARBIYALANGANLIK DARAJASINI TASHXISLASH VA KORREKSIYALASH ISTIQBOLLARI**

Jamiyatimizdagi yoshlarni ma'nan boy, hur fikrli, kuchli bilimdon sohiblari qilib tarbiyalash: ota-bobolarimizning asriy orzu-umidlariga hamohangdir.

Respublikamizda Kadrlar tayyoriash milliy dasturiga muvofiq bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohatlar xar tomonlama uyg'un, barkamol Shaxsni Shakllantirishga va bu borada ta'sirchan mexanizmlarni, yangicha tafakkur va ijtimoiy xulq-atvoming andozalarini yaratishga qaratilgan.

*Oliy ta'lim muassasalarining bakalavr yo'nalishida pedagogik tashxislash va korreksiyalash yo'llari o'ziga xos xususiyatlarga ega.*

Talabalar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan (ular hoh rasmiy, hoh norasmiy bo'lishidan qat'i nazar) muloqotga kirishish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan bin ijtimoiy yetuklik( kamolot) Shaxsdan zarur aqliy qobiliyatni hamda ijtimoiy turmushda bajarladigan turli rollami egallshga(oila qurishga), farzandlami tarbiyalashga, foydali mehnatda qatnashishga(mas'ul vazifada ishlashga) tayyorlanishni talab qiladi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va ko rsatkichlari o'rta maTumotlilik, jamoatchilik topshiriqlan, mehnatda faollik ko rsatish, qonunlar oldida javobgarlik, mutaxassis bo lish imkoniyati, unga intilish tuyg usi, irodaviy kamolotga erishish,yosh otalik va onalik burchi, ijtimoiy guruhga rahbarlik qilish, sport bilan Shug'ullanish, bo'Sh vaqmi tashkil eta olish, to garaklarda qatnashish va boshqalardan iborat.

Talabalik davri o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo lib, 17-22 yoshni o z ichiga oladi va o'zining betakror xususiyatlan va qarama-qarShiliklari bilan tavsiflanadi. Shu boisdan talabalik davri Shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashdan boshlanadi. Mlazkur pallada o spirin o ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, jumladan, kattalaming har xil ko rinishdagi rollarini tez sur'atlar bilan bajarib ko rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlanga ko'nika boshlaydi. Katta odamlaming turmush tarziga o'tish jarayoni Shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog liq ichki qarama-qarShiliklami keltirib chiqaradi.

Oliy taTim tizimida pedagogik diagnostika va korreksiyalashning asosiy vazifasi: *talabalami mustaqilbilim olishga. o'zfaoliyatini o'zi tashkil qilishga, o'zini o 'zi boshqarishga, yangi g oyalami ishlab chiqishga o 'rgatish. xulqning eng muhim sifatlari-mustaqillik, tashabbuskorlik topqirlik, farosatlilikni o stirishga yordam beradi.*

Bir qator olimlar: B G. Ananov, M.G. DavletShin, I. I. Ilyosov, E. Goziyevlaming fikrlaricha, talaba 17-19 yoshda ham o'z xulqi va bilish faoliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo lmaydi va Shunga ko ra xulq motivlarining asoslanmagani, uzoqni ko'rolmaslik, ehtiyotsizlik kabi holatlar ro y beradi.

V. T. Litovskiyning fikricha, 19-20 yoshlarda ayrim salbiy hatti-harakatlar ko'zga tashlanadi. Mazkur yoshda hohish hamda intilishning rivojlanishi iroda va xarakterdan ancha ilgari ketadi. Bunda odamning hayotiy tajribasi alohida ahamiyatni kasb etadi, chunki talaba Shu tajriba yetishmasligi natijasida nazariya bilan amaliyotni, fantaziya bilan reallikni, romantika bilan ekzotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan hohish, optimizm bilan qat'iylikni aralaShtiribyoradi.

Oliy ta'lim tizimida taTim-tarbiya ishlarini rejalShtirishda talabalaming o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olish mazkur davming muhim Shartlaridan biridir.

Ayrim paytlarda ichki va tashqi vositalar, omillar ta'siri ostida uning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, istiqbolga ishonchsizlik, ikkilanish, hadiksiraSh kabi salbiy his-tuyg'ular namoyon bo'ladi. O'z Shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlik, o'qishga nisbatan esa salbiy munosabatning kelib chiqishi talaba ruhiyatida keskin tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin. Buning oqibatida yoshlar o'ta zararli oqimlarga: aqidaparastlik, terrorchilik illatlariga qo'shilib ketishi, giyohvandlik, ichkilik, qimorbozlik, turli jinoyat ishlari kabi jirkanch yo'lga kirib qolishlari mumkin. Shu sababb oedagoglar, oila a'zolari, jamoat tashkilotlan, «Kamolot» yoshlar jamag'armasi va boshqa ijtimoiy institutlar o'spirinlikning ikkinchi pallasida turgan yoshlarni o'z vaqtida pedagogik tashxisdan o'tkazib turishlari, zarur bo'lsa korreksion metodikalardan foydalanishlari kerak.

Talabalarni diagnostika qilishda o'spirinlikning ikkinchi davri xulqqa, voqelikka baho berishda qat'iyatlilik xususiyati bilan farqlanishini inobatga olish o'ta muhim Talabalaming har doim ham prinsipial bo'la olmasligi ularning hohishlari bilan mavjud imkoniyatning nomutanosibligi tufayli sodir bo'ladi va ko'p hollarda kattalar bilan turli nizolarga olib kelishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida aytilganlardan qat'iy nazar, yoshlarning oliy o'quv yurtlarida o'qishlari ularning o'z kuchlari, qobiliyatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch tug diradi, to'laqonli hayot va faoliyatni uyuShtirishga umid his-tuyg'usini vujudga keltiradi.

Odatda talabalar 2 va 3-kurslarda oliy o'quv yurti va mutaxassislikni to'g'ri tanlagani haqidayanajiddiy o'ylay boshlaydilar.

Mazkur yosh davrida o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari: *ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba, o'zlashtirgan bilimlarni tartibga solish asosida his-tuyg'ular, axloqiy qadriyatlar, qarashlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi*. Talaba hukm va xulosa chiqargach, o'z hatti-harakatida qat'iy turib ulami himoya qiladi, u hayotning turli sohalarini bo'yicha har xil darajadagi ko'nikma va malakalarga, nazariy bilimlar, ijtimoiy-psixologik tushunchalarni amaliy faoliyatga tadbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida pedagogik diagnostika va korreksiyalash ishlarini tashkillashtirishda talabalar uchun keladigan quyidagi qiyinchiliklarni inobatga olish kerak:

-Ijtimoiy qiyinchiliklar: hayot va faoliyatning barcha jabhalarida mustaqillikka o'tilishi, irodaviy zo'r berish, aqliy qobiliyatlar bo'yicha qat'iysizlik va boshqalar;

-Fanlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: umumiy o'rta ta'lim maktabi va oliy o'quv yurtidagi o'quv materiallarining mazmun va ko'lami jihatidan keskin farqlanishi, o'quv matni, ma'ruzalarning murakkabligi, muammolilik ilmiyligi, mustaqil bilim olish malakalari yetishmasligi, talabalarning mustaqil bilim olishga malakalari yetishmasligi va boshqalar;

Kasbiy qiyinchiliklar: tanlangan mutaxassislikning ular uchun ahamiyatligidan ikkilanish; oliy o'quv yurti shart-sharoitlariga moslashish jarayonini noto'g'ri tasavvur etish; ta'lim olish usullari va vositalarini ko'nikma, malaka va odatlarini egallashda orqada qolish, turli xususiyatga ega bo'lgan mutaxassislik-ixtisoslik amaliyotidan unumli foydalana olmaslik, tanlangan kasbiy talablarga javob bera olmaslik va boshqalar. Oliy maktab muhitida bu qiyinchiliklarning barchasini bartaraf etishda pedagogik diagnostika va korreksiya ishlarini talabalarning o'ziga xos tipologik va yosh xususiyatlari, jinsi, aqliy imkoniyatlari, aql-zakovati, axloqiy fazilatlarini, etnik alomatlarini inobatga olgan holda olib borishni taqozo etadi.

Amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitilib bormoqda. Bu hol talabalar bilan uyushtiriladigan turli tarbiyaviy tadbirlarni ham zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti asosida tashkil qilishni

taqozo etadi. Pedagogik korreksiyajarayonini jadallashtiruvchi axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish samaradorligini oshiruvchi didaktik materiallarni ishlab chiqish va keng qo'llash tamoyiliga asoslanadi. Yangi pedagogik texnologiyalar tizimini tashkil qiladigan - masofaviy o'qitish pedagogik tashxislash va korreksiyalash samaradorligini oshirishi mumkin. Bunda sifatli, sertifikatlashtirilgan didaktik ta'minot zarur bo'ladi. Masofaviy o'qitish jarayonida ta'lim-tarbiyaviy masalalarning to'la-to'kis ro'yobga chiqishi O'xshash didaktik ta'minotga bog'liqlik, bunda O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlarining talablari va mohiyati inobatga olinishi lozim.

Pedagogik tashxislash va korreksiyalashda *«didaktik ta'minot»* so'z birikmasining ma'nosi «ta'limiy-tarbiyaviy maqsad va vazifalarni o'z ichiga qamrab olgan mazmunli o'quv axborotlarining majmuidi»<sup>11</sup> - degan tushunchani beradi. Bu axborot turli tashigichlarda pedagogika, valeologiya, psixologiya, informatika va boshqa fanlarning talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi va masofaviy o'qitish jarayonida ulardan foydalanish mumkin. Masofaviy o'qitishda didaktik ta'minot quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ta'limiy


- nazorat
- tahririy
- kommunikatsion
- reflektiv
- bashorat qiluvchi

Tarmoqli qurilmalarni tanlay olish, didaktik ta'minotni tarkibiy kislarga ajratish va dasturlangan darajada taqdim qilish «masofaviy o'qitishni to'g'ri tashkil qilishning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Buni biz ilg'or mamlakatlarning ta'lim sohasidagi tajribalaridan o'rganamiz»<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Abdullaeva Sh. A. Masofaviy o'qitishda didaktik ta'minotning pedagogik maxorati, 2013, 31-34-betlar.

Bizning fikrimizcha, pedagogik diagnostika va korreksiyalashda masofaviy o'qitishning didaktik ta'mmot majmui quyidagi uch blok ko'rinishidataqdim qilinishi mumkin (16 -rasm)



16- rasm

Rasmda ko'rib turganimizdek, mazmunli axborot bloki ikkita kichik bloklarga (KB ga) bo'linadi

Birinchi KB o'z ichiga diagnostika qilinayotgan Shaxs to'g'risidagi ma'lumotni, tashxislash muddatini, korreksiyalash metodlari va metodikalanni, yosh davrlari xususiyatlarini, tarbiyaviy tadbirlarning Shaklini, o'tkazish ma'qul bo'lgan vaqtini, foydalanish lozim bo'lgan zamonaviy axborot vositalarini (elektron pochta, telefoniya va boshqalar) tadbir qilgan holda tashkillashtirilgan amaliy va seminar mashg'ulotlarini, maslahatlar jadvalini qamrab oladi

Ikkinchi KB o'z ichiga pedagogik diagnostika va korreksiyalashga doir o'quv dasturlari, trening toplamlarini, oquv qo'liamalarini, lug'atlamini, kichik qomuslamini, maxsus seminar rejalanni, qo shimcha adabiyotlar ro'yxatini, talabalar

bilan ilk tanishuv so'rovnomlarini, tajriba ishlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyanomlarni qamrab olishi zarur.

Demak, mazmunli axborot bloki pedagogik diagnostika va korreksiyaning tashkiliy va tarbiyaviy funksiyalarini (vazifalarini) bajaradi va magnitli qog'ozli tashigichlarda taqdim etilishi mumkin. Bunda zamonaviy informatsion texnologiyalar (masalan, multimedia, gipermedia va boshqalar) dan foydalanish mumkin.

Nazoratli kommunikatsion blok (3) xam ikkita kichik bloklardan tashkil topgan, bular nazorat va kommunikatsion bloklardir. Birinchi KB turli ko'rinishlardagi testlarni o'z ichiga qamrab oladi, jumladan,

- tahsil oluvchining tarbiyalanganlik darajasini aniqlovchi testlar;
- murakkablik darajasiga ko'ra: o'ta murakkab (M), yuqori(YU), o'rta(O') nazorat testlari;
- Ijtimoiy faolligini aniqlovchi testlar; mustaqil nazorat savollari (umumiy va detallaShgan);
- baxolaSh me'yorlari;
- mazkur yoshda bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zlashtirilishini nazorat qiluvchi jadval;
- yakuniy nazorat attestatsiyalari va h.k.

Ikkinchi KB quyidagilarni qamrab oladi:

- zamonaviy kommunikatsiya vositalari asosida tashkil qilingan turli ko'rinishdagi joriy maslahatlar va ularning jadvallari;
- turli soha bo'yicha pedagog- koordinator va pedagog kuratorlar bilan uchraShuv jadvallari;

Mazkur blok vazifalarini matematika va gumanitar fan vo'nalishlari bo'yicha tahlil ailsak:

Masalan, matematika fan o'qitilayotganda nazorat kommunikatsion blokiga quyidagi vazifalar kiritilgan bo'lishi mumkin: nazariy axborot, tanish masalalar ustida izlanish, qo'shimcha masalalarni yechish va kiritish, vazifaning umumiy ko'rinishini o'zgartirish, analog yoki dublyor(egizak)-masalalar tuzish, vazifalarning

umumiy va yakka elementlarini o'zgartirish, boshqa turli kombinatsiyalarda yechish, vazifani qisman bajarilish imkoniyatlarini qarab chiqish, qo'shimcha ma'lumotlarni kiritish, berilgan sonlarni hisoblash, ularni tahlil qilish, murakkablashgan masalalarni yechish va boshqalar

Pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha nazorat kommunikatsion blokka quyidagi topshiriqlarni kiritish mumkin: psixologik avtoportretingizni chizing; yangi darslikka annotatsiya yozing, muayyan mavzu bo'yicha shtatlar reja tuzing; ma'lum tushunchani izohlang va isbotlashga harakat qiling, kuzatuv natijalarini sarhisob qiling, vaziyatli masalalarni yeching, turli pedagogik va psixologik testlar va h. k.

Nazorat topshiriqlari turli pedagogik usullardan foydalangan holda tuzilishi mumkin va bir vaqtning o'zida ta'limiy- tarbiyaviy hamda diagnostik va korreksion vazifalarni bajarishi mumkin.

*Nazorat-kommunikativ bloki* quyidagi vazifalarni bajaradi: ta'limiy, nazorat, kommunikativ, tashkiliy, refleksiv. Bundan tashqari u MO'(masofaviy o'qitish) qatnashchilari orasida qulay o'zaro aloqa yaratishga imkoniyat yaratadi.

*Nazorat-kommunikativ blokda* o'quv mazmunini qamrab olgan axborot uch xil holatdajoylashadi: nazariy, auditor, amaliy, mustaqil ishlashga mo'ljallangan;

Ushbu blokda mavjud bo'lgan didaktik ta'minot bir necha nazorat turlarini ta'minlashi shart

Joriy, oraliq, yakuniy.

Bu turdagi nazoratlar talabalarning ijodiy va mantiqiy fikrlashiga zamin yaratadi, bilim saviyasini kengaytiradi va eng asosiy, mustaqil aqliy operatsiyalar bajarishga undaydi.

Umumlashtiruvchi korreksion o'lashtirish natijalari darajasini nazorat qiluvchi blok talabalarning o'lashtirish yakuniy natijalarini, o'quv-bilish faoliyatining diagnostikasini, turli nazorat natijalarining, tahsil oluvchilarning tarbiyalanganlik darajalari tahlilini qamrab oladi. Ushbu ma'lumotlardan o'quv maskanlarida (Masofaviy o'qitish markazida) har bir ta'lim oluvchi to'g'risida axborot to'plash imkoniyati yaratiladi. Mazkur axborotdan o'quv dargohi



ina'niuriyati, yo'n-alish bo'yicha dars berayotgan o'qituvchilar foydalanish xuquqiga ega bo'ladilar.

Demak, bunday bloklarning tashkil qilinishi ta'lim-tarbiya jarayonidagi tashkiliy, korreksion, kommunikativ, refleksiv, prognozlashtiruvchi vazifalarni bajarish bilan birgalikda o'quv jarayoni sifatini takomillashtirishga uning mazmunini boyitishga, talabalarning ijodiy nivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Bizning nazarimizda, didaktik ta'minotlarni loyihalashda va tuzishda quyidagi amallarga rioya qilish samarali natijalar beradi:

- didaktik ta'minotlarni tuzishda turli bilim sohalari bo'yicha ijodiy uyuShmalar faoliyatini inobatga olish;
- tayyor sertifikatlashtirilgan didaktik ta'minotlarni xarid qilish va ularni o'quv dargohi Sharoitida adaptatsiyadan o'tkazish;
- telekommunikatsiya va internet tarmoqlaridagi mavjud pedagogik diagnostika va korreksion axborotlaridan foydalanish;

Tajribadan ma'lumki, didaktik ta'minotni loyihalash va tayyorlashning birinchi bosqichi garchi kaitta mablag' sarf qilishga majbur kilsada, keyinchalik o'zini to'lato'kis oqlaydi, chunki, masofaviy o'qitish jarayoni ishtirokchilarning deyarli barchasi tomonidan metodik tayyorgarliksiz foydalanishga imkoniyat yaratiladi. Tajribalar Shuni ko'rsatmoqdaki, diagnostik va korreksion didaktik ta'minotlarni loyihalashdaha mdatayyorlashda quyidagi omillarni inobatga olish zarur:

- tahsil oluvchilarning tarbiya va rivojlanish darajasini;
- tahsil oluvchilarning salomatligini saqlash tamoyillarini;
- o'quv-o'qitish faoliyatidagi tanlov erkinligini;
- Shaxsning individual xususiyatlarini;
- MO' jarayonida ishtirok etuvchilarning xususiy emotsional-intellektual kirishuvchanligini.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, didaktik ta'minotlarni loyihalashda, ularni tuzishda va qo'llashda ta'lim-tarbiya jarayonidagi tizimlilik, izchillik, evolyutsionlilik tamoyillariga yondoshish zarur.

Bizning fikrimizcha, diagnostik va korreksion jihatdan foydah didaktik ta'minotlami tuzish va amalga tadbii qilish quyidagi tadbirlami tashkillashtirishni taqozo etadi:

- 1) kompyuter va internet tarmoqlarida malakali ishlay oladigan, mantiqiy va ijodiy fikrlovchi kadrlami tayyorlash;
- 2) sifatli didaktik ta'minotlami tuzishdagi zaruriy metodik tavsiyalami ishlab chiqish (mazmun, shakl, tarkib, baholash me'yorlarini inobatga olgan holda)
- 3) turli soha mutaxassisliklarini psixologik-pedagogik jihatda tayyorlab borish (masalan, pedagog-amaliyotchi: dasturlovchi, programmist - usuliyotchi vah. k)
- 4) Masofaviy o'qitish jarayoni ishtirokchilari faoliyatini qulaylashtirish;
- 5) O'quv muassasalarning o'zida (imkoniyatlardan kelib chiqqan holda) masofaviy o'qituv xizmatlarini tashkil qilish va amalga tadbii qilish;
- 6) Pedagogik diagnostika va korreksiya jarayoni uchun zarur bo'lgan didaktik ta'minotlami prognozi (bashorati)ni rivojlantirish.

Mazkur muammolami yechishda oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, kolledj, gimnaziya, litsey, umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari hamkorligi Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini yanada yuksakroq chuqqilarga ko'tarilishiga ko'mak beradi

O'xshash qilib, yoshlami pedagogik diagnostika qilishda quyidagi omillami inobatga olish zarur:

- 1) individual-psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish,
- 2) hududiy, regional yashash tarzini inobatga olgan holda korreksion ishlami amalga oshirish;
- 3) diagnostik va korreksion jihatdan foydali didaktik ta'minotlami tuzish va amalga tadbii qilish;

Korreksion tarbiyaviy tadbirlami tashkillashtirish quyidagilami taqozo etadi:  
- o'quvchilami falsafiy dunyoqarashga tayyorlash, o'z-o'zini idora vanazorat qilishni Shakkllantirish;

- , yoshlar ijodkorligini, iqtidorini yuzaga chiqarish, xulqidagi korreksiya talab fuqsonlami bartaraf etish;
- . insonparvarlik me yorlariga mos xislatlami shakllantirish, qonuniy jamoa axloqi va turtnush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas 'uliyat hislarini rivojlantirish;
- qj'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi. insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish yo lida g amxo rlik qilishga o rgatish;
- o zxalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha Shay bo lishga o rgatish;
- . O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, O'zbekiston madhiyasi, Bayrog i. Gerbi, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;
- mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash, sog 'lom turmush tarzi uchun intilish kabi xislatlami o stirish;
- axloqiy fazilatlami (mehribonlik, Shafqatlilik, adolatparvarlik va boshqalami) rivojlantirish;

## **ADABIYOTLAR**

1. 1001 savolga psixologjiing 1001 javobi. G .B. Shoumarov tahriri ostida.-T.: Mehnat, 2000,296b.
2. Abdullayeva Sh. A. Masofaviy o'qitish va didaktik ta'minot// Pedagogik mahorat,2002,N“2, 31-36-b.b.
3. Abdullayeva SH. A. Pedagogik diagnostika -T.: Fan,2005,256 b.
4. Bohnishc S. Einige philosophisch-methodologische Fragen- Berlin,1990, r. 175.
5. Bojovich L. I. Lichnost i yeyo formirovaniye v yunosheskom vozraste.-M.: Vlado, 1998,219 s.
6. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart:<sup>A</sup> Klett 1996 p.
7. Widdel H. Fragebogen zur Attribuerung fon Erfolg und Misserfolg in der Schule. Beltz,2000, 189 p.
8. Giddens Entoni. Sotsiologiya - T., «Sharq», 2002 y.,848b.

9. Denyakina L. I. Pedagogicheskaya diagnostika- dvijushaya sila pedagogicheskogo kollektiva-M.: Universitet,200,198 s.
- 10 Jenks C. (ed). The Sjiology of Childhood. London, 1982. Sotsiologik istiqbolda bolalikning umumiy manzarasi.
- 11 Kulyutkin YU.N. Tvorcheskoye mbiShleniye v professionalnoy deyatelnosti uchitelya//Voprosti psixologii.-M.,2004.-N“2.-S.21-30.
- 12.G'aybulloh as- Salom Ezgulikka chog'lan, odamzod - T.: Sharq, 1999, 320 b
- 13 G oziyev E Tafakkur psixologiyasi -T., «O'qituvchi», 1990,292 b.
- 14, Hasanboyeva O Tarbiyaviy ishlami tashkil qilidi metodikasi.-T.: O qituvchi, 1996, 178 b

### **BOB BO'YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Matnni o qing va tahlil qiling. Muayyan o'tkazilgan tadbir bo yicha mustaqil xulosa chiqaring va dafiarangizga yozing. *«..Tajriba mobaynida biz yosh avlod bilan tarbiyaviy ishlami o 'xshash olib borishga harakat qilindiki, ularda o'z Vatanning, uning yer osti va yer usti boyliklarining egasi ekanhgi va shu Vatanning gullab yashnashi uning mehnaliga tadbirkorligiga bog'Hq ekanini toliq anglashlarga ko maklashddi Sinfdan tashqari tashkillashtirilgan tadbirlarda O zbekiston Respublikasining taniqli Shoiri Abdulla Oripov so'zi va mashhur kompozitor Mutal Burxonov musiqasi bilan tarannum etiladigan madhiya tinglovchilarga ko tarinki kayfiyat bag'ishladi Davlat ramzlariga bag'ishlab o tkazilgan viktorina natijalaridan Shu narsa ma lum bo'ldiki, o'quvchilar Vatanimiz tarixini zo 'r mehr bilan o rganishga kirishishgan Viktorina savollariga javob bergan 253 o'quvchidan deyarli 148 tasi 21 ta savollarga to g ri javob topishga. Bu, 90,5 % o ni tashkil qildi. Tadqiq qiluvchidan 13 tasi noto g ri javobni belgilagan, bu o quvchilaming 9 % ni tashkil qildi. Albatta biz tadqiqot mobaynida o zlashtirishi «past bo lgan» ushbu o quvchilar bilan pedagogik muloqotlar va tadbirlar o tkazdi .».*

2. Internet ma'lumotlardan foydalangan holda mashhur pedagogik diagnostikalar bilan tanishing

3. Yoshlarning axloqiy kategoriyalarni anglashlari, idrok qilishlari va ijtimoiy hayotda ularga amal qilishlari uchun qanday pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu tarbiya maqsadining kafolatlagan natijasiga olib keladimi?

4. Internet ma'lumotlaridan foydalangan holda «Pedagogik diagnostika va korreksiya jarayoni uchun zarur bo'lgan didaktik ta'minotlarning bashoratini rivojlantirish» mavzusida seminar o'tkazing.

5. Rene de Jilya metodikasi asosida yaratilgan qisqartirilgan raijbatlantirish matnlarini o'rganib chiqing. Ushbu metodika tashxislanuvchilarning qaysi sifatlarini o'rganishga mo'ljallangan.

### **Rene de Jilya metodikasi asosida yaratilgan qisqartirilgan raijbatlantirish materiallari**

Insonlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-tjoyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Pedagogik ta'sir- bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlanga ta'sir ko'rsata olishdir.

O'spirin Shaxsning muloqotga kirishuvchanligi, komformliligini aniqlash uchun fransuz olimi Rene Jilyaning proyektiv metodikasiga tayangan holda quyidagi testlar ishlab chiqildi. Ushbu testlar orqali yoshlarning ijtimoiy kinshuvchanligi, tevarak-atrofdagilar bilan aloqa o'rnatish qobiliyatini tashxis qilish mumkin. Oddiy va javob berishga oson bo'lib ko'ringan savollar aslida tadqiq qilinuvchi to'ljrisida kvantifikatsiyalashgan ma'lumot olishga yordam beradi.


1. Stol atrofida turli odamlar o'tiribdi. Siz qayerda o'tirgan bo'lardingiz?

O'qituvchi A

VDekan

O'spirin

S Guruhdoshingiz D



2. Bu xolatda qayerda o'tirgan bo'lardingiz?

Onam X Otam

Xolam X Ukam

3. Ushbu ramziy ma'nodagi stol atrofida sizga yaqin insonlar yiljilishgan Siz kimning oldida o'tirgan bo'lardingiz? Stol to'riga kimni o'tqizasiz?

4. O'qish ta'tilida uzoq joylarga sayohat qilishga imkoniyat yaratildi. Sayohatga faqat ikki kishi borishi lozim. Sayohatga kim bilan ketishni orzu qilardingiz? Javobingizni yozma izohlang.

5. Sizga qimmatli ahamiyatga molik bo'lgan narsa yuqoldi. Ushbu hodisa to'ljrisida eng awal kimga axborot berasiz Javobingizni yozma izohlang.

6. Qiyin o'zlaShtirayotgan faningizdan imtihon topshirdingiz. Bu to'ljrisida birinchi bo'lib kimga aytasiz? Javobingizni yozma izohlang.

7. Kim bilan muloqotga kirishishni yoqtirasiz?

-o'zimdan kichik yoshidagilar bilan;

-o'zimdan kattayoshlilar bilan;

-tengqo'rlarim bilan;

-menga baribir.

Javobingizm yozma izohlang.

8. O'quv muassasangizdagi faolligingiz uchun rahbariyat tomonidan taqdirlandingiz. Allakimgadir Siznikiga nisbatan qimmatroq sovlja berishdi. Uning o'mida kimni taqdirlanishini xohlar edingiz. YOKi bunday narsalarga befarqmisiz?

Javobingizni yozma izohlang.

9. Kechki sayrga chiqishga ota-onangiz ruxsat berishmadi Kanday yo'l tutasiz?

- ulaming ko'nglini yumShatib, sayrga chiqaman;

- taqdirga tan beraman;

- butun dunyodan norozi bo'laman;

- ulaming xohishiga qarShi chiqib, baribir sayrga chiqaman

Javobingizni yozma izohlang.

10. Oilaviy kinoteatrqa qadam ranjida qildimgiz. Kimning yonida o'tirish Sizga yoqadi:

- otamning, chunki . .
- onamning, chunki . . .
- singlimning, chunki . .
- ukammng, chunki . . .

11. Fizikadan uyga topshirilgan mustaqil ishni o'rtog'ingiz ko'chirib oldi. Negadir u Sizga nisbatan yuqori ball bilan baholandi. Bunday holatda qanday yo'l tutasiz?

- bor gapni o'qituvchiga bildiraman;
- o'rtog'imdan xafa bo'lib, gaplaShmay qo'yaman;
- «omad yuz o'girdi, na qilay?», -deb qo'ya qolaman;
- Menga baribir.

Javobingizni yozma izohlang

### **Kalit:**

1. Mazkur jadval (3)da o'spirin shaxsning individual-shaxsiy va yo'naltirilgan: muloqatmandlik, dominantlik, diskommunikativlik, ijtimoiy faollik kabi munosabatlari aniqlanadi. Bunda muayyan Shaxsga yo'naltirilgan munosabat minimal topshiriqlar bo'yicha maksimal tanlov asosida izohlanadi

3-Jadval

Shkalalar Xt	Shkalalarning mo'ljallangan-ligi	Topshiriqlar JT>	Topshiriq- larning umumiv miqdori
1	Onaga bo'lgan munosabat	2-4,9-10; 18-20; 34- 38;	15



2	Otaga bo'lgan munosabat	2-9, 31-33; 40-42;	15
3	Aka-uka, opa-singillarga bo'lgan munosabat:	7-8; 10-14; 22-27;	20
4	O'rtoljiga bo'lgan munosabat	1,2. 4,5,6,7,8,11-14;	15
5	O'qituvchi, ustozlarga bo'lgan munosabat:	1,2, 3,6, 8, 16-18;.	15
6	Fanlarga qiziqish	11,12,13,14,22;	10
7	Dominantlik	20-22; 26-30;	6
8	Muloqatmandlik	16,22-24;	15
9	Diskommunikativlik	8,9,14-16; 19-21;	6
10	Ijtimoiy faollik	7,8,19-28;	15

4. Qanday mezonlar asosida tashxislanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash mumkin? Quyida keltirilgan mezonlar bu muolajani o'tkazish uchun yetarlimi. Javobingizni izohlang.

#### **Shaxsning tarbiyalanganlik darajasiga quyiladigan talablar**

	Ijtimoiy mo'ljalning tarbiyaviy ahamiyatga moliklik ko'rsatkichi
1.	Madaniy saviyaning o'sish darajasi
2.	Shaxs rivojlanishi
3.	Shaxsning individual qobiliyatlarini Shakllantirish
4.	Axloqiy fazilatlamini Shakllantirish
5.	Hayotdao'zo'mini topaolish layoqatini o'stirish
6.	Umumiy qabul qilingan ahloq-odob normalariga rioya qilish

	ko'mkmalanni o'stirish
7.	Kelajakda tanlangan kasbiy mohiyatim anglash
8.	O'z-o'zini rivojlantirish va mukammallikka intilish motivatsiyasini Shakllantirish

5. Qanday mezonlar asosida tashxislanuvchilaming kasbiy madaniyat darajasini aniqlash mumkin? Javobingizni izohlang

### **Kasbiy madaniyatga aloqador mezonlar**

No	Kasbiy madaniyat ko'rsatkichlari
1.	O'z sohasi bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish
2.	Eruditsiya, dunyoqarash kenligi
3.	Kasbiy mahoratga ega bo' iishi
4.	Muloqatga kirishuvchanlik
5.	Shaxsiy sifatlar
6.	Mustaqil va tashabbuskorona ish olib borish qobiliyatini Shakllantirish
7.	Kasbiga ijodiy yondaShish

## **17- mavzu. KORREKTSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI**

**Korreksion faoliyatning tayyorlov bosqichi.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilami diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlami korreksiyalashda kuzatish va o'zini kuzatish, bu metodlaming bilishdagi roli, savol-javob, tajriba va pedagogik testlardan foydalanish o'rinni. Bunda empirik va nazahy tadqiqotlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi ( 4-jadval).

Empirik tadqiqotlar Nazariy tadqiqotlar

■ f-gnipirik tadqiqotlar profes-1. Ilmiy-nazariy tadqiqot maxsus sional xodimlar (o' qituvtayyorlangan mutaxassislar yorda-chilar, ijtimoiy pedagog-psixo- mida amalga oshirildi.

loglarjfaoliyati ostida amalga oshirildi


2 Bilish faoliyati tizimli va2. Ilmiy faoliyat tizimli va maqsadli yo'naltirilmadi maqsadli yo'naltirildi.

3. Bilish metodlari: kuzatuv, 3.Maxsus metodlar: abstraksiya, qiyoslaSh, tajriba va boshqalar- idealizatsiya, formalizatsiya, dan foydalanildi modellaShtirish va boshqalardan foydalanildi.

4. Olingan natijalar hukm,01ingan natijalar ilmiy qoida, tavsiya sifatida qayd etil-konsepsiyalar, qoida va qonun-di.lar, kashfiyotlar shaklida qayd etildi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilaming tarbiyalanganlik darajasini tashxislashda asosan: tanishish, ilmiy-izlanuv, tadbqiqiy rasmiylashtiriluvchi bosqichlaridan iborat tajribalami o'tkazdik. Bunda bolalaming tarbiyalanganlik darajasini o rganish bilan birga ulami ijtimoiy reabilitatsiya qilishni ham maqsad qilib quydik.

7- 11 yoshdagi bolalami tashxislashda va ulaming xulqidagi nuqsonlami korreksiyalashda tarbiyaviy maqsadlami aniq belgilash lozim. Buning uchun diagnostika va korreksiya o'tkazuvchi Shaxs maznur jarayonning tarkibini, uning ta'sir mexanizmini to'laqonli bilishi Shart (5- rasm).



**1 -rasm. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni pedagogik diagnostika (PD) va pedagogik korreksiya (PK) tarkibi**

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni diagnostika va korreksiya asosan quyidagi tarkibda amalga oshadi:

-diagnostika va korreksiya maqsadi va vazifalarini to'g'ri belgilab olish: bolada muloqot ko'nikmalarini shakllantirish boshlashdan, yangi pedagogik muhitda adaptatsiyaga o'rgatishdan boshlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning tarbiyalanganlik darajasiga, ularning kelgusi hayotdagi yo'riqnomalarga oila tarbiyasi katta ta'sir ko'rsatadi

Odamning yuksak psixik funktsiyalarini tarbiyasida bolalikda berilgan idrok, diqqat va tafakkur borligini bilish formalarini sifatida qaralishi shakl-shubhasizdir. Faoliyatning bosh manbai, muloqotning esa odamning shaxsiy taraqqiyoti manbai ekanligi ma'lum. Odam faoliyatining bir-biridan farq qiladigan asosiy belgilari ustida

fikr yuritar ekanmiz, bunda yosh davridanoq bir-biridan ajralib turadigan o quvchilami ko'z oldimizga keltirishimiz lozim.

Kichik maktab yoshidagi bolanmg bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur, xayol va xotirajni o'rganish tashxislashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolanmg individual jamoatchilik hatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy va tabiiy (tug'ma) xulq-atvori, hatti-harakatlarini tushuntirib va uni oldindan aytib berishda uning biosoidal tabiatini hisobgaolish zarurligi o'rganiladi.

Ma'lumki, bola markaziy nerv tizimining tuzilishi, uning ishi (vazifalari) va xususiyatlari, uning markaziy va pereferik qismi, bosh miyaning tuzilishi, xar bir neyronning tuzilishi va uning ish tartibi, "retseptor" tushunchasi va uning turlari, "analizator" tushunchasi, odam bosh miya qobig'ining tuzilishi va uning asosiy maydonlari sathi qismlari ustida, bosh miya qobig'ida sodir bo'ladigan asosiy psixik jarayonlar va kishining psixik holatlari, retikulyar fonnatsiyalarining markaziy nerv tizimida tutgan o'mi, uning roli va vazifalari to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish pedagogik tashxislashni oqilona tashkil qilishga imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchisini pedagogik diagnostika qilishda bola psixikasi, unda nerv bog'lanishlarining prinsipi va umumiy mexanizmlari, psixik hodisalaming miya ishi bilan bog'liqligi, ularning psixik jarayonlari bilan aloqasi va xulq-aivor, hatti-harakatlarini boshqarishdagi, psixik hodisalar va miyaning ayrim tuzilishining bir xildagi o'zaro ta'siri, muammolari xaqida ma'lumotga ega bo'lgani afzal.

Shu bilan bir qatorda, bola miyasida sodir bo'ladigan psixik holatlaming anatom-fiziologik xususiyatlari bunda sezgilaming tarkib topishida ishtirok etadigan miya tuzilishi va tanamizdagi a'zolaming fiziologik mexanizmlari ustida o'ylanib ko'rishi zarur.

Tashxislash ayrim paytlari xulq-atvoming genetik ildizi bunda odam psixologiyasi va uning xulq-atvori, hatti-harakatlari rivojlanishida genetika va muhit, biologik va ijtimoiy omillami tushuntirish muammolari, irsiyat mexanizmlari xaqidagi tasawurlar asosida hal qilishga yordam beradi

**Korreksion faoliyatni o'tkazish bosqichlari.** Xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi bo'lgan o'zbek xalq pedagogikasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy xayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki ijodi, qadrdonlik, udumdorlik va marosimdonligining yetakchi yo'nalishlarini, diniy-axloqiy ta'limotni qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, xulosalarini lo'nda va donishmandona tarzda ifodalaydi.

«Xalq pedagogikasida tarbiyaning mayda-chuydasi, ya'ni birlamchi-ikkilamchisi bo'lmaydi, hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chetda qolmasligi, ayni choqda tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, yetti o'lchab bir kesishga amal qilinadi». Xalq pedagogikasining o'ziga xosligi shundaki, u bugun va ertani uylab ish tutadi, ya'ni o'tmishni unutmaslik, bugunning qadriga yetishlik, kelajakka umid asosida tarbiya olib boradi.

Pedagogik diagnostika va korreksiya ishlarini olib borishda xalq pedagogikasining ahamiyati shundaki, u inson va Vatan taqdirida hal qiluvchi o'ringa ega, uning hayotiyliigi, ta'sirchanligi, serqirra va serma'noligi tarbiyaning eng dolzarb masalalarini hal qilishga qaratilganligi, umuminsoniy yo'nalishga, umumbaShariy g oya-maqсадlarga qaratilgan bo'lganligidir. Shuning uchun xalq pedagogikasi yoshlar taibiyasi borasidahal qiluvchi o'rinni egallab kelmokda.

Bolalarga estetik tarbiya berishda bolalar o'yin folklorining o'mi va ahamiyati katta bo'lsa, xalq an'anaviy sporti - farzandlar jismoniy baquvatlilik va yetukligining garovidir. Xalq pedagogikasimng ekologik tarbiya berishdagi imkoniyati ham kengdir. Atrof-muhit va tabiatni e'zozlash, hayvonlar, quShlar, dov-daraxt, o'simliklar, yer, suv, borliqqa munosabatni ifodalovchi qarashlar ekologik tarbiya berishga qaratilgandir. Turli udumlar, rasm-rusm, marosimlar, tabiat bayramlari, «Navroz», «Mehrijon», «Hayit bayrami», bolani beshikka solish, sunnat qilinishi, uylanish, payg'ambaryoshi, oltin va kumush to'ylar, turli yubiley, odatlar, udumlar va marosimlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati ham juda kattadir.

<sup>1</sup> MaBjioHoBa P. Ba GoinSajiap. HejjarumKa -T.: MHUW aanoa acpH, 2003, 496

Turli qo'shiqlar orqali go zallik, orzu-umid va boshqalar tarannum etilib, insonda cheksiz muhabbatni tarkib toptiradi. Ertaklar orqaliyaxshilikka mehr, yovuzlikka nafrat tarbiyalanadi. Yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashimizda ayniqsa, qahramonlik dostonlarining ahamiyati ham kattadir.

Tez aytishlar - bolalar nutqini o'stirishga, topishmoqlar - bolalaming topqirligi, zehni tarbiyalashga, maqollar- bolalarning axloq-odob tarbiyasiga, qo'shiqlar-bolalaming nafosat tarbiyasiga, doston va ertaklar bolalaming aqliy, axloqiy, jismoniy va umuman har tomonlama tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Korreksion faoliyatni tashkil etishning yakuniy bosqichi.** Hozirgi vaqtda bolaning xulq-atvorini korreksiyalashda qo'yidagi jihatlar hisobga olinishi zarur:

- jismoniy jihat;
- tabaqalashtirish (farqlash) qobiliyatiningma'lum darajasini, shuningdek, xotiraning rivojlamsh darajasini inobatga oluvchi intellektual jihat;
- diqqatni, sabr-toqatni boshqarish, topshiriqlami bajarish tayyorgarligi ifodalangan ishga munosabat;
- bir qadar tarbiyachidan holi bo'lish guruh bilan aloqa o'matish qobiliyatim ko'rsatuvchi ijtimoiy jihat.

Albatta, bolada bu ko'rsatkichlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, ular pedagogik jarayon mahsulidir, Shu boisdan tarbiyachi bolalar ongini o'stiradigan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradigan real muhit yairatishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, maktabda olib borilayotgan mashg'ulotlar-y;mgii pedagogik texnologiyalar asosida amalgaoshirilishi kerak.

Bugun bolalaming aqliy, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi chet-el metodlan («Montessori», «Breyrnring», BreynShtorming»)dan qator ta'lim muassasalarida foydalanishmoqda va yaxshi natijalarga erishilmoqda. Shuningdek, «Bolalami rivojlantirish» tayanch dasturi ishlab chieqilganligi va tajriba sinovdan o'tayotganligi ham ma'lum. Shu bilan bir qatorda hali-lhanuz «Boshlang'ich sinflarda pedagogik tashxislash va korreksiyalash nima degani?» deb hayratda yurganlar ham kam emas.

Shu o'rinda pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiyalashni boshlang'ich ta'lim muassasalar uchun o'ziga xos tomonlarni ko'rsatib o'tish joizdir:

- 1) har bir mashg'ulotdan ko'zda tutilgan maqsad aniq o'ratiladi;
- 2) o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari albatta inobatga olinadi;
- 3) mashg'ulot mazmunini saralashda bir tomondan bolalarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyatlari, ikkinchi tomondan- tarbiyachining ijodkorligi, mahorati, uchinchi tomondan- mavjud Sharh-Sharoitlar hisobga olinadi,
- 4) didaktik jarayon tuzilmasi keskin farqlanadi, ya'ni uning motivatsion bosqichi kuchaytiriladi. Boshqacha qilib aytganda, o'yinli didaktik jarayon loyihalangan texnologiyaning asosini tashkil etadi;
- 5) didaktik jarayon ikkinchi bosqichi- bolalarning o'quv bilish faoliyati;
- 6) uchinchi bosqich-boshqaruv faoliyati (B) funksiyasi ham o'zgaradi. Agar o'quv jarayonida o'qituvchi o'quvchining bilish faoliyati bosqichiga aralashmaydigan bo'lsa, tarbiyachi faoliyati didaktik jarayonning o'zida ham ustivorlik kasb etadi;
- 7) texnologiyalarni qo'llash samarasi yoki yakuniy daraja- bu shaxsni rivojlantirish va katta sinflarda o'qishga tayyorlash ekanligiga o'qituvchi alohida e'tibor qaratishi lozim. Bola tarbiya jarayonining sust, harakatsiz ob'ekti bo'lib qolmasdan, balki faol ishtirokchisiga- sub'ektga aylanishi kerak.

O'yinli vaziyatlardan maqsadli foydalanish g'oyasi birmuncha ilg'or va samaralidir. «O'yin kichiktoylar yaxshi o'zlashtira oladigan faoliyat hisoblanib, bu faoliyat jarayonida ular o'qishga, mehnatga badiiy ijodga qiziqadilar, hayotiy muammolari tezda ilg'ab oladilar»<sup>1</sup>. Shu boisdan o'yin tayanib ish ko'rish- bola xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga, uni o'qishga qiziqtirishga eng maqbul yo'l, tarbiyaviy ta'sirga hayajonli javob berishni ta'minlash uslub bo'lib hisoblanadi

Turli yoshdagi odamlar faoliyatini o'yin tarzida tashkil etish va kasb mahoratini takomillashtirish tajribasi pedagogika fani uchun yangilik bo'lmasa-da, o'yinli didaktik jarayonni loyihalash texnologiyasi yetarlicha ishlanmagan mavjud

---

<sup>1</sup> riHajKc XJK. PCTBHHTHcpcSeHKa M CPO OKpyacatouidl cpejua -MocKBa: Mbic;ib, 2002.-C.98.



adabiyotlarda o'yinning ishbilarmonlik, rolli, ishlab chiqarish, tadqiqotchilik va o'qishga oid turlari mohiyati va mazmuni uchrab turadi, biroq hanuzgacha kompyuterli, Kishbilarmonlik<sup>^</sup>, turli tarbiyaviy ahamiyatga molik o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablarga javob beruvchi metodikaning ishlab chiqilmaganligini qayd etish o'rinlidir, ya'ni: o'yin jarayonining kuchaytirilgan va turg'un motivatsiyasi, o'yinning bajaruvchi bosqichida (B) ishtirokchilaming muvaffaqiyatga erishish va qanoat hosil qilishi, bilish faoliyatini maqsadli boshqarish va o'yin so'ngiga faoliyatni o'zlashtirish sifatining ta'minlanishiga erishish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yinning quyidagi turlari mavjud: *mavzuli-rolli o'yinlar*, *o'yin-mehnat*, *didaktik o'yinlar*, *harakatli o'yinlar*, *vaqti-xushlik o'yinlari*, *sayr-tomosh* o'yinlari, *majmual bayram o'yinlari*.

«Mavzulli rolli o'yinlar bolalaming mustaqil yoki kattalar yordamida ijtimoiy tajribani, moddiy ob'ektni hayotiy va badiiy taassurotlar asosida ijodiy qayta yaratish faoliyatidir», -deb ta'kidlaydi o'zbek olimi Nurali Sayidaxmedov. Bu faoliyat natijasida bolalar nutqi, fikrlashi, xayol surishi va boshqa axloqiy sifatleri tarkib topadi. Buning uchun bola yoshiga xos kichik hajmdagi hayotiy mavzular sahna ko'rinishida ijro etiladi. Misol uchun, «Toshkent akvaparkida», «Sport maydonida», «Musobaqadan oldin», «YAngi yil arafasida», «Bozor», «Sayohatchilar bilan suhbat» sahnasini ijro etishi bilan bolalar yangi tushuncha va munosabatlarga duch kelishadi va ulami binoyidek o'zlashtiradilar (munosabat, axloq, odob, madaniyat, o'yin, xaridor, sotuvchi, narx, savdo, qiymat, pul, an'analar va boshq).

O'yin-faoliyat jarayonida bolalar atrof-olam to'grisida chuqurroq tasawurga ega bo'ladilar, ish jarayoni va harakatlarining umumiy ko'rinishini o'zlashtiradilar.

*Didaktik o'yinlar* bolalaming aqliy rivojlanishida, ulami bilishga undashda birmuncha afzalliklarga ega. Bu o'yinlar pedagog tomonidan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar uchun maxsus tashkil etiladi Foydalanilayotgan materiallar turiga qarab didaktik o'yinlar predmetli- didaktik o'yinchoqlar va materiallar;- «qiyin sayohat», «labirint», so'zli- o'yin-topishmoqlar, masalalar, o'yin-sayohatlar vaboshqa.

*Harakatli o'yinlar* bolalarni jismoniy tarbiyalashda muhim vosita sanaladi. Ular har doim o'yin ishtirokchilaridan faol sensorli va dvigateili harakatlarni o'qitilgan maqsadga erishish uchun bajarishni talab etadi. Musobaqa tarzida tashkil etilgan bu tur o'yinlar bolalarda ijodkorlik, ephillik, tezkorlik, zehnilik kabi sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'yin turlarini tanlash bevosita bolalar yoshiga bog'liq ekanligini ta'kidlash joiz. Misol uchun, 1-sinf o'quvchisi uchun o'yin mazmuni jihatdan unchalik ahamiyat kasb etmaydi, balki ularga ba'zi bir «jo'yali» topshiriqlar berilishi mumkin: chaqqon harakat qil, do'sting yonida tur va hokazo. Ammo 10-11 yoshdagi bolalar uchun kompyuter orqali bajariladigan imitativ jismoniy o'yinlar xam xos. Shu yoqadi.

*O'yinning asosiy funksiyasi darsni tashkil etish shakli sifatida bolalarni bilishga oid faohyatiga jalb etishdir. Shu boisdan «xayoliy orol»ga sayohat. multfilmda sevgan qahramonlarining harakatlarini kuzatish. topishmoqlar aytish, bolalar bayramlari kabi o'yinlar bolalarning shaxsiyati mazmunini ochib berishga. uning faoliyatini nvojlantirishga. umumiy qiziqish va fikrlar mushlarakligi asosida ularni jipslaShtinshga imkoniyat beradi.*

*Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida ularda Vatanga muhabbat, tevarak-atrofnii, tabiatni e zozlaSh, mehribonlik, to'g'ri fikr, aqli rasolik kabi hislatlar shakllantiriladi. Sog'lom fikr va sog'lom nasl to'g'risidagi ibtidoiy tushunchalar singdtriladi. Bu esa o'z navbatda sog'lom avlod tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*

Kichik maktab yoshidagi bolalarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda pedagogik muammoni hal etishni maqsad qilib, undan so'ng korreksion ishlarga o'tish joizdir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning xulq-atvorini o'rganish ijtimoiy guruh hisoblanmish sinf jamoasida olib boriladi. Pedagogik muammoni hal etishda asosiy ahamiyat o'qituvchi va o'quvchi hamda sinf jamoasi o'rtasidagi munosabatlarga qaratiladi. Bu uchlikda shaxsiy va institutsional (umumijtimoiy) talablar va ehtiyojlar jarayoni aks etadi.

Bugungi kunda xulq-atvordagi umumiy munosabatlarni diagnostika va korreksiya qilish uchun yagona nazariya mavjud bo'lmaganda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni quyidagi xususiy komplekslar orqali aniqlash mumkin: 1) guruhniy normalar; 2) guruhniy tarkib va 3) guruhdagi munosabatlar. Keyingilari o'z navbatida formal va noformal kabi guruhlariga bo'linishi mumkin. Formal guruh o'qituvchi tomonidan nazorat ostiga olingan ta'lim-tarbiya maqsadlariga xizmat ko'rsatsa, noformal muhitda, o'qituvchining aralashuvsiz turli jarayonlarni kechishi mumkin, bunda do'stlik, mehr-oqibat, sabr-toqat, mehnatsevarlik bilan birga o'zaro, yolg'onchilik subutsizlik kabi hislatlar ham shakllanishi hech gap emas. Ammo shu narsani ta'kidlash joizki, noformal guruhlarining paydo bo'lishi-tabiiy hodisa, chunki o'qituvchi o'zining ma'lum jamoaga taalluqliligi, o'z hohish-irodasini namoyon qila oladigan guruhga aloqador ekanligi Shukhi bilan yashashi zarur.

Kichik maktab yoshidagi bolaning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalayotgan o'qituvchi bolaning qaysi noformal guruhga aloqadorligini, uning ta'sir kuchini bilishi kerak. Yuqori sinf o'quvchilarni formal guruhlardan asta-sekinlik bilan yiroqlatishadi. Mazkur guruhlarda o'z qonun-qoidalari, baholash mezonlari mavjud bo'ladi.



**-rasm. Pedagogik muammoni hal etish diagnostikasini baholash**

Boshlang'ich sinflarda bolalami turli to'garaklarga jalb etish o ta foydali, chunki to'garakiarda bolalar qiziqishlari, mayllariga qarab, uarga qatnashadilar. Bunda motivatsiya yaratishga imkoniyat katta bo'ladi.

To'garaklarda o'quvchilar tafakkurini hayotiy faktlar bilan boyitish imkoniyati kengayadi, o'quvchilarda mantiqiy tafakkur rivojlaniriladi;

Boshlang'ich sinflarda muammoli o'qitishni to'g'ri tashkilashtirish ham o'quvchilaming kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi Masalan, taqdim qilinayotgan o'quv materialida berilgan axborot ustida amallar bajarilib undagi muammo yechimini topishga harakat qilish, izlanayotgan miqdor o'rtasidagi bog'liqlikni aniqash bolaning mushohada qiiish qobiliyatini o'stiradi, uning axioqiy kategoriyaiami tez ilg ab olishiga zamin yaratadi

Shu munosabat bilan taqdim qilinayotgan o'quv materialini to rt qismga bo'lish mumkin:

1. O'quv materialining tarbiyaviy xarakterga molikligi;
2. Undagi axborotlarning ta'sir kuchi;
3. yechimini topish zarur bo'lgan muammoning qo'yilishi;
4. O'qituvchi mahorati va guruh bilan konformligi(kirishuvchanligi);

Yuqorida keltirilgan barcha dalillar boshlang ich sinfda taqdim qilinayotgan o quv materialiga va o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning mohiyatiga jiddiy e'tibor bilan qarash kerakligini ko'rsatadi

Ma'lumki, sifat alohida bir Shaxsning muayyan xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Fazilat-alohida Shaxs, el, elat, xalqqa taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmuidan iborat ekan, pedagogik korreksiyalashda mana Shu narsalarga e'tibor qaratilishi lozim.

Fazilatlar insonning ijobiy sifatleri majmuidan iborat.

Maktab o'qituvchilari o'quvchilarda ijobiy xislatlami va fazilatlami

Shakllantirish maqsadida foydalanishlari lozim bo'lgan

### **Anketa savollari**

#### ***Sinf rahbari bilan suhbat***

1. O'quvchining xulqidagi nuqsonlami ( nuqsonlar aniq ko'rsatilishit kerak) korreksiyalashda qanday qiyinchiliklarga uchramoqdasiz?
2. O'quvchining uyda va maktabdagi intizomlilik darajasi.
3. O'zlashtirish darajasi.
4. Qaysi konkret dalillar bolaning xulqidagi nuqsonlardan dalolat beradi.
5. Xulqdagi nuqsonlami korreksiyalashda bolaga nisbatan qanday choralar ko'rildi va uning natijalari.
6. Bolaning uydagi yashash(turmush) tarzi.

#### **O'quvchi bilan suhbat**

1. Umumiy o' rta ta'lim maktabini tugatgach, kim bo' lishni orzu qilasan?
2. Qaysi fanlar seni qiziqtiradi?
3. Nimalami ko' proq o' qiysan?

4. Sening o' rtoqlanng. Ular to' g' risida qanday fikrdasan<sup>9</sup>
5. Maktabdagi, smfdagi xulqingdan qoniqasanmi?
6. Jamoada qanday ishlami bajarasan? Uning natijalari
7. Uyda bajaradigan eng sevimli mashg uloting.
8. Hayotda eng asosiy narsa nima deb o'ylaysan?
9. Ota-onangizga munosabatingiz?
- 10 Kattalarga bo'lgan munosabatingiz?

### **O'quvchi to'g'risida fan o'qituvchilari bilan o'tkaziladigan savol-javob**

2. Sizning faningiz bo yicha aynan Shu o'quvchimng o zlashtirish darajasi qanday?
3. Ushbu o' quvchining xulq-atvon to' g' risida nima deya olasiz?
4. Intizomga zid hatti-harakatlari uchun qanday chora-tadbirlami qo'llagansiz. Bu borada qanday tavsiyalar beraolasiz.
5. O'qish va mehnatdagi ikoniyati va qobiliyati

### **O'quvchi to'g'risida o'rtoqlari bilan o'tkaziladigan suhbat.**

1. Do stlashganingizga ancha bo' idimi?
- 2 Birgalikda bajaradigan eng sevimli mashg' ulotingiz.
3. O' rtog' ingizning qaysi hislatlarini yoqtirasiz?
4. O rtog ingizdagi qaysi hislatlar sizga yoqmaydi?
- 5 O' rtog' ingiz yordamga muhtoj payti unga yordam qo' lini cho' zasizmi?
6. Kelgusidagi rejalaringiz.

### **O'quvchining ota-onasi bilan suhbat**

1. Bolangizning o'zlashtirishi va xulq-atvori sizni qanoatlantiradimi?
2. Xulqidagi qaysi jihatlar sizni tashvishlantiradi?
3. Fanlami o' zlashtirishda qiyinchiliklar borini?
4. Bolangizning kunlik ish rejasi qanday? Uni bajarishda hamisha ham astoydillik qiladimi?

5. Uy ishlariga yordam beradimi?
6. Qaysi mashg' ulotlar bilan ko pincha band bo' ladi?
7. Bo' Sh paytlaringizni bolangiz bilan birga o'tkazasizmi?
- 8 Haftada bolangiz uchun necha soat vaqt ajratasiz?
9. Kelgusida kasb egallshi uchun qanday maslahatlar berib bormoqdasiz?
10. Ma'naviy-ma'rifiy mavzularda qanday suhbatlar olib borasiz?
11. Bolangizning xulq-atvorini o'zgartirish uchun harakat qilganmisiz?  
Buning uchun xalq qahramonlari, buyuk mutafakkirlar, donishmandlar hayotidan misol keltirasizmi?

### **O quvchi to'g'risida sinf sardori bilan o'tkaziladigan suhbat**

1.O'quvchi to g risidagi fikrngiz.

2. Sinfjamoasi bilan kelishuvchanlik darajasi qanday?
- 3.Sinfdagi o'rtoqlarigabo'lgan munosabat.
4. Sinf jamoasi va shaxsan o zingiz sinfdoshingizga qanday yordam berasiz?
6. Sinfdoshingizning sinf jamoasi hayotidagi ishtiroki?
7. U o' zgalarga o' mak bo' la oladimi?

### **Suhbat natijasida qo'lga kiritilgan xulosalar:**

O'quvchining tavsifi. Maktab,oila, mahalladan olingan tavsiflar.

O'quvchilar xulqidagi nuqsonlar (yolg'onchilik, surbetlik, janjalkaShlik kabi xislatlami korreksiyalash uchun quyidagilarga rioya qilish zarur:

- pedagogik muammoning paydo bo'lish sabablarini aniqlash;
- ta'sir kuchini o'tkazadigan profilaktik tadbirlar metodikasi bilan tanish bo'lish;
- sinf jamoasida o'qituvchi va o'quvchi orasida bir-biriga hurmat muhitini vujudga keltira olish;
- Oilada sog'lom muhitni vujudga keltirish uchun ota-onalar bilan ishlash va boshqalar.

## mavzu. KORREKTSION FAOLIVATNING UMUMPEDAGOGIK VA MAXSUS METODLARI

**Korreksion faoliyat jarayonida ta'lim-tarbiyaning umumiy metodlarining o'рни.** Ijtimoiy pedagogning ishi, awalambor pedagogik jarayonni insonparvarlaShtirish, o'quvchining umumiy madaniyatini shakllantirish orqali ularda muloqot madaniyati va empatiya (hamdardlik, o'zgalor o'miga o zini qo'ya olish xususiyatijni shakllantirish orqali kechadi. Bu o rinda quyidagi jadvallarga murojaat etsak.

### 7-Jadval. Pedagogik korreksiyalash zarurati

<i>Kichik maktab yoshidaga o quvchilarda</i>	<i>O rta pog onadagi o quvchilarda</i>	<i>O smirianda</i>
Pedagog bilan muloqot, maktabdagi ayrim omillar: o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, sinf okuvchilari tomonidan tan olinishi yoki inkor etilishi va h.k.	Sinf jamoasi va o rtoqlari bilan muloqotga kirishuvchanlik darajasining pastligi,	Individual omillar: muhit adaptatsiyasi, muloqot jarayonida ozligini namoyon qila olish, O qishlaridagi qiyinchiliklar: Sinf jamoasida konform va nokonform guruhlarda tan olinishi yoki inkor etilishi.

«Pedagogik e'tiborsizlik» natijasida vujudga kelgan nuqsonlami bartaraf qilish quyidagi korreksion metodlar orqali amalga oshiriladi

**Umumiy metodlar:** Oilada, maktabda, mahallada mikromuhitni vujudga keltirish uchun harakat qilish;

**Ruhy-hissiy zuriqishning oldini olish.**

**Maxsus metpdlar;** bolaning asosiy faoliyat yo'nalishlaridagi (o'yin, dars, mehnat) muvafifaqiyatini ta'minlash;

**Ijoby fazilatlariga tayangan holda xulq-atvorini boshqarish;**

**Tengdoshlari bilan muloqot madaniyatini shakllantirish;**

Hissiy olamini kengaytirish orqali intellektual jihatdan o sishini ta'minlash;



Xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishda intellektual jihatdan o'sish orqali enshish;  
 Axloqiy fazilatlarini kamol toptirishga qaratilgan kompleks topshiriqlardan foydalanish;

### 8-Jadval «Pedagogik e'tiborsizlikning profilaktikasi

<i>Muloqotni boshqarish metodikasi</i>	<i>Xulq-atvomi boshqarish metodikasi</i>	<i>Bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish</i>	<i>Faoliyatni faoUaShtirish metodikasi</i>
<b>Tengdoshlari oldida bola aufuzini ko'tarish</b>	<b>Xulq-atvorda individual tajribani Shakllantirish</b>	<b>Rivojlanishdagi nuqsonlarni bartaraf etish</b>	<b>Faollikni o'stirish, motivatsiyani vujudga keltirish, mustaqil hatti-harakat qilishga undaSh</b>

### 9-Jadval. Korreksiya ta'siri

Axloqiy tarbiya	Intellektual rivojlanish	Hissiy-irodaviy muhit
Tarbiyachi, pedagoglar	Pedagoglar va psixologlar	Pedagoglar, psixologlar, Shifokorlar
Ijtimoiy pedagog	Salomatlik o'qiruvchisi	
Muhit, oila, tevarak-atrofdagi ar		

Maktabda o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma-xil usullardan foydalanish lozim:

- dars, ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyani qo' shib olib borish;
- ahil, inoq uyuShtirilgan intizomli jamoa orqali axloqiy tarbiya berish;
- to'g'ri rejalashtirilgan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali;
- Maktabda ijobiy emotsional Sharoit yaratish orqali. Masalan, Mustaqillik kuni, Navro z bayrami;

- Barcha o'quvchilarning maktabdagi umumiy va yagona tartib qoidasiga rioya qildirish orqali,
- Turli tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, rag batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish orqali;
- Tarbiyaviy soatlar, «Odobnoma» darslari saviyasini oshirish orqali;
- Mehnat, sport ilg'orlan, ilm-fan xodimlari, san'at yulduzlari, mehnat faxriylari, hojilar bilan uchraShuvlar uyuShtirish orqali;
- Maktabda turli kechalar, olimpiada, festival, musobaqalar o'tkazish, turli axloqiy-ma'rifiy, badiiy-estetik tele-radio eShittirishlaridan foydalanish;
- Dars va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida milliy qadriyat va an'analarimiz aks etgan asariami o'qib-o'rganish orqali.

«Axloq tarbiyasi insonni axloqiy barkamollikka yetkazish va uning baShariyat jamiyatiga foydali inson qilib tarbiyalashdan iboratdir... Bolalar suvga o'xShaydilar. Suv qaysi rangdagi idishda bo lsa, o'Sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalaro'sha muhitning O'xshash odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk Sharti Shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon axloqni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o quvchilardan qabul qiladilar'», - deb yozadi buyuk ma'rifatparvarlarimizdan biri Abdurauf Fitrat.

Pedagogik korreksiyalashda axloqiy tarbiya mazmuni asosan quyidagilarda o'z ifodasini topishini unutmazligimiz kerak:

IJarryatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini kopaytinsh, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi.

2 Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalandi.

3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat shaxsning jamoatchilik, ko'pchilik manfaatini o'zshaxsiy manfaatidan ustun qo'yishidir.

<sup>1</sup> &umpam ASdyaytp. CE36ex nedazoeuKacu aumajoexcu. Tyiywujap: KKoutUMoe, CO'tuJi -T, «(Ehimyeuu», 1999 H. 5- dem.

4. Shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi - bu o'quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

*Maktabda axloqiy mavzularga oid tadbirlar sinfdan va maktabdan tashqari turli - turnan shakllarda olib boriladi. Bolalar yoshiga, saviyasiga qarab «Inson go zalligi nimada?», «Axloq va qonun», «Ona yurtning omon bo'lsa», «Inson odobi bilan», «Jannat onalar oyog'i ostida» va boshqa mavzularda suhbatlar, munozaralar o'tkazish mumkin. Sharq qadriyatlarini va milliy an'analami dars va tadbirlar jarayonida o'quvchilarga o'rgatib borish lozim. Maktabda mehnat ilg'orlari, faxriylar, hurmatli qariyalar bilan uchraShuvlar, adabiy kechalar, musobaqalar o'tkazish. turli matbuot materiallaridan foydalanish ham mumkin*

*Har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirishda lim-tarbiya jarayonidan kutilgan asosiy natija ekan, yoshlarimizga kompleks tarbiya berishimiz lozim. Ayniqsa, ularda fuqarolik hissini Shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini o'zlashtirish. vatanparvar va baynalminalinsonlar qilib yetishtirishga, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtirishga alohida ahamiyat qaratishimiz lozim. O'quvchilarga huquqiy tarbiyani berishda va ularni vatanni sevishtirishga o'rgatishda davlat ramzlaridan foydalanishning ahamiyati kattadir.*

*Davlat ramzlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ta'lim va tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini o'zlashtirishga tushuntirish, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga chuqur ta'lim berish. Hayotga qadam qo'yib kelayotgan har bir o'quvchi davlatimiz Konstitutsiyasini, bayrog'ini, gerbi va madhiyasini yaxshi bilishi kerak. O'quvchilarda Shu ramzlarga chuqur hurmat-ehtirom tuyg'ularini tarbiyalash tarbiyaviy ishlarimizning uzviy qismini tashkil etishi lozim.*

*Davlat ramzlarini o'rganish pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa, u o'quvchilarning xulqiy va axloqiy his-tuyg'ulariga, vatanparvarlik qarashlariga yaxshi ta'lim ko'rsatadi. Bu borada o'quvchilar bilan olib boriladigan jamoa tarbiyaviy ishlarining imkoniyatlari beqiyosdir. Davlat gerbi, bayrog'i, madhiyasi hamda o'quvchilar tashkilotlari ramziarining axloqiy, siyosiy, huquqiy mazmuni haqida uyushtirilgan xilma-xil munozara va suhbatlar Shubhasiz samarali natijalar beradi.*

*Davlat ramzlari faqat ta sirchan tarbiyaviy vosita bo lib kolmay, balki ta 'limiy jihatdan ham muhim omillardandir.*

*Davlat gerbi va bayrog ining tasviri, Davlat madhiyasining matni bilan tanishish jarayonida o quvchilarda davlat hokimiyati ramzlariga humiat his-tuyg'usi qaror topadi. Davlat ramzlarini o'rganishda o'quvchilamtn g yosh xususiyatlarini albatta hisobga olish, mavjud darslik, uslubiy ko'rsatma va qo llanmalardan o'z o mida foydalanish lozim.*

*O zbekiston fuqarosi o 'z Vatanini sevishi, xalqiga cheksiz sadoqatli bo lishi, O'zbekiston Respublikasining qonun va qoidalarini , ramzlarini yaxshi bilishi va ularga chuqur hurmat bilan munosabatda bo 'lishi Shart. O'quvchilarda Shu his-tuyg ulami tarbiyalash o 'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.*

*Davlat ramzlarini o 'rgatish faqat gumanitarfanlami o 'qitish jarayonidagina emas, balki har bir fanni o'qitishda ham, ayniqsa, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida xam keng olib borilishi kerak Davlat ramzlarining mohiyatini o rgatish, ularga humiat ruhini tarbiyalashda sinf rahbarining o 'mi ham ahamiyatlidir.*

*O'quvchilami har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o'mi o'ziga xos va juda muhim. Axhqiy tarbiyaning mazmunida jamiyatga, Vatanga muhabbatni tarbiyalash va baynalmilalliknt targ'ib qilish birinchi o 'rinda turadi Vatanga muhabbat va sadoqat Shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalmilallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning tnaqsadlarida, Vatan boyliklarini ko 'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik va baynalmilallik axloqiy tarbiyada alohida o 'rin tutadi. Hadisi Shariflarda ham « Vatanni sevmoq iymondandir», « Vatan ostonadan boshlanadi» deb bejiz aytilmagan.*

*«Vatanparvarlik- kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o 'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma naviy axloqiy xislatlari, fazilatlaridiv)<sup>1</sup>. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma 'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida Shakllanadi Vatanga muhabbat*

---

<sup>1</sup> HopuxHMOB A., CyjiiBHOB X., 'A'ccpaeB H. BaTat ryjtrycw,-T.: (E36CKHCTOH,1999, 986.

*tuyg'usi bolaga ona suti bilan. allasi bilan kiradi. Bu aziz tuyg'u bir umr unutilmaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi hamma zamonlarda ulug langan.*

*Vatanparvarlik Shaxsni axloqiy Shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi fitisoblanadi. Maktabda vatanparvarlikni Shakllantirish quyidagi mezonlar asosida tashkil etiladi:*

- *Vatanga muhabbat hissi;*
- *Milliy g 'urur;*
- *Davlatimizning milliy istiqloq majkurasi va uni ilmiy idrok etish;*
- *Davlatimiz ramzlariga sadoqat;*
- *Millatlararo madaniy muomala (baynalmilallik).*

*Vatanparvarlik hissini har birjandan dars o 'tish jarayonida. ayniqsa. ijtimoiy-gumanitar fanlami (Tarix, Inson va jamiyat, Davlat va huquq asoslari. Adabiyot) va mustaqillikdan keyin ta'lim jarayoniga kirib kelgan «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi». «Ma naviyat asoslari», «Konstitutsiya asoslari», «Milliy istiqloq g 'oyasi\* va boshqa ko 'plab fanlami o 'qitish jarayonida Shakllantirish ijobiy samara beradi.*

*Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik va baynalmilallik tuyg'usini Shakllantirishda darsdan tashqari larbiyaviy tadbirlaming va sinf rahbarining o 'mi ham o'ziga xosdir. «Vatan tarixini bilmay turib, uni to la sevib bo'lmaydi», «Vatan ostonadan boshlanadi», «Vatan- yagonadir, Vatan - bittadir» va Shunga o'xshash boshqa ko 'plab mavzularda bellaShuvlar, tarbiyaviy soatlar, ko'rik-tanlovlar o 'tkazish bilan ham Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariiga sadoqatni tarbiyalash mumkin. Yuqori sinf o quvchilari bilan esa tarbiyaviy ishlami tashkil etishda siyosiy axborotlaming o'mi salmoqlidir. Bolalar bunda mamlakatimiz va chet ellardagi siyosiy voqealar bilan tanishib boradilar.*

*Jahon pedagogikasida e'tirof etilishicha, tarbiya jarayonida mustaqil davlat timsollarining asosiy mafkura va ma'naviy xislatlami Shakllantirishdagi ahamiyati nihoyatda beqiyos.*

*Davlat timsollari insonda eng awalambor milliy g'urur va 'ftixor hissini Shakllantirishning zaminlandan biri bo'lib hisoblanadi. Millatning Shakllanishi, ayni*

vaqtda millat tomonidan o'z o'zlarining, o'z tarixini, ajdodlarning mehnati, qahramonligi, milliy ma'naviyat va madaniyatining barcha yo'nalishlari tarmoqlari xilma-xilligini hamda o'ziga xosligini o'rganish- davlat ramzlariga bo'lgan hurmatdan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustakillikni qo'lga kiritgach davlatimizdagi eng muhim va jiddiy muammolardan bin-yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz, davlat timsollariga hurmat ruhida tarbiyalash bo'lib qoldi. Bu muammoning ahamiyati shundaki, mustaqillikkacha, chorakam bir asr davomida, fuqorolarimiz yagona hukmron mafkura tazyiqida tarbiyalanib, loqaydlik, qaramlik, mutelik va norasolik ruhimning ta'sirida o'sganlar. Bu narsa hozirgi hayotimizda har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu boisdan O'zbekistonning kelajagi, uning istiqboli, birinchi navbatda, yoshlarni tarbiyalash, sog'lom qilib o'stirish, ularning ongini o'tmish ta'siridan ozod ravishda shakllantirish mustaqil davlatimizning dolzarb vazifalaridandir.

Davlat timsollari, xususan madhiya- jamiyat a'zolaning, ijtimoiy guruhlar siyosiy partiya, jamoat tashkilotlari, millatlar va elatlar, yoshlar ommaviy harakatlari, diniy uyushmalari, xotin-qizlar, faxriylar, tadbirkorlar va boshqa ijtimoiy sub'ektlarning umumiy manfaat muddaolarini o'ziga aks ettiruvchi mujassamlashtiruvchi, ularning hatti- harakatlari, faoliyatini, fikr- zikrini yagona bir maqsadga- mustaqillikka erishish hamda uni mustaxkamlashtirishga yonaltiruvchi g'oyalarni o'z

O'xshash qilib, o'quvchilarni milliy madhiyamiz, davlat ramzlari ruhida g'oyaviy tarbiyalashda maxsus metodikadan foydalanish ijobiy samaralar keltiradi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarga huquqiy tarbiya berish ham ularning xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga zamin yaratadi

**Tarbiya jarayonida o'rta va katta pog'ona(konsentrdagi o'quvchilarning xulq-atvorini korreksiyalash yo'llari.** Tarbiya jarayonida jamiyat tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar, qoidalar va me'yorlardan chekingan o'smirlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash ular to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lishni talab qiladi.

Deviant xulqli o'smir va o'spirinlarning paydo bo'lishi bu hodisaning ob'ektiv va tarixiy vujudga kelishi jamiyatimiz oldida, ijtimoiy harakat va ta'lim-tarbiya muassasalari oldiga ulkan vazifani- dezadaptatsiyalaShgan(xulq normalaridan chetlaShgan) yoshlar bilan ishlashda tarbiyaviy Shakl, metod, texnologiyalami to'g'ri tanlashm, tarbiyaviy ta'sir kuchini jamlaShni taqozo etadi. Bu sa'y-harakatlar balog'atgayetmaganlarning reabilitatsiyasiga va Shu bilan birga, ularning axloqlarini profilaktikasiga qaraulishi zarur.

**Deviant xatti-harakat-bu** psixik sog'lom Shaxslar tomonidan me'yoriy qoidalarni buzish holatlaridir.

**Deviatsiya-bu** ijtimoiy pedagogik muammo bo'lib, inson ruhiy olamidagi, uning atrofidagi muhitning o'zgarish hollari bilan bog'liq. Bu hol, ayniqsa, o'smir yoshidagi bolalarga xosdir. Chunki bu yosh eng qiyin va murakkab davr bo'lib, bu yoshdagi bolalarning anatomo-fiziologik, intellektual, axloqiy va boshqa jihatlarida o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar o'z navbatida ularning psixikasida o'zgarishlar ro'y berishiga zamin yaratadi. Ularning ijtimoiy statusida, jamoada o'zini tutishida o'zgarishlar ro'y berib, ularni ko'proq «Men kimman?»-degan savol qiyinaydi.

Jamiyatda o'atilgan me'yor va qoidalarga rioya qilmaydigan O'xshash tarbiyasi og'ir o'smirlarni ilmda deviatsiya deb atashadi.

Deviatsiya o'z ichiga deviant, delinkvent va kriminal hatti-harakatlarni birlashtiradi.

**Deviant hatti-harakat-** bu kichik ijtimoiy munosabatlar (oilalar, maktab) hamda xarakter, jinsiy va yosh xususiyatlari jihatidan yaqin kichik ijtimoiy guruhlarga xos ijtimoiy me'yordan, hatti-harakatlar va qoidalardan og'ish, chekishning bir turidir. Ya'ni bu turdagi harakatni intizomsizlik deb ham atash mumkin. Agressiya, chaqiriq ishda va mehnat faoliyatida o'z boshimchalikka yo' 1 qo'yish, bolalar va o'smirlarning ichkilikka berilishi, daydib yurishlari, oliftachilik qilishlari, assotsial harakatlarga berilish kabilar deviant harakatlarning asosiy ko'rinishlaridir. Ma'lum vazivatlarda bolalar va o'smirlarning Shu kabi hatti-harakatlarni namoyon etishi deviant harakatlarning tipik xususitidir.

Delinkvent hatti-harakat-deviant harakatlardan farqli ularoq, ular vaziyat ta'sinda emas, balki yuqoridagi kabi assotsial harakatlarning doimiy xarakterga ega bo'lishidir. Delinkvent harakatlarning quyidagi turlari mavjud:

- Haqoratlash, xorlash, azoblash va undan huzurlanish kabi agressiv bosqinchilik harakatlari,
- Kichik o'g'irliklar, ta'magariqlik, avtotransport va boshqada kerakli buyum va anjomlarni o'g'irlash kabi moddiy foyda ko'rishga qaratilgan o'z shaxsiy manfaati yo'lidagi harakatlari;
- Narkotiklar sotish va tarqatish.

Kriminallik hatti-harakat-bu jinoyit javobgarlikka tortilishga yoshi yetgan Shaxslarning huquqlarga zid harakatlari bo'lib, ular ustidan jinoyit ish qo'zg'atilish jarayonidir. Kriminal harakatlarga deviant va delinkvent harakatlari asos yaratadi.

Yoshlarning assotsial xulqi va g'ayriqonuniy harakatlari salmog'i kamayishiga muammaning holati davlat organlari, hokimiyatlar, jamoat tashkilotlari, uzluksiz ta'lim tizimi tuzilmalarining diqqat markazida turishi kerak. Shu sababli mazkur masala pedagogikaning eng murakkab va ko'pqirrali muammolaridan hisoblanadi.

Shu sababli bugungi kunda yoshlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashda ikki xil texnologik yondoshuvdan foydalanish zarur:

- profilaktik;
- reabilitatsion

Profilaktika- balog' atga yetmaganlarning xulqidagi ijtimoiy og'ish holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni oldini olishga, ularni bartaraf etishga, asosiy sabab va shartlarni neytrallaishga qaratilgan davlat, jamoat, mahalla, oilaviy, ijtimoiy-tibbiy, tashkiliy-tarbiyaviy tadbirlarning majmuasi.

Profilaktik tadbirlar deganda ijtimoiy pedagogikada ilmiy asoslangan va o'z vaqtida amalga oshiriladigan hatti-harakatlar tushuniladi. Ular quyidagilarga qaratiladi:

-ijtimoiy risk guruhiga kiruvchi bolalarning jismoniy, ruhiy, sotsiomadaniy vaziyatlarining oldini olishga qaratiladi;



-bolaning normal hayotini himoyalash va salomatligini mustahkamlash;

-bolaning ijtimoiy maqsadlarga erishuvi yo'lidagi sa'y-harakatlariga yordam berish, uning ichki salohiy qudratini yuksaltirish;

«Profilaktika» atamasining o'zi salbiy holatning oldini olishga qaratilishi bilan uyg'unlashadi.

Ijtimoiy og'ish turli sabablarga ko'ra vujudga kelishini inobatga oladigan bo'lsak, profilaktik tadbir o'tkazish bir necha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. NeytrallaShtiruvchi;

2. MuvofiqlaShtiruvchi;

3. Ijtimoiy og'ish oldini oluvchi, salbiy holatlarning vujudga kelishiga to'liq qinlik qiluvchi tadbirlar;

4. Salbiy vaziyatlarni bartaraf qiluvchi tadbirlar;

5. O'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni va ularning natijalarini nazoratga oluvchi tadbirlar;

Profilaktik tadbirlarning samaradorligi quyidagilarga e'tibor berilganda yuqori bo'lishi ko'zda tutiladi:

-Boladagi, ijtimoiy muhitdagi diskomfort hissiyotlarini bartaraf qilishga qaratilgan tadbirlar va ularning balog'atga yetmaganlar tomonidan vujudga kelgan muammo yechimini topishga bo'lgan qiziqishini, motivatsiyani tajribani shakllantirish;

-Bolaning sog'iigini, ma'naviy qiyofasini mustahkamlaydigan maqsadlarga qaratilgan yangi ko'nikmalarga o'rgata borish;

-Hali paydo bo'lmagan muammolarning yechimini topishga o'rgatish, ularning paydo bo'lishigayo'l quymaslik malakalarini shakllantirish;

Profilaktik texnologiyalarga asoslanib tuzilgan tarbiyaviy ishlar rejalarida avvalambor, o'spirinlar bilan ishlashda *axborot yo'nalishiga*. alohida e'tiborni qaratish kerak. Bu yo'nalish mohiyatiga ko'ra balog'atga yetmaganlar ijtimoiy xulq normalaridan og'ishiga sabab: ularning muhim axborotdan chetlashtirilganligi sabab bo'ladi. Demak, bu yo'nalish bo'yicha ish olib borilganda, balog'atga yetmaganlarga ularning haq-huquqlari, mas'uliyatlari, jamiyat va davlat oldidagi ijtimoiy burchlari

va vazifalari to'g'risida axborot besh lozim bo'ladi. Buni ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televizor), kino, teatr, badiiy adabiyot, Internet hamda ijtimoiy ta'lim tizimi orqali amalga oshirib, o'smir va o'spirinlarning huquqiy ongini shakllantirish, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kamol toptirish mumkin bo'ladi.

Ijtimoiy-profilaktik yonalishga asoslangan tadbirlar maqsadi salbiy holatlarning oldini olishga, ularning vujudga kelishini bartaraf qilishga qaratiladi. Mazkur yo'nalishning mohiyati davlat, jamiyat, muayyan ijtimoiy pedagogik muassasa tomonidan o'tkaziladigan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy, huquqiy, tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan tadbirlar tizimi bo'lib, ular deviant xulqning paydo bo'lishiga to'sqinlik qilishga, uni minimizatsiyalashga (past darajadagi ko'inishga kelishga), bartaraf qilishga qaratiladi. Maqsadli axborotning yo'qligi sababli, masalan, g'iyohvand moddalarni nafaqat tarqatish, balki ularni iste'mol qilish ham jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lgan yoshlar ko'p hollarda O'xshash jinoyatga qo'l o'rishlari aniqlandi.

Deviant xulq bilan profilaktik ishlarni o'tkazishda asosiy yo'nalishlardan yana *biom tibbiy-biologik yo'nalish* hisoblanadi. Bu yo'nalishning mohiyati maqsadli tibbiy-profilaktik xarakterga ega bo'lgan chora-tadbirlar orqali ruhiy anomaliyalarni, biologik sathda patologiyalarga duch bo'lganlarning ijtimoiy normalardan og'irishining oldini olishga qaratilgan.

Ma'lumki, ruhiy sog'lom o'smirlar, o'spirinlar o'zining irodaviy kuchi va ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini tufayli turli jinoiy hatti-harakatlardan o'zini tiya oladi. Ammo ruhiy patologiyalarga duch bo'lganlar mavjud bo'lgan ma'naviy-axloqiy, huquqiy normalarga zid ish qila olishi qiyin bo'lmaydi. Sub'ektning bu holati «o'z faoliyatiga javob bera olmaslik» (nevmenyayemost) deb qaraladi. Shu sababli, o'smir va o'spirinlarning ruhiyatidagi patologiyalarini vaqtda aniqlay olish o'ta zarur deb hisoblanadi. O'smirlarni o'z vaqtida psixoterapevt ko'rigidan o'tishi lozim bo'lib, uning tibbiy yordam ko'rsatilishi shart.

Keyingi yo'nalish - *ijtimoiy-pedagogik yo'nalish* bo'lib, uning mohiyati: ichki irodaviy xislatlarga tayangan holda shaxs sifatlarini qayta tiklash yoki

fcorreksiyalashni nazarda tutadi. Akademik I. P. Pavlov fikricha, «. . . ongli, fikr-mulohazali inson- o'z hohish-istaklanni jilovlay oiadigan, o'z hatti-harakatlarini ma'naviy-ma'rifiy maqsadga yo naltirgan, qonunga xilof ish qilmaydigan fuqaro hisoblanadi»( ). Shu fikrdan kelib chiqqan holda, o'sib kelayotgan o'smir va o'spirinlardaquyidagi irodaviy hislatlami Shakllantirish lozim:

- o'z so'zining va qilayotgan ishining egasi bo'lishga o'rgatish;
- jamiyatga, tevarak-atrofdagi insonlarga ziyon keltiruvchi hatti-harakatlardan o'zini tiya olishga o'rgatish. Buning uchun salbiy tasnifga ega bo'lgan motivlardan saqlanish, ulami jilovlaSh;
- hozirgi paytdagi faoliyatda asosiy va muhim narsalar(o'qish, sport bilan shug'ullanish, ishlash va h k larjga diqqatni qarata olish ko'nikmasini shakllantirish;
- qonunga xilof bo'lmagan tizimli va rejali maqsadni o'z oldiga qo'ya olishni o'rgatish. Bunda ikkinchi darajali vayo'l-yo'lakay paydo bo'luvchi istaklami asosiy maqsadga bo'ysundira olish ko'nikmalarini shakllantirish;

Iroda hamisha maqsadli va ongli regulyatsiya qila oladigan faoliyatda namoyon bo'ladi. Irodasiz, kuchsiz xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'p hollarda o'zгалar hohish-istagini bajaruvchilariga aylanib qolishadi. Shu sababli ular turli nojo'ya qiliqlar qilishga moyil bo'ladilar. Ularda irodalilik, sabr, matonat kabi xislatlami Shakllantirish kelajakda jamiyatda faol, axloqiy, ma'naviy qiyofali Shaxs Shakllanishiga sabab bo'ladi

Deviant xulqli yoshlarda iroda zaifligi, asotsial xatti-harakat qilishlariga sabab bo'ladi. Bunday salbiy xususiyatlar kelgusida ularning axloqi va xulqida o'z aksini topadi.

Yoshlarda ijobiy xislatlami shakllantirish, ularning sog'lom irodali bo'lishlari uchun tarbiyaviy tadbirlami yosh xususiyatlariga mos ravishda bir qator bosqichlarda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir (14 -rasm).

Axloqiy tushunchalami o'zlashtirish jarayoni maxsus rahbarlik qilishni talab etadi. O'quvchilaming tasodifiy hollar, kuchadagilaming bema'ni ta'sin, kattalaming yaramas hatu-harakatlari ta'sirida tarkib topadigan axloqiy tushunchalari va jamoa

tomonidan to'g'n g'oyaviy rahbarlik qilinmasa, xato, noto'g'ri, buzuq tushunchalarga aylanib qolishi mumkin

## Yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi bosqichlar

CH(j)aT.lap MOXMMTHHHHr raBCHIflH

I bosqich

Vvjutra raHmcDdt eHjjaxitjnn XHejnraapHHM mzuul.wnwpoeen

II bosqich

III bosqich

TapoMMam,	yxuxHnarn	HyxccHnapHHM	ajropiafl	onjnn	aa	yrapmt
KoppeKnumam						

IVbosqich

aa MortmjjapHH ysMHM frui Hx>o6sil rapnw Tiramra Kaparann

Vbosqich

l4)Ko6Hfi ojny-HcruKJiapHWHr yinajjHUiHra MSKCIMBHH eHjjaiDnni

### 17- rasm **Yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi bosqichlar**

Ba'zan o'quvchi turmushdagi biror fakt yoki voqeani, adabiy asarlardagi mazmunni, kinokartinalarni o'zi mustaqil tushuna olmay noto'g'n xulosalarga kelib qoladi. Juda og'ir sharoitlarda o'quvchida xato fikrlargina emas, balki ma'naviy tamoyillar va ustanovkalar ruhiga ko'ra bizgayot bo'lgan xatolar ham yuzaga kelishi mo'mkin.

Ko'pchilik noto'g'ri hatti-harakatlamning yuz berishiga ana shular sabab bo'ladi.

Axloqiy ongning tarkib toptirishning eng muhim yo'li o'quvchilarning o'zlarida to'g'ri xulq-atvomi yuzaga keltirish bilan axloqiy tajnbani boyitish va umumlashtirish yo'lidir, albatta O'quvchilardagi axloqiy bilimning turli-tuman formalari ularning ongi va his-tuyg'ulariga jonli, yorqin, otashin so'zning (jamoalarda uyuShtinladigan etik suhbatlar, leksiyalar, munozaralar) ta'siri bu ishm mazmunan boyitishi mumkin.

Axloqqa doir suhbatlar qo'yidagi tamoyillar asosida tuzilishi kerak:

1. Axloqiy mavzudagi suhbatlar mazmuni jihatidan tegishli yoshdagilarga tushunarli bo'lishi lozim. Mavhum va abstrakt tushunchalar, murakkab mulohazalar bilan toliqtirib quyishgayul qo'yib bo'lmaydi.
2. Suhbat o'tkaziladigan jamoani, uning yo'nalishini bu jamoa a'zolarining o'zaro jnunosabatlarini, o'qituvchiga, o'qishga va boshqalarga munosabatini yaxshi bilish zarur.
3. Suhbatlami nihoyatda tez-tez o'tkazib turmaslik kerak, chunki psixologik nuqtai nazardan ular kishini toliqtirib quyishi mumkin. Agar suhbatlar konkret sabablar bilan mamlakat yoki jamoa hayotidagi biror voqeaga moslab o'tkazilsa, samarali natija beradi.
- 4 Suhbatni yorqin, yaxshilab tanlab olingan konkret misollar, hayotiy vokealar yoki adabiy asarlardagi faktlami hamda kuzatishlami tahlil qilishdan boshlab umumlashtirish hamda xulosalar chiqarishga o'tish tavsiya etiladi.
5. Emotsional tarzda keltirilgan yorqin va ta'sirchan obrazga oqilona tayanish (nafis san'atdan, adabiyot asarlaridan foydalanish. Kinofilmlar yoki teatr asarlariga kollektiv bo'lib borish yohud ulami jamoada muhokama qilish) zarur.
6. O'quvchilaming ongiga singdiriladigan qoidalami asoslab berilishi, isbotlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu hamma narsani tushunib olishga va buning oqibatida dalil qabul qilishga, uning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga oqilona isbotlarga rozi bo'lishga qodir bo'lgan o'smirlar va o spirinlar bilan suhbat o'tkazish paytida juda muhimdir. Boshqa tomondan, bu yoshda so'z ta'sirining samaradorligi pasayib ketishi mumkin, chunki yoshlarda rivojlanib boradigan tanqidiy tendensiyalar ko'pincha uni kattalaming dalillariga ehtiyotkorlik bilan ishonmasdan va noto'g'ri tushunib qabul etishga, ularning dalillarini rad qilishga, biror qoida bilan kelishmaslikka, kattalaming iltimoslari va talabalariga qarshi chiqishga majbur etishi mumkin. yana shuni inobatga olish lozimki, o'smirlar ko'pincha kattalaming o'ziga aql-idroKli kishi deb murojaat qilishlaridan mag'rurlanib

yuradi. Unda bu ishonchni oqlash, ana O'xshash munosabatga munosib kishi bo'lish istagi yuzaga keladi.

7. O'smirlarda maksimal darajada faollik, jonli ravishda fikr almashish istagini uyg'otish, uaming fikrini avj oldirish va o'zlarini axloq masalalari ustida o'ylab ko'rishga majbur qilish zarur. O'smirlarga tayyor haqiqatni zo'r qabul qildirish yaramaydi, axloq normalari xaqidagi xulosalarni ulaming faol ishtirokida (ammo o'qituvchining rahbarligida) chiqartirish kerak. Buning uchun suhbat jarayonida muhokama qilish kerak bo'lgan masalalarni oldindan tayyorlab qo'yish tavsiya etiladi.
8. O'smirlarda chuqur va ta'sirchan emotsiyalarni uyg'otishga intilish lozim. Bunda o'qituvchi suhbatni befarq va Shavq-zavqsiz emas, balki emotsional tarzda jonli kilib o'tkazgandagina erishish mumkin. O'qituvchi o'zining ehtirosli e'tiqodi o'smirlarga utishini unutmasligi darkor. O'smirlarning o'zlari his etadigan to'yg'ularni taxminan qo'yidagi formada anglab olishlariga erishish juda muhimdir: "Nima uchun bu hodisa menda Shunchalik g'azab va nafrat uyg'otadi?", "Nima uchun men bu xatti-harakatlardan Shunchalik hayratlandim?"

Tarbiyachilarning shaxsiy namunasi o'smir shaxsini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi ko'pincha o'qituvchiga taqlid qilib, unga o'xshashga harakat qiladi, lekin birinchidan, buni ko'pincha tushunib yetmasdan qiladi, ikkinchidan o'qituvchining tashqi ko'rinishiga va qiliqlariga taqlid qiladi, chunki u Shaxsning namoyon bo'lishini tahlil qilishini va Shaxsni barqaror hislatlarini anglab yetishga qodir emas. O'smir va o'spirin yoshidagilar esa ko'p hollarda namunaga ongli ravishda taqlid qiladilar. O'smir o'zini katta deb hisoblay boshlagandan e'tiboran kattalarning hatti-harakatlari va ishlariga taqlid qilishga intiladi. Shuning uchun unda tevarak-atrofdagi kishilarning, ayniqsa o'ziga eng yaqin va o'zi uchun eng obro'li kishilarning hatti-harakatiga qiziqish hamda e'tibor berish yuzaga keladi. O'qituvchi qanchalik obro'li bo'lsa, uning e'tiqodi, bilimlari, fikrlari, didi o'quvchilarga Shunchalik ko'p ta'sir qiladigan bo'ladi. O'smir kattalarning biror hislatlariga taqlid qilayotib, ko'pincha bu hislatlarni Shunchalik ilib

oiish bilan birga, ulaming salbiy hislatlari va hatti -harakatlarini ham o'ziga singdirib oladi. Agar o'qituvchi muayyan maqsadni ko'zlaydigan va prinsipial matonatli, o'z burchini qat'iyat bilan bajaradigan bo'lsa, xuddi Shu narsalami o'z tarbiyalanuvchisidan ham talab qilish unga oson bo'ladi. Aksincha, o'quvchining tajangligi, qo'polligi, o'zini qo'lga ola olmasligi, manmanligi o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilar va ota-onalar ba'zan tarbiyaviy ishlarda o'zlarining shaxsan namuna ko'rsatishlarining ta'sirigayetarlicha baho bermaydilar. Holbuki, ulaming qilayotgan ishlan, o'zlanmg qanday tutishlari ulaming aytgan gaplariga, o'rgatgan narsalariga qaraganda kamroq emas, balki ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi.

XX asrning 20-30 yillaridayoq A. S. Makarenko Shaxs tarbiyasini pedagogik texnologiyalar tizimida o'ta dolzarb muammo, deb qaragan. Pedagogika fanining rivojlanishi «Shaxsni loyihalashni qay darajada bajarganligi bilan o'lchanadi», ya'ni tarbiya jarayonida tarbiyachi Shaxsni Shakllantirar ekan, pedagogika oldindan yangi avlod kishisini-barkamol insonni voyaga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak,- degan fikmi ilgari surgan. Demak, pedagogik texnologiyalarga tayanilgan holda jamiyatga zarur bo'lgan komil inson Shaxsini tarkib toptirish ,ko'p jihatdan tarbiyaviy maqsad hamda vazifalar tizimini ishlab chiqishni, tarbiyaviy metodlami to'g'ri tanlshni, tarbiyaviy maqsadlami nazorat qilishni, tarbiyaviy maqsadlarga erishilganlikni baholashni taqozo etadi. Ko'rib turganimizdek, pedagogik texnologiya ikkita turli soha: texnik fanlarda-ta'lim tizimini mukammallashtirish uchun zarur bo'lgan o kuv vositalari bilan ta'minlashni nazarda tutsa, gumanitar sohada, ya'ni pedagogikada ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlami oldindan oydinlaShtirishni taqozo etadi. Abdulla Avloniy fikricha, «...tarbiyalash o'xshash individual tahririy dastur bilan olib bonlishi kerakki, u shaxs sifatlarini tarkib toptirishda jamiyat talablaridan birmuncha ilgarilab ketgan bo'lishi zarur»<sup>1 2</sup>

To'g'ri hatti-harakatlarda amaliy tajribani uyuShtirish yuqorida ta'kidlab o'tilgandek Shaxsni tarbiyalashda muhim va asosiy omildir. Tarbiyachi o'quvchilarda hatti-harakatlaming O'xshash Shakl va metodlarini tarkib topdirmog'i kerakki, bu Shakl

<sup>1</sup> Макаренко А. С. нејароМНССКHe нпоOneMbi нoлpacTaJomero нoKo,ieHHJi,-M..1999, 57c.

<sup>2</sup> АВЛОНМС АGAGjuia. TypKHfi рjiHCTOH exy аxjiоK -TomKCHT^YKHTyBqM, 1994 -141-ocT.

va metodlarda tarbiyaning hal qiluvchi ta'sin ostida yuzaga keladigan yoshlarning e'tiqodlari amalga oshsin. Hatti -harakatlarning aytib o'tilgan Shakllari motivlami, tarbiyalanuvchining ehtiyoj va munosabatlarini "moddiyLaShtirish" ifodasi, vositasi, Shakliga aylanib qolgandagina barqaror omil bolib mustahkamlanadi. A S Makarenko xuddi ana Shu ma'noda xulq- atvor gimnastikasi to'g'ri hatti -harakatlarni mashq qilishni uyuShtirish zarurligi to'g'risida gapirgan edi.

Axloqiy xatti- harakatlarni mashq qilish-bu turli variantlardagi hatti -harakatlarni aslida bir- biriga o'xshash vaziyatlarda uyuShgan va muayyan maqsadmi ko'zlangan holda takrorlaShdir. Faqat anaO'xshash qilingandagina hatti -harakatlarning barqaror va ayni vaqtda umumlashgan formalan tarkib topadi. Sun'iy mashqlar emas, balki o'quvchi hayoti va faoliyatini tabiiy Sharoitlari nazardatutiladi.

O'smirlilik yoshidan boshlab, tarbiyaning yangi omili o'z- o'zini tarbiyalash vujudga keladi. O'quvchilar o'zlaridan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan Shaxs hislatlarini tarkib toptirish sohasida xulq-atvoridagi kamchiliklarga salbiy hislat va sifatlariga barham berish sohasida ongh ravishda yondashmalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'z ustida muntazam ravishda ishlash «. . . odamning yuksak darajada o'z - o'zini idora qiluvchi, o'z-o'zini kamol toptiruvchi birdan bir tizimdir»- degan edi L.I. Bojovich Demak, agar o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan intilishni kattalar, jamoa yetarli darajada tashxislab, boshqarib va tashkil qilib turmasalar unda o'quvchi o'z-o'zini tarbiyalash mazmunida (mmani tarbiyalashda) hamda uning Shaklida (qanday tarbiyalashda) jiddiy xatolargayo'l qo'yishi mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimida xizmat qilayotgan o'qituvchi, tarbiyachi tashxislash jarayonida quyidagi vazifalarni nazarda tutishi kerak:

*birinchidan.* - o'quvchida shaxsning ijobiy hislatlarini taraqqiy ettirib, o'z xulq-atvoridagi yomon tomonlaridan xalos bo'lishga intilish istagini uyg'otish.

*ikkinchidan.* - o'smir shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishda, o'z xulq-atvoridagi xususiyatlarni diqqat bilan va odilona tushunib olishda, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab olishda yordamlaShish.



*uchinchidan* - o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzishda, Shaxs xulq-atvori hislatlarining qaysi xususiyatlarini (masalan, o'zini qo'lda tuta olish, qat'iylik, empatiya, sovuqqonlik ( yaxshi ma'noda) va Shuning singarilami) taraqqiy ettirish, qaysilarga (masalan, o'jarlik, yalqovlik, qo'pollikka) barham berish kerakligini belgilab, hamda hal qilib olishda o'quvchi-yoshlarga yordam beradilar. Xuddi Shu yerda Shaxs sifatlarini to'g'ri va ob'ektiv baholashda, hulq-atvordagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini mohiyatan baholashda ham oquvchilarga ko'maklashish muhimdir.

Nihoyat, *to'rtinchidan* - o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini ko'rsatib beradilar, Shaxsning ijobiy hislatlarini tarkib toptirish va kamchiliklariga barham berishga oid eng maqsadga muvofiq va samarali yo'llarni ko'rsatadilar.

O'qituvchilik- inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, Shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir.

"O'qituvchi-deydi Al Forobiy, - aql- farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur". U o'z fikrini davom ettirib: "O'qituvchi va rahbaming vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, Shu sababli o'qituvchi e'hitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, yoshlarga aytmoqchi fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or -nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana Shundagina u insonlikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi"<sup>1</sup>, deb ta'kidlaydi. Abu Ali Ibn Sinoning fikricha "O'qituvchi matonatli sof vijdonli, rostgo'y, bolani tarbiyalash yo'llarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. Muallim o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kirolmog'i lozim".<sup>12</sup>

Nasriddin Tusiy o'zining "O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida O'xshash deydi: "O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan"<sup>12</sup>

<sup>1</sup> Абу Наср Орофу В кн. АнаееФу В.С. ВостоннеМ МбеееНТееН.-М.,1989,123с.

<sup>2</sup> Абу аееН ннн Чнно . .Ну«НнНОМа .-АуефУеСе, 1974, 68-6.

darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim. O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharhandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishini buzishi mumkin", <sup>1</sup>

Yusuf Hojib Qoshg'ariy: "Men a'zolar kasalligini davolashdan oldin odamlarning ruxiyatini davolash zarur deb topdim. Bunga men o'qituvchilik yo'li bilan erishaman, bunga mening shonchim komil. Chunki a'zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo'lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o'n ming va yuz minglarcha odamlar halok bo'ladi", <sup>2</sup>,- deb ta'kidlashgan bejiz.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy ham o'qituvchining yoshlarga ta'sir o'tkazish mehnatini xolisona baholab: "Agar Shogird nodonlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi", "Xalq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila" <sup>3</sup> - kabi satrlar bitgan.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi kator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi - sinfdagi o'quv jarayonining tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va Shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy pedagog-psixolog bo'lmayligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga solish, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Ma'lumki, pedagogik faoliyat - kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomondan quyiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining Shaxsi va uning kasbiga bog'liq hislatlarga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim Shaxsiy hislatlari quyidagilardir:

<sup>1</sup> УТ6СКХСТОП МНУИИВ ЗНУНКJionejiHgcH.-T.,2002, 456-6.

<sup>2</sup> Vma atoit., 349- 6

<sup>3</sup> AnHmep HaBoHfl TanMHniH acapiiap TymiMH -T/SSficK aaaOHfTH sa caHbaTH, 1996,2-KHUU, 148-6

- o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalami sevishi, ulami insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatning mustaqilligi g'oyasidayashashidan iboratdir;
- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;
- oliyanobligi, aql-farosatli, ma'naviy pok - ma'naviyat va ma'rifat buyicha yuksak maqsidlarga mos kelishi, hislatlami jamiyat hohishi bo'yicha bolalarga singdirib borishi;
- o'zini qo'lga olib bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatligidir.

Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talabarlari quyidagichadir:

- Shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi, bolalami mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z Vatani tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati:
- keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi,
- yoshlar pedagogikasi, psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fizologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'z dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- bolalami bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi, empatiya his-to'g'ulariga ega bo'lishi;
- pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik takt (nazokat)ga ega bo'lishi;
- o'qituvchining o'z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana Shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishiga intilishi kerak.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qoyiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kuzatishlar, pedagogikning individualligi, uning Shu tariqa talablarga javob berishga

sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar quyilishini bilishi va Shu asnoda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogik oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasi ishlab chiqilishi zarurdir. Professiogramma psixologik nuqtai nazardan ishlab chiqarish faoliyati xarakteristikasining (anik birorta kasb bo'yicha) kelgusi amaliy ishlar uchun zarur bo'lgan mazmundagi barcha tomonlarini o'z ichiga olishi kerakligi ustida boradi.

Professiogrammada muhim hislatlarning borgan sari bir muncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining qo'yidagi hislatlari ko'rsatib borilishi lozim:

- 1) O'qituvchining shaxsiy xislatlari:
- 2) Kasbga xos bilimi:
- 3) O'z kasbga xos xislatlari:
- 4) Shaxsiy-pedagogik uddaburonligi:
- 5) Tashkilotchilik malakalari:
- 6) Kommunikativ malakalari:
- 7) Gnostik malakalari:
- 8) Ijodiy hislatlari:

Professiogrammani kasbga hos ravishda tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati Shaxsning qanday qobihyat va Shaxsiy hislatlarini o'stirishda yordam berganligi inobatga olinadi.

Ma'lumki, qobiliyat- bu kishining biror faoliyatiga yaroqliligi va Shu faktorni muvaffaqiyatli amalga oshirishidir.


«Pedagogik qobiliyat- bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va Shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli Shug'ullana olishini aniqlab beradi»\*.

<sup>1</sup> ЕЧНОВ Н. ПаТМумнсНiu no noBu^y nejjarorHqcKKoro MacreperBa -M.: Hporpecc, 2009, 167-6.

Reabilitatsion xizmatni boshqarish modeli va uni amalga oshirish mexanizmi hududdagi ijtimoiy madaniy vaziyatlarning ma'lum modelini yaratish imkonini beradi. Bu model bola va o'smirlarning:

Umumorganizmni reabilitatsiya qilish (tibbiy)

1. Shaxs sifatida reabilitatsiya qilish (psixologik)
2. Ijtimoiy sub'ekt sifatida (ijtimoiy)
3. Faoliyat sub'ektiv darajasiga ko'tarishga qaratilgan reabilitatsion xizmat bo'lishi kerak. Bu qo'yidagi ko'rinishga egabo'ladi:



Xududiy reabilitatsion xizmat xodimlarining faoliyati qo'yidagi mexanizm asosida yuritilganda samarali kechadi:

- Reabilitatsion xizmat ko'rsatishda muassasalararo umumhamkorlik
- Reabilitatsion xizmat ko'rsatishni ilmiy metodik ta'minlash
- Reabilitatsion xizmatda kadrlar masalasi
- Reabilitatsiya qilish ob'ektlarini tanlash va diagnostika qilish
- Reabilitatsiya sub'ektlarining kelishuvi asosida faoliyat ko'rsatish.

*O'xshash qilib, nazariy va eksperimental tadqiqotlar Shuni ko'rsatadiki, maktabdagi ta'lim tizimida o'quvchilarning umumiy tarbiyalanganlik darajasini tashxislashga u qadar e'tibor berilmaydi*

Jamiyatimizdagi yoshlarni tarbiyalashda optimal uslub va vositalardan foydalanishimiz lozim, buning uchun esa avvalambor ularning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilishimiz kerak. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirganimizda siyqallaShib qolgan tadbirlardan voz kechishimiz Shart

*Pedagogik omillarning sotsiumga hamda har bir Shaxsga ta'sir ko'rsatishini pedagogik diagnostika va korreksiyalashda inobatga olish zarur.*

*O'quvchi-yoshlarning yosh davrlarini hisobga olgan holda o'tkazilgan pedagogik diagnostika va korreksiya ishlari ularning egallagan bilim sifatiga va kasbiy yo'naltirilishiga ijobiy ta'sir etadi.*

*Maktab tizimidagi ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy tomonlarini tahlil etish Shundan dalolat beradiki, pedagogik diagnostika va korreksiyalashga qaratilgan prinsiplar yangi adabiyotlar. XXI asr adabiyotlar majmualarini ishlab chiqish va tajribadan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.*

*Ta'lim beruvchi o'qituvchilar tomonidan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy fanlar biokiga kiruvchi darslarda didaktik vazifalar bilan bir qatorda tarbiyaviy masalalarning tugunini topishga harakat qilinganda tadqiq qilinayotgan muammo doirasida qo'yilgan vazifalar o'z yechimini topadi.*

*Maktab yoshidagi o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi tashxislangandan so'ng, ularga axloqiy, huquqiy, mehnat jismoniy va hokazo tarbiya turlari bo'yicha korreksiyalash ishlari olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.*

*Bu o'quvchilar tarbiyalanganligining tizimligini, yaxlitligini va puxtaligini ta'minlaydi.*

*Pedagogik korreksiyalash ishlarini amalga oshirganda muassasalararo umumhamkorlikka erishish lozim. Bunda pedagogik diagnostika va reabilitatsion ishlarini amalga oshiruvchi mutasaddi kadrlarni voyaga yetkazishni nazarda tutish lozim.*

### **BOBBO'YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

- Deviant xatti-harakat nima?. Delinkvent xatti-harakat-chi?
- Kriminal xatti-harakat deviant va delinkvent harakatlarga asos bo'ladi?
- «Profilaktika» mohiyatini tushuntirib bering. Profilaktik tadbirlar deganda ijtimoiy pedagogikada nimalar tushuniladi?
- Profilaktik tadbirlar asosan qanday xolatning oldini olishga qaratiladi?
- Pedagogik korreksiyalashda axloqiy tarbiya mazmuni nimalarda o'z ifodasini topadi?

### **ADABIYOTLAR:**

- H Abdullayeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar// Xalq ta'limi, 2003 ,N<sup>o</sup>3, 40-45 b.b.
12. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika.-T.: Fan,2005,256 b.
13. Abdulla Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom.-T.: Fan, 1994, 293b.
14. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi.-T: Fan, 1993, 172 b.
15. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manzil. DuShanba: «Irfon», 1980.420 b.
16. Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy. Hadis («Al-jomi' as-Sahih»). 1-jild. Tarjimon Z.Ismoilov.-T:Qomuslar bosh tahririyati, 997, 572 b.
17. Abu Iyso-at-Termiziy. Sahih Termiziy. Abdug'ani Abdulloh o'g'li tajjimasini.-T.: G afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993, 118 b.

18. Bojovich L. I. Lichnost i yego formirovaniye v yunosheskom vozraste.-M.: Vlados, 1998,219 s.
19. Komilov Najmiddin. Tasawur l-kitob.-T.: Yozuvchi, 1996.-208 b.
20. Xobson Fleyk. Razvitiye rebyonka i yego otnosheniy s okrujayuShimi.-M.: pedagogika,1990, 304 s.
21. Qo'ziyev Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalshirish-Toshkent:Universitet, 1994.-127 b.

.14. o -", —

## **SEMINAR MASHG'ULOTLAR BO'YICHA**

### **KO'RSATMA VA TAVSIYALAR:**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pedagogik diagnostika - pedagogikaning amaliy sohasi sifatida.
2. Uzlüksiz ta'lim tizimi muammolarini hal etishda pedagogik diagnostikaning roli.
3. Uzlüksiz ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik diagnostikaning imkoniyatlari.
4. Diagnostikani o'tkazishning tashkiliy-pedagogik asoslari
5. Diagnostik ma'lumotlarni tayyorlash va taqdim etish metodikasi.
6. O'quv jarayonining mavjud holatini tashxis etish metodikasi.
7. O'quvchilarning aqliy tarbiyalanganlik darajasini tashxis etish metodikasi
8. O'quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxis etish metodikasi.
9. "O'quvchilarni kasbiy yo'naltirishning diagnostik kartasi"ni tuzish metodikasi.
10. Diagnostik xulosa yozish va rasmiylashtirish metodikasi.
11. Sinf (guruh) jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarining diagnostik parametrlari.
12. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxis etish metodikasi
13. O'qituvchining diagnostik mahorati.
14. Pedagogik testlarni tuzish metodikasi.



15. Pedagogik korrektsiyaning asosiy yo'nalishlari.
16. Pedagogik korrektsiya dasturini tuzish metodikasi.
17. Pedagogik ta'sir ko'rsatish metod va vositalari.
18. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning individual va guruhli shakllari.
19. Korrektsion-pedagogik texnologiyalar.
20. Pedagogik profilaktika va uning asosiy tamoyillari.

## **MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Milliy pedagogikaning diagnostik metodlari.
2. O'quvchi shaxsini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.
3. Shaxs dinamik sohasining psixologik kontsepsiyalari.
4. Diagnostik pedagogik fikrlash.
5. Diagnostik tadbirlarni o'tkazishga qo'yiladigan tashkiliy-pedagogik talablar.
6. Diagnostik tadqiqot natijalarini taqdim etish metodikasi.
7. Pedagogik nazoratning ta'limiy funksiyalari.
8. Shaxs rivojining diagnostik Kartasi.
9. Kasbga yo'naltirishning diagnostik metodikasi.
10. Sinf (guruh) jamoasida o'quvchining ijtimoiy maqomini tashxis etish metodikasi.

## **ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va korrektsiya. - Toshkent:Fan va texnologiyalar, 2010.-278 b.
2. Tolipova J O. Pedagogik testologiya. - Toshkent:Universitet, 2015.-198 b.
3. Kashenko V.P. Pedagogicheskaya korrektsiya- Moskva:, Akademiya, 2006.-234s.

### **Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-mtizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollaniga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi// Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, N® 11
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz “O'zbekiston” 2016.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk keijagimizni mard va oliyanob halqirmz bilan birga qo'ramiz “O'zbekiston” 2017
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
5. Yuzlikayeva E.R. Diagnosticheskaya deyatelnost uchitelya v sovremennoy pedagogicheskoy teorii i praktike yego rabotw - T.: “Fan va texnologiyalar”, 2009.  
6. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O Pedagogika fanidan izohli lug'at. -T.: “Fan va texnologiyalar”, 2008.
7. Maksimov V.G. Pedagogicheskaya diagnostika v shkole. - M.: ACADEMA, 2002.

### **Elektron ta'lim resurslari:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
- 2 [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
- 5 [tdpu-INTRANET. Ped](#)

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-<sup>u</sup>oshkent: O'zbekiston, 2003, 38 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g' risida»gi Qonuni. -Toshkent, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. -Toshkent, 1997
4. “2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi”. -Toshkent, 7 yanvar 2017 yil.
5. Mirziyoev Sh M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'Tishi kerak -Toshkent: O'zbekiston, 20017.-104 bet.
6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlitini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2016.-56 bet.
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet
8. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyenti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent:o'zbekiston, 2017.-48 bet.
9. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent:O'zbekiston, 2017.
- 10.1001 savolga psixologning 1001 javobi. G .B. Shoumarov tahriri ostida-Toshkent: Mehnat, 2000,296 b .
- H Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. -Toshkent:O'qituvchi, 1994,- 178 b.
12. Abdulla Avlomy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom -Toshkent: Fan, 1994,- 293b.
13. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi.-Toshkent: Fan, 1993,- 172 b.

14. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika-Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010 - 256 b.
15. Abdullayeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar// Xalq ta'limi, 2016 ,N°3, 40-45 b.b.
16. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi.-T: Fan, 1993, 172 b.
17. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manz 1. DuShanba: «Irfon», 1980.420 b.
18. Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Buxoriy. Hadis («Al-jomi' as-Sahih»). 1-jild. Tajjimon Z. Ismoilov.-T: Qomuslar bosh tahririyati, 997, 572 b.
19. Abu Iyso-at-Termiziy. Sahih Termiziy. Abdug'ani Abdulloh o'g'li tajjimas.-T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993, 118 b.
20. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat.-T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyoti., 1992.
21. Bohnisch S. Einige philosophisch-methodologische Fragen- Berlin, 1990, r. 175.
22. Bloom B S. A taxonomy of Educational Objectives Handbook - Harvov ,1965, 83 p.
23. Bojovich L. I. Lichnost i yeyo formirovaniye v yunosheskom vozraste - Moskva: Vldos, 2009.-219 s.
24. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart: Klett ,2007.-196 p
25. Vershlovskiy S. G. Obsheye obrazovaniye vzroslykh: stimuly i motivy - Moskva: Pedagogika, 2017- 271s.
26. Voyshvillo ye. K., Degtyarev M.G. Logika,-M.: Vldos, 1998, 528s.
27. Widdel H. Fragebogen zur Attribuerung von Erfolg und Misserfolg in der Schule. Beltz, 2010- 189p.
28. Giddens Entoni. Sotsiologiya - T., «Sharq», 2002 y., 848b.
29. Denyakina L. I. Pedagogicheskaya diagnostika- dvijushaya sila pedagogicheskogo kollektiva.-Moskva: Universitet, 200, 198 s.
30. Jo'rayev R. H. va boshqalar. Pedagogika fani konsepsiyasi. -Toshkent: O'qituvchi, 2014.-232 b.

- 31 Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin,1991 - 240 p.
32. Jenks C. The Sjiology of Childhood. - London, 2005.-196 p.
33. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. -Moskva:Logos, 2(102, 284 b.
34. Zunnunov A.M.Pedagogika tarixi -Toshkent: Ma'naviyat, 2010.-308 b.
35. Xayrullayev, N. Xotamov,D. Shodiyev O rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. -Toshkent: Fan,1996.-351bet.
- 36.Ibn Sina Abu Ali. Izbranntie filosofskiyе proizvedeniya. Moskva:Naika, 1980.552b.
- 37.Ibroximov A, Sultonov X, Jo'rayev N. Vatan tuyg'isi - Toshket:O'zbekiston, 1996.-. 400 b.
- 38 Ingenkamp Karlxayns. Der pedagogichen diagnostk - Berlin:Lampress,2001, 240 p.
39. Kuzmina N. V. Put ot nrvstvennogo ponyatiya k nrvstvennomu ubejdeniyu.-M.: Znaniye, 1999,178 s.
40. Munawarov A. Q. Oilapedagogikasi -Toshkent: O'qituvchi,1994 - 201 b.
41. Nemov R. S., Olshanskiy i dr. Kak razvivayutsya i krepnut ubejdeniya v period nrvstvennoy zrelosti.-M.: Pedagogika, 1991, 403 s.
42. Piaje J. J. Rebyonok i yego razvitiye -Moskva: Znaniye, 2008,508 s.
43. Podlasfcy I. P. Pedagogika-Moskva:Vlados, 2010,- 576 s.
44. Rollet B. Anstrengungsvermeidungstest (FVT). Braunschwig: Westermann ,2009, 304p.
- 45.Sunsov N.S. Diagnostirovaniye v uchenicheskom kollektive- M., // Pedagogika, 2016 N°4,S.- 40-50.
- 46, UOT muassasalarida o'quvchilar bilim darajasini nazorat qiish to'g'risidaNizom. -Toshkent, 2015.
- 47, Frances C. Waksler. Studying the Social Worlds of Children - London. 1991.-176p.
- 48, Hartlej LStratedies from Programmed Instrukctional Technologj. London,2003, 179p.

- 49.Xobson Fleyk. Razvitiye rebyonka i yego otnosheniy s okrujayushimi - M.: pedagogika, 1990, 304 s.
- 50.Schmidt H. D. Zum Problem des Konstruktibegriffs in der empirischen Personhekeitsforschung und-diagnostik- Berlin, Psychologikl999 182r.
- 51.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-Jild.-Toshkent:Qomuslar bosh tahririyati, 2000.-568 b.
- 52 O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchilar: Hoshimov K., Ochil S - Toshkent O'zbekiston, 1999, 461 b
- 53.Quronov M. Q, Qurboniyozova Z Q. Ijtimoiy pedagogika- Toshkent:RTM,2003,- 48 b.
- 54.Qo'ziyev.Z. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalstirish. - Toshkent Universitet, 1994.-127 b.
- 55.G'aybulloh as- Salom. Ezgulikka chog'lan, odamzod- Toshkent: Sharq, 1999 -320 b
56. G oziyev E Tafakkur psixoiogiyasi -Toshkent: O qituvchi, 1990.-292 b.
- 57.Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlami tashkil qilish metodikasi -Toshkent: O'qituvchi, 1996 - 178 b.
58. [www.ziyonetuz](http://www.ziyonetuz)
- 59[www.eduuz](http://www.eduuz)
60. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
61. [www.wikipedia.ru](http://www.wikipedia.ru)

## M U N D A R I J A

<b>SO'Z BOSHI.....</b>	<b>3</b>
<b>1-BOB. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING METODOLOGIYASI</b>	
1- mavzu. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING PREDMETI VA TARIXIY RIVOJI .....	6
2- mavzu. O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA	27
3- mavzu. PEDAGOGIK VOQELIKNI DIAGNOSTIK TADOIQ ETISHNING UMUMMILLIY TAMOYILLARI VA DARAJALARI .....	33
4- mavzu. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING UMUMIY METODLARI	43
5- mavzu. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'LCHASH VA SHKALALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI .....	59
6- mavzu. UZLUKSIZ TA'LIMDA PEDAGOGIK NAZORATNI TASHKIL ETISHNINGILMIY ASOSLARI.....	74
7- mavzu. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING UMUMIY DIAGNOSTIKASI.....	90
8- mavzu. O'QUVCHILARNING AQLIY RIVOJLANISHINI DIAGNOSTIKA QILISH.....	102
9- mavzu. O'QUVCHILARNING AXLOQIY TARBIYALANGANLIK DARAJASINI TASHXIS ETISH.....	112
10- mavzu. O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA .....	125
11- mavzu. SIN (GURUH) JAMOASINING TARBIYAVIY IMKONIYATLARINI TASHXIS ETISH .....	142
12- mavzu. OILANING TARBIYAVIY IMKONIYATLARINI TASHXIS ETISH.	151
13- mavzu. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA ASOSIDA UZLUKSIZ TA'LIMDA TARBIYAVIY ISHLARNI REJALASHTIRISH .....	167
<b>2-BOB. KORREKTSION FAOLIYAT METODOLOGIYASI</b>	
14- mavzu. KORREKTSION FAOLIYATNING MAZMUN-MOHIIYATI..	176
15- mavzu. KORREKTSION FAOLIYATNING ASOSIY TAMOYILLARI	183
16- mavzu. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNING TARBIYALANGANLIK DARAJASINI TASHXISLASH VA KORREKSIYALASH ISTIQBOLLARI.....	201
17- mavzu. KORREKTSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI..	218
18- mavzu. KORREKTSION FAOLIYATNING UMUMIY PEDAGOGIK VA	

*Abdullayeva Sh. A., Ro'ziyeva D.I.*  
**PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKTSIYA**  
*magistrantlar uchun darstik*

Mazkur darslik MD-5A1109001- raqam bilan ro'yxatga ohngan (2.05.2017 yil) fan dasturi asosida tuzildi va Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'naiishlari bo'yicha O'quv-uslibiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining 2018-yil Xtfuir dagi “ 3 ’-son majlis bayonnomasi bilan chop etishga tavsiya etildi (J- sonli bayonnoma qarori)